



Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

O'ZBEKISTON TARIXI

10-SINF O'QITUVCHILARI UCHUN METODIK QO'LLANMA
(XRESTOMATIYA)

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Toshkent
Respublika ta'lim markazi
2022



Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

UO'K 94(575.1)(072)
KBK 63.3(50')
O' 16

Zamonov, A.

O'zbekiston tarixi: 10-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma (xrestomatiya) / A. Zamonov, N. Ismatova va boshqalar — Birinchi nashr. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. — 192 b.

ISBN 978-9943-8826-0-7

UO'K 94(575.1)(072)
KBK 63.3(50')

MUALLIFLAR:

A. Zamonov, N. Ismatova, Z. Zamonov, N. Qudratova

Mazkur metodik qo'llanma (xrestomatiya) umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan tarix fani o'qituvchilariga innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarda dars o'tishini yanada rivojlantirish, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berish, pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotga joriy etishda pedagog-o'qituvchilarning kasbiy malakasi va mahoratini oshirishga amaliy yordam tariqasida tayyorlandi.

Shuningdek, qo'llanma maktab o'qituvchilariga nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarini rejalashtirish, ilg'or pedagogik texnologiya elementlarini tarix darsi jarayonida qo'llashga o'rgatish, o'qituvchilarda ijodiy va tahiliy, tanqidiy fikrlash darajalarini yanada oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-8826-0-7

© «Respublika ta'lim markazi», 2022.



Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur.

Sh.M. Mirziyoyev

Hurmatli o'qituvchi! 10-sinf «O'zbekiston tarixi» darsligi asosida tayyorlangan mazkur o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma (xrestomatiya) XIX asrning ikkinchi yarmidan XXI asr boshlarigacha sodir bo'lgan voqealar asosida tuzib chiqilgan. Bu davr Vatanimiz tarixining eng murakkab va ziddiyatli yillaridir. Ota-bobolarimiz, bir tomondan, Rossiya imperiyasi zulmiga qarshi Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun qahramonona kurashdilar, ikkinchi tomondan, Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilib, katta ma'naviy va moddiy bunyodkorlik ishlari amalga oshirdilar. Shu bilan bir vaqtda, bu davrda Rossiya imperiyasi istilosi xalqimiz boshiga og'ir kulfatlar, yo'qotishlar keltirdi.

Darslik orqali o'quvchilar bu davrdagi xonliklarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va xo'jalik hayoti bilan tanishadilar. O'rta Osiyo davlatlarining ruslar bosqiniga qadar bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, ularning Rossiya tomonidan bosib olinishi, davlat boshqaruvi tizimining mustamlakachilik an'analari, jadidlar faoliyati, mustamlakachilikka qarshi ota-bobolarimizning shonli kurashlari, madaniyat yutuqlari, xalqimizning mustaqillikni qo'lga kiritish yo'lidagi sa'y-hara-

katlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

O'zbekiston tarixining suronli yillari, mustamlakachilikning jabr-zulmi, ma'rifatparvar bobolarimizning o'lmas merosi haqidagi tushunchalarni o'quvchilarga yetkazish, ularning tarixiy ongini shakllantirish bugungi kun o'qituvchisining sharaflari vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: «...Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g'alaba yoki mag'lubiyat bo'ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo'ladimi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o'tgan murakkab tarixiy yo'lining uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarur.

O'tmishdagi yutuq va g'alabalaridan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlardan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi», – degan so'zlari o'z tarixini o'rganayotgan har bir yosh o'g'il-qiz uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanib borayotgan jamiyatning o'zi tarix fanini chuqur o'rgatish yuzasidan o'qituvchilarga qator talablar qo'yimoqda.

Bugungi kunda tarix fani o'qituvchisi ta'lim olishga butun umr davom etadigan jarayon sifatida qaraydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning faqat to'g'ri javob berishlariga erishish emas, balki yaxshi savollar so'rashlariga undashdan ham iborat. Zamonaviy o'qituvchi ayni paytda o'quvchi hamdir. U o'quvchilarning ta'lim olishlariga ko'maklashuvchi va shu bilan birga o'zini ularga yaqin oladigan sinfdosh sifatida namoyon bo'lishi kerak. U yoshlarning haq-huquqlarini hurmat qilishi va tarixiy voqealar haqida so'nggi hukm chiqarish vakolatini o'quvchilarning o'zlariga bera olishi lozim. U teng huquqlilik tarafdori bo'lib, o'quvchilarning o'ziga ishonch bildiradi, shaxsiy va umumiy intizomni egallaganidan so'ng, boshqaruv va nazorat vakolatini guruhga beradi va o'zi ham bilim olishga chanqoq o'quvchi sifatida mazkur guruhga qo'shiladi. Uning maqsadi shaxsning mustaqilligini qo'llab-quvvatlaydigan muhitni ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

Mazkur qo'llanma o'qituvchiga tarix o'qitishning turli zamonaviy usullari – ma'ruza, savol-javob, davra suhbat, juftlikda va guruhlarda ishlash, har xil o'yin mashg'ulotlari asosida tashkil qilingan dars ishlanmalarini taklif etadi. Dars ishlanmalarida o'quvchilarni mustaqil ishlashga, fikrlashga o'rgatadigan, ularning ko'pchilik oldida o'z fikrini ravon ifoda etish mahoratini shakllantiradigan jihatlar e'tiborga olinadi. Ularni har tomonlama yanada boyitish sizning ijodiy mahoratingizga bog'liq, bunda fan-texnika taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan ustalik bilan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, qo'llanmada siz uchun tarixiy hujjat va manbalardan qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Ular bi-

limingizni yanada boyitib, o'tilayotgan darslarning qiziqarli va qamrovli bo'lishiga xizmat qiladi.

Qo'llanmada dars o'tilishining «Bingo» mashqi, «Aqliy hujum», «Zinama-zina», «Bumerang», «Charxpalak», «Tushunchalar tahlili», «Marra sari olg'a», «Toj», «Lug'at» va boshqa usullaridan foydalanish tavsiya etildi. Bular o'quvchilarni qisqa vaqt ichida ko'proq bilim olishga, mantiqiy fikrlashga, fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon qilishga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, xilma-xil nuqtayi nazarlardan keraklisini ajratib olishga o'rgatadi.

Metodik qo'llanmada tavsiya etilayotgan metod va shakllar qat'iy belgilangan emas. Ular o'qituvchining ijodiy faoliyatiga to'siq bo'lmasligi lozim.

Bundan tashqari, mazkur qo'llanmada o'qituvchi bilimni yanada boyitish uchun qo'shimcha materiallar ham ilova qilindi. Bugungi kunda Vatan tarixiga oid eng asosiy manbalardan iborat (o'qituvchi va iqtidorli o'quvchilar uchun) xrestomatiya yaratishga ehtiyoj sezilganligi bois, bu ishni amalga oshirishga harakat qilindi. Bunda asosiy e'tibor 10-sinflar uchun «O'zbekiston tarixi» fani bo'yicha tuzilgan dastur asosida ish olib borilib, har bir mavzuga oid asosiy manbalar guruhlarini aniqlandi. Dastlabki tajriba sifatida ushbu kunga qadar o'zbek va rus tillarida nashr qilingan manbalardan har bir mavzu bo'yicha parchalar xrestomatiyaga kiritildi. Mazkur qo'llanmaga tayangan holda ta'lim va tarbiya berishga qaratilgan ilmiy va ilmiy-uslubiy yondashish pedagog shaxsiy tajribasining kamol topishiga xizmat qilishi kerak.

Bu ishda sizga omad yor bo'lsin!



TARIX DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TARIXIY FAKTLARNI TANLASH VA ULARDAN FOYDALANISHGA BO'LGAN TALABLAR

O'zbekiston tarixini tushunish jarayoni boshqa tarix fanlari kabi faktlarni o'rganishdan boshlanadi. Tarixiy faktlarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u hayotda qaytadan tiklanmaydi, uni takroran uchratib bo'lmaydi.

Dars samaradorligini oshirishda o'qituvchilar darslikda berilgan ayrim faktlar bilan cheklanib qolmasliklari lozim. Chunki darslik, asosan, fan bo'yicha yo'naltiruvchi yoki ma'lumot beruvchi vazifani o'taydi. Biror tarixiy voqea haqidagi barcha ma'lumotlarni bitta mavzu bilan o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilar tomonidan berilishi mumkin bo'lgan savollarga tayyor bo'lishi va tarixiy voqealarning mohiyatini yaxshi tushunishi lozim.

Tarixni o'rganishda tarixiy faktlar shunchaki alohida olingan axborot sifatida o'rganilmay, balki ular orasida mavjud bo'lgan mantiqiy aloqadorliklarni ham atroflicha o'rganishni taqozo etadi. Bunday metodning qo'llanilishi tarixiy faktlarni umumlashtirish, ularni atroflicha o'zlashtirish va tizimlashtirishni talab qiladi. Tarixni o'rganish jarayonida ko'pgina tarixiy faktlarga duch kelishimiz tabiiy holdir.

Tarix o'qitish jarayonini samarali tashkil etish uchun esa ularning mazmuni va mohiyatiga qarab aniq guruhlashtirish lozim bo'ladi. Tarixiy faktlar ikki xil xarakterda bo'lishi mumkin.

Birinchi, alohida olingan voqealarni aks ettiradigan faktlar. Bu turdagi faktlar tarixda bir marotabagina sodir bo'lib, unda alohida o'zigagina xos sharoit mavjud bo'ladi, voqeada chegaralangan konkret kishilar ishtirok etadilar. U o'zining aniq makoni va zamoniga ham

ega bo'ladi. Masalan, arablar Turon hududiga kirib kelishi. Ayrim tarixchilarning fikriga ko'ra, agar arablar bostirib kirmaganlarida Turon hududida islom dinining yoyilishi ancha vaqt ortga surilgan bo'lar edi.

Ayrim metodik adabiyotlarda tarixiy faktlarni uchga bo'lish tavsiya etilganligini ham ko'ramiz:

- alohida olingan voqealar, takrorlanmaydigan hodisalar;
- ko'p marotaba takrorlanadigan hodisalar, bir-biriga o'xshash faktlar;
- zamonda, sabab va oqibatlarda, o'zaro mantiqiy aloqadorliklar bo'lib, yagona bir zanjirni tashkil etadigan jarayonlar.

Bularga, birinchidan, alohida va takrorlanmaydigan voqeaga misol sifatida Qur'oni karimning nozil bo'lishini ko'rsatish mumkin.

Ikkinchidan, yer yuzining u yoki bu mintaqasida ma'lum bir vaqt sulolalar hukmronligining o'rnatilishi va ma'lum vaqtdan keyin hokimiyat tepasidan ketishi yoki o'rnini boshqa sulola vakillari egallashini (tohiriylar, safforiylar, somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar) ko'p marotaba takrorlanadigan hodisalar sirasiga kiritish mumkin.

Uchinchi, zamonda, sabab va oqibatlarda o'zaro mantiqiy aloqadorliklar bo'lib, yagona bir zanjirni tashkil etadigan jarayonga Somoniylar davlatining tugatilishi natijasida Qoraxoniylar va G'aznaviylar mustaqil davlatlarining vujudga kelishini misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin.

Bugungi kunda axborot olami barcha sohalarni o'rab olganidek, tarixiy jarayonlarni o'rganishga ham o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Masalan, ommaviy axborot vositalarida yoki ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan biror tarixiy voqea haqidagi ma'lumot ko'pgina o'quvchilarni qamrab oladi. U yoki bu voqeaning asl sababi va mohiyatini bilmagan o'quvchi mazkur ma'lumotlarni boricha qabul qilishi mumkin. Masalan, Muqanna shaxsi va uning asl maqsadi manbalarda turlicha talqin qilinishi.

O'zbekiston tarixi darolarida tarixiy faktlarni tanlashda quyidagi talablarga rioya etish lozim. Faktlar ilmiy jihatdan atroflicha asoslangan bo'lishi kerak. Tanlangan faktlar tarixiy jarayonni tushunishda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmog'i darkor. Ular o'quvchilarni mustaqil tafakkur etishga, uning mohiyatiga baho berishga yo'naltirilgan bo'lmog'i joiz. Shu narsa muhimki, o'qituvchi dars jarayonida faktlarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixo-fiziologik rivojlanishlari va boshqa fanlardan olgan bilimlarini e'tiborga olishi zarur.

O'quvchilar tarixiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni puxta o'zlashtirishlari tarixiy faktlardan o'z o'rnida va samarali foydalanishlariga bog'liq.

Tarix darolarida moddiy va nomoddiy manbalardan foydalanish orqali tarixiy faktlarni berish mumkin. Masalan, mamlakatimizda saqlanadigan Qur'oni karimning Usmon nusxasini moddiy yodgorlik sifatida bilamiz. Ushbu kitobning ko'chirishi, mamlakatimiz hududiga kelib qolishi — bu tarixiy fakt. Shuningdek, mazkur yodgorlikni o'rganish orqali yana boshqa tarixiy faktlarga ega bo'lishimiz mumkin. Masalan, kitobdagi qon izlarining dog'i ushbu kitob haqiqatan Usmon (r.a.) tegishli ekanligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, tarixiy faktlarni rasmlar orqali ham o'rganish mumkin. O'quvchilar tarixiy faktlar o'rtasidagi

uzviy aloqadorliklarini qanchalik puxta o'zlashtirsalar, ularning mazkur faktlar asosida olgan bilimlari shunchalik tizimlashib boradi. Chunki ular har bir darsda oldingi daroslardan o'rgangan faktlardan kelib chiqadigan nazariy xulosalarga ega bo'lib boradilar. Xuddi mana shu metodik qonuniyat asosida «Darsning ta'limiy maqsadi», «Darsning tarbiyaviy maqsadi», «Darsda rivojlantirib boriladigan ta'lim» talablari tarix o'qitishning metodik-nazariy ajralmas qismi bo'ladi.

Tarixiy bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirib borish — bu tarixiy ilmiy asoslar tushunishning asosiy qurolidir.

Bilish dialektikasi shunday: u tarixiy faktlar to'g'risidagi aniq obrazlarni, ya'ni tarixiy tasavvurni yaratishdan boshlanadi. Tarix o'qituvchisi har bir darsda mana shu metodik talabni mahorat bilan qo'llamog'i kerak.

Tarixiy tasavvur hamma yoshdagi o'quvchilarda ham shakllanib borsada, ularni detallashtirish darajasi turlichadir. O'quvchilarda tarixiy tasavvurni shakllantirishda ko'rgazmali qurollar, illyustratsiyalar, sxemalar, applikatsiya, shuningdek, mavzuiy kartalarning roli beqiyosdir.

Har bir tarixiy jarayon o'zining ma'kon va zamoniga ega bo'ladi. Tarix fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri izchillik va mantiqiylikdir. Shuning uchun ham o'quvchilarda tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish hamda tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash malakalarini rivojlantirish tarix fanining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad va vazifalarning mazmunini tashkil etadi.

Fikrimizcha, Vatanimiz tarixiga aloqador bo'lgan shunday fikr-mulohazalar, turli yo'nalishda berilgan voqealar borki, biz ularni bugungi yoshlarimizga boy va betakror tarixiy faktlar asosida sharhlab bermog'imiz lozim.



O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISHNING METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI

DARS JARAYONINI TASHKIL ETISH

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchilarining pedagogik mahorati ta'lim samaradorligiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Fan o'qituvchisi o'z sohasining bilimdoni va mutaxassisi bo'lishi lozim.

Ayrim hollarda o'qituvchi o'z fanini yaxshi bilsa-da, pedagogik mahoratining yetarli darajada emasligi natijasida kutilayotgan samaraga erishib bo'lmaydi. Masalan, dars jarayonida pedagogik texnologiyalar va metodlardan uzluksiz va uzviy ravishda foydalanish, vaziyatni to'g'ri baholay olish va samarali usullarni qo'llash o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchida bilim bo'lsa-yu, uni o'quvchilarga yetkazib bera olmasa, bu uning pedagogik mahorati yetishmasligini ko'rsatadi. Aksincha, o'qituvchi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalansa-yu, ammo bilimi yetarli bo'lmasa ham ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi.

Bugungi kunda avjiga chiqqan ayrim innovatsion metodlarni qo'llash mamlakatimizning barcha hududlarida ham birdek natija beravermaydi.

Har bir dars uchun alohida va tajribadan o'tgan metodlardan foydalanish, dars jarayoni davomida zarurat yuzaga kelgan vaqtda yangi usullarni qo'llash mahorati o'qituvchining pedagogik salohiyatini belgilab beradi. O'qituvchilarning boshqa soha mutaxassislaridan farqi shundaki, ular tez o'zgaruvchan insonlar, ya'ni bolalar bilan ishlaydilar. O'smirlar, bolalarning kayfiyati tezlik bilan bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi mumkin. Ba'zida avvalgi darsda olgan yaxshi bahosi yoki

eshitgan tanbehi keyingi darsdagi kayfiyatiga bevosita ta'sir etadi. Boshqa holda esa bahor kunlarining tez isib ketishi, sinf xonasi haroratining tushib ketishi ham o'quvchining kayfiyatiga ta'sir qilishi ehtimoldan xoli emas.

Ayniqsa, dars beshinchi yoki oltinchi soatga qo'yilgan bo'lsa, o'quvchilarning birinchi soatdagi ishtiyoqi so'nib, e'tibori ancha susayishi turgan gap. Shuning uchun ham o'qituvchi dars jarayonining mohir muhandisi sifatida 45 daqiqali darsni o'z nazoratidan chiqarmasligi va vaqtdan unumli foydalanishi, ya'ni o'quvchilarga zarur bo'lgan bilimlarni berishi va ularda hayotiy ko'nikmalarning shakllanishiga erishishi kerak. Shu nuqtayi nazardan olganda dars o'qitish uslublarini tanlashda birinchi soatda qo'l kelgan metod oltinchi soatda pand berib qo'yishi mumkin. O'qituvchi tomonidan bir necha marotaba takrorlangan va o'zining samarasini bergan metodlarning jamlanmasi pedagogik texnologiyalarni tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasini anglash uchun uni alohida ko'rib chiqamiz.

Xo'sh texnologiya o'zi nima? Kundaalik hayotimizda «axborot texnologiyalari», «yangi texnologiya», «innovatsion texnologiya» kabi atamalarni ko'p uchratamiz. Yangilik, axborot yoki innovatsiyaga nisbatan ishlatiladigan «texnologiya» atamasi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Texnologiya biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar va yo'llar yig'indisi demak. Ishlov berish, ahvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyatlar va metodlar majmuasi ham texnologiyadir. Shu o'rinda barchaga tushunarli bo'lishi uchun bir misolni keltirib o'tamiz.

Mamlakatimiz hududining qaysi go'shasiga bormang, sizni o'zbekning asl taomi osh bilan siylaydilar. Osh (palov) deganda sabzi, piyoz, go'sht, guruch, yog' turli ziravorlar va suv qo'shib tayyorlanadigan ovqatni tushunamiz. E'tibor bersak, oshni tayyorlash texnologiyasi bir xil: qovuriladi, qaynatiladi va dimlanadi. Natijada «osh» taomi tayyor bo'ladi. Endi uni tayyorlash usullariga e'tibor qilsak, kimdir oshning piyozini qizartiribroq, boshqasi esa yengilgina qovuradi. Lekin qanday yondashilsa ham natijada osh pishadi. Demak, texnologiya shunday tushunchaki, uni hamma qo'llashi mumkin va olinadigan natija ham oldindan ma'lum. Metndlarni esa ana shu natijani ta'minlaydigan vosita deb tushunsak bo'ladi.

Shu o'rinda pedagogik texnologiya deganda nimalar nazarda tutilishi haqida biroz to'xtalsak.

Pedagogik texnologiya – aniq ishlab chiqilgan va ilmiy loyihalashtirilgan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik harakatlar, pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish tizimi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya fan sifatida pedagogikaning san'at, mahorat darajasidagi sohasini o'rganadi. U ta'limni rejalashtiradigan natijalariga erishish jarayoni va tafsiloti bo'lib, didaktik tizimning tarkibiy qismi sanaladi.

Pedagogik texnologiyalar ma'lum bir konsepsiyaga tayanadi, o'quv-tarbiya jarayoni va uning qismlari bilan o'zaro bog'liq bo'ladi, samaradorlik va ta'lim standartlarining bajarilishiga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ular boshqalar tomonidan takror amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi quyidagilardan iborat:

- barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish;

- jamiyatda mustaqil erkin va hur fikrli shaxsning shakllanishiga xizmat qiladi;
- o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, imoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash;
- ta'lim-tarbiya jarayoni sifat-samaradorligini oshirishdir va h.k.

Pedagogik texnologiyaning tarkibi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ma'lumotlarni avlodan-avlodga uzatish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ular tomonidan bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishiga erishish, turli metodikalarni qo'llash va takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalar insonparvarlik, demokratik, do'stona muhit, o'zaro hurmat, hamkorlik va g'amxo'rlik, qo'llab-quvvatlash tamoyiliga amal qiladi.

Har bir fanning maqsad va vazifalariga mos bo'lgan pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda asosan o'qituvchi, o'quvchi va ta'lim vositalari ishtirok etadi.

Pedagogik texnologiyalarning tarkibi:

- ehtiyojni aniqlash;
- maqsadga erishish yo'llarini aniqlash;
- ta'lim-tarbiyaning rivojlantirish.

Pedagogik texnologiya va metodika o'rtasida farq mavjud.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllari, usullari, uslubiy tizimlari xususiy metodikalar ko'rinishida hosil bo'lgan bo'lib, ular takomillashtirish jarayonida texnologiyaga o'sib o'tadi.

Metodika biror-bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari majmuasi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan



Respublika ta'lim markazi
 natijada hamkorlikda erishishlari uchun kafolatlangan texnologiyalariga bog'liq.

O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini

tashkil etishi zarur. Dars natijasiga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchining ijobiy natijaga erishishi jarayonining asosi hisoblanadi. Demak, pedagogik texnologiya oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy elementlari

Pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy elementlari	O'qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar	O'quvchi faoliyatidagi asosiy jarayon
Ko'rsatish, so'zlash, mashq bajarish	So'zlash, ko'rsatish, vazifa topshirish	tinglash
Ehtiyojni aniqlash	O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash, bartaraf etish yo'llarini izlash, yo'naltirish	ko'rish
Maqsadga erishish yo'llarini aniqlash (muammolar yechimini topish)	Do'stona muhitni tashkil etish, huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish	izlanish
Ta'lim-tarbiyani rivojlantirish	O'quvchilardagi mavjud bilimlar asosida, yangilarini shakllantirish va ijtimoiy hayotga yo'naltirish	tahlil qilish
	Rahbarlik qilish	mashq bajarish, amaliyotga tatbiq eta olish
	Nazoratni amalga oshirish	

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash bosqichlari

Bosqichlar	Amalga oshirish	Kutilayotgan natija
I bosqich	O'rganish	Esda saqlash
II bosqich	Tushuntirib berish	O'rganganlarini ayta bilish, isbotlash, himoya qila olish
III bosqich	Tatbiq etish	Qoida qonuniyatlarni amaliyot bilan bog'lay olish
IV bosqich	Tahlil qilish	Qiyoslash, taqqoslash, sababini aniqlash
V bosqich	Sintez	Axborotni qayta ishlay olish
VI bosqich	Baholay olish	Natijaga erishish

Innovatsion faoliyatning asoslari. Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion – (ingliz.) – yangilikni kiritish (tarqatish).

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy hisoblanib, pedagogik fanda – xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik – bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

Innovatsiya – bu ta'limning ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon.

Innovatsion jarayonlar, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyatning eng muhim masalalardan biri – o'qituvchi shaxsi – novator, ijodkor, o'z bilimlari va malakasini muntazam oshirib boruvchi, ma'naviy yetuk, umuminsoniy va milliy madaniyatga ega, izlanuvchan bo'lishi lozim.

Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiyalik qismlardan tashkil topadi. Innovatsion jarayonlar rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni kechishining to'rtta asosiy qonuniyati farqlanadi.

Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni. Bunda pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi tasavvurlar buziladi, pedagogik ong buziladi, pedagogik yangilik baholanadi.

Nihoyat amalga oshirish qonuni. Nihoyat amalga oshirish qonuni yangilikning hayotiyliigi bo'lib, erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Komillashtirish pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanish va qaytish qonuni.

Pedagogik innovatsiyaning davriyligi va qaytishi qonuni bo'yicha yangilik, yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim shartlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bu faoliyat ishtirokchilarning ijtimoiy faolliklarini rivojlantiradi. Ya'ni an'anaviy ta'limda o'quvchilarda ma'lum bilimlarni hosil qilingan bo'lsa, innovatsion faoliyat natijasiga ko'ra ular olgan bilimlariga tayangan holda yangi bilimlarni hosil qilishlari, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Shuningdek, tayyor ish joylarida mehnat qilishga emas, balki ish o'rinlarini yaratish bo'yicha ham ko'nikmalarni shakllantiradi.

Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Aynan shu jarayon o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu jarayonni tashkil etishda zamonaviy o'qitish usullari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'zni va roli benihoya kattadir. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Ijobiy natijaga erishish uchun o'qituvchi dars jarayonini avvaldan loyihalashtirib olishi kerak. Bunda o'qituvchi dars re-



Respublika ta'lim markazi

Reja o'qituvchining xususiyatidan, uning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda shakllantiradi. Dars rejasini shakllantirish uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, samarali metodlardan foydalanishni bilishi zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega. U birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan; o'qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi vaziyatga qarab, o'quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda jarayonni boshqarib borishi zarur. Dars jarayoni tashkil etishda o'qituvchi avvaldan birorta metoddan foydalanishni nazarda tutgan bo'lsa-da, lekin tanlangan metod, samarasiz bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda o'qituvchi zarur bo'lgan metodlardan birini qo'llashi kerak bo'ladi.

O'qituvchi dars jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratishi zarur:

→ o'tiladigan mavzu yuzasidan o'quvchilarning ehtiyojini, dunyo-

qarashini, tafakkurini aniqlashga yo'naltirilgan savol berish;

- o'quvchilarning mavzu bilan tanishtirish, maqsad va vazifalarni aniqlash;
- ijodiy faoliyat uchun tavsiya etilgan savol va topshiriqlarni ijtimoiy hayot bilan bog'lash va o'quvchilarni to'g'ri fikrlashga yo'naltirish;
- mavzuni boshqa fanlar yordamida tushuntirishga harakat qilish, o'quvchilarda mavjud bilimlardan foydalanish.

Darsni boshlash jarayonida o'quvchilarda ko'tarinki kayfiyat, yuksak ehtiros, ijodiy ruhlanish kuzatilsa, dars jarayonining samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunda o'qituvchining faoliyati aniq reja asosida, oldindan tayyorlangan holda bo'lishi zarur. Demak, o'qituvchi tomonidan dars davlat ta'lim standartlari asosida olib boriladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'lim loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, ijtimoiy hayotdagi faoliyati bilan bog'liq holda yondashilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilari: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarining o'zaro bog'langanligi, yaxlitligini o'zida mujassam etishi kerak.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni faollashtirishga va samaradorligini oshirishga, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarning

psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruratini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va ko'rsa-ta olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratlilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi subyektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

O'zbekiston tarixini o'qitish metodlariga *og'zaki bayon; hikoya, monolog, dialog, suhbat, keys va boshqalar* kiradi.

Tarixiy manbalar bilan ishlashda *tarixiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlar, moddiy va ma'naviy manbalar, yozma va og'zaki tarixdan* foydalaniladi.

O'quvchilarni «O'zbekiston tarixi» faniga qiziqtirishda **tarixiy manbalar bilan ishlash** metodi muhim omil hisoblana-di. Mazkur metodni amalga oshirishda tarixiy va badiiy adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, *Qur'oni karim*, Mirzo Salimbekning «*Tarixi Salimiy*», Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaqning «*Ernazarbiy*», Ogahiyning «*Gulshani davlat*», Mirzo Olim Mushrifning «*Qo'qon xonligi tarixi*», Mulla Olim Mahdum Hojining «*Tarixi Turkiston*», Muhammad Yusuf Bayoniyning «*Shajarayi Xorazmshohiy*», Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning «*Tarixi jadidayi Toshkand*», Mirzo Olim Mushrifning «*Qo'qon xonligi tarixi*», Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning «*Tarixi Jahonnamoyi*», Is'hoqxon to'ra Ibratning «*Tarixi Farg'ona*», Haydarbek Bobobekovning «*Po'latxon qo'zg'oloni*», Armani Vamberining «*Markaziy Osiyo bo'y lab sayohat*» va boshq. Tarixiy-badiiy adabiyotlardan tarix darslarida foydalanishda o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish shart.

Ko'rgazmali metodlar; shartli-grafik illyustratsiyativ ko'rgazmalilik, surat tahlili, rasm ishlash, kontur xaritaning to'ldirish, kompyuter, elektron doska, proyektor va boshqa texnika vositalari orqali EATR-laridan ta'lim samaradorligini oshirishda foydalanish.

O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASINI TUZISH USULLARI

Pedagogik amaliyotda «pedagogik texnologiya», «ta'limiy texnologiya» va «ta'lim berish texnologiyasi» kabi atamalar keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, ularni tushunishda alohida bo'lgan o'qish turlari mavjud. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi yoki ajratib turishini tushunish uchun texnologiya va uning kelib chiquvchilari: «texnologik jarayon», «texnologik harakat», «texnologik xarita», «texnologik tartib» kabi tushunchalarini aniqlash lozim.

Texnologiya yunoncha so'zdan kelib chiqib, «*techne*» – mahorat, san'at, malaka va «*logos*» – so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

Ta'lim texnologiyasi – bu mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtda belgilangan ta'limiy maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo'l va o'qitish vositalarining tartibli yig'indisidir.

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat (o'quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita o'quvchi-



Respublikaning mustaqil ishlashlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Mavzuiy rejadan farqli o'laroq texnologik xaritada (1) ta'lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta'lim oluvchining ham faoliyati, (2) o'quv mashg'ulotining bosqichlari va vaqti, (3) ta'lim berishning usul, shakl va vositalari, (4) ta'lim maqsadlarining o'quv yutuqlari monitoringi va baholashlari ko'rsatiladi.

Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmuni ko'rsatkichlari:

1-bosqich (3–5 daqiqagacha).

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. O'qituvchi mavzuning nomi, ma'ruza rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, blits-o'yin va boshqalar), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; dars mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

O'quvchilar ushbu bosqichda tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2-bosqich (10–15 daqiqagacha).

Asosiy ma'lumot taqdim etish.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. O'qituvchi o'quv mashg'ulotining rejasiga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha talabalar o'quv faoliyatini boshqaradi.

O'quvchilar ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

3-bosqich (25–40 daqiqagacha).

Yakuniy – natijaviy.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. O'qituvchi mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini mavzuning asosiy jihatlariga qarata-di, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida bolalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashning yakunini chiqaradi; o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

O'quvchilar o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

Ma'ruza mashg'ulotining bosqichli texnologik xaritasi namunasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (daq.)	Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni izohlaydi. Tarixiy manbalar haqida ma'lumot berish. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich. Asosiy (daq.)	Tezkor-so'rov / savol-javob aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. Darsning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi.	Javob beradilar, yozadilar, guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar.

3-bosqich. Yakuniy (daq.)	Mavzu bo'yicha yakun qiladi, amalga oshirilgan ishlarni Vatan tarixini o'rganishdagi muhim ahamiyatga ega ekanligiga o'quvchilar e'tiborini qaratadi. Guruhlar ishini baholaydilar, darsning maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yoza-dilar.
---------------------------------	---	--

Hurmatli o'qituvchi!

O'qituvchi nafaqat bir-ikki dars davomida, balki barcha darslarda o'quvchilarni baholab borish uchun rag'bat kartochkalaridan foydalanishi mumkin. Buning uchun o'quv yilining boshida har biri sinfdagi o'quvchilar miqdoriga teng bo'lgan 5 ballik tizim asosidagi «Ofarin!» (5 ball), «Barakalla!» (4 ball), «Harakat qil!» (3 ball) kabi baholash kartochkalarini tayyorlab qo'yishi lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'qituvchi tomonidan kartochkalardan samarali foydalanish dars yakunida o'quvchilarni sinf jurnaliga baholashda yengillik yaratadi. Shuning-

dek, baholash kartochkalariga ega bo'lish uchun o'quvchilar ham darsda faol qatnashishga harakat qiladilar, o'qituvchidan «**RAG'BAT**» olishga intiladilar.

Metodik tavsiya

To'plangan amaliy tajribangizdan keyingi o'quv yilida ham unumli foydalanish uchun o'tilgan darslarni sifat nuqtayi nazaridan baholab boring. Mazkur qo'llanmada qayd etilgan uslublar va ularning amaliy natijalari to'g'risida hosil qilgan xulosangiz asosida uslublardagi kamchilik va bo'shliqlarni ko'rsating va tuzating.

Darslar	Baho				Izoh
	5	4	3	2	
1-dars					
2-dars					
3-dars					
4-dars					
5-dars					
6-dars					
7-dars					
8-dars					
9-dars					
10-dars					
...					
...					



ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINI ARAFASIDA BUXORO AMIRLIGI, QO'QON VA XIVA XONLIKLARIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY VA IQTISODIY AHVOL

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarda Rossiya imperiyasi bosqini arafasida O'rta Osiyo xonliklarida siyosiy va iqtisodiy ahvoli, yer egaligi munosabatlari, dehqonchilik va savdo-sotiq haqida tasavvur hosil qilish;
- o'quvchilarga O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, an'alarining yutuqlarini ochib berish;
- o'quvchilarning milliy, ma'naviy va moddiy merosimizni avaylab-asrash haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

Qarang: 1-dars. Kirish darsi.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKROR-LASH (14 daqiqa).

1-shart: «Kim tez topadi» o'yini:

1. Buxoro amirligida oliy davlat hukmdori kim? (Amir)
2. Buxoro amirligida hokimiyat qaysi sulola qo'lida bo'lgan? (Mang'itlar)
3. Amirlikda ma'naviy markaz qaysi shahar bo'lgan va uni kim boshqargan? (Buxoro shahri, qushbegi)
4. Amirlikda markaziy hokimiyatni kim boshqargan? (Devonbegi)
5. Amirlikda soliq yig'imlarini hisobga oluvchi amaldor kim? (Mushrif)

6. Ariza va shikoyatlarni qabul qiluvchi kim? (Dodxoh)
7. Amir farmonlarini e'lon qiluvchi mansabdor kim? (Parvonachi)
8. Diniy-huquqiy masalalarni hal qiluvchi mansabdor shaxs kim? (Shayxul-islom)
9. Valiahd tarbiyachisi kim? (Otalig)

2-shart: Xiva xonligida oliy davlat hukmdori kim?

Yana qo'shimcha savollar tuzish mumkin...

«XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo xonliklarining iqtisodiy-ijtimoiy, harbiy-siyosiy holati» mavzusida debat mashg'uloti uyushtiring.

Mavzudan tashqari, quyidagi test topshiriqlari bajariladi (bunda 4 ta javobi belgilanadigan va 2 ta javobi yoziladigan test beriladi).

1. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoda yer kimlarning qo'lida bo'lgan?

- A) islom ruhoniylari
- B) hukmdor amaldorlari
- C) xon va uning yaqinlari *
- D) dehqonlar

2. Masjid va madrasalarning sarf xarajatlari uchun qanday yer shakli mavjud bo'lgan?

- A) mulki xolis
- B) vaqf *
- C) amlok
- D) mulki sultoniy

3. Qishloq xo'jaligida asosan qanday ekinlar ekilgan?

- A) poliz ekinlari
B) paxta va g'alla *
C) g'alla va sholg'om
D) sabzavot ekinlari

4. Xonliklarda 12 kunlik hashar ishlari nima deb atalgan?

- A) Begar * B) Jul
C) Davbon D) Amlok

5. XIX asrda O'rta Osiyo xalqlari orasidagi dostonlarning aksariyatida qanday g'oya yetakchilik qilgan?

A) ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi

B) hukmdorlar, sarkardalarning g'ayritabiiy jasoratlari *

C) majoziy obrazlar (hayvon timsolida) va ularning sarguzashtlari

D) oxiri fojiviy voqealar bilan tugaydigan ta'sirchan g'oyalar

6. Muhammad Rizo Ogahiy qaysi tillarni mukammal bilgan?

- A) uyg'ur, turk, hind, fors
B) arab, fors, turk *
C) sanskrit, arab, hind
D) hind, mo'g'ul, turk, afg'on, fors

7. Buxoro amiri Muzaffarning taklifi bilan yozilgan asarni aniqlang.

A) «Buxorodan Peterburgga sayohat»

- B) «Zubdat ut-tavorix»
C) «Manozir ul-kavokib» *
D) «Ravzat us-safo»

8. Ahmad Donishning astronomiya faniga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydigan asarini toping.

- A) «Buxorodan Peterburgga sayohat»
B) «Navodir ul-vaqoe»
C) «Manozir ul-kavokib» *
D) «Ravzat us-safo»

9. Munisning avlodlarga qoldirgan ilmiy merosi nimalardan iborat?

1) «Ravzat us-safo» asari 1-jildining tarjimasini;

2) «Shohidi iqbol» asari;

3) 18 ming misradan ziyod devoni;

4) Xorazmning 1812-yilgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan «Firdavs ul-iqbol» asari;

5) 16 ta tarixiy, ilmiy va tarjima asarlari.

6) Xiva xonlari tarixiga bag'ishlangan «Gulshani davlat asari».

- A) 1, 3, 4* B) 1, 2, 5
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6 D) 1, 5, 6

10. Ahmad Donishning Buxoro elchilari bilan birga Moskva, Peterburg shaharlariga sayohatga borgan yilini aniqlang.

- A) 1857-yil* B) 1865-yil
C) 1852-yil D) 1862-yil

11. «Manozir ul-kavokib» asari nechanchi yilda yozilgan?

- A) 1857-yil B) 1865-yil*
C) 1855-yil D) 1862-yil

12. «Ravzat us-safo» asarining muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Xondamir B) Munis
C) Mirxond* D) Ogahiy

13. Vaqf mulklaridan kelgan daromadni kim tasarruf qilgan?

Javob: _____

(Mutavalli)

14. Suv chiqmaydigan joylarga sun'iy suv chiqarish moslamasi nima?

Javob : _____(Chig'ir)

III. YANGI DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQARISH USTIDA ISHLASH (10 daqiqa):

1-usul

«Aqliy hujum» usuli orqali qisqacha ma'ruza qilinadi.

Ma'ruza jarayonida quyidagi faollash-tiruvchi savollar berib boriladi:

1. O'rta Osiyoda yer egaligining qanday turlari bo'lgan?



2. Xiroj solig'ini to'lash qachondan boshlangan edi?
3. XIX asr boshida O'rta Osiyoda qanday soliq turlari bo'lgan?
4. Suv inshootlari deganda nimalarni tushunasiz?
5. Miroblarning vazifasi nima bo'lgan?
6. O'rta asrlarda hunarmandchilikning qanday turlari bor edi?
7. Tashqi savdo deganda nimani tushunasiz?
8. O'rta Osiyo xonliklarining qo'shnlari qaysi davlatlar do'lgan?

2-usul

Bunda «Bingo» mashqidan foydalanish ham mumkin.

Xiva xonligida Xiva, Kat, Yangi Urganch, Hazorasp, Qo'ng'iroq, Xo'jayli kabi beklklarning markazlari bor edi.	Buxoro amirligida 40 ta beklkl bo'lgan.
Qo'qon xonligi 15 ta beklklka bo'lingan.	Qo'qon xonligida beklklarni xon tomonidan o'z qarindoshlari va yaqinlaridan tayinlangan kishilar boshqargan
Buxoro amirligining hududi XIX asrning o'rtalarida Eron, Afg'oniston, Qo'qon va Xiva xonliklari, qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo'lgan.	Xiva xonligi 18 ta beklkl, 2 ta noiblikka bo'lingan va ularni xon tomonidan tayinlangan beklar va to'ralar boshqargan.

O'quvchilarga oldindan tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalarda raqamlar va so'zlar yozilgan bo'ladi.

O'qituvchi shu raqam va nomga taalluqli jumlani o'qiydi va o'quvchi o'qilayot-

gan jumlagaga tegishli raqam yoki atamani belgilaydi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Toshkentda joylashgan masjid. (Tillashayx)
 2. Baroqxon madrasasini ta'mirlash ishlarining boshlanishi. (1859)
 3. Muhammad Aminxon madrasasi nechanchi yilda bunyod etilgan? (1851-55)
 4. Muhammad Rahimxon madrasasi nechanchi yilda bunyod etilgan? (1871)
 5. Sulton Murodbek va Hokim Oyim madrasalari qachon bunyod etilgan? (XIX asr 70-yillari)
 6. Qaysi inshootning xonalari yuzdan ortiq bo'lgan? (Xudoyorxon saroyi)
 7. Xudoyorxon saroyi qachon bunyod etilgan? (1863–1870)
- Kartochkani birinchi bo'lib to'ldirgan o'quvchi «Bingo» – deb bildirib qo'yadi.

IV. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (13 daqiqa).

Guruhlarga bo'linib, quyidagi jadval har bir guruhga beriladi va ochiq qolgan doiralar to'ldiriladi.

1-guruhga: Buxoro amirligida mansab va lavozimlar.

Viloyat va tuman hokimlari *qo'shbegi* tavsiyasi bilan tayinlangan. Amirlikda ijro hokimiyati bosh vazir – *qo'shbegi* qo'lida bo'lgan.

Devonbegiga tashqi aloqalarni yuritish ham yuklatilgan. Unga amirlik hujjatlarini yuritishga mas'ul mirzaboshi bo'ysungan. Moliya va xazina ishlari, soliqlar to'planishi kabi sohalarni *devonbegi* idora qilgan.

Dodxoh lavozimini egallab turgan shaxs xalqning shikoyatlari bilan shug'ullangan. Oliy hukmdor farmonlarini parvonachi e'lon qilgan. Shariat qoidalari

va qonunlar ijrosi, sud ishlarini nazorat qilishni shayxulislom bajargan.

Amir qarorgohi hisoblangan arkda taxt vorisi – valiahd tarbiyasi bilan *otaliq* mashg'ul bo'lgan.

To'pchiboshi amir qo'shinlarining bosh qo'mondoni bo'lgan.

Amirlikning shaharlarida tinchlik va tartibni saqlashga amir soqchilari boshlig'i – *mirshabboshi* mas'ul hisoblangan.

Ko'kaldosh mamlakat xavfsizligi, amirning yaqinlari, do'stlari va dushmanlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullangan.

2-guruhga: Xiva xonligida mansab va lavozimlar.

Xonlikda oliy amaldor devonbegi hisoblanib, uning ixtiyorida *qo'shbegi*, *mehtar*, *otaliq*dan iborat kengash faoliyat ko'rsatgan.

Aholining tinchligi va osoyishtaligi bilan *mirshabboshi*, xonlikdagi tartib-intizom ishlariga xon qo'shinlarining bosh qo'mondoni – *yasovulboshi*, diniy ishlar va shariat qoidalariga rioya etilishi va amal qilinishi masalalariga *shayxulislom*, sug'orish inshootlari va suv ta'minoti hamda taqsimotiga *mirobboshi* mas'ul hisoblangan.

Harbiy bo'linmalarga *lashkarboshilar* qo'mondonlik qilgan.

3-guruhga: Qo'qon xonligida mansab va lavozimlar.

Xonlikdagi harbiy lavozim *amirlashkar* bo'lib, u harbiy vazir hisoblangan.


Xonlikdagi alohida harbiy bo'linmalarga *mingboshilar* rahbarlik qilgan. Ular keyinchalik bosh vazir vazifasini bajar-gan.

Xazina ishlarini va xarajatlarini mehtar nazorat qilib borgan.

Qozikalon, *qozilar* islom dini qoidalari asosida sud ishlarini olib borganlar.

Muhtasib raislar diniy ishlar, shariat qoidalariga rioya qilinishi, savdo-sotiqning to'g'ri yuritilishini nazorat qilganlar.

Xonlikdagi ichki tartib-intizom ishlari bilan *mirshablar* shug'ullangan.



V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (4-daqiqa).

Mavzuga doir asosiy tushunchalarni o'quvchi daftariga yozdirish; o'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish; baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA (2 daqiqa).

Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash;

1. Har bir matndan tarixiy atamalar-ni ajrating va lug'at yordamida ularning mazmunini aniqlang.

2. Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida «Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Shunga ko'ra, mavzu'ni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi «xon zamonlari»dan belguladim» deganda nimalarni nazarda tutgan? Fikringizni bayon qilishda mazkur davrga oid ilmiy va badiiy adabiyotlardan foydalanishingiz mumkin.

**TARIXIY HUJJAT****BUXORO XONLIGINING BOSHQARUVI VA MANSAB BERISH TARTIBLARI**

...Podsholik taxtiga ko'tarilish quyidagicha bo'lgan: hamma vazirlar, qozi ul-quzzot, va muftilar kigizning to'rt burchagidan ko'tarib, podsholik taxtiga qo'yib, sultonlik tojini boshiga kiygizib, islom bayrog'ini qo'lga berganlar. Keyin Qur'onni oldiga qo'yib aytganlar: «Shariat yo'lidan chiqish mumkin emas, hukmi shariatga mos kelgan ahkomlarga rioya qilib, iqror va farmonbardor bo'lish zarur», – deb ont ichirganlar.

... Mamlakatning hamma ixtiyori uning qo'lga o'tib, hokimlarni tayinlash va ularni ishdan olish ham hukmdor buyrug'i bilan bo'lgan. Uning taxti oldida bir qancha Shig'ovul, Mahramu mahramboshi, mehmonxona mahramlari xizmatda turganlar. Ariza va muborak nomlarni olib podshoga berganlar. Hudaychi ham amir xizmatida turib, uning amali Shig'ovul amalidan yuqori turgan. Safar va harakat chog'ida uzangida Shig'ovul va Hudaychi amir bilan birga yurgan. Amaldor bir nom bilan mashhur bo'lgan. Masalan, chuhra oqosi, mirobboshi. Agar bekszoda bek avlodi bo'lsa, avvalo, tunqotar, keyin jibachi bo'lgan. Bekzoda bo'lmasa, ikki amaldan so'ng, ya'ni, avval tunqotar, keyin jibachi lavozimiga erishgach, qarovulbegi, miroxur, to'qsoba, eshik oqoboshi, biy, parvonachi, dodxoh, kichik inoq, inoqi kalon, devonbegi, qo'shbegi, otaliq bo'lgan. Agarda biror shahar va viloyatga hokim tayinlamoqchi bo'lsalar, avvalo, to'qsobalardan tayinlaganlar. Buxoroda qo'shbegi

mansabini joriy etganlar. Biri qo'shbegi poyon (kichik qo'shbegi), uni zakotchi deydilar, ikkinchisi hokimlardan mirshab – shahar va muzofotlar aholisidan xabar olib turuvchi shaxs.

Ulug' vazirlar shariat asosida hukm chiqarganlar. Ularning biri qozi, uni qozi ul-quzzot deb ataganlar. Uning qo'lida hamma vaqflar, sultoniylar dahyaklar, hujra ishlari va imomlar bo'lgan. Shariat hukmlarini ijro etish uchun mas'ul raisi kalon bo'lgan. U islom ishlari, bozor-u rastalar, masjid ishlarini tekshirgan.

Janobi shayxulislom, oxund, a'lam, muftiyi askar va hamma muftilar shariat hukmiga qattiq rioya qilganlar. Yana biri miri zakotchi – uni qo'shbegi poyon derlar, mol zakoti, daryo, chegara, yo'l qorovullari uning qo'lida bo'lgan. Savdogarlardan boj va zakotlarni uning noib va mulozimlari olganlar. Qo'shbegi kalonni «Vazorati oliy» deb aytishgan. Davlatning hamma ishlari uning qo'lida bo'lgan. Uning shavkati va hashamati amirdan pastroq turgan. Xazina manfaati uchun bajarilgan ishlari shahar qal'asining darvozalari, mahbuslar, o'g'ri va qarochilar, umuman davlat mahbuslarining ixtiyori uning qo'lida bo'lgan. Miri xazina ham vazirlar jumlasidan hisoblanib, davlatning muhim ishlari bo'yicha qozi kalon, rais kalon, qo'shbegi kalon va mir xazinachilar bilan birgalikda mashvarat qilib, amirga fikrlarini aytganlar.

BUXORO VAZIRLARI VA HOKIMLARINING TAYINLANISHI HAMDA ISHDAN OLINISHI HAQIDA

Buxoro vazirlarining eng ulugʻi qoʻshbegi hisoblangan. U davlatning eski, tajribali, ishbilarmon, siyosiy ahvoldan xabardor odamlaridan tasdiqlangan. Nomzod, avval, Devonbegi mansabiga musharraf boʻlmogʻi lozim boʻlib, shunda qoʻshbegi boʻlishiga loyiq sanalgan. Agarda hokim boʻlsa, uni vazirlik mansabiga tayinlaganlar. Hamma oliy va davlat ishlari unga buyurilgan. Haqiqatan ham podshohning eng ulugʻ siyosatga ega kishisi – vazir (qoʻshbegi) boʻlgan. U podsho, askar, ahli vazifa fuqaro manfaati uchun harakat qilmogʻi zarur boʻlgan. Shunda davlati oliy uzoq davom etadi. Qoʻshbegi poyon harbiy yurishlar vaqtida lashkarboshi etib tayinlangan. Qozi ul-quzzotni raislikdan olib, qozikalonlikka qoʻyganlar. Raisi kalonlik mansabiga aʼlam va muftiy askardan olib qoʻyganlar. Aʼlam oxundlikka oxundni, shayxulislomlikka shayxulislomni, din aʼyonlarini naqib mirasad mansabiga nasib qilganlar. Lekin qozikalonlik, raiskalon, shayxulislom va muftiyu mirasadning hukumati va siyosati yuqori boʻlib, boshqa mansablarda bunday shavkat va huquq boʻlmagan.

HOKIMLARNI TAYINLASH BAYONI

Shaharlarda siyosat yuritish, hokimlik mansabiga musharraf boʻlmoq va aʼlohazrat Buxoro podshohining lutf-u sharafiga musharraf boʻlish uchun saltanat poytaxtidan uzoqda joylashgan shaharlarda podsho tomonidan uchta hokim tayinlangan. Avvalo, mirbekkim, uni mir deyishgan, u mamlakatni muhofazasi, siyosati va fuqarolar oʻrtasida adolat oʻrnatish hamda xiroj-u dahyak olish uchun tayinlangan. Hokim yana

ikkita hukmdor tayinlagan, ularning biri amlokdor boʻlib, u podsholik xiroji ushri (dahyak soligʻi)ga nomzod boʻlgan. Amlokdor huzurida baʼzi bahsli masalalar koʻrib chiqilgan. Amlokdorning ham bir qancha xizmatkorlari boʻlib, dorugʻa va mingboshi deb atalgan, ular amlokdor (turkchasi «bek», ruschasi «volostnoy»)ga yordam berganlar. Sulton (amir) yana (viloyatda) sharʼiy masalalarini koʻrib chiqish uchun qozi tayinlagan. Uni ham bir necha xizmatkorlari, muharrir va noiblari boʻlgan. Nizo va janjallar, sharʼiy murofialar, masalalar, rivoyatlar tuzish oʻsha shaxs hukmi bilan boʻlgan. Hokimlarning yana biri (amir tayinlaydigan) raisdir. U sharʼiy murofia, masjidlar va bozorlarni tekshirish, shu oʻlka ahlidan boʻlmish musulmonlar ahvoli shu janob qoʻlida boʻlgan. Oʻnlab mirzo-yu muharrir, noib-u xizmatkorlar doim qishlogʻu bozorlarda yurib, maʼmuriyat ishlarini ijro etganlar. Rais ham rivoyat hozirlab, nizo va bahsli masalalarni amir nomidan hal qilgan.

BUXORONING ASKARLARI VA HARB SIYOSATI HAQIDA

Buxoroning nizomiy va askariy quvvati boshqa davlatlarga qaraganda zaif va yengilroqdir. Chunonchi, u davlatning askariyasi faqat ikki yuz ming nafarga yetgan. Lekin shular orasida tajribali va jasur bahodurlari ham koʻp boʻlgan. Ammo urush asboblaridan, yaʼni, har davlat uchun loyiq boʻlgan qurol-aslahalardan 40 ta toʻp, 100 adad pulemyot, 500 ming toʻpponcha va miltigʻi boʻlgan. Siyosat bobida Buxoro koʻp davlatlardan zaif turgan. Ilm va siyosiy bilimlarni bilganlar. Shuning uchun ham xorlik ham zaiflik ostonasini oʻpganlar. Aslida podsho askariyati haqida gʻamxoʻrlik qilishi,



Respublikamizga siyosiy ilmlarni, siyosiy kuch-quvvatni berishi lozim edi.

Buxoro shahri Jayxunning bu tarafigi Xuroson bilodlariga (shahar) kirib, 30 ta hokim o'tiradigan katta shahar bo'lgan. Har bir shaharda 300 dan to 1000 gacha nizomiy askari bo'lib, ba'zi viloyatlarda to'p va urush qurollari qo'riqxonalarda saqlangan.

BUXORO AMIRLIGIGA TOBE HUDUDLAR

Buxorodagi tobe shaharlarning nomlarini eslatib o'tmoqchiman. Bular Chorjo'y, Karki, Kalif, Qarshi, Karma-na, Nurota, Ziyovuddin, Xatirchi, G'uzor, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Chiroqchi, Jomchi va Sherobod, Boysun, Denov, Sariosiyo, Xisor, Qorategin, Baljuvon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Ko'bodiyon. Bu shahar Buxoro saltanatining hokimlari

o'tiradigan markaz bo'lgan. Ba'zi shaharlar shu viloyatlarga tobe bo'lganlar. Masalan, Ko'lobga Mo'minobod, Baljuvonga Havoling va Qo'ng'irot, Xisor tobeligiga Dushanbe va Qoratog' kirgan. Baldai muazzama Buxoroga ham bir qancha shahar va qo'rg'onlar tobe sanalgan. Jumladan, Romiton, Xayrobod, Qorako'l, Bahouddin, Xo'jabo'ston-Vardonze ham deydilar, Xo'ja Ubon, Xo'ja Orif Mohi Tobon, Vobkand, Zandana va boshqalar. Har bir shaharda uchta amlokдор bo'lib, 25 yoki 18 amlokka bo'lingan. Shuningdek, ularda yana qozi, rais-u mirshab va bitta lashkarboshi bo'lib, mamlakat tinchligini ta'minlaganlar. Buxoro mamlakatining nizomi, tabiyotining asbobu oloti shu kabi bo'lgan.

Mahammad Ali Baljuvoniyning «Tarixi Nofey» (Foydali tarix) asaridan.

BUXORO XONLIGI (AMIRLIGI)

Xonlik sharqda Qo'qon xonligi va Badaxshon tog'lari bilan, janubda Amudaryo, kerki va Chorjo'y bilan, g'arbda va shimolda esa bepoyon cho'l bilan chegaralanadi. Demarkatsiya (chegara) chizig'i aniq emasligi tufayli, aholi sonini to'liq hisoblashning imkoni yo'q, yuzaki qaraganda, shuni taxmin qilish mumkin, aholi soni 2,5 mln kishi bo'lib, o'troq va ko'chmanchi qatlamdan tashkil topgan.

BOSHQARUVI. Buxoro boshqaruvi tizimida arab va forslarga xos jihatlar juda kam saqlanib qolingan, boshqaruvda turkmo'g'ul jihatlarining ustunligi har jabhada aks etadi. Davlat tepasidagi amir ta'bir joiz bo'lsa, ham general, ham hukmdor, ham din peshvosidir. Harbiy va fuqarolik mansablari darajalarga quyidagicha bo'linadi.

- a) katta sipohi; b) o'rta sipohi;
- d) oshoqo (kichik) sipohilar:

Katta sipohi	Otaliq; Devonbegi; Parvonachi (saroyda kapalak deb ham ataladi, chunki amir uni turli topshiriqlar bilan turli joylarga jo'natishi mumkin).
O'rta sipohi	To'qsoba yoki To'xsahibi; Inoq; Miroxo'r.
Oshoqo (kichik) sipohi	Chorog'osi yoki Chehra og'asi; Mirzaboshi; Yasovulbegi yoki Qorovulbegi; Yuzboshi; Panjboshi (ellikboshi); O'nboshi.

Bundan tashqari, amirning shaxsan izmida bo'lgan saroydagi ofitserlar haqida ham ta'kidlash joizdir. Ularning tepasida qo'shbegi yoki vazir, mehtar, dasturxonchi va zakotchi turadi. Zakotchi shu bilan birgalikda, moliya vaziri vazifasini ham bajaradi va amirning ichki xarajatlarini boshqarib boradi. Keyin mahramlar keladi. Ularning soni vaziyatga qarab o'zgarib boradi. Ular turli topshiriqlar bilan turli viloyatlarga jo'natiladi. Viloyat hokimining qaroridan har qanday norozilik amirga bildirilganda, unga mahram tayinlanadi, mahram prokuror sifatida hokim bilan uning viloyatiga boradi. Holatni o'rganib, so'ng qarorni qabul qilish uchun, uni amirga yetkazadi. Shuningdek, eshik og'asi, bakovul, jamoat sayillarida amir o'rnida salom-alik oladigan salom og'asi ham bor. Hozirgi dabdabayi sayillarni yoqtirmaydigan amir davrida (*Amir Muzaffar nazarda tutilmoqda*) bu barcha mansablar va amallar nomigagina mavjud.

ARMIYA. Xonlikning doimiy armiyasi 40 ming otliqdan iborat bo'lib, kezi kelganda 60 ming otliqqacha yetishi mumkin. Bu sonning katta qismini Buxoro va Qarshi ta'minlaydi. Ayniqsa, buxoroliklar o'zlarining dovyurakligi bilan dong taratgan. Bu son buxoroliklarning o'zlari

tomonidan keltirilgan bo'lib, bo'rttirilgan bo'lishi ham mumkin.

POLITSIYA (mirshablar). Buxoroda politsiya boshqaruvi Osiyoning boshqa shaharlariga qaraganda ancha kuchli faoliyat yuritadi. Kunduz kunlari raisning o'zi bozorlar va jamoat joylarini aylanib chiqadi yoki o'zining ko'p sonli mansabdorlari yoxud ayg'oqchilarini jo'natadi. Quyosh botgandan ikki soat o'tgandan keyin hech kim ko'chaga chiqishga jur'at qila olmagan, qo'shni qo'shninikiga chiqqa olmagan. Bemor tibbiy yordam yetmasligidan vafot etgan. Chunki amir mirshablarga taqiqlangan soatlarda ko'chada uchraganlarning barchasini, hattoki, uning o'zini ham hibsga olishni buyurgan.

BOZORLAR. Bozorlarning juda kami qubbali yoki toshdan qurilgan, faqat eng kattalarining tomi yoki shox shabba yoki qamish bilan yopilib, xodaga tortilgan. Har bir bozorning o'z oqsoqoli bo'lib, u amir tomonidan tartib-intizom va to'lovlar borasida mas'ul qilib qo'yilgan. Bozorlardan tashqari shaharda ulgurji mollarni va sayyohlarni qabul qilish uchun 30 ga yaqin kichik karvonsaroylar mavjud.

Armani Vamberining «Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat» asaridan.

XIVA XONLIGI

TUMANLAR. Shahar asosan ikki qismga bo'linadi: a) Xivaning o'zi; b) Ichanqal'a, ya'ni devor bilan o'rab olingan va tashqi shahardan to'rt darvoza bilan ajratilgan shahriston. Ichanqal'a quyidagi mahallalardan iborat: Pahlavon, Ulliyo'g'ich, Oqmasjid, Yipakshi, Qo'shbegi mahallasi shaharning o'zida to'qqizta darvoza mavjud. Shimolga Urganch darvozasi olib boradi, Gandumgoh (Gandimiyon), Imorat,

Isamahmud ota, Hazorasp darvozalari sharq tarafga qaragan; Shixlar, Peshkanik va Rafanik darvozalari janubga qaragan, Badirxon darvozasi g'arbga qaragan. Shaharda 10 ta mahalla mavjud bo'lib, ular: 1) O'r, 2) Kaftarxona, 3) Mevaston, 4) Mehtaobod, 5) Yangiqal'a, 6) Katta chinorlar bilan o'rab olingan Bolo hovuz, 7) Nonyemas o'rama (Non yeyilmaydigan qishloq), 8) Nurullaboy, 9) Bog'cha, 10) Rafanik.



BOZORLAR. Xiva bozorlari Eron yoki Sharqning boshqa shaharlaridagi bozor va savdo rastalaridan farq qiladi. Kichik va ixcham 120 ta do'kon hamda karvonsaroy joylashgan baland gumbazli timdan iborat. Rus bozori taklif qilgan barcha narsalarni: movut va mayda chuyda metall buyumlar, attorlik mollari, zig'ir tolasidan to'qilgan matolar va Buxoro hamda kam miqdorda Erondan kelgan mollarni topish mumkin.

MASJIDLAR. Xivada me'morchilikning qadimiy va mohirona ishlangan uslubdagi masjidlaridan quyidagilarni sanab o'tish mumkin: 1) Hazrati Pahlavon, ushbu imoratning yoshi 400 yildan ortiqroq, uning bitta katta va ikkita kichik gumbazlari bor; unda Xivaning homiysi va avliyo deb tavof etiladigan Pahlavon Mahmudning maqbarasi joylashgan. Uning tashqi ko'rinishi oddiygina, ammo ichkari qismining koshinlari yuksak did bilan bezalgan. Afsuski, masjidning ichi qorong'i va kam yoritilganligi sababli ancha narsa ko'zga ko'rinmaydi. Masjidning ichkarisida ham, ostonasida ham Qur'onni ko'p eshitganlaridan yodlab olgan va ovoz chiqarib o'qiydigan muxlislar doim to'planib turishadi; 2) jum'a namozi va hozirgi xon uchun rasman xutba o'qiladigan Jum'a masjidi; 3) Ichanqal'adagi xon masjidi; 4) xivalik Sholikor tomonidan qurilgan masjid; 5) Otamurod qo'shbegi masjidi; 6) Qorayuz masjidi.

MADRASALAR. Xondan tashqari, oddiy hunarmandlar ham mablag'larining chegaralanganligiga qaramay, xayriyalarga tayyor ekanligi va g'ayrat ko'rsatayotganligi, albatta, yuksak maqtovlarga sazovordir. Bu masalada Markaziy Osiyoda islom tamaddunining qadimiy markazi Buxoro namuna sifatida xizmat qiladi. Ammo Xivada ham nomlari quyida keltirilgan bir necha madrasa mavjud:

1. 1851–1855-yillarda ... qurilgan **Madaminxon (Muhammad Aminxon) madrasasi**, uning o'ng tarafida me'morning vafotidan keyin qurilishi tugallanmagan ikki qavatli binodan balandroq beo'xshov minora joylashgan. Ushbu madrasada 130 ta hujra bor, u yerda 260 nafar talaba yashaydi. Har yili ushbu madrasa 12 ming Xiva botmonida bug'doy va 5000 tillo pul daromadi oladi. O'quvchi ushbu madrasa haqida taxminiy tasavvurga ega bo'lishi uchun, daromadlarning taqsimlanishi orqali bir vaqtning o'zida ishchi xodimlar haqida ma'lumotlarni keltiramiz: har yili besh nafar oxun 3000 botmon (bug'doy) va 150 tillo, bir nafar imom 2000 botmon (bug'doy) va 40 tillo, bir nafar muazzin (azon aytuvchi) 200 botmon bug'doy, ikkita xodim har biri 200 botmondan bug'doy, sartarosh 200 botmon bug'doy, 2 nafar mutavalli yoki nazoratchi daromadning 1/10 qismini oladi; qolgan qismi uch sinfdan iborat o'quvchilarga taqsimlab beriladi: birinchi sinf 60 botmon bug'doy va 4 tillo, ikkinchi sinf 30 botmon bug'doy va 2 tillo, uchinchi sinf 15 botmon bug'doy va 1 tillo oladi.

2. **Ollohqulixon madrasasi.** Bu madrasada 120 ta hujra bo'lib, uning tarbiyalanuvchilarining bir yillik daromadi 50 botmon bug'doy va 2 tilloni tashkil etadi (1 funt-sterling¹);

3. **Qutlug' Murod inoq madrasasi.** Madrasaning har bir hujrasi 50 botmon bug'doy va 3 tillo beradi;

4. **Arab Muhammadxon madrasasi.** Bu yerda hujralar kam, ammo ular juda yaxshi ta'minlangan;

5. **Sherg'ozixon madrasasi.**

Ushbu madrasalarning hovlilarida ko'p daraxtlar ekilgan bo'lib, ular bog'larga aylantirilgan va tozalikda saqlanadi.

¹ Funt-sterling – Buyuk Britaniya pul birligi. Bir funt-sterling = 100 pens (1971-yilga qadar funt-sterling = 100 shilling = 240 pens bo'lgan). XI asrdan kumushdan, XIV asr o'rtalaridan oltindan ham tangalar shaklida zarb qilingan. Funt-sterling banknotlarini Angliya banki 1694-yildan chiqara boshlagan.

MIRSHABLAR. Shaharning har bir mahallasida o'z hududida jamoat tartibiga mas'ul va kun davomida to'polon, o'g'rilik va boshqa jinoyatlar sodir etilmasligini nazorat qiluvchi mirshab bor. Shaharni oqshom paytida qo'riqlash to'rt nafar payshob (bosh qo'riqchi)larga topshirilgan bo'lib, ular tun bo'yi shahriston darvozasini qo'riqlab turishlari shart.

Ularning har birida 8 nafar kichik qorovul (jami 32 ta) bo'lib, ular mirshablik vazifasini ham bajarganlar. Shahar atroflarida tungi soat birdan keyin yurganlar mirshablar tomonidan tekshirilgan. Mirshablar, ayniqsa, birovning uyiga buzib kirmoqchi bo'lganlar yoki ishqiy sarguzashtlar axtarib yurganlarga alohida e'tibor berganlar.

BU TOIFANING (XIVA XONLIGI) TAXTGA O'TIRISH QONUN-QOIDA VA RASM-RUSUMLARI

Arzingizga yetkazsak, Xiva xonlaridan birontasi vafot etgach, o'lgan xon farzandlaridan qay biri vorislikka munosib bo'lsa, ta'ziya marosimidan so'ng qozi va ulamo, amir va vazirlar yig'ilishib, unga xonlikni taklif etadilar. Bo'lg'usi xon boshida o'zini bu taklifdan olib qochgan va istamayotgan qilib ko'rsatadi. So'ng qat'iy ravishda ochiqchasiga: «Agar xon bo'lishimga hammangiz birdek rozi bo'lsangiz, keyinchalik xonligim davrida xon sifatida o'limga mahkum etish kabi og'ir farmonlar berishimga to'g'ri kelib qolsa, hech biriga qarshi chiqmaysizlarmi?» – deydi. Qozikalon va boshqalar rozilik alomatini bildiradilar. Shundan keyin uni oq kigizga o'tqazadilar va to'ralar, amirlar va ulamo kigizning chetlaridan tutib, silkitgan cha taxt ustiga tashlashadi. Tashlayotganda shunday harakat qilishadiki, bo'lg'usi xonning yer tuban qulashi yo telpagi boshidan uchib ketishi ham hech gapmas. Shundan so'ng kigizning biron burchagidan har kim pichoq bilan bir qarich miqdorda kesib, uylariga olib ketadilar. Aytadilarki, chig'atoy avlodidan biri shu marosimda hozir bo'lma-guncha yangi xon taxtga chiqib o'tirishi rasm emas ekan. Menga aytishlaricha, vazir Yoqub mehtar o'zini chig'atoy nasli-

dan deb da'vo qilarkan. Ammo, xorazmliklar asli Kot shahridan bo'lgan mehtar-ni bir paytlar Kotda chig'atoylar sulolasi yashagan bo'lsa-da, Yoqub mehtar od-diy bir kotlik, chig'atoy naslidan emas, bunday da'vosi yolg'on, deyishadi. Va hozirgi xonning besh yashar bir o'g'li bo'lib, ko'ziga gul tushgan. Muhammad Rahimxon o'g'illaridan Sayyid Mahmud to'ra, Sayyid Ahmad to'ra va Sayyid Muhammad to'ralar hozir ham hayot va Xorazm xonligi mansabini kutib turishib-di. Muso to'ra bin Rahmanquli shijoatli, baland bo'yli, xushbichim bir yigit. Xalq ko'ngli uning xon bo'lishiga moyil bo'lib, o'zi ham viloyat xonligiga munosib, qobil yigit. Xorazm shahzodalari, ya'ni to'ralar ichida o'n ikki yashar bir bola bor – gav-dasi haddan tashqari ulkanligi va semizli-gidan xuddi o'ttiz yasharlik pahlavonlarga o'xshaydi. Otga minsa, uning og'irligini ko'tarishi qiyin bo'lgan bechora ot zo'rg'a yuradi. Shu gavdasi kattaligi, qaddi ham shunga yarasha balandligi va semizlikda tengi yo'qligi sabab, barcha uni tomosha qilishga oshiqadi va tabiatning ajoyiboti sifatida hayratga tushishadi.

*Rizoqulixon Hidoyat,
«Saforatnomayi Xorazm» asaridan,
1851-yil.*



QO'QON XONLIGI

... Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, uni mahalliy ahli «Ho'qandi Latif» deb ham ataydi. Uning aylanasi Xivadan olti marta, Buxorodan uch marta va Tehrondan to'rt marta kattadir. Xonning saroyi joylashgan janubiy qism yaqinida devor bilan o'ralgan, shimoliy qism esa umuman ochiq. Aholi va uylar soni nisbatan kam; uylar katta mevali bog'lar bilan o'rab olingan va uni aylanib chiqishga chorak soat vaqt ketadi. Me'morchilik nuqtayi nazaridan Qo'qon Buxoroning o'zidan ustunligini tan oladi. Faqat to'rt masjid va katta bozor toshdan qurilgan bo'lib, unda rus tovarlari arzon bahoga sotiladi, ammo ulardan tashqari ipak va jundan ishlangan mahalliy tovarlar ham sotiladi. Qo'qondan keyin boshqa shaharlar orasida Toshkent ajralib turadi. Xonlikdagi savdo-sotiqda birinchi o'rinda turadigan Toshkent shaharida Orenburg va Qiziljar (Petropavlovsk) bilan savdo qiladigan boy savdogarlar istiqomat qiladi. Toshkentdan keyin alohida e'tiborga loyiq shaharlar quyidagilar: Xo'jand – 3000 xonadonga ega, ishlab chiqarish korxonalarini ko'p, ularda olacha ishlab chiqariladi, 18 ta madrasa va 36 ta masjid mavjud. Xonlikning yana bir ajoyib shahri Andijon. U yerda xonlikdagi eng zo'r adras ishlab chiqariladi. Namangan – uning atrofida qipchoqlar yashaydi. Yana axloq va din haqida yozilgan «Mashrab» asarining muallifi Xo'ja Ahmad Yassaviy qabri joylashgan hazrati Turkistonni ham aytib o'tish joiz. Hisordan keyin eng yaxshi pichoqlarni ishlab chiqaradigan shahri Manzil va Chustning pichoqlari Turkistonda eng qimmat bahoda sotiladi. Shahrixon o'zining a'lo sifatli ipagi bilan ajralib turadi, xonlikning sharqiy chega-

rasida joylashgan va taxti Sulaymon deb ataladigan O'sh shahriga har yili juda ko'p ziyoratchilar keladi.

Armani Vamberining «Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat» asaridan.

* * *

...Qo'qon shahrining chegarasi aylanasi taxminan 16 verst masofani tashkil etadi. Shaharning uzunligi shimoliy-g'arb bo'ylab to G'azabliq darvozasigacha 5 verstni tashkil etadi. Shaharning 12 qismida 12 ta darvoza mavjud. Shaharda 540 ta mahalla bo'lib, ularning har birida oqsoqol bo'lgan. Uylarning soni, mening hisobim bo'yicha, 22 000 tani tashkil etadi. Aholining soni 80 mingni tashkil qilgan.

Madrasa 15 ta, bo'lib, ularda 1500 gacha talaba tahsil oladi.

A. P. Xoroshxinning «Qo'qon, Toshkent, Samarqand tavsiflari» esdaliklaridan.



ROSSIYA IMPERIYASINING O'RTA OSIYOGA YURISHI VA TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING TASHKIL TOPISHI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Rossiya imperiyasi va O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida aloqalarning yomonlashuvi va istilochilik yurishlari sabablarini tushuntirish;
- o'quvchilarga Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishining maqsadi va yurish bosqichlari haqida bilim berish;
- o'quvchilarga Rossiya imperiyasi tomonidan 1866-yilgacha bosib olingan hududlarda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarga Turkiston harbiy okrugining tashkil etilishi va uning vazifalari haqida ma'lumot berish.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

Qarang: 1-dars. Kirish darsi.

II. UY VAZIFASINI TAKRORLASH

(11 daqiqa). «Guruhlar ishi». Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi va har bir guruh o'ziga berilgan jadvalni to'ldiradi.

1-usul:

1-guruhga: O'rta Osiyo xonliklari madaniyati bo'yicha ma'lumot to'plang.

Buxoro amirligi		
Adabiyot	Tarix	Me'morchilik

2-guruhga: Xiva xonligi madaniyati haqida ma'lumot to'plang.

Xiva xonligi		
Adabiyot	Tarix	Me'morchilik

3-guruhga: Qo'qon xonligi madaniyati haqida ma'lumot to'plang.

Qo'qon xonligi		
Adabiyot	Tarix	Me'morchilik

2-usul:

1. Nima sababdan Rossiya imperiyasining Toshkentni bosib olishi zarur hisoblangan?

A) Chunki bu shahar Qo'qon xonligining harbiy markazi bo'lib, u egallansa, butun xonlik harbiy jihatdan zaiflashar edi.

B) Bu shahar O'rta Osiyoning bosib olish uchun asosiy yo'lak, rus harbiylarining kelgusidagi harakatlari uchun tayanch vazifani bajaradigan joy bo'lganligi *.

C) Chunki bu shahar Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi chegarasida joylashgan, Xiva xonligiga olib boriladigan asosiy yo'l ustida joylashgan edi.

D) Bu shahar suv yo'li orqali Xiva xonligiga olib boradigan qulay geografik hududda joylashgan edi.

2. XIX asrda Toshkentning nechta darvozasi bo'lgan?

A) 20 ta

B) 12 ta *

C) 8 ta

D) 11 ta



Respublika ta'lim markazi
3. Rossiya imperiyasi qo'shinlari Toshkentni bosib olish maqsadida dastlab nechta yo'nalishdan yo'lga chiqadi?

- A) 3 ta B) 4 ta
C) 2 ta * D) bitta

4. 1864-yil Turkiston va Chimkent shaharlari mudofaasiga rahbarlik qilish uchun Qo'qon xoni kimni qo'shin bilan jo'natadi?

- A) Solihbek dodxohni
B) Aliqulini
C) Abdurahmon Oftobachini
D) Iso Avliyoni

5. Rossiya tomonidan O'rta Osiyo hududlarining bosib olinish ketma-ketligi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

A) Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkent *

B) Oqmachit, Turkiston, Toshkent, Xo'jand

C) Chimkent, Oqmachit, Jizzax, Toshkent

D) Turkiston, Chimkent, Pishpak, Toshkent

6. Toshkent shahridan 25 km shimol-roqda joylashgan qal'aning nomini toping.

Javob: _____ (Niyozbek)

7. M. Chernyayev birinchi bor Toshkentga hujum qilganida qancha askaridan ayrilgan?

Javob: _____ (70 kishi)

8. Toshkentni mudofaa qilishda ishtirok etgan Qo'qon xonligi lashkarboshisini aniqlang.

Javob: _____
(Alimqul, Aliquli)

III. YANGI DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQRARISH USTIDA ISHLASH (12 daqiqa):

1. O'qituvchining qisqa ma'ruzasi. Bunda Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimiga bir oz to'xtalib, Turkistonda

general-gubernatorlik tashkil etish maqsadlarini tushuntiradi.

2. Jahon tarixidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering:

– Rossiya imperiyasining harbiy qudrati va tajribasi qanday bo'lgan?

– O'rta Osiyo xonliklarining harbiy quvvati bilan o'sha davrdagi zamonaviy qurollangan armiyaga qarshi qanday reja tuzish mumkin?

3. O'qituvchi o'quvchilarga «O'zingizni sinang» rukni ostida berilgan tushuncha va ismlarni aytib murojaat qiladi va ulardan javob oladi, shundan so'ng mavzuni umumlashtirib beradi.

IV. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (13 daqiqa).

«Hamma bir-biriga o'rgatadi» mashqi. Sinf o'quvchilari 5-6 kishilik kichik guruhlariga bo'linadilar. Guruhlarga bugun o'tilgan mavzu matnidan bir parcha beriladi. Guruhlar matni o'qib o'rganadilar va har guruhdan yana bittadan yangi guruh tuziladi. Yangi guruhda galma-gal har bir o'quvchi avvalgi guruhda o'rgangan matni gapirib beradi.

Namuna uchun matn:

Toshkent O'rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy, yirik ma'muriy va savdo-sotiq markazlaridan biri hisoblangan. XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining 12 ta, ya'ni Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog'och, Qo'ymas, Qo'qon, Qoshg'ar darvozalari bo'lgan. Har tomondan shaharga kirish uchun qurilgan bu darvozalar soqchilar tomonidan qo'riqlangan. Shaharni mudofaa qilish

uchun qurilgan devor ortida Kaykovus arig'ining suvi bilan to'ldiriladigan xandaqlar bo'lgan. Toshkent to'rtta – Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor va Shayxontohur dahalariga bo'linib, har bir daha o'z oqsoqoli tomonidan boshqarilgan.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

Darslikdagi «O'zingizni sinang» rukni bilan ishlash. O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish. Baholarini e'lon qilish.

MAVZU YUZASIDAN UMUMIY TAKRORLASH:

Bunda «Bingo mashqi»dan foydalaniladi.

1864-yil 1-oktyabr	1865-yil aprel	1865-yil may
1865-yil 17-iyun	1865-yil 6-avgust	1864-yil kuz


O'quvchilarga oldindan tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalar da raqamlar yozilgan bo'ladi. O'qituvchi shu raqamga taalluqli jumlaning o'qiydi va o'quvchi o'qilayotgan jumlagacha tegishli raqamni belgilaydi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ruslar tomonidan Toshkent qachon bosib olindi? (1865)
2. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan sanani qayd eting. (1867)
3. Rossiya imperiyasi tomonidan Chimkent shahri nechanchi yilda egallandi? (1864)
4. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo bosib olinishining to'rtinchi bosqichi nechanchi yilda tugadi? (1885)

5. O'rta Osiyo bosib olinishining birinchi bosqichi boshlandi. (1847)
6. Ingliz elchisi Murkroft nechanchi yilda O'rta Osiyoga tashrif buyurdi? (1825)
7. Irtish daryosi sohilida ruslarning yettita istehkomi nechanchi yilda vujudga keldi? (1718)
8. Oqmachit qal'asi nechanchi yilda bosib olindi? (1853)
9. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo bosib olinishining uchinchi bosqichi nechanchi yilda boshlandi? (1873)

VI. UYGA VAZIFA (2 daqiqa):

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.
2. Qo'shimcha manbalardan foydalangan holda XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining mavjud bo'lgan 12 ta, ya'ni Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog'och, Qo'yman, Qo'qon, Qoshg'ar darvozalarining o'ziga xos jihatlari topib keling.





QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLARI (1867–1917-yillar)

K. P. Kaufman	1867-1881-yillar
G. A. Kolpakovskiy	1881-1882-yillar
M. G. Chernyayev	1882-1884-yillar
N. O. Rozenbax	1884-1889-yillar
A. B. Vrevskiy	1889-1898-yillar
V. M. Duxovskiy	1898-1901-yillar
N. I. Ivanov	1901-1904-yillar

P. N. Tevyashov	1904-1905-yillar
D. I. Subbotich	1905-1906-yillar
N. I. Grodekov	1906-1908-yillar
I. Meshchenko	1908-1909-yillar
A. V. Samsonov	1909-1913-yillar
Flug	1913-1915-yillar
F. Martson	1915-1916-yillar
A. N. Kuropotkin	1916-1917-yillar

PYOTR I NING BEKOVICH-CHEKASSKIYGA YO'RIQNOMASI

- Xiva xonligining rus davlati tobeligiga o'tishiga erishilsin hamda bizning manfaatlarimizga xizmat qilish sharti ko'tarsa, harbiy qism qoldirilsin. Agar xon rozi bo'lsa va sharoiti ko'tarsa, harbiy qismni o'zi ta'minlasin.
- Xiva xonidan Buxoro xonligining rus davlati tobeligiga o'tishga xohishi bor-yo'qligi aniqlansin. Bordi-yu bun-

day istak bo'lmasa, do'stlik shartnomasi imzolansin.

- Ko'rsatilgan topshiriqlarni amalga oshirish uchun 4000 kishidan iborat muntazam qo'shin va kerakli kemalar ajratilsin. Qo'shin komandirlari barcha joylardagi tub aholiga nisbatan xushmuomalada bo'lsinlar. Shahar (istehkom) qurish uchun zarur bo'lgan asbob va cho'kichlar berilsin.

CHERNYAYEVNING MA'RIFATPARVAR MASLAHATCHISI

Rus zobitlari o'rtasida o'zining cho'rtkesarligi va o'ta jangariligi bilan dong'i chiqqan polkovnik M. Chernyayev 1864-yilda Avliyoota shahri tomon yurish boshladi. U Sankt-Peterburgda o'qigan va Rossiyaning sharqdagi «madaniyatparvarligiga» ko'r-ko'rona ishongan qozoq zodagoni, ma'rifatparvar olim, shtabs-rotmistr Cho'qon Valixonovni o'ziga maslahatchi qilib olgan edi. Ruslarga astoydil ishongan bu ziyoli ana shu yurishda rus zobitlari va askarlarining nimalarga qodir ekanligini o'z ko'zi bilan ko'rdi.

Avliyoota aholisining bir tan-u jon bo'lib bosqinchilarga ko'rsatgan qarshiligi, hatto bolalar va ayollargacha qo'lda qurol bilan Vatan himoyasida halok bo'lgani qozoq ma'rifatparvari Cho'qon Valixonov qalbini larzaga keltirdi. Chernyayevning shaharni talon-taroj qilinishiga yo'l berib qilgan yovuzligi Cho'qon Valixonovning u bilan nizolashib qolishiga sabab bo'ldi. Shtabs-rotmistr Valixonov iste'foga chiqib, rus armiyasi xizmatidan o'zini chetga oldi. Polkovnik Chernyayev esa Avliyoota qo'lga kiritilgandan so'ng general-mayor darajasiga ko'tarildi.

TOSHKENT MUDOFASIDA AMIRLASHKAR ALIMQUL JASORATI

...Alimqul Toshkentga yetib kelgach, ozining o'ng qo'l sardori, tajribali sarkarda Sulton Sodiq (keyinchalik Abdumalik to'ra bilan birga ruslarga qarshi kurashgan) boshchiligidagi sarbozlarni dushman tarafga razvedkaga yuboradi. U vaziyatni chamalab, shaharning Qo'qon darvozasiga zambaklarni tartib bilan o'rnashtiradi. Ko'p o'tmay dushman to'plari gumburlab o't ochadi. Bosh qo'mondon shaxsiy ibrat ko'rsatish uchun o'zini jang maydo-

niga otdi. Alimqulga duch kelgan har bir dushman chavandozi omon qolmadi. Jang avjiga chiqqan paytda bir o'q Alimqulning kindigi ostiga tegib, u qattiq jarohatlanadi. Alimqul ot ustidan yiqilayotganda otning bo'ynidan mahkam tutib, o'zini yana ot ustiga oldi va shu holda to'pxona oldiga borib, farmon berdi: «Toshkent fuqarolari asta-sekin orqaga qaytib, o'zlarini shahar ichiga olsinlar, boshqa sarbozlar esa urushni davom ettirsinlar!».

RUSLARNING TOSHKENTNI BOSIB OLISHIDA QATNASHGAN RUS ZOBITI GUVOHLIGI

«...Qorasaroy darvozasiga yetgach, Abramov Qoshg'ar va Qo'qon darvozalari o'rtasidagi belgilangan manzilga to'g'ri chiqish uchun shahar tomon chapga burildi. Lekin u shahar ko'chasiga o'tishi bilananoq, g'oyatda kuchli qarshilikka duch keldi – deyarli har bir qadamni jang bilan bosishga to'g'ri keldi. Sartlar daraxtlar orasidagi uylarga, daraxtlarga, devorlar ortiga joylashib olgan, ko'chalarga to'siq-

lar o'rnatilgan edi. Ularni o't ochish va nayzalar bilan endi quvib chiqishgach, yana xuddi shunday qarshilikka duch kelishar edi. Shahar markazida xalqni islom dini va o'z xonadonini himoya qilishga chaqirgan ruhoniylar ta'sirida shu darajada mutaassiblashgan olomon askarlarimizga nafaqat nayza, balki oyboltalar bilan, qo'li bilan tashlanardilar va albatta nayzadan omon qolmasdilar».





BUXORO AMIRLIGI VA XIVA XONLIGINING ROSSIYA IMPERIYASI VASSALIGA AYLANISHI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Xiva xonligi hududiga istilochilik yurishlari sabablarini tushuntirish;
- o'quvchilarga Buxoro amirligi va podsho Rossiyasi o'rtasidagi janglar, 1868 va 1873-yildagi shartnomalar haqida;
- Qo'qon va Xiva xonligining podsho Rossiyasi harbiy yurishlariga qarshi harakatlari;
- Farg'ona viloyatining tashkil qilinishi xususidagi bilimlarga ega bo'ladilar;
- o'quvchilarga Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasida Gandimiyon shartnomasi tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni berish.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

Qarang: Kirish darsi.

II. UYGA VAZIFANI TAKRORLASH (13 daqiqa).

1-usul

O'qituvchi o'tilgan mavzular yuzasidan o'quvchilar tomonidan tuzib kelingan boshqotirmalar, «Marra tomon olg'a» degan mavzular bo'yicha savollardan tashkil topgan o'yinlarni amalga oshiradi.

Bilim cho'qqilarini zabt etish uchun marra sari olg'a!

Izoh: Aylana, to'rtburchak yoki uchburchak ichiga savol yoziladi, guruhlardan chiqqan o'quvchilar birin-ketin savolga javob beradi, javob berolmagan yo'lda qoladi, javob bergan o'quvchi marra tomon ketaveradi.

2-usul

«Guruhlar ishi». Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartochkalar yordamida amalga oshiriladi.

1-kartochka: Turkiston general-gubernatorligi nechanchi yilda tashkil qilindi?


2-kartochka: Turkistonning birinchi general-gubernatori kim?

3-kartochka: Turkiston general-gubernatorligi tarkibida dastlab qaysi viloyatlar bo'lgan?

4-kartochka: Turkiston general-gubernatori nima sababdan «yarim podsho» deb yuritilgan?

5-kartochka: Turkiston general-gubernatorligining boshqaruv tizimi haqida gapirib bering.


6-kartochka: Yozuvsiz xaritadan 1867-yilgi Turkiston general-gubernatorligi hududini ko'rsating.



III. YANGI DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQRARISH USTIDA ISHLASH (14 daqiqa):

1-usul

«Klaster» usuli asosida. O'qituvchi vatman qog'ozining markazida doira chizadi va uning ichiga «Gandimiyon shartnomasi» deb yozadi. O'quvchilar Gandimiyon shartnomasiga oid sana, tarixiy shaxslar ismi va shartnoma shartlarini yozib chiqishlari kerak.



2-usul

O'qituvchi doskaga jadval chizadi va har bir o'quvchi o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bittadan ma'lumot aytadi. Jadval quyidagicha to'ldiriladi:

O'RTA OSIYO BOSIB OLINISHINING ASOSIY BOSQICHLARI			
↓	↓	↓	↓
BIRINCHI BOSQICH 1847-1864	IKKINCHI BOSQICH 1865-1868	UCHINCHI BOSQICH 1873-1879	TO'RTINCHI BOSQICH 1880-1885
↓	↓	↓	↓
<ul style="list-style-type: none"> → Qo'qon xonligining shimoliy viloyatlari bosib olindi; → Avliyoota, Turkiston, Chimkent bosib olindi; → Toshkentni zabt etishga urinish. 	<ul style="list-style-type: none"> → Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlar, Toshkentning zabt etilishi; → Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning olib borilishi; → Bosib olingan hududlarda Turkiston general-gubernatorligining tuzilishi. 	<ul style="list-style-type: none"> → Xiva xonligining bosib olinishi; → Qo'qon xonligining tugatilishi va uning o'rniga Farg'ona viloyatining tashkil etilishi. 	<ul style="list-style-type: none"> → Turkmaniston hududlarida harbiy harakatlar. → Turkmanlarning bo'ysundirilishi; → Kaspiyorti viloyatining tashkil etilishi; → Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo hududida harbiy harakatlarning yakunlanishi.

IV. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (9 daqiqa).

Insert jadvalini «B.B.B» usulida to'ldirish:

V	+	?
1	2	5

«Insert usuli» raqamlar qo'yib belgilar asosida o'qitish. Masalan:

- | | |
|---|---|
| 1. Cho'ponota jangi | V |
| 2. Amir Muzaffarning yengilish sabablari | + |
| 3. Buxoro amirligining yer maydoni | + |
| 4. Protektorat so'zining mohiyati | + |
| 5. Amir Muzaffar va o'g'li o'rtasidagi nizo | ? |

V. DARS YAKUNLARINI CHIQRISH (5 daqiqa).

Mavzuga doir asosiy tushunchalarni o'quvchi daftariga yozdirish; o'quvchilar-da paydo bo'lgan savollarga javob berish; baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA (2 daqiqa):

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash;
2. Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy-hududiy tuzilishini, unda muhim o'rin tutgan shaharlar xaritasini tuzib kelish.



QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

GENERAL FON KAUFMANNING BUXORO AMIRIGA TAKLIF QILGAN SULH SHARTLARI

A'lo hazrat Rusiya imperatori janoblari hukumatiga mansub bo'lgan yerlarga oldin ruslar tomonidan ishg'ol qilingan Qoshg'ar, Dovon va Nurota tog'lari shimolidan tashqari «oq podshoh» tobeligiga o'tishini iltimos (Kaufman tazyiqi ostida tayyorlangan soxta hujjat) qilingan Samarqand shahri o'z muzofotlari bilan kiradi. Janub tomondan bu o'lka Shahrisabz tog'lari bilan chegaralanib, Zarafshon vodiysi va Nurota tog'lari o'rtasidan

o'tadi. Buxoro bilan bo'ladigan chegara esa shu sulh bitimi Amir janobi Oliylari tomonidan taklif qilingan shartlar bilan qabul qilinib, ular o'z muhrlarini bosib qaytarganidan so'ng aniqlanadi. Shundan so'ng chegara g'arb tomondan Nurota tog'larining eng baland joylaridan va Buxoro hududida joylashgan Nurota qal'asidan o'tadi. Shu yerdan Qizilqum sahrosi o'rtasidan o'tib, Bo'tantov orqali Yangidaryo quyilishigacha yetadi.



ABDUMALIK TO'RA FAOLIYATI HAQIDA

...Buxoro amirining taslimchilik siyosati vatanparvar kuchlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular ruslar bilan kurashni davom ettirib, Samarqandni ozod etish ishtiyoqida Muzaffarning to'ng'ich o'g'li Abdumalik to'ra (1848-1909) atrofida uyushdilar. Ular Amir Temurning Oqsaroyida tantanali tarzda Katta to'ra, ya'ni, Abdumalikni amir deb e'lon qildilar. Muzaffarning mulozimlaridan Xudoyor, Abdulla, Ibrohim to'qsobalar va ko'pchilik ulamolar bu qarorni ma'qullab, Amir Muzaffarning taxtdan tushirilganligini tan oladilar. Qarshi ostonasida Buxoro vatanparvarlari son va harbiy texnika jihatda ustun bo'lgan dushmanga qarshi qattiq jang qildilar. Jo'rabek, Bobobek va Sulton Sodiq general Abramov qo'shini bilan janglarda o'zlarining mohir sarkarda ekanligini namoyish qildilar. Ammo

kuchlar teng emasdi. Abdumalik to'ra bilan Sulton Sodiq Xiva tomon qochishga majbur bo'ldilar. 1868-yil 22-dekabrda Xiva xoni mulozimlari Muhammad Niyoz devonbegi va shoir Ogahiy amirzoda Abdumalikni tantanali kutib olishdi. Muhammad Rahimxon II unga bevosita harbiy yordam ko'rsatishga o'jiz edi. Shundan so'ng u Afg'oniston tomon yo'l oladi. Dastlab afg'on amiri unga yordam berishga o'jiz edi, chunki, Angliya bilan yaqinlashib kelayotgan urushda podsho Rossiyasi madadiga tayanishga umid qilgan edi. Abdumalikka Afg'onistonning keyingi amiri Abdurahmonxon va Angliya yordam berishga va'da qilishgan bo'lsa ham, turli sabablarga ko'ra, uning niyatlari amalga oshmadi. Abdumalik 1909-yil Peshovarda armon bilan olamdan ko'z yumdi.

JO'RABEK VA BOBOBEKNING QARSHILIK HARAKATLARI

Rus generali Abramov jazo qo'shini 1870-yil 11-avgustda Shahrisabz yaqinida vatanparvar beklar qo'shini bilan to'qnashdi. Shiddatli janglar uch kun davom etib, nihoyat beklar mag'lub bo'lib, Shahrisabz va Kitob beklilari istilochilar tomonidan egallanadi. Jo'rabek va Bobobek Yoqubbekdan yordam so'rash uchun Qashqar hukmdori huzuriga ketayotganda Qo'qon sarbozlari tomonidan qo'lga olindilar. Xudoyorxon ularni kishanband qilib Kaufmanga «sovg'a» qilib jo'natdi va bundan g'ururlanib, tilyog'lamalik bilan shunday mazmunda maktub bitadi: «Shahrisabz beklari Jo'rabek va Bobobeklar aholisi bilan g'alayon qilib mulklarini besaranjom qilishar edi. Siz esa

ularga uzoq vaqt toqat qilib keldingiz. Mana ular qilmishlariga yarasha jazo olishdi. Kimki yomonlikka fikr qilsa, shunga yarasha o'z jazosini oladi!»

Vatanparvarlarni tutib berib ham Xudoyorxon fon Kaufman ishonchini qozona olmadi. Aksincha, u Jo'rabekning iste'dodidan foydalanishga urindi. Natijada Rus imperatori Jo'rabekka general, Bobobekka esa rus armiyasi mayyori unvonini berdi.

Jo'rabek payti kelib Turkistonning ozod bo'lishiga ishonib yashagan. Uning ana shu tuyg'u bilan yashayotganligi chorizm uchun xatarli edi. 1906-yilning yanvarida general-mayor Jo'rabek no'malum qotil tomonidan o'ldirildi.



KRIJANOVSKIYNING BUXORO AMIRIGA QO'YGAN ULTIMATUMI

1866-yil 12-sentyabrda Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy Buxoro amiriga: «Sizning tomoningizdan o'rtamizdagi tinchlik buzildi, chunki siz Qo'qon xoni bilan bo'lgan munosabatimizga aralashdingiz va doimo bosh tortmayapsiz, buning isboti shuki, Toshkent biz tomondan egallangandan keyin, yosh Qo'qon xoni Sulton Said Murodxonni siz o'z tarafingizga olgansiz. Uni yuboring, hech qanday yomonlik qilinmaydi, bunga ishonib. Bundan tashqari, tinchlik tiklanishi uchun quyidagilarni o'z zimmangizga oling:

- hozirning o'zida 100 ming tilla yuborilishi;
- Buxoroda rus karvonsaroyi bo'lishi va rus fuqarolariga homiyligingizdagi yerlarda biror narsa zarur bo'lib qolsa, bu bajarilishi;
- rus fuqarolariga Buxoro shaharlarining qayerida xohlasa shu yerida

rus karvonsaroylari bo'lib, o'z tovarlarini sotishga ijozat berilishi;

- rus savdogarlarining karvonsaroylardagi to'lovlarni qo'l ostingizdagi fuqarolardan olinadigan to'lovlar bilan tenglashtirishni va rus fuqarolaridan boshqa hech qanday to'lovlar olinmasligi.

Shu kundan boshlab 10 kun ichida sizdan talab qilingan 100 ming tilla keltirilishi kerak, bo'lmasa o'sha kundan boshlab urush qaytadan davom etadi», degan ultimatum shaklidagi maktubni yuboradi. Amir Muzaffar bunga rozi bo'lmaydi. Buning natijasida Krijanovskiy 2-oktyabr kuni amirlikka qarashli O'ratepa qal'asiga yurish qiladi. Qal'ada 3 soatga yaqin ayovsiz jang bo'ladi. Jangda barcha qariyalar, ayollar ham ishtirok etgan. Shturmdan keyin qal'a mudofaasida qatnashgan 30000 kishidan 15000 nafari tirik qolgan.

TARIXIY HUJJAT

GENERAL KAUFMANNING HARBIY VAZIRGA 1873-YIL 13-IYULDAGI MA'LUMOTNOMASIDAN

«...Xiva xonining talablarimizning so'zsiz bajarishga hamda xonlikga osoyishtalik istagi turkmanlarga jarima solish fikrini uyg'otdi. Yovmut urug'i oqsoqollariga 300 ming so'm pul yig'ishni ma'lum qilib, otryad bilan general Golovachyovni ular ustiga yubordim. Yovmutlar buni bilib, turkmanlarning boshqa urug'i yashaydigan joyga qochibdi. Endilikda Ilonli qal'asi bilan Qiziltaqir oralig'idagi Yemralilar manzilida 150 ming turkman yig'ilgan. Ularga erta tongda hujum uyushtirildi. Berilgan kuchli zarba natijasida 500 ga yaqin turkman o'ldirildi ...».

(General fon Kaufman Harbiy vazirga 1873-yil iyulda yo'llagan axborotnomasidan)

OLOY MALIKASIGA TO'N YOPGAN GENERAL

...Malika boshini quyi solgancha shamdek qotib turar edi. Skobelev uning yoniga kelib qo'lini uzatdi. Malika kutilmagan salomdan dovdirab qoldi, lekin tezda o'zini qo'lga olib, qirg'izchalab nimalardir dedi.

Skobelev tilmochga qarab dedi:

– Dodxohga ayting. Uni sihat-salomat ko'rganimdan xursandman. Men uning dono hokimligi haqida ko'p eshitganman. Qo'shni xonlar orasida hurmat e'tibori kattaligini ham bilaman. Aminmanki, u ruslarga dushmanlik befoyda ekanligini yaxshi tushunadi va Oloyning

ko'chmanchi aholisini tinchlikka unday oladi. Unga yana shuni ham aytingki, u ona sifatida o'z o'g'illari bilan faxrlanishi mumkin. U yana shuni bilsinki, ruslar jasur dushmanlarini hurmat qiladilar. Agar u o'z o'g'illarini Oloyga qaytishga ko'ndirsa, men ularni botirlar sifatida mukofotlayman. Endi esa men dodxohni dasturxonimizga taklif qilaman.

General buyrug'i bilan uning oldiga noz-ne'matlar tog'dek uyilgan katta patnis keltirildi. Ziyofatdan so'ng esa Skobelev o'z qo'li bilan malikaning yelkasi-ga zarrin to'n yopdi.

XUDOYORXON HAQIDA TARIX CHIZGILARI

Sheralixonning o'g'li Xudoyorxon (1831–1882) uch marta – 1845, 1862, 1865-yillarda taxtga chiqib (1845–1875-yillarda tanaffuslar bilan: 1845–1858; 1862–1863; 1865–1875), umumiy hisobda chorak asr hukmronlik qilgan. Qaynotasi Musulmonqul tomondan taxtga o'tqazilgan. Ammo yosh bo'lganligi tufayli amalda davlat ishlari-ni Musulmonqul boshqarib borgan. Eng muhim lavozimlar qipchoqlar qo'liga o'tadi va ular xohlaganicha beboshliklar qila boshlaganlar. Natijada ichki kurash kuchayib, 1852-yilda qipchoqlar qirg'ini boshlangan. Buning oqibatida 20 mingga yaqin qipchoqlar o'ldirilgan, Musulmonqul esa Qo'qonda dorga osilgan. Shu yildan Xudoyorxon davlatni mustaqil idora qila boshlagan. Ammo, tajribasizligi tufayli ko'p xatolarga yo'l qo'ygan. Bundan foydalangan akasi Mallabek taxt uchun kurashni boshlab yuborib, 1858-yilda o'zini Qo'qon xoni deb e'lon qilgan. Xudoyorxon Buxoroga qochish-

ga majbur bo'lgan. 1863-yilda Buxoro amiri Muzaffar yordamida Qo'qon taxtiga qayta o'tirgan. Ammo Musulmonqulning o'g'li mingboshi Alimqul xonzodalardan bo'lmish yosh Said Sultonmurodni xon deb e'lon qiladi va Xudoyorxonni yana Buxoroga qochishga majbur etadi. Alimqul amir ul-umaro bo'lib, amalda davlat ishlari-ni yakka o'zi boshqarib borgan. 1865-yilda Qo'qon taxtiga Xudoyqul («Belboqchixon» degan laqabi ham mavjud) o'tirgan. Ammo u 14 kundan so'ng xazinani o'zi bilan olib Qashqarga qochib ketgan. Bundan foydalangan Xudoyorxon yana taxtga chiqqan. 1875-yil iyul oyida Po'latxon va unga ergashgan ukasi Sulton Murodbek, o'g'illari Nasridin, Muhammad Aminbek, shuningdek, sobiq sarkardalari Iso avliyo, Abdurahmon oftobachilarning birlashgan qo'shinlariga tob berolmay, Xo'jandga qochish-ga majbur bo'ladi. Oradan bir necha kun o'tgach, Turkiston general-gubernatori fon Kaufman chaqirig'i bilan Toshkentga



kelib, o'sha yilning 12-avgustida: «Peterburgga, imperator huzuriga borasan», deb aldab, Rossiya ichkarisiga jo'natib yuboriladi. Imperatorning maxfiy topshirig'i bilan Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy tomonidan o'sha shaharda majburiy ushlab qolinadi va ikki yildan ziyodroq saqlanadi. Nihoyat, u 1877-yil Turdiali ismli harbiy bilan til topishib, uning yordamida avval Afg'oniston, so'ng Eron hududi orqali haj niyatida Makkaga boradi. Haj ziyoratidan so'ng Iroq, Hindiston va boshqa mamlakatlarda bo'ladi. Xon Eronda ekanidayoq afg'on amiri Abdurahmon eshitib qolib, Hirot hokimiga Qo'qon xonining barcha buyumlarini Hi-

rotga olib kelish va u yerdan ikrom-u ehtimom bilan Kobulga yetkazish xususida farmon beradi. Biroq Karruxda xonning betoblighi zo'rayib, Hirot dan kelgan elchilar bilan uchrashganda, ularga ro'yixush bermagan, ularning Hirot shahriga takliflarini qabul ham qilmagan. Karruxda xon bevafo dunyo lazzatlaridan voz kechib, 1882-yil dunyodan ko'z yumdi.

Xudoyorxonning o'g'illari Nasridinbek, Muhammad Aminbek, Sayid Umarbek, Ibn Yaminbek, O'rmonbek, Fansurullobek; qizlari To'ra poshsha, Ozodaxon, Shahzodaxon, Mohzodaxon, Xonposhsha singari farzandlari bo'lgan.

AMIR HUZURIGA YUBORILGAN ELCHI XUSUSIDA

1254-sanai hijriyda, 1838-milodiyda Buxoroyi Sharifga Amir Nasrullohxon huzuriga ingliz hukumati tarafidan elchi bo'lib polkovnik Sutud Dorat (Stoddardt) kelgan edi. Mundan buyon ingliz hukumati birinchi daf'atan boshlab, Movarounnahr hukumati bilan munosabati do'stona turmoqqa niyat va mubosharat etgan edi. Shu asnolarda inglizlar afg'onliklar bilan muhoraba (jang) qilishib, Afg'onistonga kirgan edi. Elchi bo'lib kelgan Sutud Doratning maslak va muddaosi inglizlar tarafidan biror turlik yomon niyat va yo zarar keltirmaslikka amirni ishontirib, boshqa davlatning, ya'ni Rusiyaning bu mamlakatlarga qasd va tajovuzidan saqlamoq va mudofaa etmoqni xohlagandan iborat edi. Buning bilan barobar, agar amir xohish qilib, munosib ko'rsa, Buxoro askarini yangi va tezotar to'plar bilan sipohlantirmoq va askariy muallimlar bermoq va Rusiyaning xufiya harakat maqsadlaridan Buxoro hukumatini xabardor etmoq

edi. Amir Nasrullohxon ingliz elchisini ikki marta huzuriga qabul qilib, yaxshi muomala ko'rsatib, yaxshi muomalasini tabdil qildi. Polkovnik Sutud Dorat mirzoxona va kotibxona tarbiyasidan olgan yumshoq siyosatchilardan bo'lmay, askariy tarbiya olgan to'g'ri, jasur, qattiq va o'tkir bir odam edi. Shuning uchun Buxoroning eski usuli rusumlariga ortiq darajada ahamiyat berib, zehn solmagan edi. Doimo elchixonadan chiqib, Buxoro bozorlarini tomosha qilar edi. Aksar otliq yurib, Arki oliy maydonidan, ya'ni Registondan o'tar vaqtda shahar ahli odati bo'yicha otdan tushmas edi. Vaholanki, amir turadigan Arki oliy oldidan o'tarda amirga e'zoz yuzasidan otdan tushib o'tar edilar. Ingliz askari ma'muri Buxoroning bu tariqa eski odatlaridan g'ofil bo'lur edi va yoki bu tartiblarga lozim darajada ahamiyat bermas edi. Har nima bo'lib, Amir Nasrullohxon elchiga g'azablanib, zindonga solmoqqa farmon berdi.

...Bu ishdan xabar olib, ingliz hukumati Rusiya davlatiga murojaat qilib, boshqa maslahat bilan Buxoroga yuborilgan Rusiya ma'muri janob Bo'takov vositasi bilan polkovnik Sutud Dorat ozod qilinib, afg'on sarhadiga yuborilmog'ini talab qildi. Bu xususda janob Bo'takovga Petrograddan buyruq berildi. Lekin Amir Nasrullohxon Rusiyaning iltimosiga ham quloq solmagan edi. Hattoki, Rusiya elchisi Bo'takov janobni ham ko'p vaqt huzuriga qabul qilmay, amir Ho'qand safariga chiqadigan kuni Bo'takovni talab qilib, ot ustida ko'rishib qoldi. Amirning ot ustida Ark darvozasining yonida ko'hansol Rusiya elchisiga ko'rinish bergani – haqoratdek muomalasi edi. Lekin Movarounnahr idora usullarini bilgan Bo'takov janoblari go'yoki hech nimani bilmagan va anglamagandek sukut qildi. Ingliz elchi hibsda qolib, Rusiya elchisi yurtiga qaytdi. Buxoroga kelgan ingliz elchisi orqasidan yana kapitan Qonulli (Konvoli) Xivaga borib, undan chet yo'llar bilan yurib, Ho'qandga kelib, Muhammad Alixon bilan ko'rishgan edi. Muhammad Alixon inglizdan biroz harb usullarini o'rgan-

moqni qabul qilgan edi. Lekin ko'p vaqt o'tmay, Buxoro askari yetishib Muhammad Alixon askari Mahram degan joyda buzilib qochgan paytda, kapitan Konvoli Nasrullohxon da'vati bilan amirning Mahramda bo'lgan o'rdugohiga boradi. Amir muni han tavqif qilib, polkovnik Sutud Doratga hamroh qilmoq uchun Buxoro zindoniga yubordi. Amir Ho'qandni tor-mor etib, Buxoroga qaytgach, ingliz elchilariga islom dinini qabul qilishni taklif qildi. Inglizlar javobida: «Hukumatimiz tarafidan Movarounnahrda topshiriq bilan keldik, dinni tark etmoqqa yoki din qabul qilmoqqa kelmadik, umid qilamiz, shunga qarab muomala qilinsun», – debdilar. Bu rijolariga qarshi jallodga buyurib, elchlarni qatl qildi (*Aslida bu ingliz elchilari Rossiya imperiyasiga qarshi xonliklarni ittifoqqa taklif etish va ayg'oqchilik yo'li bilan ma'lumotlar to'plash uchun yuborilganligi endilikdagina aniqlandi. Muarrix Mulla Olim Mahdum Hoji o'z davrida bu masalaga yetarlicha oydinlik kirita olmagan – muallifdan*).

*Mulla Olim Mahdum Hojining
«Tarixi Turkiston» asaridan.*

AMIRLASHKAR ALIMQULI TARIXI

Ma'lum o'lg'aykim, amirlashkari marhumning nasablari qirg'iz-qipchoq jamoasidan bo'lub, ismi shariflari Mullo Alimquli Hasanbiy o'g'li erdi va validayi shariflari Shaharbonu bibi erur. Mazkurlar Xo'qand uezida (uyezdiga) Navig'ut bo'lustida Bo'jun Butkan degan mavzeda turg'uchi fuqaro ahlidan erdilar. Qiladurg'on ishlari qo'yu mol va yilqi to'xtatib, boqib, ushbulardan foydalanib yurur erdilar. Xudovandi karim lutfu karami bo'lub, mazkur Hasanbiydan shu mav-

zeda Mullo Alimquli amirlashkar va yana bir qiz... vujudg'a kelib, (Andijon) uezig'a tobe Qo'rg'on tefa bo'lustidagi (volosti) Toshloq fulonida tarbiyat topib(dilar).

Amirlashkari marhum ikki yasharlik vaqtilarida otalari Hasanbiy vafot qilib, validalari qo'llarida yosh va sag'ir qolib, bor vujudi yoshlig' behuda harakat qilmay validalarining akalari Mullo Do'st oxund degan, to olti-yetti yashar bo'lg'onlaricha Bo'jun Butkan mavzeda o'qub, savodlari chiqqondan so'ngra Qo'rg'on tepa bo'lis-



rig'a ko'chib kelib, andin Andijonda Oqmasjid madrasada bir-ikki yil o'qub, andin so'ngra Xo'qand borib, Maxzum Hoji rais janobi Domullo Ayozi maxdum marhum o'g'illari xizmatlarida o'qub, fi-l-jumla ilmu xat hosil qilib, shul asnoda taxminan janobi amirlashkari marhum o'n sakkiz yashar bo'lg'on erdilar. Andin Amirlashkarni hamshiralari o'lg'an Tag'oyqul dodxoh olib kelib, ba'zi sipohigarchilik ishlariga aralashturub, ul yerda ham xizmat ishlarini bir necha vaqt yaxshi qilib turib, andin yana Qo'rg'ontepa bo'lustida otalari o'rniga biy bo'lub, nihoyat, hushmandlik va ziyraklaridan ishlarni yaxshi saranjom aylab, fuqaro va xalqullohga naf va osiyish yetkurub, kundan-kun rivoj va ravnaqlari ziyoda bo'lg'an sababli, za-

mona mardumlari ul kishiga hasad qilib, beaqlu bexiradlar adovat kamarini bellariga bog'ladilar. Va amirlashkari marhum bir kattaroq joyga suyanmoq, takiya qilmoqni lozim va zarur fahmlab ul fursatda Xudoyorxonni ota bir volida boshqa Mallabek Sher Alixon o'g'lini o'z ayni ukosi Andijon hokimi So'fibek to'y qilgan uchun atrof javonibdan jamii katta sardor va sipohlarning kelganlarida Amirlashkari marhum ham bir foygachi ot bilan kelib Andijonda Mallabek mazkuriga navkar va yigit bo'ldilar. Ul holda amirlashkari marhum ham taxminan yigirma ikki yoshda erdilar.

Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Amirlashkar Alimquli tarixi» asaridan.

TOSHKENTGA HUJUM VA AMIRLASHKAR ALIMQULI HALOKATI

...Mulla Alimquli Toshkand oqsoqollari va arboblari, akobirlariga farmon berib, bu viloyatga bo'lgan har kishi tuya, ot, aravada yoxud piyoda bo'lsin, yuklarni, podshohlik to'pxonasi va zambaraklarini, sultonlik chodiri va sarpardasini Parak (Chirchiq) suvining u tomoniga o'tkazishga buyruq berdi va barcha Parak suvidan o'tdi. Shu asnoda Sho'rtepa yuqorisida, Rusiya askarlari tomonida bir havoyi mushak osmonga otildi. Bu voqeadan so'ng Mulla Alimquli amirlashkar o'rnidan sakrab turub, baland ovozda bu Rusiya askarlarining voqeadan ogohlantirish berayotganini va ertaga jang bo'lishi mumkinligini aytdi.

...Sho'rtepa tomondan Siddiq to'ra askarlari kelib, Rusiya qo'shinidan ikki firqa Sho'rtepa yuqorisidan Oltintepa (*hozirda Shayxontohur dahasi*) tarafga kelayotgani xabarini yetkazdi. Ular Oltin-

tepadan o'tib, qariyb Nazarbek qo'rg'oniga yaqinlashdi. Ularning o'rtasida bir zambarak bo'lgan bir firqasi suvoriylar, bir firqasi piyodalar bo'lgan bu ikki firqa Salor arig'i bo'yida to'xtadi.

...Mulla Alimquli tezlikda Afrosiyob tepaligidan Xo'jand darvozasiga borib, avvalo, Jomador to'pchiboshi navkarlarini otashxona va zambaraklari bilan guruh-guruh qilib, bir safga tortdi va saflar o'rtasiga 36 ta zambarak qo'ydi.

U tomondan Rusiya askarlari Salor arigidan o'tib ro'parama-ro'para bo'ldilar. Kamina ham o'z do'stlari bilan o'sha yerda edi. Shu payt Rusiya tarafdan zambarak o't ochib, piyoda askarlar yoniga tushdi. Shundan so'ng, Mulla Alimquli amirlashkar ham Jomador to'pchiboshi va Hindubacha yuzboshiga, o'q otuvchilar va sarbozlarga zambaraklardan o't ochishga buyruq berdi.

...Dushman tomonda to'fang va zambaraklardan otilgan tinimsiz o't ochishlardan so'ng (musulmonlar) uch tomondan kengayib, suvoriylar va o'qchilar tomon tez sur'at bilan Nazarbek qo'rboshi qo'rg'onchasidan o'tib, u yerdan Olimbek yo'li va Oltintepadan o'tib, Sho'rtepa tarafga, tepadan pastlikka qarab to'xtadilar. Rusiya askarlari esa chekinishga majbur bo'ldi. Mulla Alimquli jangda jonbozlik ko'rsatgan Jomador to'pxonaboshi, Hindubacha yuzboshi, Xayrmuhammad afg'on ellikboshi, ponsadg'ozilik Mirbo-bo ponsadboshi va ularning sarbozlarini jasorati uchun munosib taqdirladi. Yaradorlar va murdalarni shaharga yubordi.

...Xabar yetdiki, Hindubacha yuzboshi to'pxonasi yuqorisidan Abdullabek libosbardor qirg'iz valadi Olimbek qirg'iz (dastasi) uchqur otlari bilan Jomador Hindustoniy jang qilayotgan yerga yetib bordi. Ahvol baribir tang edi. Mulla Alimquli tartib bilan shaharga chekinishni buyurdi. Ular Abdullabek libosbardor otining ko'zi to'fang o'qidan jarohat oldi. So'ng Abdullabek boshqa tulporni minib, Mulla Alimquli bilan birga Xayrmuhammad afg'on to'pxonasi tomon yo'l oldi. Xayrmuhammad afg'on to'pxonasiga kelgach, Toshkent ahliga sekin-asta shahar ichiga qaytishga, sarboz va mujohidlarga esa jang maydonida qolib, jangni davom ettirishni buyurdi. So'ng Jomador Hindustoniy va Hindubacha yuzboshi birgalikda barcha zambarak va to'pxona, qo'rxona va qo'rg'oshin, doru va asboblarni Mulla Alimquli oldiga jam qildilar.

Zambarak va to'fangdozlik qilib, uch joydan nasroniylar tomonga olti zambarakdan olti bor o't ochdilar. Jang shunday davom etib, Salor arig'igacha yetib keldilar. Biz ham Tarxon – sayyod yeridan

o'tib, shu yerdagi chorbog'imiz tomon ravona bo'ldik. Mulla Alimquli g'oziylar bilan katta ko'chada jang bilan mashg'ul bo'lib, biroz turib qoldi.

... Bir payt ot ortida Asadullabek tabib valad Abdullabek Qobqoziy Mulla Alimqulini yelkasida ko'tarib kelardi. Shu asnoda Asadullabek valadi Abdullabek va Abdullabek libosbardor Mulla Alimquli g'oziyni jang maydonidan Toshkent o'rdasiga olib bordilar.

...Birozdan so'ng Abdullabek murdaga sarocho tashlab, Mulla salom valadi Dodaboy og'aliq va yana Qiyot mahallasilik to'rt kishi tobutning to'rt tomonidan ko'tarib kelardi. Kamina ham tobutning bir tomonidan ko'tarib, yig'lashga tushdim. Tobutni Lagar hovuzining shimol tarafiga, qayrag'och daraxti ostiga qo'ydik. O'sha qayrag'och hozir ham bor bo'lib, qabrning janub tarafidadur.

...Abdullobekdan marhumning ibtidosidan intihosigacha bo'lgan hayotidan so'radim. G'assol murdaning kiyimlarini, jomasini, kurtasini va o'sha davr odamlari jig'a deb atovchi qizil-oq rangli shimini yechdi. Ko'rdimki, o'q Amirlashkarning orqasining chap tomoni, belining pastki qismidan tegib, o'ng tomoni yuqorisidan o'tib ketibdi. Murda yuvilgach, mushki anbar surilib, kafanlandi va tobut o'sha hovuz bo'yiga qo'yildi. Hijriy 1381-yil sulhijja oyining 25-kuni yakshanbadan dushanbaga o'tar kechasi (milodiy 1865-yil 21-may, yakshanba) zamon bahodiri va davr jangchisi Mulla Alimquli amirlashkarni qabrga qo'ydik.

*Bevosita Toshkent mudofaasi
ishtirokchisi, tarixchi Muhammad
Solihxo'ja Toshkandiyning
«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridan.*



TOSHKENTNING «QO'SHIB OLINISHI» HAQIDAGI SOXTA BAYONNOMA

Ko'p o'tmay, mulla Solihbek oxundga: «O'z tobelari bilan Shirinuf (Chernyayev)-ning chodiriga yetib kelsinlar», – degan xabar keldi. O'sha zahoti mulla Solihbek, Berdiboy Sebzori, Halimboy mirzo Alimboy qo'shbegi, Fayzbachcha Toshkandiy, Qosimboy Qarotutiy Toshkandiyning birodari Azimboy, sanjiqli jamoasidan mulla Qo'shqazoq va boshqa turli a'yonlar Childuxtaron (shaharning sharqiy tomonida) mavzeyida to'plandilar.

Shirinuf ularning oldiga kelib shunday dedi: «Poytaxt Fetirburx (Peterburg)dan, ya'ni podsholikdan menga ma'lumot keldi. Unda sulh sababini va Turkiston zaminining podsho hukumatiga bo'ysundirilishini to'la-to'kis o'sha viloyat aholisi guvohligida xatga tushirib, bu tomonga jo'natilsin», – deyilgan. Shunga ko'ra, sizlarga shuni ham aytmoqchi edimki, maktab quyidagi mazmunda yozilishi kerak: «Uzoq vaqtlar va zamonlardan buyon, bu Turkistonzamin o'lkasida Farg'ona hukmdorlari tomonidan kambag'allarga va xalqqa jabr, zulm va sitam qilib kelindi. Zakot va xirojni ko'paytirib ko'chmanchilarni turli tomonga to'zitib-tarqatib yubordilar. Chorvadan olinadigan va boshqa zakotlarni me'yoridan oshirib, urf-odat, rusum va taomildan qaytdilar, hech bir mehr-shafqat qilmadilar. Ko'p yillar davomida katta boshliqlar o'rtasida hukmronlik uchun talash ketib, ular ko'pincha fitnatchilar, buzg'unchilar va ig'vogarlar so'ziga uchib o'rtada nohaq qonlar to'kildi. Shariat hukmlari va ulamolar aytganini inkor etmishlar, ulamo mehr-muhabbati va fuza-lo suhbatidan uzoqda erurlar. Farg'ona va Turonzaminni ko'pincha qipchoqlar, qirg'izlar, qozoqlar, avboshlar va bebosh-

lar boshqarib kelmoqdalar. Shu sababdan, biz o'z ixtiyorimiz va istak-xohishimiz bilan, ularning jabr-zulmiga xotima berish uchun, aholi va mamlakatning tinchligini o'ylab, Rusiya va nasroniyaning askarlari, qo'shinlari va sardorlarini olib keldik va mamlakatni topshirdik».

Buni eshitgan Mulla Solihbek oxund xomush holatda o'yga cho'mdilar va bosh ko'tarib, shunday dedilar:

«Bizlar bo'lib o'tgan voqealarni o'zgartirmasdan va almashtirmasdan haqiqatni aytamiz. Ya'ni Oqmasjid shahridan G'ulja tomondan Turkistonzamin va Toshkandga qarashli qal'alar va viloyatlarni nasroniya va Rusiya jang, talash va urush bilan qo'lga kiritdilar. Ulardan ko'pi tunda shaboxun yo'li bilan (*tunda bekinib kelish*) to'satdan, hech bir muzokarasiz, va'dasiz, muhlatsiz, qattiq urush-talashlar bilan yuz berdi. Ayniqsa, Toshkand shahri zulhijjaning o'rtasidan to safar oyining 12-kunigacha suvsiz va oziq-ovqatsiz jang qildi. Lashkarboshi Mulla Alimquli shahid bo'lgandan keyin sardorsiz, sultonsiz, askarsiz, qo'shinsiz, lashkarsiz va Buxoro amiri, Xorazm, Urganch, Farg'ona va turli Muhammadiya va islomiyaga mansub viloyatlardagi elatlar va qabilalar ko'magisiz, urush asbob-anjomlari, doru (porox) qo'rg'oshini (o'qi) bo'lmagan holda, fuqaro, aholi va Toshkand shahrida yashovchilar g'azot e'lon qilib urushdilar. Seshanba kuni tongga yaqin Rusiya Xiyobon darvozasi va devor ustidan fuqaroni g'aflatda qoldirib oshib tushib, oshkor bo'lib qolgach, urush qilmoqqa kirishib, to payshanba kunigacha jang-jadal davom etib, ko'p imoratlarga o't ketib, suvsiz va och aholi, do'st, dushman

yelkama-yelka turib qattiq jang qildi. Payshanba peshindan so'ng ahli nasroniya va Rusiya yarashish istagida va'dalar berib, ahd-paymonlar berib, sulh tuzishga rag'bat ko'rsatdi. Bizlar ham ma'lum shartlar asosida sulh tuzdik».

...Shirinuf jahl va g'azab bilan: «Kimki Mulla Solihbek oxundga qo'shilsa, bir tomonga o'tsin!» – dedi.

Oxund domullo, Berdiboy Sebzoriy, Halimboy mirzo Azimboy o'g'li, mulla Qo'sh, Azimboy, Fayzbachcha va boshqalar – yetti kishi (Chernyayevning) buyrug'i bilan Rusiya soldatlari o'rtaga olib, Chimkent qal'asidan pochta aravasiga solib, Qiziljar qal'asi tomondan olib ketib, Qafol va Do'm manziliga eltmishlar... Undan so'ng, Shirinuf eshon Ha-

kimxo'ja qozikalonni chaqirtirib, xatning o'sha musavaddasini berib: «Xatni yozib bo'lgach, shaharning a'yonlari, oqsoqollar va savdogarlariga muhr bostirib yetkazsin», – dedi. So'ngra Shirinuf Abdusaid eshon va Hodixo'jani chaqirtirib, xatni ularga berdi. Ular podsholik hisobidan haj qilish bahonasi bilan xatni Fetirbuxga yetkazib, keyin Istanbulga, undan Ka'ba uyiga o'tishlari kerak edi.

O'sha xat pochta axboroti vositasida yetkazilib, axborotnomalar Istanbulning devorlari, bozorlari va saroylariga yopishtirib chiqilgan edi.

*Bevosita Toshkent mudofaasi
ishtirokchisi, tarixchi Muhammad
Solihxo'ja Toshkandiyning
«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridan.*

TOSHKENT SHARTNOMASI

...Odamlar sarosimaga tushib qolgan bir paytda, elchilar kelishi haqida xabar yetdi. ...Chodirdan Shirinuf (Chernyayev) va Oqmasjidning hokimi Kuriz ismli kishi yetib kelishdi. U darhol qozi Hakimxo'ja, Abulqosim eshon, domla Solihbek, uchta qozi, ulamolar, Toshkentning to'rt rukn (daha)ning oqsoqollari, shaharning akobirlari, sardorlari, savdogarlari va kadxudolari bilar birma-bir ismini aytib tanishib, hol-ahvol so'radi. Shundan so'ng, va'dalar berib, sulh tuzish haqida iltimos qildi. Bu haqda u o'z podshohlari nomidan, bu tomondagilar (toshkentliklar) esa hozirgi va kelajak fuqarolar nomidan ahdnoma va shartnoma tuzdilar. Toshkent shahrining to'rtta arkoni uchun to'rtta ahdnoma – bir ahdnoma beshyog'ochliklar dahasi uchun, bir ahdnoma Shayx Hovandi Tohur aholisi uchun, bir ahdnoma sebzorliklar uchun, bir ahdnoma ko'kchaliklar uchun.

To'rt arkonning muftilari, a'lamlari va qozilari to'rtta ahdnomani yozib, unda quyidagi shartlarni ko'rsatadilar:

1. Musulmonlar o'zlarining qadimiy tamoyillariga qat'iy qoladilar.
2. Har yilgi hosildan zakot va xirojni ham Muhammad (s.a.v.) shariatiga muvofiq tarzda musulmon amlokdorlar yig'ib beradilar.
3. O't-o'lanlar, o'rmonlar, to'qayzorlar, umuman, xalq foydalaniladigan, podshohlikka tegishli narsalarni foydalanish qadimgi taomilga ko'ra bo'ladi.
4. Rusiya podshohining askarlari mahalliy aholi hovlilarini qushxona qilmaydilar.
5. Aholidan yillik daromad solig'i olmaydilar.
6. Bir millat vakili boshqa bir millat vakiliga shariatga xilof tarzda zulm qilmaydi. Agar shariat asosida sabablar bo'lsa, u holda islom qozisiga murojaat qiladi.



Respublika va o'sha paytdagi shariat peshvolari ta'lim markazi aniq qab beradilar. Noshar'iy yo'l bilan birov birovdan bitta xas ham olmaydi.

Ana shu tarzda hamma narsani shariat asosida tasdiqlab, o'sha yerda hozir muharrirlar yozdilar. Majlis hozirlari o'sha yerda ahdnomaga muhr bosdilar. Domla Solihbek oxund menga: «Ey, o'g'lim,

yaqinroq kelib, bu ahdnomalarni diqqat bilan o'qib chiqsang, chunki bu hujjat bizlardan keyin sizlar uchun asqotadi», – dedilar. Men Beshyog'och ahdnomasining ibtidosidan intihosigacha o'qib chiqdim.

Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridan.

1866-YILGI VOQEALAR BAYONI...

...1282-yil ramazon oyining oxirgi o'n kunligida (1866-yil fevral) o'rus kofirlari Toshkand viloyatidan Jizzaxni zabt etish uchun lashkar yig'ib, qishning o'rtasida harakat boshladilar. Sayhun daryosi bo'liga kelib, undan kemada suzib o'tib, Jizzax sari yo'l oldilar.

Jizzax qal'asining hokimi Ya'qubbek degan bir g'ulom qal'a himoyasiga tushib, kutib turdi. Podshoh (Amir Muzaffar) Samarqandga kelib, shu yerdan ketma-ket ilg'or dastalarni jo'natib, Jizzaxni behisob lashkar bilan to'ldirib yubordi. O'ruslar hiylayu nayrang bilan qal'aga kirmoqchi bo'ldilar. Shu payt odamlar mal'unlarni tanib qolib, shovqin solib, to'rt tomondan ihota qildilar. Kofirlar to'pu to'fang bilan o'q uzdilar, keyin orqaga chekinib, sog'-salomat o'z qo'shinlariga qaytdilar. Uchtepa qishlog'iga kelib, o'n besh kuncha yashadilar. Ikki tomon ham urushga jazm qilmadi. Ya'qubbek g'ulom zamona-sozlik va odamiylik yuzasidan tuyalarga oziq-ovqat va yemu hashak ortib kofirlarga jo'natdi. Kofirlarning ahvoli tang bo'lib, Sayhun yaqinidagi Bo'yoqchiko'l mavzeyiga keldilar.

Shu vaqtda Buxoro podshohi ... Amir Muzaffar o'zining qo'polligi, mumsiqlligi va aqli ko'rlligi bilan g'azovot deb, shum niyatini yashirib, Ho'qandi Latifga yurishdek fosid hayolni boshdan kechirdi. Bir qancha bebosh, avbosh va daydilardan

lashkar yi'g'ib, katta dabdaba va saltanat bilan Jizzaxga keldi.

...Xon Xudoyorxon ham saltanat taxtiga o'tirib, hali murod gulini hidlamasdan, osoyishtalik damini surmasdan turib, tinch Ho'qandi Latif viloyatida katta fatorat yuz berdi (*Xudoyorxon Qo'qon xonligi taxtiga Amir Muzaffar tashabbusi bilan chiqqanligi bois, unga itoat qilar edi – muallifdan*).

...Ho'qandi Latif viloyatining aholisi davr kulfatiga giriftor bo'ldilar. ...Amir Muzaffar Ho'qandi Latif lashkarini oldingi safda kuffor urushiga jo'natib, ... mahrami xoslarini va sanoqsiz yasovullarini nomalar bilan do'q-po'pisa qilib, Xudoyorxon oldiga jo'natardi. Xudoyorxon Amirning muddaosini farosat bilan tushunib, zamonasozlik qilib, bir necha ming sarboz, yasovul va bir necha to'plarni olib shahardan yarim farsangcha uzoqroqdagi Yemasjid qishlog'iga keldi. O'n besh kuncha shu manzilda istiqomat qilgach, amir yasovullari kelib, yana urushga chorlab, Qayrag'och qishlog'iga olib keldilar. Uch kuncha shu yerda turib, zulqa'da oyining 26-seshanbasida (1866-yil 14-aprel) o'ruslarga qarshi g'azovot uchun sayhun daryosiga kelib, undan (daryo) ikki navbatda lashkari bilan o'tib, Oqjar mavzeyida to'xtadi. Buxoro amiri ko'rdiki, xon uning so'ziga kirmasdan boshqa yo'lni ixtiyor etdi, shunda u ko-

firlar urushini bir tomonga surib, qahru g'azab bilan Ho'qandi latif sari yo'l oldi.

... (Amir Muzaffar) xon hazratig'a (Xudoyorxonga) har kun kishilarni yuborib, ularni kufforlar bilan jang qilishga majbur etardi. Amir noiloj, Mayda lulg'un degan joyga yetib keldi. Shu yerdan Abdug'af-forbekni 5 guruh tug'li qo'shinga sardor qilib, Qurama viloyatiga jo'natdi. O'zi o'sha yerda qolib, Olloyorbek mang'it, Ya'qubbek g'ulom, Sher Ali g'ulom va boshqa sarkarda – ponsadlarni ko'p ming lashkari bilan o'rislarga qarshi borishga buyurdi.

...Islom lashkari harakatga kelib, urush maydoniga jasorat bilan kirdi. Yakshanba kofirlar uchun ibodat kuni edi. Peshindan keyin ibodatdan forig' bo'lgan o'ruslar kelib, islom lashkariga qarshi birdan hujumga o'tdilar. Ikki tomon bir-biri bilan to'qnashib, ko'rgan va eshitgan kishining aqli hayratda qoladigan urushni boshlab yubordilar. O'ruslar hushsiz mang'itlarni to'fang bilan otardilar. Lashkari islom parishon va parokanda bo'lib, cho'l-u biyobonga qochib ketdilar. Amir shu qochishda Jizzaxga yetib keldi. U Jizzaxda ham to'xtamasdan Samarqandga qochib ketdi.

...Lashkari kufr (Rossiya imperiyasi qo'shinlari) yakshanba kuni jumo-

dul-oxir oyining o'n uchinchisida Jizzax tomon borishga amr etdi. Shaharga bir yarim farsax keladigan masofaga qo'nib, odamlarning xafsalasini pir qildi va bir necha kundan keyin, erta tongda qal'a darvozalariga hujumga o'tdi. Gubernator qal'a bosib olinishiga buyruq berib, o'zi Buxoro darvozasi oldida turdi. Lashkari islom qal'a ichidan turib, to'p-u to'fangni ishga soldilar. Kofirlar esa tashqaridan o'q otib, taloto'b bilan shaharga kirdilar. Kofirlar musulmonlarni uch tomondan to'sib, to'p-u to'fang zarbi ila shunday urushdilarki, o'lganlarning hisobi yo'qdir. Mang'it sipohidan taxminan 15-16 ming kishi o'z sardorlari ila shahid darajasiga yetgan edi.

...Buxoro amirining farmoniga binoat Samarqand voliysi bir necha ming sarbozni Jizzaxga jo'natdi. Ular Jizzax qal'asiga ozuqa jo'natishga qarshilik qilib, shu jihatdan o'ruslar vaziyatini og'irlashtirib yubordilar. Boshqa tomondan amir o'ruslarga elchi jo'natdi. Buxoro amiri elchisi va vakili Orenburg viloyatida sulh tuzdi. Shartnoma asosida o'ruslar tomonidan zabt etilgan Yangiqo'rg'on Buxoro amiriga qaytarildi. Buxoro amiri esa Jizzaxni o'ruslarga berdi.

Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning «Tarixi Jahonnamoyi» asaridan.

ZIRABULOQ JANGGI

Quyosh savr burjining 18 darajasida edikim (1868-yil bahori), Turkiston sipohsologi (*Turkiston harbiy okrugi boshlig'i*) Kaufman taxminan 5 ming saralangan O'rusiya askarlari bilan Samarqandni zabt etishni o'ziga maqsad qilib, Toshkentdan yo'lga chiqdi. Jizzaxda bir necha kun to'xtab, javzo oyi boshlarida Zarafshon daryosiga yaqinlashdi. Shu yerda

amirdan elchi kelib, Kaufman tomonidan yangi tartib va tanzim berib amirga yuborilgan ahdomani olib ketdi. Amir (Muzaffar) ahdomani o'qib, qo'yilgan shartlarga moslab qabul qilib, Kaufmanga jo'natgan edi, Kaufman elchiga aytdiki: «Bugun men yurish uchun endi otga minganman, kechqurun manzilga yetsam, ahd shartlari borasida muzokara qilaman». Kaufman



qinlashib, Zarafshon bo'yida Tali siyoh tepasida Buxoroni ko'rdi. Kaufman elchiga aytdiki, «senga ikki soat muhlat, chopar jo'natib, buxoroliklarni narigi sohildan qaytarasan, biz hech qanday to'siqsiz daryoni kechib o'tsak, shu yerda sen bilan sulh haqida gaplashamiz». Elchi chopar yuborib, bu shartni Buxoro amiriga ma'lum qildi. Ular shu va'daga ishonib, o'ruslar Zarafshon daryosidan kechib o'tayotgan paytda ularga hech qanday qarshilik ko'rsatmadilar. Kaufman boshliq o'rus askarlari suvdan talafotsiz o'tib, muzokara va sulhni kutib turgan buxoroliklarga to'satdan hujum qilib, ularga talafot yetkazdilar. Shundan keyin Kaufman sulh taklifini qabul qilmasligi haqida qat'iy javob berib, elchini qaytardi. Firibga duch kelgan sodda elchi mayus bo'lib Buxoroga qaytdi... Buxoro sipohi Samarqandga kelib kirmasdan, Buxoro tomon ketdilar. O'ruslar Amir Temur poytaxti sanalmish Samarqand shahrini tasarruf qildilar. Javzo oyining o'rtasigacha ular Urgut shahri va Chelak qal'asini ham istilo qildilar. Uchinchi kuni o'ruslar Samarqanddan 8 farsax keladigan Kattaqo'rg'onga yetib keldilar va uni jangsiz egallab oldilar.

...Javzo oyining oxiri ediki, Buxoro sipohi Zirabuloq mavzeyida jam bo'lib, Kattaqo'rg'on qal'asini zabt etishga jazm etdilar. Bu xabar Kaufmanga yetib bordi.

U Samarqanddan bir necha guruh sara askarlari va to'p-u to'fanglari bilan Buxoro sipohiga qarshi kurashmoq uchun Kattaqo'rg'onga, undan Zirabuloqqa keldi. Buxoroliklar Zirabuloq mavzeyida Buxoro yo'lga qo'shilib ketgan qir tepasida saflangan edilar. O'rus askarlarini Kaufman ikki qismga bo'lib, o'ng va chapdan hamla qilishdi. Buxoroliklar jang ko'rgan askarlarning to'pu to'fanglari otishiga dosh bermasdan orqaga qaytdilar. Buxorolik piyoda va suvoriylardan ming kishidan ko'prog'i nobud bo'lib, o'ruslarning talafoti ikki yuz kishigagina yetar ekan, xolos. Kaufman Zirabuloqda buxoroliklar bilan urushayotgan vaqtda ming, xitoy-qipchoq va Shahrisabz kenagaslarining qabila sardorlari ittifoq bo'lib, ko'p sipoh ila Samarqandga kelib, bu shaharni fath etmoqchi bo'ldilar. Ular saroyning atrofida ichki qal'ani to'rt tomondan bosib olib, uning ikki darvozasi Samarqand va Buxoro darvozasiga hujum qilib, mardlik bilan sa'yi harakat ko'rsatdilar. O'ruslarning ahvoli juda tang bo'ldi. Ammo Buxoro sipohining Zirabuloqda mag'lub bo'lganligini eshitib, ittifoqdosh qabilalar sabot va jalodat qadamlarini tortib olib, muhosaradan yuz o'girib, har tomonga parishon bo'lib, parokandalikka berildilar.

*Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning
«Tarixi Jahonnamoyi» asaridan.*

AMIR MUZAFFARNING TURKIYA SULTONIGA MUROJAATNOMASI

«Sizlarga so'nggi marotaba arz qilamizki, Rossiyaning istilochilik faoliyati uning jur'atini yanada oshirdi. Ruslar bir necha vaqtdan beri qarorgoh sifatida foydalanib kelishayotgan Oqmachitdan chiqib, Hazrati Sulton (*Turkiston shahri*), Chimkent, Avliyoota va Toshkentni qo'lga

kiritib, xalqning ko'pini shahid qildi va musulmonlarga haddan ortiq adolatsizlik, zulm o'tqazdi.

Oradan bir yil o'tgach, Jizzax yaqiniga kelgan bo'lsalar-da, mag'lub bo'lib, Sirdaryo sohilidagi To'raqo'rg'on degan mustahkam bir joyda qishladilar. Jano-

bi oliylari amir katta qo'shin bilan ruslar ustiga yurdi. Buxoro qo'shini kuchli va tartibli bo'lgan ruslarning urushish usulini bilmaganligidan ortga qaytdi. Buning oqibatida ruslarning jasorati oshib, Xo'jandni oldilar va ancha musulmonni shahid etdilar. Rus qo'shini Xo'janddan chiqib, Yangiqo'rg'onni oldi va O'ratepaga yaqin keldi. O'ratepani olgan ruslar ko'plab musulmonni o'ldirdilar. Jizzax sari yurib, bir hafta ichida Jizzax qo'rg'onini olgan ruslar bu yerda had-hisobsiz musulmonni o'ldirdilar. Janobi oliylari bu xabarni eshitib, ko'p sonli qo'shinni Jizzaxga jo'natdi. Bu vaziyatda ruslar sulh shartnomasi tuzmoqchi ekanliklarini aytib, Buxoro qo'shinini hiyla bilan orqaga qaytardilar. Qo'shinning orqaga qaytganidan keyin, Yangiqo'rg'on va Jizzaxdan uch farsax uzoqlikdagi soy bo'yiga kelgani haqidagi xabar yetgach, juda ko'p askar va to'p bilan kofir ustiga yurildi. Ikki-uch marta kichik janglar bo'ldi. Orenburg hokimi Yangiqo'rg'onda turarkan, Buxoro amiri-

ga bir maktub yuborib, sulh tuzish istagini bildirdi. Buxoro amiri ruslarga aldanib, qo'shinni orqaga qaytardi. Buni eshitgan kofir o'z qo'shinini Yangiqo'rg'ondan olmadi. Hodisaning vuqu etishini arz qildik. Xalifa xazratlari (Turk sultoni) ruslarni musulmonlardan uzoqlashtirsin. Shu tariqa, islomiyat rivoj topsin va zaiflashmasin. Bu tarafda janobi oliylari to'pxona qurdirib, 10 000 kishilik askar kofir bilan qarama-qarshi turibdur. Agar Xalifa hazratlari maktub yoki kishi yuborib ruslarni musulmonlardan uzoqlashtirsa, davlatining rivojini va yaxshilik ila eslanishining sababi bo'lajak. Chorasiz qolgan bu musulmonlar Xalifaning bu sharofati bilan qutulsalar, amal daftariga buyuk savob yoziladi. Ojizlik va chorasizlik ichidagi musulmonlarning ahvoli Xalifa hazratlariga bildirilsin».

U.Mertning «Buxoro amirining elchisi Muhammad Porso afandining Istanbuldagi faoliyatlari (1867–1869)» maqolasidan.

1868-YILGI SHARTNOMA

GENERAL-ADYUTANT FON KAUFMANNING BUXORO AMIRI JANOBI OLIYLARI SAID MUZAFFAR BAHODURXONGA TAKLIF QILG'ON SULH SHARTLARI

1. A'lohzrat Rusiya imperatori janoblari hukumatiga mansub bo'lgan yerlarni oldin ruslar tomonidan ishg'ol qilingan Qoshg'ar, Dovon, Nurota tog'lari shimolidan tashqari Oq podshoh tobeligiga o'tishini iltimos qilgan Samarqand shahri o'z muzofotlari bilan kiradi, Buxoro bilan bo'ladigan chegara esa, shu sulh bitimi Amir janobi oliylari tomonidan taklif qilingan shartlar bilan qabul qilinib, ular o'z muhrini bosib qaytargandan keyin qabul qilinadi. Shundan so'ng, chegara g'arb tomondan Nurota tog'larining eng baland joyidan va Buxoro hududida joylashgan

Nurota qal'asidan o'tadi. Shu yerdan Qizilqum sahrosi o'rtasidan o'tib, Bo'kantov orqali Yangidaryo quyilishigacha yetadi.

2. Hamma rus fuqarolari, qaysi dinda bo'lishidan qat'iy nazar, Buxoroga va uning boshqa shaharlariga borib savdo qilishi huquqiga ega bo'ladilar. Buxoro amirligining fuqarolari ham ilgaridek Rusiya imperiyasi bilan savdo qilishlariga ijozat beriladi. Amir janobi oliylari Rusiya fuqarolarini karvon va barcha mol-mulk-lari bilan muhofaza qilib, ularni o'z mulki hududida xavfsizligini nazorat etadi.



3. Rusiya tojirlari (savdogarlari) uchun Buxoro shaharlarida va ular xohlagan joylarda, o'z tovarlarini saqlash uchun karvonsaroylar qurishlariga ijozat beriladi. Rusiya shaharlarida ham Buxoro tojirlari uchun shunday huquq beriladi.

4. Savdo ishlari to'g'ri borishini va qonuniy boj olinishini nazorat qilish uchun rus tojirlari xohishlariga qarab Buxoro amirligining har bir shaharida ularning karvonboshilari bo'lishlariga huquq beriladi. Turkiston o'lkasiga qarashli shaharlarda Buxoro tojirlariga ham shunday huquq beriladi.

5. Rusiya yeridan Buxoroga yoki Rusiyaga shu yerdan boradigan hamma tovarlardan Turkiston o'lkasida olinadigan miqdorda, har holatda Buxoroning musulmon fuqarolari bilan bir xil, ya'ni tovarning umumiy qiymatidan 2,5 foiz miqdorida boj olinadi.

Bu shartlar Samarqand shahridan 1868-yil 11-may kuni jo'natilgan. Turkiston general-gubernatori va Turkiston harbiy okrugi qo'shinlarining qo'mondoni general-adyutant fon Kaufman imzosi.

BUXORO AMIRI JANOBI OLIYLARI SAID MUZAFFAR BAHODURXONGA GENERAL-ADYUTANT FON KAUFMAN TAKLIF QILGAN SULH SHARTLARIGA ILOVALAR

1. Rusiya imperatori a'lohzrat janoblari va Buxoro amiri janobi oliylari mulklarining chegara chizig'i janubda Shahrisabz tog'larining eng baland joylaridan Zarafshon vodiysiga tutashadi, so'ngra Kattaqo'rg'on g'arbidan boshlanib, Zarafshon vodiysi o'rtasidan o'tadi va Oqtov, Nurota tog'lari bilan kesishadi. Nurota qal'asi esa Buxoroda qoladi. Shu yerdan boshlab, ya'ni Qizilqum sahrosidan to Bo'kantovgacha, shuningdek, mazkur tog'lardan Yangidaryo etaklariga qadar bo'lgan joylar ham Rusiyaga o'tadi.

2. Shu chegara chizig'idan Shimol va Sharq tomonda joylashgan hamma yerlar a'lohzrat Rusiya imperatori tasarrufi

va tobeligiga o'tadi va shu chiziqdan janubi g'arbdagi yerlar Buxoro amiri janob oliylari ixtiyorida qoladi.

3. Sulh imzolanganidan keyin, chegara chizig'i Buxoro amiri janobi oliylari yuboradigan elchi va Turkiston general-gubernatori tayinlaydigan vakolatli shaxsdan iborat bo'lgan maxsus hay'at tomonidan belgilanadi. Chegarani aniqlash hay'ati Rusiya imperatori qo'shinidan posbonlar tayinlanadi.

General-adyutant fon Kaufman taklif qilgan va Buxoro amiri janobi oliylari qabul qilgan 2, 3, 4, 5 va 6-sulhnoma shartlari o'zgartirilmaydi.

*«Sharq yulduzi» jurnali, 1991-yil
8-sondan.*

GENERAL-ADYUTANT FON KAUFMAN TOMONIDAN BUXORO AMIRI JANOBI OLIYLARI SAID MUZAFFAR BAHODURXONGA TAKLIF QILGAN SULHNOMA SHARTLARINING MAXFIY ILOVALARI

1. Buxoro amiri janobi oliylari Rusiya davlati bilan chin do'stlikda yashash va janobi a'lohzrat Rusiya imperiyasi podshohi A'zamning homiyligini olish uchun shu yildagi jang xarajatlarini qoplash

uchun 125 000 tilla miqdorida tovon to'laydi.

2. 125 000 tilla pul yoki kumush bilan to'lanadi va har bir tilla 20 tanga hisoblanadi.

3. Janobi oliylari shu shartlarga imzo chekkandan so'ng Rusiyaga to'lanadigan 125 000 tilla hisobidan zudlik bilan 10 ming tilla undiriladi. 90 000 tilla 1868-yilda 21-maydan boshlab 30 kun ichida to'lanishi shart. Qolgan 25 000 tilla keyinroq, bir yil ichida to'planishi kerak.

4. Buxoro amiri janobi oliylari beklar chegaradan Rusiya davlati hududiga o'tib qaroqchilik qilmasligini nazorat etadi. Ular Rusiya hukumati bilan do'stlik munosabatida bo'lishlari lozim. Turkiston general-gubernatori o'z tomonidan Rusiya

va Buxoro bilan do'stlik munosabatlarini keyinchalik ikkala hukumat va davlatning baxt va saodati yo'lida rivojlantirish uchun hamma choralarni ko'radi.

Bu shartlar Kattaqo'rg'on dan 1868-yil, 23-may kuni jo'natilgan.

Turkiston general-gubernatori va Turkiston harbiy okrugi qo'shinlarining qo'mondoni general-adyutant fon Kaufmanning imzosi.

*«Hukumat xabarnomasi»
(Правительственный
вестник), 1872-yil, 238-sondan.*

ABDUMALIK TO'RA VA BEKLARNING QARSHILIK HARAKATI

...Mazkur sulh (1868-yil) natijasida Buxoro amirining Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on va ularga taalluqli yerlari Rusiya tasarrufiga o'tdi. Bunga qo'shimcha katta mablag' – tovon to'lashni o'z bo'yniga oldi. ...Shu voqealar yuz berayotgan bir paytda Qarshi voliysi Abdumalik to'ra Buxoro xoni (amiri) Muzaffarning katta o'g'li Shahrisabz kenagaslarining urug'lari va Sodiq to'ra ibn Kenasari to'ra Ablay Sulton yurtdoshlari ila Buxoro amirlari va saltanatiga da'vo qildi. U o'z otasi Amir Muzaffarga qarshi chiqib, jangovar sipohini yig'di. Muzaffar unga qarshi Qarshiga otlandi. Qarshi cho'llarida Abdumalik bilan jang bo'ldi va uning sipohi parokanda bo'ldi. Abdumalik Shahrisabzga qochdi. O'z o'g'lini ta'qib qilib, otasi Shahrisabz qal'alaridan bo'lgan Chiroqchini qurshab oldi. Shahrisabz voliysidan o'z o'g'lini talab qildi. Bu ish oxiriga yetmasdan, boshqa joyda qo'zg'olon ko'tarildi. Abdumalik to'ra farmoniga binoan, Nurota va Karmanani Sodiq to'ra olgani xabari Amir Muzaffar qulog'iga yetdi. Bu fitna sabab amir Chiroqchidan orqaga qaytib, bu hodisalarni bartaraf qilmoq uchun Samarqand voliysi jiniroldan (*bu vaqtda sulh shartnomasi*

asosida Samarqand hududida Zarafshon okrugi tashkil etilgan bo'lib, markazi Samarqandda turgan general Abramovdan yordam so'ralganligi nazarda tutilmoqda) yordam so'radi. Jinirol bir necha guruh askar bilan Jom sarhadiga keldi.

Qarshida turgan Abdumalik to'ra parokanda bo'lgan sipohini yig'ib, yana qo'zg'olon ko'tardi. Samarqand jiniroli Jomdan bir necha guruh qo'shin va bir necha to'p ila Qarshiga bordi. Aqrabning 20–21-darajasida (1868-yil noyabr) edi, o'ruslar qarshisida Abdumalik bilan to'qnashib, unga zarba berdilar. Abdumalik to'ra Qarshidan qochdi va qo'shini mag'lub bo'ldi. Aqrab oyining oxirlarida o'rus jiniroli Qarshini amir ma'murlariga topshirib, Samarqandga qaytdi. Shundan keyin Shahrisabz kenagaslarining qutqusi bilan Kishkut, Farob, Mog'iyon raislarini ko'tardi. Ularga yordam bergan Haydar xojani shahrisabzliklar Samarqand chegarasida yurgan o'rus suvoriylariga hamla qilib, ulardan bir qanchasini o'ldirdi. Bundan Samarqand voliysi jinirolning jahli chiqib, Turkiston sipohsolori Kaufmanga bu ahvolni ma'lum qildi. Turkiston sipohsolori Shahrisabzga yurish qilish to'g'risida maxfiy buyruq berdi. Sunbula



oyining yettisida (1868-yil oktyabr oxiri) rus qo'shini Jomga yo'l oldi. Ikki kundan keyin Qoratepa dovonidan o'tib, Kitob qal'asining oldida birinchi qism bilan birlashdi. Ular qal'aga yaqin bo'lgan O'rus qishloq degan joyga tushdilar. Shahar va qal'aga alohida-alohida hujum qilib, to'pga tutishni boshladilar. Kechasi esa xandaqqa yaqin keldilar. O'ruslarning bir qismi qal'aga narvon qo'yib, devordan qal'aga kirgan bo'lsa, yana bir qismi devorning qulagan joylardan qal'aga bos-tirib kirdilar. ...Shu urushda shahrisabzliklardan 500 dan ko'proq kishi shahid bo'lib, ko'p odam yarador bo'ldi. O'ruslardan 150 kishiga yaqin odam talafotga uchrabdi. 30 ta cho'yan to'p, bir necha miltiq va boshqa narsalardan juda ko'p zaxira o'ruslar qo'lga o'tdi.

Shu oying o'rtalarida Shahrisabzni Amirga olib bergan jinirol, Samarqandga jo'nadi. Shu asnoda eshitdiki, Shahrisabz voliysi Bobobek parvonachi va uning noibi Jo'rabek dodxoh Mog'iyon qasabasida 3 mingga yaqin lashkar to'plab, kutib turibdi va agar rus askarlari Shahrisabzni buxoroliklarga berib qaytsalar, buxoroliklarni Shahrisabzdan haydab, yana viloyatni o'z qo'llariga olarmishlar. Jinirol bir qism ma'murlarni favj ila Mog'iyonga yubordi va shundan keyin Samarqandga qaytdi. Shahrisabz voliysi Bobobek o'z askarlari va noibi Jo'rabek dodxoh hamda xizmatkorlari bilan ancha muddat sarson-u sargardon bo'lib, Farg'ona chegarasiga yaqinlashdi. Bundan Xudoyorxon voqif bo'lgach, o'z amirlari bilan mashvarat qildi. Xonning akasi Sulton Murodbek, umaro va vuzarolarining aksariyati birlashib dediki: «Agarda biz Shahrisabz voliysini Farg'ona saroyida qabul qilsak, Buxoro amiri O'rusiyani bizga qarshi qaraydi va o'ruslar bizdan voliy (Bobobek)ni talab qiladilar. Agar uni o'ruslarga bersak, sharmanda bo'lamiz, agar o'ruslarning xohishini rad qilsak, bu

bilan ahdu paymonni buzib, ularga bahona va sabab topib bergan bo'lamiz. Buning chorasi shuki, Shahrisabz voliysiga safar zaruriyati va luzumotini taxtlab, avval uni mehmon qilib, keyin Qoshg'arga jo'natsak».

Bu savobli fikr qabul bo'ldi. Saroyning bir mulozimini Bobobek oldiga yubordilar. Mazkur mulozim Shahrisabz voliysining oldiga kelib, ahvolni tushuntirdi: «Farg'ona hokimi sizdan uzr so'rab o'z mulkida bir necha kun mehmon bo'lishingizni xohlaydi va keyinroq Qoshg'arga borsangiz, sizni chegaragacha kuza-tib qo'ymoqni zimmamizga olamiz».

Bobobek javob berdiki: «Biz Qoshg'ar safarini xohlamaganmiz. Biz Shahrisabzdan bu tomonga Buxoro amiri zulmidan qochib keldik. Buxoro amiri bizning ko'p urug'larimizni o'ldirdi. Biz Samarqand jinirolining oldiga borib taslim bo'lmadik, chunki u Buxoro amirining o'ng qo'lidir. Agarda unga taslim bo'lganimizda edi, ehtimol, jinirol amirdan pora olib, o'zini Turkiston sipohsolori Kaufmanga yaxshi ko'rsatish uchun bizni Buxoro amiriga topshirgan bo'lar edi. Agarda Farg'ona xonining (Xudoyorxon) o'zi bizni avlodi ila Kaufman huzuriga yuborsa ma'qul edi. Samarqand jiniroli va boshqalarning vositasisiz o'zimiz Turkiston sipohsolori Kaufmanga taslim bo'lamiz. Bizning maqsadimiz shu, chunki Rusiya davlatining qonun va nizomlarida asirlar va taslim bo'lgan kishilarni o'ldirish qoidasi yo'qdir. Toshkandga borib, o'ruslarga taslim bo'lamiz, agar hazrati Farg'ona xoni (Xudoyorxon) bizlarni o'z elchisi bilan Toshkandga jo'natsa, undan rozi va xushnud bo'lardik».

Mazkur ma'mur bu so'zlarni Shahrisabz voliysidan eshitib, xonning oldiga kelib, hammasini arz qildi. Xon janoblari voliy iltimosini qabul aylab, yo'l ehtiyoji va xarajatlarini xazinadan berib yubordi. Shahrisabz voliysi Bobobek parvona-

chi ba'zi shaxsiy mulozimlari va noibi Jo'rabek dodxoh bilan birga Xo'qanddan yana bir elchi qo'shib, Toshkandga jo'natdilar. Ularning qolgan qarindoshlarini, urug'larini Bobobek parvonachi iltimosiga ko'ra, Farg'onada qoldirdilar va ularning martaba va maqomlariga qarab, xazinadan maosh muqarrar qildilar.

Abdumalik to'ra g'oziy Samarqand jiniroli bilan Qarshida jang qilib, talafotga duch kelgach, bir muddat Urganch va Afg'onistonda musofirot zahmatini chekdi. U yoqlardan Farg'ona mamlakatiga

kelib, bir necha kun Farg'ona xonining darboriga mehmon bo'lib, o'z xohishi ila Qo'shg'arga o'tib ketdi va bir necha vaqt shu yerda yashadi. Keyin Britaniyaga ketdi. Makkayi mukarrama ziyoratiga borgan mo'tabar kishilarning aytishlaricha, fozil amirzoda hozir Hindistonda (*Hozirgi Pokiston nazarda tutilmoqda*) izzat-u ikrom, ofiyat va salomat masnadida o'tirgan ekanlar (*1900-yillardagi ma'lumot*).

Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning «Tarixi Jahonnamoyi» asaridan.

ABDUMALIK TO'RA XUSUSIDA...

...Gubernator (Kaufman) Shirinxotun ko'prigini chegara qilib, sulh bitimi tuzib, bitim va sulh garovini aqoidi din ila tasdiqlab, har ikki davlat – Buxoro davlati ham nasoro davlati o'rtasida do'stona munosabat o'rnatdi. Ushbu sulh 1283 (1868) hijriy yilda tuzildi. Shu narsa ham maxfiy qolmasinki, undan avval qalami haqiqat ila Abdumalik – to'ra va kenagas hokimlari ko'p sonli lashkari ila masnad-maqsadiga yetmay, Samarqanddan qochib, tarqalib ketganligi to'g'risida xat bitildi. Bu haqdagi batafsil hikoya quyida keltirilur. Shaxsi davlat, ya'ni amir to'ra g'alaba qilib, (uning) ishi o'ngidan kelsa, u holda shubhasiz, xonlik hokimiyati uning qo'lga o'tib, xonlikka da'vo qilishidan tashvishga tushdi va to'raning mavqeyini hamda mardona ishlarini yo'qqa chiqarish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'ra boshladi. Shu asnoda, amirlashkarlar o'z lashkarlari bilan va Qarshi g'oziyarlari to'ra lashkarlari safida turar edilar.

Qarshi amirlashkarlaridan biri, «pakki» laqabli ayyor-u hiylakor Mo'minbek-to'qsaboga mukofot va muruvvat va yuqoriroq mansab va'da qilib, u o'zi bilgan va qo'lidan keladigan har qanday «mo'ltonilik»ni (*ayyorlik, lo'lilik ma'nosida*) ishga solib, to'ra lashkarining orasini

buzsin deb ko'rsatma berdilar. Mazkur (to'qsabo) badaxloqligi hamda va'dalardan umidvorligi tufaylidan rizolik barmog'ini ko'ziga surtib, makr va shayton amri bilan bir necha xat bitdi. Ushbu xatlarda u endi Urusiya amir ila sulh bitim tuzdi, to'ra hamda kenagas g'ulg'ulasi alangasini o'chirmoq niyatida Usmonni sarbozlari ila nasorolar hamrohligida Sharisabzga yuborur, deb yozdi. Xati Shahrissabz dorug'a, hokimlari-yu to'ra amirlashkarlari qo'lga tushgach, mardonavorlikdan mosuvo bo'lib, Xudo ko'rsatmasin, tag'in ahli-ayol va xonadonimiz g'anim qo'lga tushib qolmasin deya – bu ayni sharmisorlik bo'lur edi, – noiloj Samarqandda muhosaradan xalos etib, Shahrissabz o'tlandilar. To'ra va amirlashkarlar bu xatlarda haqiqatda asar ham yo'q, bular turgan-bitgani yolg'on, deb shahrissabzliklarni to'xtatib qolishga nechog'lik urinmasinlar foydasi bo'lmadi. Xullas kalom, to'raning Samarqandni tark etishiga to'g'ri keldi, u Darg'omga yaqin bir tepalikda o'rdulashkargoh yasab, bu g'aroyib voqeot-hodisotdan ham anduh chekib, nima qilarini bilmay qoldi.

Kenagas lashkarlari, Qarshi va G'uzor ahli sur'ati bod ila silsilai Taxti Qoracha (*Urgut va Kitob o'rtasidagi*



Respublikaning ta'lim markazi

to'g' yo'li)dan oshib o'tdi. To'ra uzangisi yonida qolganlar esa ozchilik edi. Shu asnoda, gubernatorning madat qo'shini Samarqandga keldi. Muhosarada qolgan o'rislar qal'adan chiqib, o'z kishilariga qo'shildilar va to'ra lashkarlari izidan quvishga tushdilar. To'ra rudi Darg'om ko'prigini mustahkamlab, o'rislar yo'lini to'sib qo'ydi. Ikkinchi tomondan Eshon Umar Dahbediy o'z lashkarlari bilan yetib kelib, u ham o'rislarga hujum boshladi. Biroq to'plar-u miltiqlardan yog'ilgan o'qlardan ko'plab odamlar shahid bo'lib, (buxoroliklarning) qochishdan bo'lak biron iloji qolmadi. To'ra qolgan-qutgan g'oziyarlari ila noiloj Shahrisabzga otlandi. O'rislar benihoya mardlik ko'rsatib, uni

Qoratepaga qadar to'xtovsiz quvib borib, to'p kullalari bilan ko'pgina odamlarni qirdilar. To'ra ixtiyorida qolgan lashkarlari bilan dilovarlik namoyish etib, jang qilib, xat-xabar, turgan bitgani yolg'on, makrhiyla va Mo'min-to'qsabo shaytonning ishi ekanligini bildilar, ammo endi befoyda edi. Lashkar tarqalib ketdi. Shahrisabz hokimlari to'raga zo'r hurmat-ehtirom ko'rgazib, do'stlik va itoat bitimini yana bir karra tasdiqlab, uni kuzatib qo'ydilar. To'ra G'uzorga yetib olib, shu yerda muqim bo'lib qoldi.

Mirza Abdulazim Somiyning «Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi» asaridan.

ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN O'RTA OSIYONING BOSIB OLINISHI

QO'QON XONLIGI

1852-yil – Perovskiyning Oqmachitga hujumi va mag'lubiyatga uchrashi;
1853-yil – Oqmachitning bosib olinishi va «Perovskiy forti» deb nomlanishi;
1864-yil 4-iyun – Avliyotaning Chernyayev tomonidan bosib olinishi;
1864-yil 12-iyul – Vervovkin tomonidan Turkistonning bosib olinishi;
1864-yil 22-sentyabr – Chernyayev tomonidan Chimkentning bosib olinishi;
1865-yil – Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyatining tashkil etilishi;
1865-yil 17-iyun – Toshkentning zabt etilishi;
1867-yil – Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi.

BUXORO AMIRLIGI

1866-yil 8-may – Erjar yaqinida Buxoro amiri qo'shinlarining chor Rossiyasi tomonidan mag'lub etilishi;
1866-yil 24-may – Xo'jandning Romanovskiy qo'shini tomonidan egallanishi;
1866-yil – O'ratepaning Rossiya imperiyasi tomonidan egallanishi;
1866-yil 18-oktyabr – Jizaxning bosib olinishi;
1868-yil 2-may – Samarqandning jangsiz egallanishi;
1868-yil 2-iyun – Zirabuloqda amir qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi;
1868-yil 28-iyun – Buxoro ustidan Rossiya protektoratining o'rnatilishi.

XIVA XONLIGI

1714-yil – Xiva xonligiga qarshi birinchi yurish;
1839-yil – Perovskiy qo'shinlarining Xivaga yurishi va mag'lubiyati;
1873-yil 18-may – Kaufman otryadlarining Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Mang'it qal'alarini bosib olishi;
1873-yil 29-may – Kaufman otryadlarining Xazoraspga kirib kelishi va Xiva shahrini egallashi;
1873-yil 12-avgust – Turkiston general-gubernatori fon Kaufman va Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tomonidan «Gandimiyon shartnomasi»ning imzolashini.

AMIR MUZAFFARNING O'G'ILLARI XUSUSIDA...

Amir Muzaffar hazrati oliylarining peshonasi yarqiragan hukmdor edi. Uning farzandlari ko'p edi.

...Uning katta o'g'li Abdumalik to'ra edi. U dastlab Karmana hokimi edi. Keyin undan olib, G'uzor viloyatini boshqarishga tayinladi. Bir necha fitnachilar To'ra-ning shoshqaloqligi bois, yo'ldan urushdi va o'zining mo'tabar otasiga qarshi qayrashdi. Shahrisabz va Kitob kenagaslari ushbu qulay fursatdan foydalanishib, unga (to'raga) hukmdorlik tojini va'da qilib Shahrisabzga olib keldi. Amir Temurning Oqsaroyida (Abdumalik to'rani) podshoh deb e'lon qilishdi. ...Amir va ruslarning birlashgan qo'shinlaridan mag'lub bo'lgan to'ra, bir qancha vaqt ... Buxoro atroflarida aylanib yurdi. Qabilalar va ayrim hokimlar uni qo'lga tushirishga harakat qilishdi. Mahalliy hokim Rahmatcha biy shu yerdagi lashkar sardori Hakim to'qsoba bilan birgalikda qo'lga olishni rejalashtirishdi. Buni payqab qolgan To'ra ham hokimni, ham askarlar boshliqlarini o'ldirib, u yerdan sahro yo'li orqali chiqib, Urganch xoni (Xiva xoni) yordam qilishiga umid bog'lab, Urganchga yo'l oldi. Urganch xoni Muhammad Rahim to'ranning kelganidan xabar topgach, uni kutib olish maqsadida o'z odamlarini jo'natdi. Xon Abdumalik to'raga bir necha kun mehmondo'stlik va hurmat ko'rsatdi, ammo iltimosini bajarmay (*Samarqand va unda tutash yerlarni ruslardan qaytarib olish uchun so'ralgan yordam*), uni qo'yib yubordi. Abdumalik to'ra to'la umidsizlik bilan Urganchning sahro yo'llaridan o'tib, Jizzax orqali Qo'qonga keldi. Qo'qon xoni Xudoyorxon Amir Muzaffar valine'mati maqomida bo'lganligi uchun unga (Abdumalik to'raga) yordam bermadi va to'ra Qoshg'arga o'tib ketdi. Qoshg'ar

hokimi Muhammad Yoqubbek ... to'raga arzimas nafaqa joriy etdi va uni maxsus joyda nazoratda saqladi. Yoqubbek vafotidan keyin uning davlatini Xitoy bosib oldi. Shundan keyin to'ra Qoshg'arning tog'li yo'llari orqali o'tib, katta qiyinchiliklar bilan Oloy qirg'izlari orqali Hindistonga o'tdi. Bu vaqtda Angliya davlatining hukmdori Mariya ismli ayol edi. U Abdumalikning yetib kelganligini eshitib, Hindistonning Kalkutta tumanida unda yashash uchun joy va nafaqa tayinladi. Abdumalik umrining oxirigacha shu yerda yashadi va vafot etdi.

Muruvvatpesha amirning ikkinchi o'g'li Sayyid Mir Nuriddin to'ra aqlli va olim odam edi. Uning «Hayo» taxallusi ostidagi ajoyib she'rlari mavjud. U hamisha otasiga bo'ysunuvchi va sodiq o'g'il edi. U Qarshi viloyati hokimligidan olinib, Chorjo'y viloyati hokimi bo'lish martabasiga loyiq ko'rildi. Bir qancha vaqt o'tib, ayni yoshligi gullaganda, da'vosi yo'q kasallik (tuberkulyoz) bilan og'rib qoldi va foniy dunyodan boqiy dunyoga rihlat qildi.

Oliy hazrat janoblari (Amir Muzaffar)ning uchinchi o'g'li Mir Sayyid Abdumomin Qarshi viloyatining hokimi edi. So'ngra u Hisor viloyatining hokimligiga tayinlandi va hurmatli otasi hukmdorligining so'ngigacha shu yerni boshqardi. So'ng Sayyid Abdulahadxon janoblari taxtga chiqishlari vaqtida u Hisor hokimligidan olinib, Boysun viloyati hokimligiga ko'tarildi. Olti yildan so'ng (1891-yil) u mansabidan yana olindi. Ammo u o'sha yerda yashash uchun qoldi va unda oliy saroy tomonidan nafaqa tayinlandi. U yana bir necha yil yashab, hijriy 1311-yil (1893–1894) o'z ajali bilan vafot etdi. Uni Boysun viloyatida dafn etishdi. Bu shahzoda serfarzand edi. Marhumga



Respublika ta'lim markazi

Xizmat qilgan Muhammad jibachining so'zlariga ko'ra, uning 48 ta o'g'il va qizi bo'lgan. Ammo haqiqatga hikoyachi javobgar.

Amir janobi oliy hazratlarining to'rtinchi o'g'li, ko'zlarining qorasi shahzoda Mir Sayid Akramxon to'ra sanaladi. U o'z hurmatli otasi hukmdorligi vaqtida kichik yoshdan ketma-ket Boysun, Qarshi va G'uzor viloyatlari hokimligiga tayinlandi. ...Amir Abdulahadxon oliy hazratlari farmonbardorligi vaqtida (1885–1910) Mir Akramxon G'uzor viloyatini boshqardi. Amirning hukmronligi so'ngigacha, u keyin ham G'uzor viloyati hokimligicha qoldi. Bundan tashqari, Akramxon, ko'zining qorasi shahzoda Mir Said Qosimxon to'ra (*Amir Muzaffarning nevarasi, Chiroqchi viloyati hokimi – 1885-1920-yillar*) amakisi (Abdulahadxon) ko'magida Chiroqchi hokimi bo'ldi...

Janob Amir Sayyid Muzaffarning beshunchi o'g'li, shohlik tojiga munosib, buyuk hukmdor, o'z oliynasab otasining merosxo'ri Sayyid Abdulahadxondur. U hurmatli va oliysifat podsho. O'zining barcha xizmatkorlari va qo'l ostidagilariga birdek mehribon va hamdard edi. ... Yuqori martabali o'z o'g'illarini (Abdulahadxon) hamisha hurmatda saqladi. U Buxoro shohligi taxtida 26 yil turadi. Turkiyadan uncha uzoqda joylashmagan Boqchasaroyga (u chorboqqa ega edi) borib, har yil yozda 3 oy davomida u yerda bo'lib, dam olar va qaytardi. Hammasidan ko'proq u jannatmonand chorbog'lariga ega bo'lgan Karmana viloyatida yashardi. Hayotining ellik ikkinchi yilida u olamning jannatliy qasrlariga, foni dunyodan boqiylik maskaniga yo'l oldi (vafot etdi).

Sayyid Amir Muzaffar oliy hazratlarining oltinchi o'g'li shahzoda Sayyid Mir Abdulfattohxon to'ra edi. U omonatpahoh

Abdulqosimbiy dodxoh bilan birga Peterburgga imperator huzuriga jo'natilgandi. Qaytib kelgach, yoshlik chog'larida tabiiy o'lim topdi. Shahzodadan farzand qolmadi.

Amir Muzaffar oliy hazratlarining yettinchi o'g'li Amir Sayyid Mir Najmiddin to'ra bo'lib, u ham Peterburgga rus imperatorining huzuriga sayohatga jo'natilgan edi. Sog'salomatlikda, muvaffaqiyatli qaytib kelgach, uni Chiroqchi viloyatining hokimligiga tayinlashdi. Bir muddat o'tgach, nomi tilga olingan shahzoda kuchsizlandi (kasallandi) va yoshlik palasida vafot etdi.

Sayyid Amir Muzaffar oliy hazratlarining sakkizinchi o'g'li Sayyid Mir Abdusamadxon Chiroqchi viloyati hokimi etib tayinlangan edi. Bu viloyatni u o'zining mo'tabar otasi davrida boshqardi. Sayyid Amir Abdulahadxon taxtda nur sochishni boshlashi bilan (*hukmronligining boshlanishi*) u Chiroqchi boshqaruvidan ozod etildi va Buxoroga chaqirib olindi hamda shu yerdan uy berilib, nafaqa tayinlandi. U shu yerda yashadi va o'z ajali bilan vafot etdi.

Amir Muzaffar oliy hazratlarining to'qqizinchi o'g'li Sayyid Mir Siddiqxon to'ra o'zining hurmatli otasi hukmdorligi davrida Chorjo'y viloyatini boshqardi. Muzaffarxon oliy hazratlari o'limi oldidan oliy farmoniga binoan shahzoda o'z navkarlari bilan otasi huzuriga, Buxoroga keldi. Bir muncha vaqt o'tgach, oliy hazrat janoblari Arkda vafot etdi. Bu haqda taxt vorisi Amir Abdulahadxon janoblari xabar berishdi. U darhol Karmana taxtidan chiqib, Buxoro taxtiga o'tirdi. U o'zining ukasi shahzoda Sayyid Mir Siddiq to'raga Hovuzi Dasturxonchi mahallasidan yaxshigina turar joy va nafaqa tayinladi hamda unga cheksiz ehtiromlar ko'rsatdi. Mir Siddiq bu dunyoni u dunyo

martabasi uchun sinovlar maydoni sanab, ilm-fan va Yaratganga ibodat bilan butun vaqtini o'tkazar edi. O'z suhbatiga olimlar, ulamolar, qorilarni taklif etib, o'ziga ularning suhbatdan foydali jihatlari saralab olar edi. U ilm-fan, xususan, kalom ilmiga, turli sohalarga oid ko'plab kitoblar yig'di va o'zi ajoyib olim bo'lib yetishib, turli ilmlarga ega bo'ldi. Hozirgi vaqtda, 1336-yil hijriyda (1919–1920) mana 43 yildirki, yuqorida zikr etilgan uyda o'zining oliysifat hayotini xotirjamlik qoniqishda o'tkazmoqda.

Amir Muzaffar oliy hazratlarining o'ninchi o'g'li hurmatli shahzoda Sayyid Mir Nosirxon to'radir. U bir necha yil o'z otasi bilan sayohat va xavf-xatarlarda bo'ldi. Ammo amir Muzaffar bir muddat oldinroq vafot etdi va viloyat boshqaruvi to'xtab qoldi. Sayyid amir hazratlari taxtga o'tirganidan keyin, hurmatli shahzoda Arkda yashay boshladi va sarson-sargardon o'tkazgan umrini besamar ketgan hisoblab, aql yo'liga o'tib, ilm va fanga berildi. Mir Nosirxon ko'plab kitoblar yig'di, bir qancha asarlar yozdi va ulardan ayrimlarini (litografiyada) chop ettirdi. Uning bo'yiga yetgan o'g'illari va ko'plab nevaralari bor edi. Ularning bari sog'-salomat va to'la xotirjamlikda, shohlik uylarida yashadilar.

Amir Muzaffar janobi oliylarining o'n birinchi o'g'li shahzoda Sayyid Mir Abdulazizxon to'ra.

Oliy hazratlarining o'n ikkinchi o'g'li Sayyid Mir Sodiqxon to'ra.

Amir janoblarning o'n uchinchi o'g'li Abdulazimxon to'ra. Ularning har biri oliy Arkda, ajoyib binolarda istiqomat qiladi. Ular o'zlarining qarindoshlari va farzandlari bilan hayot kechirib, ularga nafaqa va ta'minot ajratilgan. Ular e'tiqod kurashchisi (islom jangchisi) janobi Amir Olimxon davrida sihat-salomatdirlar.

Janobi Amirning o'n to'rtinchi o'g'illari Sayyid Mir Mansur to'radir. 8 yoshida oliy hazratlari shahzodani Abdulvosiy to'qso-ba bilan birga Peterburgga rus tilini o'rganish uchun yuborgan edi. O'qish yakunlanganida Amir Muzaffar vafot etdi. Mir Mansur to'ra rus ofitser va amaldorlari safiga kiritilib, Peterbergda yashay boshladi. Vaqti-vaqti bilan oliy hazrat to'ra ehtiroimga sazovor bo'lgan onasini ko'rishga kelib, so'ng yana Peterburgga ketar edi. 1334-yil hijriyda (1917) Rus imperatori Germaniya bilan urush munosabati bilan kuchsizlangandi. Bolsheviklar partiyasi tomonidan Rossiya davlatiga nuqta qo'yildi. To'ra o'z mol-mulki bilan Buxoroga qaytdi. Davrining podshohi janob amir Sayid Olimxon o'zining amakisiga ehtiroim ko'rsatdi. Karmana viloyatining uch mashhur chorbog'laridan birini unga taqdim etdi. U yerda to'ra yaxshi yashay boshladi. 1336-yil hijriyda Karmana viloyatida bolsheviklar to'poni yuz berganda, u o'zining onasi va farzandlari bilan bolsheviklar o'qidan halok bo'ldi. Ular Qosim Shayx qabri yonida dafn etilgan.

*Mirzo Salimbekning
«Tarixi Salimiy» asaridan.*

XIVA XONLIGINING BO'YSUNDIRILISHI

...1717-yilda Xiva xonligiga Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiya Sherg'ozixonning qo'llagan harbiy hiylasi orqali muvaffaqiyatsizlikka uchratildi. 1839-yildagi Perovskiy ekspe-

ditsiyasi ham ob-havoning noqulay kelishi natijasida 1840-yil muvaffaqiyatsiz yakunlandi. 1841-yil Oллоhqulixon saroyiga Nikifirov boshchiligidagi rus diplomatiyasi tashrif buyurdi. U bir necha shartlar aks



1842-yil polkovnik Danilevskiy boshchiligidagi elchilar Xivaga yuborildi va yuqorida zikr etilgan shartnomani Rahinqulixon bilan imzoladi. Biroq, shartnoma shartlari bajarilmay qoldi. Danilevskiyning missiyasi ham muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa ham, u Bazengil bilan birgalikda Xiva haqida qimmatli ma'lumotlar bilan ortga qaytdi... 1869-yilda Krasnavodsk bo'g'ozining olinishi bilan, ruslar Xivani uch tomondan o'rab oldilar, xonlik g'arbdan Kavkaz okrugi, shimoldan Orenburg okrugi va sharqdan Turkiston okrugi bilan chegaralangan edi... 1872-yilda Xiva-

ga qarshi yurish masalasi hal qilindi va u 1873-yil bahorida boshlandi. Qo'shin uch tomondan (*uch tomondan to'rtta harbiy qism harakat qilgan*) – Kavkaz, Orenburg va Turkistondan harbiy harakat boshladi va ularga fon Kaufman boshchilik qildi. 1873-yil 29-mayda uch tomondan harakatlangan qo'shin Xiva yaqinida birlashdi va shahar ishg'ol qilindi. Muhammad Rahim Bahodirxon bilan shartnoma imzolandi. Shartnoma shartlariga ko'ra, Amudaryoning o'ng sohili ruslarga berildi va u yerda keyinchalik, Amudaryo bo'limi tashkil etildi.

Kapitan V.Girshfeldning «Xiva vohasining harbiy statistik bayoni» kitobidan.

TURKMANLAR YERIGA HUJUM ...

Xotunlar ham chap qo'lida bolasi va o'ng qo'lida tig' bilan Rusiya otliqlariga hamla qilur edilar. Bir miqdor urush bo'lgandan so'ng Rusiya askari g'olib kelib, ularning hammalarini tig'-u to'fong bilan qirib, tamom etdilar. Ba'zi zahmdorlar o'liklarning oralarida o'zlarini o'likdek yotmish erdilar. Rusiya askari ularni ko'rib, miltiq o'qi bilan ularni ko'rib, qatl etdilar. Ul holda to'rt kazak otli bir yavmutning izidan yetib, o'rtag'a olib, har tarafdin tig' urmoq boshladilar. U yavmutning qo'lida hech yarog' yoq erdi. Unga zo'r zahm urdilar, qo'llaridan va tamomi badanlaridan qon oqib borur erdi. Yavmut ko'rdi, bular uni o'ldurmoqchidurlar, g'ayratga kirib, bir hamla qilib, ul kazaklarning biridan qilichini qontirib, qo'lidan olib, ul qilich bila hamul to'rt kazak otliqni qatl etdi. Chun zahmlaridan qon ko'p oqib erdi. Behol bo'lib yiqilib qoldi. Ul holda ikki kazak otli bu ahvolda ko'rib kelib, oti va tig' bilan shahid etdilar.

Muhammad Yusuf Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy» asaridan.

Xiva xonining talablarimizni so'zsiz bajarishga hamda xonlikda osoyishtalik istagi turkmanlarga jarima solish fikrini uyg'otdi. Yovmut urug'i oqsoqollariga 300 000 so'm pul yig'ishni ma'lum qilib, otryad bilan general Golovachyovni ular ustiga yubordim. Yovmutlar esa oilalari, xo'jalik narsalari bilan turkmanlarning boshqa urug'lari yashayotgan yerlarga qochibdi. Endilikda Ilonli qal'asi bilan Qiziltaqir oralig'ida Yemralilar manzilida 150 mingga yaqin turkman yig'ilgan. Ularga 15-iyul erta tongda to'satdan hujum uyushtirildi. Berilgan kuchli zarba natijasida jangda 500 ga yaqin turkman o'ldirildi.

General fon Kaufmanning Harbiy vazirga 1873-yil 25-iyulda yo'llagan axborotnomasidan.



PO'LATXON QO'ZG'OLONI

...Abdurahmon Oftobachini qo'shib, ko'p askarlar bilan (xon) buyurdi. Bular borib urushib, qirg'izlarni qochurdilar. Qirg'izlar parishon bo'lib ketdilar. Bir necha biylar, chunonchi, Umarbek, Abdurahmon shayton, Qoraqushbiy va Sulaymon o'g'li va bir necha qirg'iz biylar bilan qo'lga tushdi, ko'p obro' bilan birla xonni ko'rub, muloqot qilib, duo ayladilar. Filjumla, xotirjam bo'ldilar. Ersa Musulmonqul degan qirg'iz qipchoq urushdan qochib, bir necha qirg'izlar maslahat aylab, xonzoda (xon) topmoq uchun Buxoro tarafiga borib, Po'ladxon baladi Murodxonni oldiga borib, vasvasa qilib ekan. Urganchg'a, Muhammad Alixon o'g'li Muzaffarxonning oldiga borib, necha kun turib vasvasa qildikim, xon qilib, ota taxtiga o'ltirmoqqa fотиha o'qubmiz, sizga buyurdilar, hamma xaloyiq sizga muntazir turubdurlar, debdi. Muzaffarxon aytdi-

ki, «Sizga qirg'iz xalqini e'tiborlaring yo'q turur. Qalandarxon akamni ham olib borib, Murg'zor qishloqda o'ldirib qo'ydinglar. Alhamdulillah, yovhat bahuzur», deb qabul qilmadi. Musulmonqul noiloj qaytib, Toshkentga keldi, ersa, Muhsinboyning o'g'li Abdulmo'minning hovlisiga qo'nib erdi. Unda bir mulla Is'hoq degan qirg'iz bala Mazang degan mavzeda nosfurushlik qilar ekan. Azbaroyi nos olmoqqa kelgan ekan. Abdulmo'min mazkur aytdikim: «Ey, shu qirg'iz balani Po'ladxon deb olib borg'il, ish saranjom topganda, bir xon topilur», – dedi, ersa ma'qul bo'lib, o'shal qirg'iz balani olib Obliq ustidan oshib, Chust ustig'a kelib, qo'shing'a qo'shildi. Qirg'izlar xursand bo'lib, shodiyona qo'ydilar, oq kigizga solib xon ko'tardilar.

*Mirzo Olim Mushrifning
«Qo'qon xonligi tarixi» asaridan*



TURKISTON O'LKASIDA SIYOSIY-MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMI (1867-1917-yillar)

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga boshqaruvning mustamlakachilik tartiblarining o'rnatilishi haqida tushuncha berish va boshqaruvning xususiyatlari bilan tanishtirish;
- Turkistonda yangi boshqaruv tizimi haqidagi bilimlarini shakllantirish;
- o'quvchilarda Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi va boshqaruvi haqidagi bilimlarni berish.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

Qarang: 1-dars.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKROR-LASH (13 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilarning o'tgan darsda olgan bilimlarini «Zinama-zina»

uslubidan foydalangan holda sinab ko'ri-shi mumkin. Bunda o'qituvchi proyektor yordamida ekranga quyida keltirilgan «Zinama-zina» o'yinining chizmasini chiqaradi (yoki vatman qog'ozga chizil-gan shaklini sinf taxtasiga ilib qo'yadi) hamda ixtiyoriy ravishda 5 nafar o'quv-chini taklif etadi. O'quvchilarga o'yin qoidalari tushuntiriladi: har bir o'quvchi-ga ketma-ketlik asosida bittadan, jami beshta tezkor savollar berib boriladi. O'quvchilarning javob berish muddati 10 soniyadan oshmasligi lozim. Har bir to'g'ri javob o'quvchining zinalardan bir qadam oldinga siljishiga yordam beradi. Berilgan savolga noto'g'ri javob bergan o'quvchi o'zi egallab turgan zinada qo-ladi.

OFARIN



1. Xudoyorxon Makka xaj ziyoratiga borib, u yerdan qaytib kelayotganida 1882-yilda qayerda vafot etdi? *Afg'onistonda*
2. Po'latxonning asl ismi nima bo'lgan? *Mulla Is'hoq Mullo Hasan o'g'li*
3. 1839-yilda V. Perovskiy boshchiligidagi qo'shinlar qaysi xonlikka yetib borolmagan? *Xiva*
4. Qachon Gandimiyon qishlog'ida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II shartnoma imzolashga majbur bo'ldi? *1873-yil 12-avgustda*
5. Kaufman 1868-yil 23-iyunda qayerda amir Muzaffar bilan Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga aylantirgan shartnomani imzoladi? *Samarqandda*
6. Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi qo'shinlari Erjar qishlog'i yaqinida qachon to'qnashdi? *1866-yil 8-mayda*
7. 1868-yil 1-mayda Kaufman qaysi tepalikda hujum boshladi? *Cho'ponota tepaligiga*
8. Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi Samarqandda kurash olib borgan Kitob hokimi kim bo'lgan? *Jo'rabek*
9. Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi Samarqandda kurash olib borgan Shahrizabz hokimi kim bo'lgan? *Bobobek*
10. Gandimiyon Shartnomaga binoan Xiva xonligi 2 million 200 ming rubl miqdoridagi tovonni qancha yil davomida to'lashi belgilandi? *20 yil*

Ta'limiy o'yin nihoyasiga yetgach, o'quvchilar o'zlari ko'rsatgan natijalari-ga muvofiq rag'bat kartochkalari asosida baholanadilar.

III. YANGI DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQARISH USTIDA ISHLASH (14 daqiqa).

1-usul

O'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi va ularga topshiriqlar beriladi. Har bir guruh o'z topshirig'ini darslikdan foydalangan holda vatmanga yozadi.

1-guruhga: 1865-yilda qabul qilingan «Turkiston viloyatini idora qilish tog'risidagi Muvaqqat Nizom»ning ahamiyati haqida gapirib bering.

2-guruhga: Amudaryo bo'limining vazifalarini aytib bering.

3-guruhga: Turkiston general-gubernatorining vazifalarini aytib bering.

4-guruhga: 1886-yildagi «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ning mohiyatini tushuntirib bering.


Guruh sardorlari doskaga vatmanlarni osib, javoblarni izohlab berishadi. Javoblar o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi va aniqlik kiritiladi.

2-usul


O'quvchilar guruhlarga ajratiladi va har bir guruhga Turkiston general-gubernatorligining boshqarilish uslubi bo'yicha infografika shaklidagi sxema chiqib asoslab berish vazifasi yuklatiladi:




1-guruh:
MARKAZIY BOSHQARUV




2-guruh:
VILOYAT BOSHQARUVI




3-guruh:
TUMAN BOSHQARUVI




4-guruh:
SHAHAR BOSHQARUVI
a) tuman shaharlari idorasi



b) Toshkent shahri idorasi



QISHLOQ BOSHQARUVI





Respublika 3-usul

ta'lim markazi

Yangi mavzuni o'tishda «Tarix charxpalagi» uslubidan foydalanish mumkin. Bunda, avvalo, kompyuter va proyektor yordamida ekranga o'yin chizmasi chiqariladi (yoki vatman qog'ozga oldindan chizilgan holda sinf taxtasiga ilib qo'yiladi). So'ngra ixtiyoriy ravishda bir nafar o'quvchi taklif etiladi. Taklif etilgan o'quvchi o'yin chizmasida berilgan «Tarix charxpalagi»dagi 1 dan 8 gacha bo'lgan raqamlar orasidan istalganini tanlaydi va shu raqam ostida yashirilgan savolga javob beradi. Javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. O'quvchi o'z javobini aytib bo'lgach, o'yinni davom ettirish uchun keyingi o'quvchini taklif qilish interfaol usulda amalga oshiriladi. Buning uchun sinfda necha nafar o'quvchi bo'lsa, sinf taxtasidagi o'quvchi 1 dan boshlab sinf-

dagi o'quvchilarning umumiy sonigacha bo'lgan raqamlar orasidan (masalan, sinfda 30 nafar o'quvchi bo'lsa, 1 dan 30 gacha bo'lgan raqamlar orasidan) birini aytadi va sinf jurnalida shu raqam ostida qayd etilgan o'quvchi o'yinni davom ettiradi. «Tarix charxpalagi»dan sirli raqamlarni tanlashda, shuningdek, o'quvchilarni ishtirokchi sifatida taklif qilishda bir marotaba aytilgan raqam ikkinchi marotaba takrorlanmasligi lozim. Shu taxlit 8 nafar o'quvchi birin-ketin 8 ta savolga javob beradilar. O'quvchilarning javoblari rag'bat kartochkalari asosida baholab boriladi.

1. Avliyootada birinchi rus manzilgohi qachon vujudga keldi? (1875)

2. Turkiston general-gubernatorligi qachon tashkil topdi? (1867)

3. Turkistonga 13 ming rus oilasi ko'chirib keltirilgan yillar. (1875-1890)

4. «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» nechanchi yilda qabul qilindi? (1886)

5. 1891–1892-yillarda ko'chib kelganlarning qancha manzilgohi paydo bo'ldi? (25 ta)

6. 1875–1890-yillarda ko'chib kelgan aholi nechta qishloqni tashkil etgan? (19 ta)

7. Ko'chib kelganlarga uy qurish uchun qancha miqdorda rubl berilgan? (100)

8. Turkistonga ruslarning 25 ta manzilgohi qaysi yillar oralig'ida vujudga keldi? (1891–1892)



**IV. O' TILGAN MAVZUNI MUSTAH-
KAMLASH** (10 daqiqa).**1-usul**

Insert jadvalini «B.B.B» usulida to'ldirish:

V	+	?
1	2	5

«Insert usuli» raqamlar qo'yib belgilar asosida o'qitish.

Masalan:

1. General-gubernator vazifalari V
2. Zarafshon okrugi qachon tashkil qilindi +
3. Toshkentdagi Duma faoliyati V
4. 1886-yilgi Nizomning ahamiyati +
5. 1886-yilgi Nizomning bandlari ?
6. Turkiston o'lkasi boshqaruvining eng quyi bosqichlari ?

2-usul

Bunda «Bingo mashqi» dan foydalaniladi.

1877-yilda Toshkentda	80 ming mahalliy aholi	1877-yilda Toshkentda
48 nafar deputat	«Shahar nizomi»	21 nafar deputat
3900 nafari	1877-yilda Toshkentda	Duma

**V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-
RISH** (4 daqiqa).

O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish, baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA (2 daqiqa):


1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.
2. Yangi dars matni bilan tanishib kelish. Shuningdek, har bir matndan tarixiy atamalarni ajrating va lug'at yordamida ularning mazmuning aniqlang va daftaringizga yozing.





QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy-hududiy tuzilishi



TARIXIY HUJJAT

FARG'ONA VILOYATI TURKISTON GENERAL-
GUBERNATORLIGI TARKIBIDA

...General Skobelevni Turkiston general-gubernatori fon Kaufman – yarim podsho Farg'ona muzofotiga voyenni gubernatorlik mansabiga tayinlab, hamma askariya va to'p-u to'pxona, xazina-yu dafinalarni topshirgani jihatidan tamomi ishlarni shu Tuproqqal'ada turib sarishta qilib, nihoyatlik zabt-u siyosat bilan har qanday ish tepasida o'zi turar edi. Bir dasta otliq qozoq, o'rus bir tug'li odam bilan birga yuradur. Shukuhi raftori misli shamol goh bu tarafga, goho boshqa tarafga esadi. Gunohkor odamlar uning siyosatidan yuragi sado qilib turadi va haybatidan amaldor va fuqarolar jonini qo'liga olib turardi. Farg'onadagi tamomi musulmon to'p-u miltiqlarini va har joyda g'amlab qo'ygan miltiq dorusini oldirib, Tufroqqo'rg'onga yig'ib, tamomi miltiq dorusini necha chaqirim dashtga olib borib, Skobelevning o'zi tepasida turib, el yetib kelishi vaqtida birdan o't berdi, go'yo-ki Marg'ilon shahrini janub tarafining tamomisi to osmongacha batamom otash alanga olib to'lib ketdi. Farg'ona ahliga general-gubernatorning shul qilgan sipohigarlik siyosati butun kormori qilmish bo'ldi. Marg'ilonda qancha qishloq va yurt-ni qo'shib aning nomini Marg'ilon uyezd deb daftarga yozib, unga bir hokim nasib qilib Marg'ilonga tushirdi. Bu uyezd hokimiga bir noib va bir noibi kichik tayinladi. Marg'ilondagi podsholik bog' ichiga kelib

turib, hokimlik ishiga mashg'ul bo'ldilar. Bu hokimi kabir (kabir – katta) mahkama qilib berar ekan. Hamma ishlarni va farmon hukmini, xattu xutut va daftar-paftari, yozuv ishlari shu mahkamada bo'lar ekan. Unga bir mirzaboshi, unga esa bir noib, yana besh-olti adad o'ris mirzolari hozir-u farmonbardor ekan. Hammalari maosh olar ekan, ammo fuqarolar bir nimarsa olmas ekan. Chunonchi zokun nizomi shunday mustahkam ekan.

Mazkur hokimning nomi Bekchurin degan no'g'ay bolasi ekan. Musulmon tili va xatiga mohir bo'lgan ekan. Katta noib va kichik noibi o'ris bolasidan ekanlar. Xo'qand shahri ichiga bir noib tayin qildi va tashqarisidagi hamma qishloqlarni uyezd qilib, unga bir hokim tayinladi. Andijonni ham bir uyezd qilib, unga Semyonov degan bir o'risni tarix 1876 isaviyada Andijon uyezdiga hokimlikka tayin qildi. Yurt qishloqlari ko'pligidan to'rt adad noib qo'liga topshirdi. O'sh, Namangan va Rishtonning har qaysisiga qishloq yurtlarini zam qilib, nomini uyezd qilib, har qaysisiga hokim va noib tayinlab, hokimiyat ishiga faol qildi. Valekin, bu uyezdlarning hammasi Farg'ona oblostonoy mahkamasiga qarar edi.

Demak, Farg'ona viloyati tarkibida Marg'ilon, Andijon, Qo'qon, O'sh, Namangan va Rishton uyezdlari bo'lgan.

*Muhammad Aziz Marg'iloniyning
«Tarixi Aziziy» asaridan.*

FARG'ONA VILOYATI

...Yuqori Norinning sohillarida bir necha kazak aholi yashaydigan qishloqlar qurilgan. Ammo ushbu daryoning Qoradaryo bilan qo'shilgan joyida Namangan shahri barpo etilgan bo'lib, unda paxta yetishtiruvchilar yashaydi. Shahar-

da 1000 ta do'kon bor. Har yili shaharda 300 000 qo'y sotiladi. Bu yerlik aholi solar yasab, uning ustiga meva-cheva, teri, kigiz ortib, Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab oqizadi. Shimoli-g'arbda Koson shahri joylashgan bo'lib, u Farg'onada



qadimiyligi bilan mashhur. Shaharning tojik aholisi juda chiroyli hisoblanadi. Sirdaryoning shimolida joylashgan yana bir shahar Chust, unda ham xuddi Hisordagi kabi mashhur pichoqlar yasaydilar. Qoradaryoning suvlari ko'pgina shaharlardan oqib o'tib, birinchisi O'zgan, Tyan-Shan tog'larining bir darasining etagida 3200 fut¹ balandlikda joylashgan. Shahar avliyo sanalmish Xo'ja Yusufning maqbara-

si yonida bo'lganligi sababli mashhurdir. O'zgandan janubroqda 2000 fut balandlikda Terak dovonini Xitoyliklardan saqlab turadigan G'ulja shahri joylashgan. Sharqiy Farg'onaning bosh shahri Andijon hisoblanib, uni Qoradaryo suvlari sug'orib turadi. Shaharning shimoliy-sharqiy qismida tez-tez ziyoratchilar kelib turadigan, suvlari issiq, karbonat angidrid va oltingurgurtga boy Jalolobod Ayyub joylashgan.

TOSHKENTNING OSIYO VA YEVIROPA QISMLARI TAVSIFI

Shaharning Osiyo qismi ma'muriy jihatdan 4 qismga bo'lingan. Ular mingboshilar tomonidan boshqarilgan va Shayxontohur, Sebzor, Ko'kcha, Beshyog'och deb nomlanadi.

Ularning birinchisi, ya'ni Shayxontohur shaharning shimoli-sharqiy qismini o'z ichiga oladi, tekistlikda joylashgan, chuqurjar uni ikkiga ajratib turadi va u orqali Anhor tezoqar kanali oqib o'tadi. Shayxontohur 48 ta mahalladan iborat bo'lib, ulardan bir nechtasi shahar atrofida joylashgan va keyinchalik tobora kengayib borayotgan shaharga qo'shilgan. Ushbu shahar atrofidagi mavzellarining ba'zilar shunchalik kattaki, ushbu mahallaning aholisi oilaviy to'y-hasham va bayramlarda taklif qilinganda, ularni sanayotganda ba'zan ajratib qo'yishgan. Shayxontohur aholisi L. Kostenkoning ma'lumotiga qaraganda, 3030 xonadonda istiqomat qiladigan 10194 kishidan iborat bo'lib, u yerda 3 ta madrasa, 60 ta masjid, 230 nafar o'quvchiga ega 10 ta maktab mavjud bo'lgan. Shaharning ushbu qismi aholisining asosiy mashg'ulotlari cho'yan eritish, sarrojlik², juvozchilik³ va to'qimachilik bo'lib, hunarlarning umumiy

soni 507 taga yetadi. Shaharning ushbu qismida uy-joy va binolardan tashqari, bog'lar uchun ajratilgan qismi juda kichik bo'lgan – 300 akr dan iborat. Bundan tashqari, 860 akr⁴ yer yaylovlar va 900 akr yer sholi ekish uchun ajratilgan.

Sebzor shaharning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, 38 mahalladan iborat. U to'rt qismdan iborat bo'lib, ulardan birining nomi Ibrohim ota deb nomlanadi va «yo'ng'ichqa» yoki beda yetishtirish bilan mashhur. Kaykovus nomli (Toshkentning sobiq hukmdorlaridan birining sharafiga nomlangan) bosh kanalning sohillarida joylashgan qismidagi 2230 xonadonda 18650 kishi istiqomat qiladi, shu yerda Sebzorning barcha tegirmonlari joylashgan. Shaharning ushbu qismi aholisining asosiy mashg'uloti etikdo'zlik bo'lib, Turkistonning boshqa shaharlariga ham eksport qilinadi. To'qimachilik va gazlamalarni bo'yash o'z ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinda turadigan kasb hisoblanadi. Mahalliy aholi ushbu ikki hunardan juda qadimdan buyon foydalanib kelmoqda va ular orasidan yetishib chiqqan boy sinf ulgurji savdo bilan shug'ullanadi. Bu yerda uchta madrasa mavjud bo'lib, ular-

¹ Fut – 1) rus o'lchovlar tizimidagi uzunlik birligi. 1 f = 1/7 sarjin = 12 dyuym = 0,3048 m; 1918-yilda bekor qilingan; 2) ingliz o'lchovlar tizimida uzunlik birligi. Bir fut = 1/3 yard = 12 dyuym = 0,3048 m.

² Sarrojlik – o'rta asrlarda ot yoki boshqa ulovlarning egar-jabduqlarini tayyorlovchi hunar turi.

³ Juvozchilik – moyli o'simliklar urug'idan (maye, chigitdan) moy chiqaradigan dastgoh, moyjuvoz. Juvoz qanday o'simlik urug'idan moy olinishiga ko'ra bir necha xil bo'ladi, chunonchi: moy juvoz, sholi oqlanadigani — objuvoz, qog'oz juvozi. Juvozlardan ulov (ot, ho'kiz) yoki suv kuchi bilan yuritiladi.

⁴ Akr – ingliz o'lchov tizimida yuza birligi. 1 akr = 4 840 kv. yard = 4046,86 m².

dan Beklarbegi madrasasi juda mashhur, unda 260 nafar talaba tahsil oladi.

Ko'kcha dahasi shaharning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, 31 mahalla, 2511 xonadon va 22088 jondan iborat. Ko'kcha tepaliklar bilan qoplangan joyda joylashgan va chuqur jarlari juda ko'p. Shaharning bu qismi aholisi asosan charmga ishlov berish bilan band. 1871-yilgi statistikaga ko'ra, 695 ta hunarmand-kosibdan 341 nafari charmga birlamchi ishlov berish bilan shug'ullansa, 218 nafari charmdan poyabzal tayyorlagan. Bundan tashqari, bu yerda g'isht pishirish uchun 6 dona pech, 7 dona kulolchilik ustaxonasi, 22 tegirmon va 22 juvozxona, shuningdek, 2 ta madrasa, 34 ta maktab, 51 ta masjid va 18 ta maqbara bo'lib, oxirgisida Bag'doddan bu yerga yuborilgan va 400 yil oldin shu yerga dafn qilingan Shayx Zayniddin boboni aytib o'tish loyiq.

Shaharning to'rtinchi qismi Beshyog'och dahasi bo'lib, uning janubiy qismini egallaydi. Daha 32 mahalla, 1400 xonadon va 12450 jondan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligida obod bog'lar va dalalar mavjud. Shuning uchun ham shaharning bu qismida aholi kamroq yashaydi, dehqonlar o'z dalalariga yaqinroq bo'lish va ularda ishlov berish uchun aholi ko'chib borgan. Shu tarzda, bundan 180 yil oldin shaharliklar ko'chib ketishi natijasida Zangiota qishlog'iga asos solindi. Bu qishloqqa maqbarasi shu yerda joylashgan va judayam katta hurmatga ega Zangiota nomi berilgan va har yili mevalar hosil berganda Turkistonning barcha shaharlaridan ziyorat-

chilar keladi. Beshyog'ochliklarning asosiy mashg'uloti g'isht qo'yish bo'lib, chamasi shundan 3 ta madrasa, 16 ta xususiy maktab va 68 ta masjid barpo qilingan.

Shaharning Osiyo qismi aholisi asosan kasb-koriga qarab bo'linadi. Imoratlarining soni 17500 ta. 1868-yilgi aholini ro'yxatga olish bo'yicha, aholining soni 76 ming nafar kishi edi. Binobarin, imoratlar quyidagilardan iborat: xususiy uy-joylar – 13260 ta, shundan 322 tasi – bo'sh, 23 ta karvonsaroy (519 ta do'kon), 8 ta madrasa, 8 ta hammom, 255 ta masjid, 116 ta tegirmon, 42 ta boshqa tegirmonlar, katta bozorda 2324 ta do'kon, ichi bo'sh bozorda 307 ta do'kon, 594 ta do'koncha, 96 ta bo'sh yoyma bor.

Shaharning yangi qismi eski qismidan Bo'zsuv bilan ajratilgan. Unga 1865-yilda asos solinganiga qaramasdan, juda rivojlangan. ...Shaharning bu qismi o'zining shahardan 1,5 km uzoqlikda joylashgan observatoriyasi, Markaziy Osiyo muzeyi va men shaxsan tashrif buyurgan teatri bilan mashhur. Bundan tashqari, zobitlar teatri va klubi bor. 1875-yilda shaharning rus qismi aholisi askarlardan tashqari, 2982 nafar erkak va 1870 nafar ayoldan va diniy nuqtayi nazardan pravoslav, musulmon, yahudiy, katolik va lyuteranlardan iborat edi. 100 ta kasbga bo'lingan jami 4852 nafar ish bilan band aholidan 532 nafar ayol doimiy ish bilan ta'minlangan; 1691 nafar kishida aniq kasb yo'q. Aholining aksar qismi navqiron yoshda bo'lib, ularning yoshi 20 va 40 oralig'ida bo'lgan.

ZARAFSHON UYEZDI

...1880-yilda chop qilingan «Turkiston kalendari»ga muvofiq uyezdning tog'li volostlarining aholisi 25565 erkak va 18167 ayoldan iborat bo'lib, ulardan 672 tasi rus askarlari sanaladi. 1876-yilda chop qilingan «Turkistanskiy yejegod-

nik» nashrida 1872-yilda uyezdning 3 ta volostida, ya'ni Samarqand, Panjikent va Kattaqo'rg'onda taxminan 215 000 odam (119 000 erkak va 96 000 ayol) yashayotganligi haqidagi ma'lumotni yig'ib oldim. Ular etnik jihatdan quyidagilarga



ko'linadi: 582 nafar qirg'iz, 67 862 nafar tojik, 140 154 nafar o'zbek, 2211 nafar eroniy, 214 nafar hindi, 1974 nafar yahudiy. Ijtimoiy tarkibi esa quyidagicha: 7 690 nafar mulla, 9593 nafar savdogar, 28 865 nafar hunarmand va kosib, 95 429 nafar dehqon va qishloq mehnatkashlari, 73 986 nafar qora ishchi. Uyezdda 5 000 xonadon mavjud, bundan yo'l-yo'lakay kelgan 180 nafar oilalar mustasno. 30 ta maktab, 2 001 ta masjid, 990 ta tegirmon, 500 ta qolipaydigan tegirmon (yoki priss), 32 ta bozor mavjud.

Mahalliy millatlarga oid shaharliklardan tashqari, 1873-yilda uyezd shaharlarida ruslar: Samarqandda 5069 nafar, Kattaqo'rg'onda 1121 nafar, Panjikentda 28 nafar, Kamminniy Most fortida 227 nafarni tashkil qiladi. Jami 6 151 nafar ruslardan 5 600 nafari askar, 231 nafari oddiy fuqaro, 329 nafari ayol, 287 nafari boladan iborat. Bundan tashqari, uyezdda har birida o'rtacha 1000 kishilik 8 ta qishloq mavjud. Payshanbada 4 380 va Urgutda 10 200 nafar fuqaro istiqomat qiladi.

...Har yili 1000 funt-sterling foyda keltiradigan 8 ta do'kon mavjud. Samarqanddagi masjid va madrasalarning soni 58 ta, ularning mulki – yer maydonlari, do'konlar, karvonsaroy, 1 ta bozor, tegirmon va hokazolar har yili 2000 funt-sterling foyda keltiradi. 1876-yilda chop qilingan «Turkistanskiy yejegodnik» ma'lumotiga binoan butun uyezdda 3 ta rus maktabi mavjud edi (uchinchisi Kattaqo'rg'onda joylashgan), ularda 6 nafar o'qituvchi ishlagan, 64 nafar o'g'il bola va 23 nafar qizlar tahsil olgan. 1876-yilda uyezdda mahalliy ta'lim 968 ta boshlang'ich maktablarda va 31 ta madrasada olib borilgan. Maktablarda 999 nafar o'qituvchi dars bergan, qishda o'quvchilarning soni 8 642 nafarni, yozda esa 2 266 nafarni tashkil qilgan.

...Samarqanddagi uylarning soni 4 411 ta, shundan 200 tasi ruslarga tegishli. Aholisi 36 000 nafarni tashkil qila-

di. Shulardan 5 400 nafari yevropaliklar va 30 600 nafari mahalliy aholidir. Ishlab chiqarish korxonalari va inshootlar, asosan, shaharning Osiyo («Eski shahar») qismida joylashgan bo'lib, zavodlar, to'qimachilik ustaxonalar va boshqalardan iborat. Ularning ko'rinishi Toshkentni eslatadi. Hunarmandlar to'qimachilik, temirchilik, misgarlik, terini oshlash, duradgorlik, tokarlik, poyabzal tikish, egar-jabduq, shuningdek, bo'yash, kulolchilik va tikuvchilik bilan shug'ullanadi. Biz Zarafshon uyezdini Buxorodan ajratib turadigan Hisor tog' tizmalarining davomi bo'lgan Kitob tog'larining cho'qqisiga chiqdik. Eni 30 qadamga yaqin bo'lgan tosh platformadan orqadagi quruq va suvsiz cho'lga nazar soldik, bizning oldimizdagi manzara ancha yoqimli ko'rinardi. Bu Qashqadaryo vohasi bo'lib, ikkala qirg'og'ida egizak shaharlar – Kitob va Shahrisabz joylashgan. Daraxtlar va bog'larning serobligidan Shahrisabz, ya'ni «Yashil shahar» deb nomlangan. Amir Kitobda 12 ta zambarak, Buxoroda esa undan ham ko'proq zambarak saqlar edi. Uning armiyasida 14 ming nafar jangchi bo'lib, undan 6 000 nafari otliq askarlar edi. Ularning barchasi ixtiyoriy ravishda 18 yoshdan to umrining oxirigacha xizmat qiladi, ularga yaxshi haq to'lanadi. Qishloq joylarida 17 shilling va 6 pens, poytaxtda esa, 20 shilling to'lanadi.

Kitob tepaliklarda joylashgan bo'lib, 1910 fut balandlikda, Shahrisabz esa past va serbotqoq joyda joylashgan.

Ostanaqulbiyning so'ziga qaraganda, Qarshi bekligi Chindan 40 mil sharqqa, Buxoro tarafga qarab cho'zilgan. Qarshi bekligi Qarshi, G'uzor, Shirabul, Sada-bat va Chiroqchi tumanlaridan iborat. Bu yerlardan olinadigan umumiy daromad, A. Byornsning fikriga ko'ra, 32 000 tillani tashkil qiladi. G'ildirakli texnika (poyezd) yuradigan yo'llar Qorako'ldan poytaxt orqali Kattaqo'rg'on va Samarqandgacha,

Samarqanddan aylanib, Jom orqali yoki Buxorodan Qarshigacha olib boradi. Koson – ulkan savdo manzili bo'lib, vohaning g'arbiy chekkasida joylashgan. Qarshidan Buxorogacha bekatlar nomlari va masofasi quyidagicha (mil hisobida): Koson – 16, Xo'ja Muborak – 20, Bakir – 18, Qorovulbozor – 13, Buxoro – 27.

Buxoro devorining aylanasi 7 mil 980 yard¹, balandligi 24 fut va asosining qalinligi 10 futdan iborat. Mahalliy aholi shahar alolisini 2 mln kishi, deb hisoblaydi.

Henri Lansdellning «Rossiyaga bo'ysundirilgan hamda G'ulja, Buxoro, Xiva va Marvni o'z ichiga olgan Markaziy Osiyo» kitobidan.

KO'CHIRMA SIYOSATI

...Ruslar Turkistong'a yerlashg'onlaridan (joylashganidan) keyin tutgon siyosatlari ijobiy Ukrainodan qofila-qofila rus dehqonlari, mujiklarni xoxollarni keltirishga boshladi. Mujiklarning iflosliklari ila kutak arabalari, uzun-uzun o'roqlari boshda o'laroq, poda-poda to'ng'izlari Turkistong'a juda ham og'ir keldi. Mujiklar Farg'onaning eng suvlik, unumli yerlariga joylashdilar. Andijon muzofotiga tobe Jalobodning ust taraflari O'zgand tobe'lari, Qurshob, Kampirobod atroflariga yerlashdilar. Daxi Skobrluv atrofida rus mujiklari o'rinlashdilar. Xususan, Qozog'istonning unumlik joylarig'a ruslar millionlab o'rnashtirildi. Bular yetmas emishda, boshqa tarafdin ma'qul yo'llar bilan dindoshimiz, irqdoshimiz no'g'oy, tatarlarni turli bahonalar ila Turkistong'a yog'dirdi. Bularning aksariyati o'qig'on kishilar edi. Ular ishxonalarga, yozuvxonalarga, ido-

ralarga, paxta zavodlariga, ba'zilar kotib va ba'zilari tilmoch, muallim, tarozubon va turli-turli vazifa ila o'rinlashdilar. Bularning tarixi muxtasar etilg'onda, o'qitib, odatlantirib yetishtirilg'an mustamara (mustamlaka) hayotig'a, siyosatig'a rozi qilib, tarbiyalangan qo'lbola qulbachchalaridur (ma'murlardir). Bulardan boshqa tatarlardan keltirgan askarlarning Turkistonda uylanib, joylanib, yerlik, suvlik bo'lishlariga yerliklar ila bir tekista bo'lishlarida Moskovning musoadasi bo'ldi.

Shul usul ilaki, Turkiston general-gubernatori Moskovdan chiqarilgan zakun (qonun)ga rioya qilmaslik haqqining hoizidur. Bu kishi yarim podshodur, Turkistonga farmonfarmodur, shuning uchun Moskovga borgan dod-faryod, shikoyatlari eshitilmaydur.

Muso Turkistoniyning «Ulug' Turkiston fojiasi» asaridan.

RESURSLAR, MANUFAKTURA VA SAVDO

...Turkistondagi (*Buxoro, Xiva xonliklari va Turkiston general-gubernatorligi*) 152500000 akr yerdan 70000000 akri dasht, tog'li va qumli yerlari mol boqish uchun ham, ekin ekish uchun ham yaroqsizdir. 75000000 akr maydon yaylovdan iborat bo'lsa, qolgan 75000000 akrdan 5000000 akri ekiladigan yer 2500000 akr yer lalmi yerlardir. To'qimachilik uchun yetishtiriladigan mahsulotlardan

paxta birinchi o'rinda, zig'ir hamda kanop ikkinchi va uchinchi o'rinlarda turadi. Tomorqalarda asosan, qovun va kartoshka yetishtiriladi. Ekiladigan yerlardan olinadigan asosiy mahsulotlar 1000 pudda quyidagicha ifodalanadi: bug'doy 17 ming; guruch 10 ming; jo'xori 8800; tariq 5400; arpa 3100; boshqa donli ekinlar 3600, jami 47000 pud. Amudaryo va Sirdaryo viloyati ko'chmanchilari yili-

¹ Yard – britan va amerikan masofa o'lchov birligi, uch futga (36 dyuym) yoki 0,9144 metrga teng.



Respublika ta'lim markazi
3 mln pud makkajo'xori yetishtiradi. Zarafshon, Qurama va Xo'jand tumanlarida yetishtirilgan paxta 400 000 pud, Farg'onada 150 ming pudni tashkil etadi.

Markaziy Osiyoga maxsus ilmiy topshiriq bilan jo'natilgan rus injenerining yaqinda bergan ma'lumotiga ko'ra Samarqand yaqinida joylashgan Panjikentdagi neft konlarida kamida 9 000 000 pud eng toza neft bor. Mahalliy ishlab chiqarishda zavodlar va sexlar soni juda ko'payganligi quyidagi raqamlarda namoyon bo'ladi: Sirdaryo viloyatida 720 ta sex va 3 000 ta hunarmandchilik ustaxonasi, Farg'onada 4 320 ta sex va 2 000 ta ustaxona, Zarafshonda 520 ta sex va 1 000 ta ustaxona, Amudaryoda 2 ta sex, 50 ta ustaxona, jami 1 662 ta sex va 6 050 ustaxona bo'lgan. Eng muhim manufaktu-

ralar ruslarga tegishli bo'lib, ular 40 tani tashkil etadi. Ko'p sonli mahalliy kichik manufaktura ustaxonalari orasida ipak yigirish va to'qish eng asosiylari sanaladi. Farg'onadagi kichik sexlar 100 000 funt qiymatidan ortiq ipak va 30 000 funt qiymatidagi paxta mahsulotlarini ishlab chiqaradilar.

...Rossiyadan Turkistonga eksport qilinadigan tovarlar orasida eng asosiylarini jun va paxta gazlamalari, teri mahsulotlari, dastgohlar va kiyimga zeb beruvchi mahsulotlar tashkil etadi. Turkiston bunga o'zining chorvasi va Hindistondan keltiriladigan 100 000 funt qiymatidagi choyi bilan javob qaytaradi.

Jorj Kerzoning «Rossiya Markaziy Osiyoda hamda Angliya Rossiya masalasi» kitobidan.

BANKLAR XUSUSIDA

Bank xususida «Oyna» jurnali bosh maqolasi bu tariqa yozibdi. Banklar bizni barbod etdimi? Albatta, yo'q. Nima bizni barbod etdi? Nodonlik, hisobsizlik, tartibsizlik bizni barbod qildi. Ayb bankda. Yo'q, ayb bizda, chunki boshqa xalqlar banklar sababi bilan obod bo'lib, mulki ortur. Bor mulkimizning qo'ldan ketishiga asl sabab bank emas, o'zimizning aqlsizligimiz va behisobsizligimiz va naf va zararlarimizni bilmaganimiz, tijorat tilidan va zamondan bexabarligimizdan xulosa jaholat va nodonligimizdur. Bank sababi ila yahudiy, arman va boshqalar davlatlik bo'lur, biz bo'lsa davlatimizdan va obro'yimizdan ayrilurmiz. Qarz bilan imorat, to'y va boylik qilamiz. Bu sabab ila faqirlik darajasiga tushib, so'ngra bankdan dod qilamiz. Diqqat qilinsa, biror yahudiy va o'ris, arman hech vaqt to'y degan baloga 5 000 so'm, hatto 100 so'm sarf etganligi eshiltimaydi. Biz bo'lsa, 20 000 so'mlab sarf etamiz. ...Qo'qondan janob M.D.R.M.

afandi yozadiki, bankdan foydali aqcha olmoq durustmi? Biz musulmonlar nima uchun bankdan pul olib siporamiz? Savol uchun javob beramizki, ... masalan, Abdulloy bozorning o'zida 5 000 so'm sarmoyasi bor do'kondan 500 so'mlik molni 6 oy va'da ila nasiya sotdi. Albatta, bu sotilgan molga oqlab 50 so'm foyda qo'yib ediki, yuzda o'n yuzasidan bo'lur, endi do'kondagi mol oz edi, yana mol olmoq uchun aqcha yo'q. Kontoradan nasiya olsa, avvalgi narxga nisbatan 7-8 hissa qimmat qilib berur. Agarda Abdulloy bazzoz sotgan mol uchun olgan vekselini bankga qo'ysa, olti oyga bank 500 so'm naqd berib, faqat 15 yo 20 so'mlik foyda xohlaydiki, bizning bazzozimiz ushbu pulni 4-5 kontoradan chakkasiga chertib, silab, molni arzon narxda olar. Ana bank himmati va kerakligi shundan iboratdir.


Mahmudxo'ja Behbudiy. Oyna. 1914-yil, 9-mart, 21-sondan.

TURKISTONDAGI SOLIQLAR

Turkiston o'lkasi aholisining 90 foizi ni tashkil etgan dehqon va chorvadorlarning ahvoli tobora mushkullashib bordi. Turkistondagi yer solig'i 1914-yilda 6859021 rubl bo'lgan bo'lsa, 1916-yilda bu raqam 14311771 rublni, ya'ni ikki baravarni tashkil qildi. 1915-yilda esa maxsus harbiy soliqlar solinib, u paxtakorlar uchun har pud paxtadan 2 rubl 50 tiyinni tashkil qildi. O'sha 1915-yilda soliqlar miqdori 38329000 rubldan iborat bo'lgan. Rus mustamlakachilar imperiya


to'qimachilik sanoati manfaatlarini himoya qilib, paxtaga qat'iy narx – pudiga 24 rubl belgiladi. Natijada paxtakorlar bir yil ichida 60 million rubl yo'qotdilar. Gar 1913-yilda paxta narxi 50 foiz oshirilgan bo'lsa, boshqa zarur mollar narxi 400-500 foizga ko'tarildi. Non narxi esa 6 baravar oshdi. Chayqovchilik avj oldi.

*O'zR Markaziy davlat arxivi,
461-jamg'arma, 1-ro'yxat,
21-yig'ma jild.*







ALEKSANDR II TOMONIDAN 1864-YILDA SUD NIZOMINING JORIY ETILISHIDAN SO'NGGI UMUMSALTANAT SUDI (XX ASR BOSHLARI)



MIRSHABLIK BOSHQARUVI



TURKISTON O'LKASI MAXFIY SIYOSIY POLITSIYASIGA (M.S.P) BO'YSUNUVCHI POLITSIYA-JANDARM BOSHQARMASI BO'LIMI



TURKISTONDA ROSSIYA IMPERIYASIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga XIX asr oxirlarida Turkistonda mustamlakachilik jabr-zulmining kuchayishi natijasida milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi haqida bilim berish;
- o'quvchilarga Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining kuch bilan bostirilishi haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarning ozodlik va mustaqillikka bo'lgan munosabatlarini rivojlantirish;
- shuningdek, Toshkentda «Vabo isyoni» va uning oqibatlarini, 1892-yil 18-iyundan «Harbiy holatda deb e'lon qilingan joylar haqida Qoida»ning kuchga kirishi haqida bilib oladilar;
- Andijon qo'zg'oloni va uning natijalari haqidagi bilimlarni o'zlashtiradilar.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

Qarang: 1-dars.

II. UYGA VAZIFANI TAKRORLASH (14 daqiqa).

Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartochkalar yordamida amalga oshiriladi.

1-kartochka: 1886-yilgi «Nizom»ga muvofiq vaqf yerlari ...

2-kartochka: Ko'chirib keltirilganlarga qanday imkoniyatlar yaratilgan?

3-kartochka: Agrar siyosat nima?

4-kartochka: Turkistonga rus aholisining qaysi vakillari ko'chirildi?

5-kartochka: Turkistonda dastlabki rus qishloqlari qayerlarda tashkil topdi?

6-kartochka: Yozuvsiz xaritadan 1867-yilgi Turkiston general-gubernatorligi hududini ko'rsating.

III. YANGI DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQRARISH USTIDA ISHLASH (12 daqiqa):

1-usul

O'qituvchi yangi mavzu yuzasidan kichik ma'ruza qiladi.

Bunda «Aqliy hujum» usuli ishlatilib, o'quvchilarning darsga qiziqishi jadallashadi.

«Aqliy hujum» savollari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Milliy-ozodlik harakati deganda nimanani tushunasiz?
2. Nima sababdan podsho hukumati Turkistonga rus aholisini ko'chirishga kirishdi?
3. Qo'zg'olonlarga nimalar sabab bo'lishi mumkin?
4. Nima sababdan qo'zg'olonlarning aksariyati Farg'ona vodiysida bo'lgan?





Respublika **2-usul**

ta'lim markazi

Guruhlarda ishlash. O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhda quyidagi jadval beriladi. O'quvchilar darslikdan foydalangan holda jadvalni to'ldirishi mumkin. Namuna uchun vazifa: Muhammad Ali eshon haqida ma'lumot to'plang.

O'quvchilar quyidagilarni yozishishlari mumkin
<i>Yashagan yillari</i>
U 1846-yil Marg'ilon shahriga qarashli Shahidon qishlog'ida dehqon va hunarmand Muhammad Sobir oilasida tug'ilgan. 1898-yil 25-iyunda qatl qilingan.
<i>Qilgan ishlari</i>
U ota kasbi duk yasash bilan shug'ullangan. Aravon va Asaka o'rtasida baland suvsiz yerda «obi xidoyi» barpo qildi. Sultonxonto'ra vafotidan keyin pirlik darajasiga erishdi.
<i>Bo'lgan davlatlari</i>
1887-yil chet el safariga otlandi. U Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlarga, so'ngra Makkaga borib haj ziyoratini o'tagan.

IV. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (14 daqiqa).

1-usul

Bunda «Bingo mashqi»dan foydalaniladi.

1879	1880	Farg'ona
1878	1892	1885
O'ratepa	Xo'jand	Namangan

O'quvchilarga oldindan tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalarda raqamlar va nomlar yozilgan bo'ladi.

O'qituvchi shu raqam yoki nomga taalluqli jumalani o'qiydi va o'quvchi o'qilayotgan jumlagga tegishli raqamni belgilaydi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Qachondan boshlab imperiyaga qarshi chiqqan mahalliy aholi vakillari dala sudlariga berila boshladi? (1892)
2. Farg'ona vodiysida nechanchi yil qaytadan xalq qo'zg'olonlari avj olib ketdi? (1885)
3. Tarixda «Vabo isyoni» (yoki «Toshotar voqeasi») deb nom olgan qo'zg'olon qaysi yili boshlandi? (1892)
4. Xo'jand va O'ratepa aholisi qachon qo'shimcha soliqqa qayta tortildi? (1880)
5. Marg'ilon aholisi qachon «Marg'ilon uyezdida soliq yig'ish noqonuniy tushga kirgan»ligi uchun norozilik bildirdi? (1879)
6. ...

2-usul

«Klaster» usuli asosida.

O'qituvchi vatman qog'ozining markazida doira chizadi va uning ichiga «Vabo isyoni» deb yozadi. O'quvchilar vabo isyoniga oid sana, nom, tarixiy voqea-hodisalarni yozib chiqishlari kerak.



**V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-
RISH (3-daqiqa).**

O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish; baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA (2 daqiqa):

Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash; «Vabo isyoni»ni

voqealari mustamlakachi ma'muriyatni aynan qanday islohotlarni amalga oshirishga majbur etganligini daftarda tahlil qilib yozib kelish.

O'qituvchilar quyidagi jadval beriladi va u darslik yordamida to'ldirilishi kerak bo'ladi.

1. Qo'zg'olonlarning umumiy xususiyatlari	2. Qo'zg'olonlarning umumiy sabablari	3. Qo'zg'olonlarning oqibatlari

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT**«YETIM XON» QO'ZG'OLONI**

...Qo'qon xonligi tugatilib, o'rniga Farg'ona viloyati tuzilgandan keyin ham ozodlik kurashlari to'xtamadi. Chunonchi, vodiyning u yoki bu joylarida 1878-yilda Mamir va boshqa shaxslar boshchiligida xonlikni, ya'ni mustaqillikni tiklash uchun kurash olib borildi. Mamir harbiy qismlar bilan to'qnashdi, lekin ushlanib Andijonda dorga osildi. Biroq qo'zg'olonchilarning alohida guruhlari qo'zg'olonni to'xtatmadilar. Bu guruhlarning sardorlari o'zlarini xon deb e'lon qildilar. Ammo ular aslida xonlar sulolasiga tegishli bo'lma-

ganliklari uchun «Yetim xonlar», ya'ni qalbaki xonlar nomi bilan atalganlar. Shu tufayli «Yetimxonlar», «Yetimxon» qo'zg'oloni iborasi ishlatiladigan bo'ldi. 1882-yilda qo'zg'olonchilarning 50 boshlig'i qo'lga tushirilib, ulardan besh nafari osildi. Shunga qaramay, ozodlik kurashlari birin-ketin ko'tarilib, butun Farg'ona vodiysiga tarqalib bordi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxividagi FI-1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 9-yig'ma jild.

TARIXIY HUJJAT

«Men 10-iyul kuni volost boshqaruvchisi saylovini o'tkazish uchun Xo'rondonbuyurdim. Ammo ular ko'rsatilgan joyqishlog'iga keldim. Mulla Shermuham-ga bormasliklarini aytdilar. Shunda men mad Xudoyberganov, Xolmuhammadolomoni tarqatib yuborishlarini buyur-Xudoyberganov, Muhammadqul Qoplo-dim. Ammo g'alamislar odamlarni qarnov boshchiligidagi olomon men tushganshilik ko'rsatishga chaqirdilar. Ur-to'puyini o'rab oldi. Xalq oldiga chiqqanimdalon boshlandi. Mirshablarni kaltaklashdi. odamlar mulla Shermuhammad nomzo-Odamlarni to'polonga boshlaganlardan dini qo'yishimni talab qilishdi. Men ulargabiri Muhammadqul bo'lsa tilmochimning



Respublikamizga shapaloq tortdi. Otliq kazaklar yetib kelgandagina olomoni tarqatib yubordik. Hibsga olingan mulla Sher-muhammad, Muhammadqul Qoplonov va Holmuhammad Xudoyberganovlar Qo'yliqqa yuborilgandan keyin yig'ilish mo'ljallangan joyga bordim. Ammo u yerda ellikboshilardan hech kim yo'qligini ko'rdim. Odamlar ikki chaqirimcha naridagi qo'rg'onchada to'planishib, to'polonni davom ettirishayotganini xabar qilishdi. Men tilmoch va mirshablarni ularning oldilariga jo'natdim. Ular ko'p o'tmay hovliqib qaytishdi. Odamlar ularni yana kaltaklashibdi. Tilmoch ularga buyrug'imni yetkazganda, xaloyiq orasidan bir necha kishi «tuman boshlig'i tilmochi va odamlarini so'yish kerak. Shunda bu ishning dovrug'i uzoqqa ketadi. Biz-

ni hech narsa qilisha olmaydi. Kezi kelganda ularni o'tsa ham bo'laveradi», deb qichqirishibdi. Men ular oldiga jo'nadim. Olomonga ularning tartibsizligi yomon oqibatlariga olib kelishini tushuntira boshladim. Qonunga ko'ra, bunday ish oqibatsiz qolmasligi va qattiq jazolanishini aytdim. Ammo olomon parvo qilmadi. Saylov joyiga borishdan bosh tortishgani yetmaganidek, do'q-po'pisa ham qilishdi:

– Do'q qilma!

– Sibirigdan ham qo'rqmaymiz!

Vaziyatni chamalab ko'rib men saylov o'tkazmaslikka qaror qildim»!

*Qurama tumani hokimi polkovnik
Kallaurning 1880-yil 16-iyulda Sirdaryo
viloyati harbiy gubernatoriga yo'llagan
axborotidan.*

TOSHKENTDA VABO ISYONINING BOSHLANISHIGA OID ...

1892-yilning 7–24-iyuni davomida vaboga 64 kishi chalinib, 43 nafari o'lgan. Vabo kasaliga qarshi qaratilgan choralar xalqning og'ir siyosiy va iqtisodiy sharoitini yanada keskinlashtirib, bamisoli olovga kerosin qo'ygandek bo'ldi.

...Qurilayotgan vaqtlarda Toshkent shahri Sebzor, Shayxontohur, Beshyog'och va Ko'kchadan iborat to'rt daha edi. Har bir dahada bittadan oqsoqol, qozi, mingboshi, yuzboshi va yigitlardan iborat mirshablar xizmat qilgan. Ular xalq tomonidan saylangan. Viloyat harbiy gubernatori (Sirdaryo viloyati) katta oqsoqolni tayinlagan va bunga barcha dahaning oqsoqollari bo'ysundirilgan. O'z navbatida katta oqsoqol shahar boshlig'i S. Putinsevga bo'ysungan. Katta oqsoqollik lavozimi 1884-yilda joriy etilib, unga o'sha yili Inog'omxo'ja Umriyoxo'jayev tayinlangan. U Putinsevning ishonchini

qozongan shaxs edi. U tub aholi orasida obro' va nufuzga ega bo'lgan kishi edi. Buning isboti uchun shuni dalil qilib o'tish lozimki, odatda boshliqlar ustidan shikoyat qilishga moyil xalqdan unga qarshi ikki marotabagina ariza tushgan edi, xolos. Ulardan biri Inog'omxo'jani o'zi fosh etgan va surgun qilingan jinoyatchidan va ikkinchisi Chimkent uyezdidagi bir qozoqdan olingan edi. Bu qozoqning yozishicha, 1891-yilda Inog'omxo'ja pista ko'miri bilan savdo qiluvchilardan pora olgan ekan. Viloyat harbiy gubernatori Grodekov bu shikoyatni tekshirib va to'g'riligini aniqlamay, 1892-yil 21-mayda Inog'omxo'jani mansabdan chetlatib, o'rniga Shayxontohur oqsoqoli Muhammad Yoqubni tayinladi.

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy
Davlat arxividagi FI-1-jamg'arma,
3-ro'yxat, 30-yig'ma jild.*

QO'ZG'OLON QATNASHCHISI MULLA SARIMSOQOVNING KO'RSATMALARI

Xaloyiq, shu jumladan, men vaboga qarshi choralarning bekor qilinishini so'rab g'alayon ko'tardik. Bu harakat mansabdorlarni o'ldirish, Muhammad Yoqubni uyini yondirishga qaratilgan chaqiriqlar bilan boshlandi. Shahar ahli murdalarni eski mozorlarda dafn etishga ruxsat bermayotgan va boshqa adolatsizliklarni qilayotgan katta oqsoqol Muhammad Yoqubni yomon ko'rardilar. Bizning egarchi mahallamizda Shamsi Muhammad degan kishi vabodan emas, balki oddiy kasaldan vafot etdi. Ammo Muhammad Yoqub ruxsat bermagandan keyin uni Shayxontohur mozoriga yashirincha ko'mdik. Katta oqsoqol buni tekshirishga o'z odamini yubordi. Ruxsatsiz dafn etish Sebzor dahasida ham sodir bo'lgan ekan. Shu paytda bizning mahallamiz orqali Sebzor dahasining kishilari o'tib qoldi. Bizlar ham ularga qo'shildik. Ularning orasida men, Xasanxo'ja eshon, Abdu-

rashidxo'ja, Tojixon Abdurahmonov, Nazir Muhammad va boshqalar bor edi. Yo'lda bizlarga ko'p odamlar qo'shildi. Ularning orasida chetdan kelgan kishilar ko'p edi. Chunki katta oqsoqol ularni surishtirmay, bekordan-bekorga kasalxonaga yotqizdirdi. Kimning boshi boylangan bo'lsa, o'shani ushlab kasalxonaga jo'nataverdi. Mardikorlar va ulgurji ishlar bilan shug'ullanuvchilar shahardan qochishga majbur bo'ldilar. Olomonning soni 2-3 ming kishiga yetdi. Hech kim odamlarni chaqirmadi, ular tamomila ixtiyoriy ravishda ko'tarildilar. Bizlar mahkamaga borganimizda, shahar boshlig'i S.Putinsev paydo bo'ldi. Xaloyiq baqirishib, Muhammad Yoqubni o'ldirishlarini bayon etdilar. Men olomonni tinchlantirishga chaqirganimda ko'kragimdan ushlab siltadilar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxividagi FI-723-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-yig'ma jild.

«TOSHKENT VOQEASI» HAQIDA HISOBOT

O'tgan 25-iyun kuni taqdim etganimga qo'shimcha ravishda siz zoti oliylariga yana shu narsani ma'lum qilish sharafiga noilmanki, shaharning osiyoliklar yashaydigan qismi oqsoqoli Inog'omxo'ja Umriyoxo'jayevni 24-iyun voqealariga olib kelgan harakatning asosiy rahbari va haqiqiy sababchisi deb hisoblash mumkin. U shaxsan o'zi va eng yaqin odamlari orqali nodon xalq ommasi orasida tashviqot olib borgan, ma'muriyatimizning vaboga qarshi farmonlari va xatti-harakatlari xususida tashvish tug'diradigan xabarlar hamda mish-mishlar tarqatgan. Undan tashqari, Shayxontohur dahasining qozisi Sharifxo'ja, so'ngra

Beshyog'och dahasining yerlik fuqarolari Badalmuhammad Xolmuhammedov va Boqijon Dadajonboyev ham bo'lgan. Menga ma'lum bo'lishicha, bu kishilar avvallari ham shaxsan o'zlari va ko'p sonli tarafdorlari orqali olomonga boshchilik qilganlar, olomonni hukumatning tadbirlariga qarshi qo'zg'atganlar. Bu barcha shaxslarning xalq orasidagi zararli tashviqiy ta'sirini hisobga olib, 24-iyun voqealari sodir bo'lgan kunning o'zidayoq, barchasini qamoqqa olishga far-moyish berdim.

Harbiy gubernator N.Grodekovning 1892-yil 1-iyulda Turkiston general-gubernatoriga yo'llagan axborotidan.



1896-YILGI NAMANGAN QO'ZG'OLONI

1896-yilda Namangan tumanining Oqsuv-Shahrixon volostidagi Naymancha, Ko'hna mozor, Langarbobo qishloqlarida mingboshi saylovida kuchli norozilik oshkora g'alayonga aylana boshlagan. Xalqqa zulm o'tkazgan poraxo'r mingboshi Eshmuhammadning yana lavozimga saylanganidan norozi bo'lgan kishilar tumanboshi yordamchisi rotmistr Bushendan adolat tilashadi, lekin uning rad javobi va dag'dag'asidan g'azablanib, ularga qarshi ko'tariladilar. Poraxo'r ellikboshilarni do'pposlash boshlanganida Bushen «g'alamislardan biri» Sherboy Ismatullayevni mirshablar yordamida hibsga oladi. Oqsoqol Eshonqul Xolmuhamedovga uni tezda Namangan turmasiga eltishga buyruq beradi. Oqsoqol mahbusni masjid hovlisidan olib

chiqayotganda, u to'satdan oqsoqolga musht tushiradi va qochadi. Sarosimada qolgan oqsoqol o'ziga kelar-kelmas g'azabnok odamlar uni qurshab olishadi. Shu vaqtda masjidga ikki mingdan ortiq dehqonlar kelib, ellikboshi, oqsoqol, qozi va mirshablarni do'pposlab ketishadi. Olomon mingboshilikka nomzod Yo'ldosh Sarkor yashiringan masjid hujrasi eshigini sindiradi. Lekin u mahalliy qozi Toshxo'ja yordamida mo'ri tepasidan tomga chiqib, qochib qolgan edi. Tumanboshi yordamchisi Bushen o'z vaqtida qochib, boshlig'iga voqeani yetkazadi. Qo'rqib ketgan tumanboshi shaxsan o'zi Ko'hna Mozorga kelib, xalqqa adolat qilishga va'da beradi.

*O'zb. Res. Markaziy davlat arxivi.
1-jamg'arma, 241-yig'ma jild.*

NAMANGANDA MAHALLIY AMALDORLARNING SAYLANISHI HAQIDA

Tuzemniy gazit idorasiga bir xabar afsusi asr 1910-yilgi ahvoloti xalqiyalarimizdan nadomat qiladigan ishlar sodir bo'lib, xalqni harakatga soladur. Oli afsus, ahli ilm va ahli fatvoyi shariat ishlariga aloqadorlik yoki miroflik (huquqiy mansab) odamlarga go'yo olam o'zgarishi yoki hukumat o'zgarishi bo'lg'on kabi ko'rinadur, chunonchi, har yerda bo'lgan saylovlar xususidagi betartibliklar va befikrliklar millatga oshno kishilarni nihoyatda g'ussa va andishalarga soladur. Chunonchi, O'zgan qozi saylovidek Namangan aholisiga ham atroflarida ko'p bo'listlar muhofizoti qilib, o'z qozilari bilan tortishib, ellikboshi deganlar xalqlarni o'z ixtiyoriga qo'ymaganlarini, hamma yerda pristav va hokimlar bilib turib mone' qilmaganlari

fikrga soladirki, bo'listnoylar (volostnoylar) faqat odam hozirlab bermakka haddi bor. Bo'lak xususida dahli yo'q deb fahm qiladilar. Endi ma'lum bo'ldiki, bo'lak xususda ham ko'p dahli bor ekan. Ikkinchi shulki, ellikboshilar saylovida xalq ellikboshini andisha va fikrli darbon kishidan qilmaganlari o'zi inqirozga yo'l tutganlarini ko'rsatadur. Mashallo, bir odamni qozilikka sayladilar. Xoh yaxshi, xoh yomon, mayli qozi bo'lishni polojeniyada (nizomda) 223-bobda zikr qilg'ondurki, e'tibori bor, yetti kundan ziyoda hibsb bo'lmag'on, 30 so'mdan ziyod shtraf to'lamagan, 25 yoshdan past bo'lmagan odam bo'lur, degan ekan. Olim yo' ilmi ahmoq yo' dono kishi yo' shariat biladurg'on va yoki nizom biladurg'on demagani shulki, faqat inson

bo'lsin, mazkur ayblarga duchor bo'lmagan bo'lsin, degani bul viloyatlarimizga katta yo'l bo'lib, savodi bo'lmasa ham mayli, savodi bo'lsa ham mayli. Polojeniyada il kifoya qiladurg'on ham deb yozmagandur. Hibs bo'lmagan, shtraf bo'lmagan, yoshi 25 dan ziyoda degan so'z katta vaj bo'lib, natijada ko'rasiz, kimlarning qo'liga bul shariat topshiriladur.

...Hech fikr andisha qiladurg'on kishi yo'q, andisha qiladurg'on odamni odam ham hisob qilmaydurlar. Bul ham o'zimizni befikrligimizdan bo'lur, xo'p omi ham bo'lsin, omi ham faqat o'z ra'i bilan ish qilishga qodir emas, shariat masalalarini muftiy va ulamolar ko'rsatib, fatvo beradilar, anda hukm qilsa kerak. Shunchalik

ekanki, falon yerda omidan qozi qilibdur, rahmat yoki la'nat deganda, 30 ming ahli bo'lsa, 30 mingdan la'nat tegadir. Shunchalik bari xulosa va hukmlar bo'lsa, polojeniyani bobiga muvofiq, ellikboshi degan xalq xohlaganiga muvofiq, kimgaki sharr ko'p tushsa, uni yozar ekan, na qilsinlar, bu xil qilsalar, polojeniyaga muvofiq bo'ladi. Polojeniyada shariat biladurg'on mulladan degan emas ekan, o'zimiz xohlaganimiz nima va kim bo'lsa, uni qilurlar, ularga kim va nima bo'lsa ham darkor emas ekan. Binobarin, o'z xalqimiz, biri past, biri baland deb beittifoq bo'lurlar.

Is'hoqxon Ibrat. Turkiston viloyatining gazetasi. 1910-yil, 21-mart, 22-sondan.

DUKCHI ESHON VOQEASI

Oq do'ppi ila salla falokati. O'sha vaqtlarda kimligidan qat'iy nazar, oq do'ppi kiygan bo'lsa, istibdod soldatlari «seniki eshon» deb tutib, urar yoki Dukchi eshonning muridi gumon qilib, so'roqsiz qamar edi. Shuning uchun shahar mehnatkashlari va rasmiy fuqarolari hech sallasini bilan bozorga chiqolmay qoldi. Oq do'ppi degan narsaning urug'i ham qolmadi. Kimda bo'lsa, kuydirib yo'qotdi.

Mingboshilarni eshonni tutmoqqa yuborib, hokimlar qancha askarlari Mingtepaga, eshonning hovlisiga jo'natdilar. Yo'lda borguncha kim uchrasa, otib o'ldirib, eshonning hovlisiga yetib, daf'atan atrofni o'rab, tintuv qila boshladilar. Eshonning qochgan xabarini eshitib, xonaqohida hech kim qolmadi. Hatto, bola-chaqalari ham boshqa joyga qochgan ekan, hech kim topilmadi. Uch soat ichida soldatlar hovlidan hovliga o'tib, kim ko'rinsa, otib o'ldirdilar. Muddat bitganda, eshonga qarashli nimaiki bo'lsa olib, sha-

harga keldilar. Ashyo jumlasida bir xos sandiqda ko'p xatlar bor ekan. Buni ham olib kelib, tarjima qilib ko'rsalar, tamomisi har kimdan borgan duoyi salomlar ekan. Bu duoyi salomlar kimdan bo'lsa, darhol shu odamlarni tutmoqqa amr qilindi. Shuning uchun Andijon shahridan ko'p fuqarolar qamaldilar. To'rt-besh kun ichida atrof qamoqlardan va orqa tog'lardan benihoyat kishilarni tutib kelib qamatildi. Qamoqxona to'lib, boshqa joylarni ham yangidan hibsonalar qilindi.

Farg'ona gubernatori: «Agar eshon tutilmasa, Andijonni uyezdi bilan birga tamom otish (qatliom) qilaman!», deb buyruq chiqardi va «agar shahar va qishloq otilmasin, deyilsalar, eshonning so'filari bilan ko'plashib tutib berilsun!» degan buyruqni shahar va qishloq ko'chalarining devorlariga yopishtirib qo'yildi. Bu hodisadan to'qqiz kun o'tib edi, «Eshon qo'lga tushdi», degan xabar eshilib qoldi.



Asir bo'lg'on va qamalg'on bechoralar. «Eshonga qarashli» deb kimni tutib borsalar, beso'roq qamatilar edi. Xususan, tog'lardan Elatiya kattalarini ushlab kelib, harbiy boshlig'i har kun besh-oltitasini turmadan olib chiqib, soldatlar o'rtasida yalang'och qilib, do'ng yotqizib, to'rt soldat bosib turadilar. To'rti o'shal kaltaklar bilan orqasiga uradilar. Agar kaltak sinib ketsa, boshqasini olib uradilar. Qirt-ellik marta urgancha «dod» deb turadilar, bundan so'ng ovozi chiqmay, behush bo'lgandan so'ng, boshqasini yotqizadilar. Shu xilda hammasini urib bo'lib, o'lgani bo'lsa, boshqa qo'yub, tirik bo'lsa, zo'r bilan yurg'izib, turmaga olib kiradilar.

Bir kuni siyosat yuzasidan hamma shahar xalqini mingboshilar vositasi bilan, asirlarni kaltaklaganni ko'rsun deb, haydab chiqildi. Men ham odamlar bilan chiqqan edim. To'g'ri turmaning oldiga olib borib, xalqni qator qildi. Keyin turmadan besh kishini olib chiqib, ularning atrofiga odamlarni aylantirib qo'ydi. Bu bechora bandilarni o'rtaga olib kelib, bir qancha dashnom bilan to'n-ko'yлагini yirtib, tortib yechdi. Ikkitasini miltiq qo'ndog'i bilan urub, yotqizib, qo'l-oyog'ini soldatlar bosib turdi. Buning ustiga, mo'ysafid xoin gubernator Chaykovskiy keldi. Bandilarga qarab: «Sizlar podshohi a'zam kattaligini bilmas edingizlarmi? Podshohning o'tli hukmida bo'lg'on askarlariga shunday muomala qilmoqni kim o'rgatdi?» – deb siyosat qildi va soldatlarga: «Ur!» – deb buyurdi. Soldatlar to'plab qo'yg'on uzun kaltaklardan olib, birdan savalab, urgali boshlag'onda, bechoralar: «Dod» deb olamni buzdilar. Biri: «Eshon bilan birga bo'lmasam-da, tavba qildim», deb qichqirdi. Urulganlarning orqalari yorilib, go'shtlari uzilib tushdi. «Bas, turg'iz» deb edi, soldatlar «tur», deb boshiga

tepgandi, biri turmoqqa qodir bo'lolmadi. Ikkinchisi «E, pirim», deb, turmoqqa harakat qilib edi, gubernator «Nima deydi?», – deb tarjimondan so'radi, tarjimon: «Eshondan yordam so'raydir», – deganda, g'azabi kelib: «Yotqizib, yana ur!» – deb buyurdi. Yana urmoqqa boshladi, o'rqasidan go'shtlari uzulib teshdi. Ikkinchi turmoqqa qudrati yetmagach, soldatlar sudrab chiqib ketgan hamon o'ldi...

Buni ko'rib bechoralar bizga qarab yig'lab turar edilar, shu holda ediki, ikkisining xushlari ketib, yiqilishdi. Bularni soldatlar sudrab kirib, o'rniga boshqa ikkisini olib chiqishdi. Hosili – xalq oldida olti kishini urib, ba'zilarini o'ldirib, ba'zilarini behud qilib, keyin xalqqa birmuncha siyosat qilib: «Podshohi a'zamga osiy bo'lganlarning jazosi shu bo'ladur!» – deb javob berdi va «osiylardan 12 kishi osiladir. Hamma xalq chiqib tomosha qilsun!» – dedi. Xalq birdan turib, eski shahar tomon jo'nadi. Yo'lga chiqqanlariga pushaymon bo'lib, hech kimda so'zlamogga majol yo'q edi.

Dor tagida. 1898-milodiy, 15-javzo ediki, Eshon isyonini bahona qilib, shahar va uyezddan 2000 kishi qamatilg'on edi. Bular ichida aksariyat qirg'izlar bo'lib, o'zbek, qozoq, qipchoq, qoraqalpoq, tojik, uyg'ur va boshqalardan ham «isyonchi»lar deb ushlanganlar ham ko'p edi. Bulardan anchaginasini yuqorida aytilgan kaltaklanib, urilib, o'ldirildilar va qanchasini osib o'ldirish uchun 8 ta dor qurdilar. Bu dorlar 8-9 gaz yerdan baland bo'lib, tepasiga g'altak o'rnashtirilg'on va o'shandan qora arg'amchi o'tkazilib qo'yilg'on edi. Bir kuni eski shahardan: «Tamom fuqaro yangi shaharga chiqsun, eshonning so'filaridan 8 kishi osiladur», – deb hammani majburiy haydab chiqdilar. Muddaolari fuqaroga siyosat ko'rsatmak, ularning yuraklarida qo'rqinch qoldirmoq

va istibdod saltanati taxtida uzun zamonlar betashvish barqaror qolmoq edi.

Biz fuqarolarni tikilgan dorlar atrofiga aylantirib qo'yib, avval 5 kishini, nihoyat g'azab bilan o'rtaga olib chiqib, dorning tagiga olib keldilar. Qamalganlariga ancha kun bo'lgan bo'lsa, ovqat yemaganligi ham ma'lum edi. Darhol beshta xom surpdan qilingan xalta olib keldilar. Bir mutakabbir «to'ra» qo'lga yarim taxta qog'ozni olib, nihoyat, qovog'ini solib o'qidi. Tarjimon shu taxlit tarjima qildiki: «Sizlarning podshohi a'zam imperator muazzim askari borasida qilg'on hamla, hujumlaringiz va isyonga sabab bo'lgan Muhammad Ali eshonning imperator a'zamning ulug' siyosatidan qo'rqmay qilg'on fe'lga sherik bo'lib, yordamda bo'lganligingiz sabab bo'ldi. Sizlarning beshovlaringizni harbiy sud osib o'ldirmoqqa hukm qildi. Alhol, sizlarga shu hukm joriy qilinadur», – degan hamon soldatlar birdan qilichlarini sug'urib, peshonalariga tutib, yarim soatga yaqin nog'oralarni chalib turdilar. Haligi xaltalarni kiydirib, dorning tagiga qo'yilgan kursi ustiga yetaklab kelib chiqardilar. Bo'yinlariga dor arg'amchisini solib, oyoq ostidagi kursini tepib yubordilar...

Eshonni tutib kelgandan keyin, hukmdorlar Andijon shahar uyezdining fuqarosidan nihoyat xavfsiragan edilar va: «Eshon bilan hamma fuqaroning maslahati bir, albatta, bular bir kun eshonning orqasidan hujum qilsalar kerak», – deb eshonni necha qavat zanjirlar bilan bog'lagan edilar.

...1898-milodiyda hanuz Dukchi eshon qamoqda turg'onda, «unga qarashli yordamchilar», deb o'zbek, qirg'iz, qipchoq, qoraqalpoq, qashqarlardan har kun nechtasini tutib kelib, osib, qanchasini kaltaklab, o'ldirib turadur. O'lg'onlar o'rniga atrofdan odamlarni tutib kelib turadir.

O'lim jazosi. ...Soat sakkiz bo'lg'on-da hammani qator-qator qilib, maktab bolalarini oldiga solib, yangi shaharda taxminan, 8000 kishi bo'lsa, 2000 mayda maktab bolalarini olib chiqib, Tuproq-qo'rg'on oldida, adirning tagida qon isi keladurgon, tikib, sozlab qo'yilg'on dorlarning atrofiga odamlarni aylantirib qo'ydi. Hokim chiqib, fuqaroning ko'pligini ko'rib, oqsoqolga: «Rahmat!» – deb, yosh bolalarni dorning bir tarafiga qator qilib qo'ymoqqa buyurdi. ...Bir vaqt soat 10 ga yaqin ediki, bir to'p zanjir bilan qo'l-oyog'i bog'langan, olti kishini o'rtaga olib, o'lan aytishib keldi. Dor tagiga keltirib, qator-qator qildi. Ularning ichida eshonni ikki soldat yetaklab, yig'inning atrofini aylantirib, «Eshon shu odammi?» – deb so'rab yurdi. Hech kim «Shu kishi eshon emas», – deb aytmadi. Aytsa: «Sen ham borgan ekansan, bilar ekansan» deb «meni ham ushlab qoladilar» deb har kim vahimada edi. ...Bir qancha xotinlar va bolalar qaqshab, shovqin solib yig'laganlarida nog'oralari bilan turgan soldatlar birdan nog'ora chalib yubordilar. Tashqarida turgan gubernator dorfaryod qiluvchilarni qamab qo'ymoqqa buyurdi. Darhol 5–10 soldat chiqib, urib, turmaga olib kirdilar. Bularning qamalganini ko'rgach, hech kim yeg'i chiqarmay turdi. Bir to'ra kelib o'lim farmonini o'qidi. «...Mingtepa qishlog'ida turg'uvchi Muhammad Ali eshon o'ziga qarashli bir qancha odam bilan podshoh hazratlariga osiy bo'lib, tig' ko'tarib, Andijon kazarmasiga hujum qilib, 23 ta qahramon askarni shahid qildi. Bu isyonchi eshonni o'ziga qarashli odamlari va muridlari bilan hukumatdorlar tomonidan ushlanib, harbiy sud orqali ayblari iqrar qilinib, o'z bo'yinlariga oldilar. Binobarin, harbiy sud eshonni va uning muridlari bo'lgan ushbu



bosh kishini osib o'ldirmakka hukm qildi. Hozirda bu o'lim jazosi boshqalarga ibrat bo'lsin uchun, ijro qilinur».

Uyezd hokimi katta oqsoqolni chaqirib: «Bir a'lam toping, bularg'a i'mon o'qit-sun!» – degach, Faxriddin qozini chaqirib, dor tagiga olib bordi. Qozi birinchi eshonga, ikkinchi Chibil bo'lisga va boshqalari-ga i'mon o'qitdi. Hushidan ketgan ikkitasi ham sal hushiga kelib qoldi. Ularga ham i'mon o'qitdi. Qozi tez-tez bir narsalarni aytib, dor tagidan qochmoq fikrida edi. Bu vaqtda Chibil bo'lis o'zini rostlab, dadillik va baland ovoz bilan: «O'! Musulmonlar! Guvoh bo'linglar, man nohaq ketayotip-man. Manga bu hokimlar zulm qilar ...» – deb so'zlab turib edi, hokim kelib: «Bas, bas» dedi. Bu holda bir soldat kelib, dor-ning arg'amchilarini tushirib, sirtmoqlarini ochib tuzatib qo'ydi. Keyin ikki soldat yer-da turgan xaltalarni asirlar boshiga kiyim boshlari ustidan kiydirib qo'ydi. Daf'atan ikki soldat eshonni dor tagiga yetib kel-gan mahal, ikki sherigi behush bo'lib yiqil-di. Bularni sudrab, uning ustiga qo'yilgan ikki pog'onalik kursiga eshonni chiqardi. Shu holda kafan ichida bir o'zi qadam qo'yib chiqdi va baland ovoz bilan: «Ey, musulmonlar! Birodarlar! Guvoh bo'ling-lar, men nohaq tuhmat bilan ketib turib-man. Bola-chaqalarim ko'p edi. Bu hokim va to'ralar yaxshi adolat qilmadi. Duo qi-linglar, shu zolimlarni ...» – degan vaqtda bir to'raning ishorati bilan sirtmoqlarni so-lib, kursilarni tepib yubordilar...

Jasadlar sirtmoqning kesilishi bilan go'rga tushdular. Jallodlar ularning us-tidan bir arava ohak olib kelib to'kdilar. ... Kaminaning qo'shnisi shahrixonlik bir kosib odam edi. O'n bir yashar Abdul-latif ismli o'g'lini maktabga berib, o'qitib yurgan edi. Shu hodisadan bu bola ham qo'rqqan edi, uyiga kelib, necha kunlar

cho'chib uxlay olmadi, ozib ketib, o'lib qoldi...

Vayrona va «Marhamat». Andijon shahrining bog'-u bo'stoni bo'lgan Hokand qishlog'ini «Dukchi eshonning yurgan yo'li» deb bahona qilib, vatan egalarini mil-tiqlari bilan otib o'ldirib, qancha bolalarni yetim, qancha xotinlarni tul qilib, obod bog' va bo'stonlig' navnihol daraxtlarni kestirib, ishkamlarni buzdirib, hatto, tep-tekis qil-dirdilar. Hokandning tekislangan joyini bir qancha soldat va to'ralar chiqib aylanib ko'rdiki, 25 kun ilgarigi bog' va bo'ston-lardan aslo nishona qolmagan... Askarlar Mingtepani xalqi bilan to'pga tutib, qari va ojiz kishilar va yosh bolalari to'pning o'qi bilan parchalanib ketdilar. Tamom imo-ratlarini vayron qilib tashlab bo'lg'ondan keyin, to'pga tutmakka borgan soldatlar-ning boshlig'i 25 kundan so'ng Andijon shahriga kelib, gubernatorning qilgan zul-mi va sitamining otini podshohi a'zamga tig' ko'targuvchilarga tanbeh qo'yib, raport topshirdi. Dukchi eshon qishlog'i bo'lgan Mingtepani go'ristonga aylantirgandan keyin, yarim podshoh (General-guberna-tor) ichki Rusiyaga borib, 400 uylik mujik talab qildi va Mingtepa qishlog'ini mujik-larga marhamat qildik, deb qishloq otini «Marhamat» qo'ydi. Saratov va Samara taraflardagi rang-ro'yiga qarab bo'lmay-durg'on ...lardan Andijong'a 400 uylik ye-tib keldilar. Bu yangi kelgan «mehmon»-larning atrof qishloqlardagi musulmon dehqonlariga qilgan zulmlari bepoyondir. Bu kelganlar andak boy bo'lib, qishloq fu-qarosining ko'pini o'zlariga xizmatkor qil-gan edilar va Farg'ona fuqarosini istismor qilishda narxardek shovqin solar edilar...

*Fozilbek Otabek o'g'lining
«Dukchi eshon voqeasi»
memuar asaridan.*

BIRINCHI JAHON URUSHINING BOSHLANISHI VA UNING TURKISTONGA TA'SIRI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilar Birinchi jahon urushining Turkistonga ta'siri, 1916-yildagi qo'zg'olon ildizlarining kelib chiqish sabablari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar;
- mardikorlikka safarbarlikning e'lon qilinishi hamda xalq norozilik harakatlarining sabab va oqibatlarini bilib oladilar.

I. TASHKILY QISM (2 daqiqa).

II. UY VAZIFASINI TAKRORLASH

(10 daqiqa). Quyidagi testlar beriladi:

1. Muhammad Alining ota kasbi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
 - A) kulolchilik B) chorvachilik
 - C) zargarlik D) dukchilik *
2. 1898-yilgi qo'zg'olon qaysi qishloqda boshlandi?
 - A) Qutchi B) Shahrixon
 - C) Tojikqishloq * D) Marg'ilon
3. Muhammad Ali eshon yashagan yillarni aniqlang.
 - A) 1856-1898-yillar
 - B) 1846-1898-yillar *
 - C) 1850-1898-yillar
 - D) 1842-1898-yillar
4. Dukchi eshon qo'zg'oloni ikkiga bo'linib harakat qilgan va ikkinchi guruhga kim rahbarlik qilgan?
 - A) G'oyibnazar
 - B) Mahammad Ali
 - C) Ziyovuddin Maxsum *
 - D) Muhammad Yoqub
5. Qo'zg'olon boshlanishiga nimalar sabab bo'lgan edi?

1) 1891-yil Farg'ona vodiysiga ko'plab rossiyaliklarning ko'chirilishi;

2) Rus hukumatining Rossiya hududidagi soliqlarni ham joriy qilishi;

3) Vaqf yerlarining tugatilib, davlat yerlariga aylantirilishi;

4) mahalliy erkaklarning harbiy xizmatdan ozod qilinishi;

5) vodiya asosan paxta ekilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin oshishi;


6) masjidlarning yopib qo'yilishi

A) 1,3,5* B) 2,4,5 C) 3,4,6 D) 1,4,6

III. DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQRARISH USTIDA ISHLASH (12 daqiqa).

O'rganilgan mavzu ustida ishlash uchun «Marra sari olg'a!» uslubidan foydalaniladi. Bunda, avvalo, AKT yordamida o'yin chizmasi ekranga chiqariladi (yoki vatman qog'ozga chizilib, sinf taxtasiga ilib qo'yiladi) hamda ixtiyoriy ravishda ikki nafar o'quvchi taklif etiladi.

Ularga yordamchi minoralarga ko'tarilgan holda asosiy minoraning bayrog'ini o'zgartirish vazifasi beriladi. Bunda o'quvchilar arqonlarga osilgan holda asosiy minora tomon harakatlanadilar. Buning uchun o'quvchilar o'qituvchi tomonidan





Respublika ta'lim markazi

Berilgan 5 ta savolga to'g'ri javob berishlarini o'z ichiga olgan muhimlik aytiladi. O'qituvchi savolni o'qib bo'lgach, ikkala o'quvchidan qaysi biri birinchi bo'lib qo'l ko'tarsa, o'sha o'quvchi javob berish huquqini qo'lga kiritadi. Savolga javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. Agar birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchi savolga noto'g'ri javob bersa, ikkinchi o'quvchi ham o'z javobini aytishi mumkin. Berilgan 5 ta savolning barchasiga to'g'ri javob berib, marraga birinchi bo'lib yetib kelgan o'quvchi g'olib hisoblanadi va o'qituvchi tomonidan ramziy bayroqcha bilan taqdirlanadi. Hech bir o'quvchi marraga yetib kelolmasa (ya'ni berilgan barcha savollarga to'g'ri javob berolmasa), ularga ramziy bayroqcha berilmaydi, ular o'zlari ko'rsatgan natijalariga muvofiq rag'bat kartochkalari asosida baholanadilar. Birinchi juftlik o'yinni nihoyasiga yetkazgach, uni davom ettirish uchun ketma-ketlik asosida ikkinchi va uchinchi juftliklar taklif etiladi.

O'quvchilarga beriladigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Birinchi juftlik uchun

1. Birinchi jahon urushi qachon boshlangan edi?
2. Birinchi jahon urushining sabablari nimalardan iborat?
3. Bu urushda qaysi davlatlar qatnashgan?
4. Birinchi jahon urushida ishtirokchi davlatlarning maqsadlari nimalardan iborat bo'ldi?
5. Rossiyaning mustamlakalariga bu urush qanday ta'sir ko'rsatdi?

Ikkinchi juftlik uchun

1. Birinchi jahon urushida Rossiya, Angliya va Fransiya davlatlaridan iborat ittifoq – Antantaga kirishiga sabab bo'lgan omillarni asoslang.
2. Nega mahalliy aholi Birinchi jahon urushida harbiy xizmatga jalb qilinmadi?

3. Erkaklarning urushga olinishi o'lka hayotiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
4. Noroziliklar qanday oqibatlariga olib keladi?
5. «Favqulodda holat» tartiblarini buzganlar necha so'mgacha jarama to'laydigan bo'lgan?

Uchinchi juftlik uchun

1. Mustamlakachi hukumat nima sababdan «front ortida»gi xizmatlar uchun mardikorlikka olinmadi?
2. Turkistonda mardikorlikka olishga qarshi qo'zg'olon qanday yakunlandi?
3. Turkistonda favqulodda muhofaza holati nechanchi yilda e'lon qilindi?
4. E'lon qilingan favqulodda muhofaza holati Turkiston uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
5. Birinchi jahon urushi Rossiya iqtisodiyotining qaysi jihatlari ta'sir ko'rsatdi?

IV. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (14 daqiqa).

1-usul

Insert jadvalini «B.B.B.» usulida to'ldirish:

V – bilaman. + – bilib oldim. ? – bilmoqchiman

V	+	?
1	3	4

«Insert usuli» raqamlar qo'yib belgilar asosida o'qitish.

Masalan:

- | | |
|------------------------------------|---|
| 1. Antanta ittifoqi | V |
| 2. Nikolay II farmonining mazmuni | + |
| 3. Nima uchun mardikorlikka olindi | + |
| 4. I jahon urushi tafsilotlari | ? |

2-usul

O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Boshqotirma» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, quyida keltirilgan boshqotirma kompyuter va proyektor yordamida ekranga chiqariladi (yoki vatman qog'ozga chizilgan shakli sinf taxtasiga ilib qo'yiladi). O'quvchilarga har bir boshqotirmada darsda o'rganilgan mavzuga oid biron-bir tushuncha yashiringanligi, agar har bir boshqotirmada berilgan so'zning birinchi aylanasini to'g'ri topa olishsa, undan o'tkazilgan chiziq orqali harakatlangan holda undagi tushunchalarning nomini bilib olishlari mumkinligi aytiladi. Berilgan boshqotirmadagi barcha tushunchalarni aniqlab, savol matnida (javobda emas) ushbu tushunchalarni qatnashtirgan holda birinchilardan bo'lib yozma ravishda beshta qiziqarli savol tuza olgan besh nafar o'quvchi rag'bat kartochkalari asosida baholanishi ta'kidlanadi. Ushbu besh nafar o'quvchi o'zi ba-


jargan topshiriqni o'qituvchiga tekshirtirib bo'lgach, qolgan o'quvchilar topshiriqni bajarishni to'xtatadilar. Topshiriqni birinchi bo'lib bajargan o'quvchi esa o'zi tuzgan savolni o'qiy boshlaydi va qolgan o'quvchilar mazkur savollarga javob beradilar.

Boshqotirmada quyidagi tushunchalar yashiringan: ittifoq, antanta, millatlar, o'zbeklar, inqiroz.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH. Mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'quvchi daftariga yozdirish. Baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA:

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.
2. Darslikdagi QR kodda berilgan «Shum bola» filmi ko'ring. O'sha davrdagi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqib kichik esse yozing va uni nomlang.





TURKISTONDA 1916-YILGI QO'ZG'OLONNING BOSHLANISHI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Turkistonda 1916-yilgi qo'zg'olonlarning boshlanish sabablari va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida axborot berish;
- o'quvchilar 1916-yil Turkiston o'lkasida sodir bo'lgan qo'zg'olonlarning yengilish sabablari va uning keyingi jarayonlarga ta'siri haqida bilib oladi;
- o'quvchilarga qo'zg'olonlarning Turkiston bo'ylab tarqalishi va ommlashishi to'g'risida xarita yordamida ma'lumotlar berish;
- Jizzax qo'zg'oloni va uning oqibatlari haqida bilim berish.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

II. UY VAZIFASINI TAKRORLASH

(10 daqiqa)

Darsning bu bosqichida quyidagi test topshiriqlari bajariladi.

1. Turkiston o'lkasini tekshirgan imperatorning maxfiy maslahatchini aniqlang.

- A) graf Palen B) Girs *
C) general Ivanov D) Rozenbax

2. 1878-yil qayerda qo'zg'olon ko'tarildi?

- A) Mingtepada * B) Namanganda
C) Naymanchida D) Qo'qonda

3. Qachondan boshlab oddiy mahalliy aholining ma'murlarga qarshilik ko'rsatishi dala sudlariga berib jazolanishi yo'lga qo'yildi?

- A) 1898-yil B) 1892-yil *
C) 1879-yil D) 1885-yil

4. Turkistonning qaysi volostida mingboshilar saylovida qo'zg'olon boshlanib ketdi?

- A) Mingtepa B) Marg'ilon
C) Oqsuv-Shahrixon * D) Namangan

5. Turkiston o'lkasining qaysi hududi qo'zg'olonlar markaziga aylandi?

- A) Samarqand uyezdi
B) Xorazm vohasi
C) Zarafshon vohasi
D) Farg'ona vodiysi *

III. DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQRARISH USTIDA ISHLASH:

(12 daqiqa)

1-usul

O'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi va ularga topshiriqlar beriladi. Har bir guruh o'z topshirig'ini darslikdan foydalangan holda vatmanga yozadi.

1-guruhga: Qo'zg'olon dastlab qaysi hududda va qay holatda boshlandi?

2-guruhga: Front ortiga Turkiston o'lkasidan jami qancha mardikor olinishi kerak edi?

3-guruhga: Toshkentda bo'lib o'tgan qo'zg'olon tafsilotlari haqida gapirib bering.

4-guruhga: 1916-yilgi qo'zg'olonlar qanday oqibatlarga olib keldi?


Guruh sardorlari doskaga vatmanlarni osib javoblarni izohlab berishadi. Javoblar o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi va aniqlik kiritiladi.

2-usul

«Klaster» usuli asosida.

O'qituvchi vatman qog'ozining markazida doira chizadi va uning ichiga «Jizzax fojiasi» deb yozadi. O'quvchilar Turkistondagi eng qudratli va uyushgan

Respublika qo'zg'olon borasida yozib chiqishlari va
ilim markazi izohlashlari kerak.



IV. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH. (14 daqiqa)

O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar tomonidan tayyorlab kelingan turli savollar o'yini o'ynaladi, quyidagicha savollar beriladi.

1	2	3	4
5	6	7	8
9	10	11	Sovg'a



Mashg'ulot savollari:

1. Nikolay II farmoniga ko'ra eng ko'p mardikor qaysi viloyatdan olinishi belgilandi? (*Sirdaryo*)
2. Mardikorlikka olishda sustkashlikda ayblangan qaysi viloyat gubernatori lavozimidan olingan edi? (*Farg'ona, Gippius*)

3. 1916-yilgi qo'zg'olonlar dastlab qaysi shaharda boshlandi? (*Xo'jandda*)
4. Rizvonbibi qaysi shahar qo'zg'olonchilari tarkibida edi? (*Toshkent*)
5. 25 ming aholi qaysi shaharda norozilik bilan yig'ilgan edi? (*Eski Marg'ilon*)
6. 50 ming mardikor qaysi viloyatdan olinishi kerak edi? (*Farg'ona*)
7. 38 ming mardikor qaysi viloyatdan olinishi kerak edi? (*Samarqand*)
8. 3 kishi otib o'ldirilib, 12 kishi yara-dor qilingan holat qaysi shaharda bo'ldi? (*Andijon*)
9. Dahbet qaysi hududda joylashgan? (*Samarqand*)
10. Toshkentning qaysi dahasida norozilik harakatlari qo'zg'olonga aylanib ketdi? (*Beshyog'och*)
11. 63 mahalliy aholi o'ldirilgan qo'zg'olon qayerda sodir bo'ldi? (*Eski Marg'ilon*)

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH. Mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'quvchi daftariga yozdirish. Baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA:

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.
2. 1916-yilgi qo'zg'olon va uning muvaffaqiyatsiz tugaganligi sabablari haqida kichik matn tuzib kelish.



TARIXIY HUJJAT

JAHON URUSHI VA RUS ELCHIXONASI

1914-yil iyul oyida jahon muhobasi (urushi) boshlanib, dunyo tarixida yangi fasl va boblar ochildi. Rus elchixonasi ma'murlari urush choqlarida umumiy ahvolni diqqat bilan, faqat vahimani bir sur'atda ta'qib etmakda edilar. Rus ma'murlarining urush chog'ida tutgan xatti-harakatlarini bayon qilmasdan burun, bularning umuman tutgan yo'llaridan biroz ma'lumot berib o'tmak lozim ko'rinadi.

Rus hukumati ag'bosh va firibgarlarni rus raiyasi deb himoya qilarlar, bular har kimsaga har qanday hamla, ziyon qilsalar qonuniy sanalar, nomus-u moli talafot bo'lgan Buxoro raiyasi gunohkor va aybdor hisoblanar edi. Bank va firmalardan qarz bo'lgan Buxoro raiyasi bankrot e'lon qilg'on taqdirida yoki o'lsa, uyi va xotin-bolalarining kiyimlarigacha sotilib olinar, qarzning qoplamasi oning qavm-u qarindoshlaridan to'latilar, agar bu bilan ham qarz ado bo'lmasa, oning hisoblari (noto'g'ri bo'lsa ham) bir tiyin qolmasdan berilar edi. ...Oxirgi zamonlarda Buxoro darvozasining ostinda vokzal maydoninda rus po'lis (politsiya) idorasi ochildi. Bu idora Buxoroning ichinda har bir ishga muxtor va qodir edi. Buxoro hukumat ma'murlari va Buxoro raiyalari ushbu ido-

raning amrlarig'a bo'ysunmoqdan boshqa choralari yo'q edi.

... Umumiy urush chog'larinda imperator bandalarining buzuq va mustabidona ishlari taraqqiy qildi. Elchixona ma'murlaridan Shulga ismli bir kimsa rus davlatining quvvat va nufuzidan istifoda qilib (*foydalanib*), o'z manofeyi xasisasi (*manfaati, foydasi*) uchun yaxshigina xizmat qildi. ...Shulga mashhur qozilarning birisiga bir necha marta maktub yozib, do'stlik ko'rsatdi. Bunga muqobil mazkur qoz ham quruq do'stlik maktubidan boshqa biror narsa yubormadi. Zero, Shulga vositasi bilan taraqqiy qilishni nafsi qabul qilmadi. Oqibat Shulga bir nafar rus raiyasining da'vosi bahonasi bilan Buxoro hukumatidan mazkur qozining lavozimidan chetlatishni talab qildi. Amir va qo'shbegi mazkur qozini bir necha kun ma'muriyatindin olib, Buxoroda saqladilar va jarima bahonasi ila bir mablag' aqcha elchixonaga bergandan keyin qozini yana o'rniga yubordilar. ...Shulga jahon mahorabasi chog'larinda har vaqtdan ko'proq manfaat hosil qilmoqqa kirishdi. Siyosiy tuhmatlar bilan odamlarni tuhmatlab, masalani pora bilan hal qilaverdi.

*Sadriiddin Ayniyning
«Buxoro inqilobining tarixi» kitobidan.*

AHOLINI RO'YXATGA OLISH

1916-yil iyul oyi. Bozor kunlarining biri. Qovun bozoriga borsam, ko'p odam yig'ilganini ko'rdim. Oqsoqol Mirzayor Xudoyorov (Xudoyorxonov) choyxonada

oyog'ini chalishtirib osiltirib, o'ynatib o'tiribdi. Unga bir kampir «Nima uchun mening bitta-yu bitta o'g'limni mardikorlikka ro'yxatga yozdingiz? To'rttaliklar, besh-

taliklar bor-ku, axir!» – deb arz qilyapti. Mirzayor baqirib ayolni haydadi. Damin kulol mojaroning ustiga kelib qoldi. U kampirning yonini oldi.

– Kampirning gapi to'g'ri, buning yagona o'g'lini yozgan bo'lsang, bizning hovlidan uch kishini yozgansan? Bu uydandan uchta erkakning hammasi ketib qolsa, uy-ro'zg'or ishlari, xotin, bolalar kimga qoladi? – dedi.

– Xotin, bola-chaqang bizga qoladi, – deb o'dag'ayladi Mirzayor. Shu payt Damin kulol to'plangan aholiga qarata qichqirib murojaat qildi:

– Ey, xaloyiq! Bularni biz hokimiyat boshlig'i desak, bular xotin, bola-chaqamizning ham boshlig'i bo'lib chiqdi! Biz undan mardikor ro'yxatini berishni talab qilamiz!

Mirzayor o'rnidan turib, xaloyiqqa qarab haqoratli so'zlar aytdi. Xalq chidamadi. Shunda Oqqo'rg'on mahallalik Abdunazar degan kishi Mirzayorni bir urib yiqitdi. Olomon uning ustiga yopirildi...

*1916-yilgi qo'zg'olon shohida
Masharif Husaynovning xotiralaridan.
O'zbekiston Respublikasi Markaziy
Davlat arxivi. Farg'ona viloyati harbiy
gubernatori, 1-ro'yxat, 147-yig'ma jild.*

GENERAL-GUBERNATOR A.KUROPATKIN AXBOROTI

Mardikorlikka olishdagi tartibsizliklar va adolatsizliklar uni tezlashtirgan omillardan biri ekanligi ko'rinib turibdi. Mahalliy ma'muriyat vakillari imperator farmonidan boylik orttirishga harakat qilib, o'z vazifalarini suiiste'mol qildilar. Mardikorlikka olish masalasi bo'yicha Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarida bo'lgan vaqtimda, menga og'zaki va yozma ravishda qilingan shikoyatlardan mahalliy ma'muriyatni ko'p suiiste'mol qilganliklari ma'lum bo'ldi.

Volost boshliqlari, qishloq oqsoqollari va ularning ko'rsatmasi bilan ish yurituvchi ellikboshilar mardikorlikka imperator oliy hazratlarining farmoni bo'yicha qilinayotganligini unutilib, uni bajarilishiga yordam berishning o'rniga, aholidan

pora olish va buni bermovchi kishilarga zo'rvonlik qilishib, qamashgacha borgan edi.

...Qarzni undirish uchun dehqonlarning yerlari va ish qurollari, umuman, hamma narsasi sotilgan. Volost oqsoqollari va qozilar ko'p hollarda boylar tarafida turishib, masalani tirishqoqlik bilan turib, ularning foydasiga hal qilganlar. Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarining kambag'allashgan xalq ommasi o'zlarining mahalliy ma'muriyati va qozilaridan norozi bo'lishganliklari uchun qo'zg'olon paytida volost oqsoqollariga va kotiblariga qarshi hujum qildilar...

*«Turkestanskiye vedomosti»
gazetasining 1916-yil, 206-sonidan.*

JIZZAX QO'ZG'OLONI

Abdurahman Jevachi o'z atrofiga jizzaxliklarni va boshqa kishilarni to'plab, 14–16-iyul kunlari choparlarni qirg'izlar yashaydigan dashtlarga Saur-yuk va Nakut tog' ortlariga, Forish va Sintob volostlaridagi tojiklarga yuborib

qo'zg'olon ko'tarishga chaqirdi. 18-iyulga kelib Sintob volostiga qarashli majrum, Forish volostining Sarimsoq va Saforota singari qishloqlaridagi tojiklar, Saur-yuk aholisi Narvandagi urug'lari Abdurahmon Javachining atrofiga jiplashdilar hamda



Ushu zahotiy oq, Jizzax shahriga yurish masalasi muhokama qilindi.

...U o'zining ukasi Bobobek Abdujabborovni Jizzax shahriga yuborgan. Bu kishi bilan shahar vakillari sifatida Eshon Nazir xo'ja, Imom Mulla, Mahamad Rahim, Sharifboyvachcha Xudoyberdiyev va boshqa kishilar kelib Abdurahmon Jevachiga qo'shildilar. Mazkur shaxslar qatnashuvida bo'lgan Abdurahmon Jevachining xonadonida bo'lgan kengashda Jizzax shahriga hujum qilish uzil-kesil hal etildi.

...To's-to'polonlar kuchayib bordi. Goh u, goh bu yerda to'qnashuvlar va o'ldirishlar sodir bo'laverdi. Mahalliy hokimiyatning tushuntirish va tinchlantirishga qaratilgan harakatlari foyda bermadi. Pirovardida ular chor hukumatiga qarshi qo'zg'olonga aylandi.

...Abdurahmon Jevachi Bog'dan volostining hokimi Mavlon Mahmudrizayevni o'limga hukm qildi, lekin u qochishga ulgurdi. Uning tomoniga oqsoqollardan Kursk jamoasi oqsoqoli Zulfiqor Yo'ldoshev, Asmonsoy qishlog'ining oqsoqoli Jonqobil Rahmonqu-

lov, Sarimsoq qishlog'idan Sattor Xo'ja, Qalandarxo'ja va Kattaxo'jalar o'tgan. Bundan tashqari Bog'dan volostidan: Ismoil Allayev, Ibrohim Allayev, Mulla Allaberdiyev, Aurunboy Mirzaboyev, Sindar Davronoyev, Umar Imomov, Umar Abdusaidov, Qobil Kattabekov, Qo'noqboy Qaymurodov, Yamg'irchi Qodirov, Sattor Eshmatov, Musa Tog'ayev, Saynboy Eshmatov, Davron Fozilov, Ergash Abdusattorov, Umar Rizaqulov, Jo'ra Sulaymonov, Mulla Shaymon, Hamroqul So'fiyev; Ilon chomdan: Jo'ra Abdug'afurov, Jaynoq Abdurasulov; Safar otadan: Mulla Iskandarov, Mullachinni Yo'ldashev, Janadil Jabborov, Kakkabek Turrov, Ellikboshi Ishman, Haydar Nazarov; Sintab volostidan: Xo'janioy Shirbayev, Mulla Kamoliddin, Mahamat Yusupov, Egambayev, Hikmatilla Sunnatillabayev, Rajab Bokiy Abdunabiyev, Nurtay Yorboev, Turish Umarov singari kishilar qo'zg'olon targ'ibotchilari hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi. Rossiyaning Buxoro xonligidagi vakili. 1-ro'yxat, 444-yig'ma jild.



XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASRNING BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI VA XIVA XONLIGI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilar Buxoro amirligi va Xiva xonligining davlat tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida tushunchaga ega bo'ladilar;
- Buxoro amirligining davlat tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini farqlay olish ko'nikmasini rivojlantiradilar;
- Xiva xonligining davlat tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini farqlay olish ko'nikmasini rivojlantiradilar;
- savdo-sotiq munosabatlari haqida bilib oladilar.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

II. UY VAZIFASINI TAKRORLASH.

(12 daqiqa)

1-usul

Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartochkalar yordamida amalga oshiriladi.

1-kartochka: 1916-yilgi qo'zg'olonlarning yengilish sabablarini sanab bering.

2-kartochka: 1916-yilgi qo'zg'olonlar qanday oqibatlarga olib keldi?

3-kartochka: 1916-yilgi qo'zg'olonlarning XIX asr oxirlaridagi qo'zg'olonlar bilan qanday o'xshashliklari bor?

4-kartochka: 1916-yilgi qo'zg'olonlar mustamlakachi hukumat uchun qanday ahamiyat kasb etdi?

5-kartochka: Qo'zg'olonlar natijasida aholi ko'rgan talafotlar haqida nimalarni bilib oldingiz?

2-usul

Test yechish orqali o'quvchilar bilimi tekshiriladi.

1. 1917-yil 8-aprelda jadidlar qaysi shaharlarda namoyish o'tkazishgan?

- A) Kogon va Romitan
- B) Vardonze va Chorjo'y
- C) Kerki va Buxoro*
- D) Kogon va Chorjo'y

2. 1920 yilgi siyosiy-harbiy jarayonlardan keyin Amir Olimxon qayerga qochishga majbur bo'ldi?

- A) Xorazmga
- B) Afg'onistonga*
- C) Toshkentga
- D) Orenburgga

3. Buxoroda tuzilgan birinchi hukumat – Xalq nozirlari kengashiga kim boshchilik qilgan?

- A) S. Inog'omxo'jayev
- B) Fayzulla Xo'jayev*
- C) Fitrat
- D) Mahmudxo'ja Behbudiy

4. Sayid Olimxon nechanchi yilda taxtga o'tirgan?

- A) 1910-yil*
- B) 1893-yil
- C) 1918-yil
- D) 1905-yil

5. Qachon yosh buxoroliklar Chorjo'yda qo'zg'olon uyushtirdilar?

- A) 1918-yil 1-mart
- B) 1920-yil 6-oktyabr
- C) 1919-yil 2-mart
- D) 1920-yil 29-avgust*

6. Sayid Olimxon Peterburgga o'qishga borgan yilni aniqlang.

- A) 1889-yil
- B) 1890-yil
- C) 1893-yil *
- D) 1891-yil



Respublika ta'lim markazi 7. Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi tuzilgan yilni aniqlang.

- A) 1910-yil
- B) 1920-yil*
- C) 1918-yil
- D) 1917-yil

8. Yosh buxoroliklar amir hokimiyatining ag'darilishi va demokratik tuzumning o'rnatilishini mahalliy aholi orasida tashviqot qilish maqsadida qaysi matbuot nashrlarini tashkil qildi?

- A) «Shuhrat» gazetasi va «El bayrog'i» jurnali
- B) «Xurshid» gazetasi va «Oyna» jurnali
- C) «Uchqun» gazetasi va «Tong» jurnali*
- D) «Shuhrat» gazetasi va «Al-izoh» jurnali

9. Buxoro amirligida faoliyat ko'rsatgan jadid taraqqiyparvarlarini aniqlang.

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Is'hoqxon Ibrat, Musajon Sayidjonov
- B) Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Obidjon Mahmudov, Abduqodir Muhitdinov
- C) Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Usmon Xo'ja, Abduqodir Muhitdinov, Musajon Sayidjonov *
- D) Mirzo G'ulom, Hamza, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Munavvar Qori, Abduqodir Muhitdinov, Musajon Sayidjonov

10. Buxoro amirligi hududi orqali dastlabki temiryo'l o'tkazilganidan 30 yil o'tib ...

- A) amir manifest e'lon qildi *
- B) Toshkentda birinchi tramvay paydo bo'ldi
- C) amir hokimiyati ag'darildi
- D) Qizil armiya tomonidan Buxoro egallandi

III. DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQUARISH USTIDA ISHLASH (13 daqiqa).

1-usul

O'qituvchi yangi mavzu yuzasidan kichik ma'ruza qiladi. Ma'ruza davomida aqliy hujum usuli foyda beradi.

Misol uchun: 1868 yildayoq o'lkada rus ta'lim maktablarini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslangan loyihasini ishlab chiqish borasida ko'rsatma berildi va 1870-yili Toshkentda o'lkada o'quv bo'limini tashkil etish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etildi. 1886-yilda Toshkent shahrida imperiya Xalq maorifi vazirligiga tegishli 9 ta, 1889-yilga kelib esa 14 ta ta'lim muassasi faoliyat yuritardi. Madrasalar va maktablar vaqf mulkidan moliyalashtirilgan. Talabalar madrasaga maktabni tugatganidan so'ng qabul qilingan. Ularning yoshi 10 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan.

2-usul

Jadval tuzilib, o'quvchilar uning har bir ustunini alohida-alohida guruh bo'lib to'ldirishadi.

Bekliklar	Man-sablar	Soliqlar	Banklar	Zavod-fabrika

Bundan tashqari, o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob qilinadi.

1. Xiva xonligida sanoat qay tariqada rivojlandi?
2. Rossiya tovarlari nima sababdan xonliklar bozoriga tez kirib bordi?
3. Nechanchi yilda Rossiya-Osiyo banki va Madiyorov-Baqqolov kapitalini birlashtirgan «A-Meta» sindikati tashkil qilindi?
4. Tovar-pul munosabatlari qanday rivojlanib bordi?
5. Hunarmandchilikning asosiy turlari nimalar edi?

**IV. O‘TILGAN MAVZUNI MUSTAH-
KAMLASH** (14 daqiqa).**1-usul**

O‘tilgan darsni «Taqqoslash» usuli yordamida aniqlash. O‘quvchilar 6 guruhga bo‘linib, har bir guruhga quyidagicha tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi.

Buxoroda davlat boshqaruv shakli	Bizning mamlakatda

Amirlikdagi soliqlar	O‘zbekistondagi soliqlar

Amirlikdagi qo‘shin holati	O‘zbekistonda qurolli kuchlar

Buxoro amirligidagi mansablar	O‘zbekistondagi mansablar

Amirlikning aholisi	O‘zbekiston aholisi

Amirlikning ma‘muriy tuzilishi	O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy tuzilishi

2-usul

O‘tilgan darsni «Taqqoslash» usuli yordamida aniqlash. O‘quvchilarga 5 guruhga bo‘linib, har bir guruhga quyidagicha tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi.

1-guruhga:

Xivada davlat boshqaruv shakli	Bizning mamlakatda

2-guruhga:

Xonlikdagi qo‘shin holati	O‘zbekistonda qurolli kuchlar

3-guruhga:

Xiva xonligidagi mansablar	O‘zbekistondagi mansablar

4-guruhga:

Xonlikning aholisi	O‘zbekiston aholisi

5-guruhga:

Xonlikning ma‘muriy tuzilishi	O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy tuzilishi

**V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-
RISH.** Baholarni e‘lon qilish.**VI. UYGA VAZIFA:**

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.
2. Yangi mavzu matni bilan tanishib kelish.
3. «Iqtisodiy bilim asoslari» fanidan tovar-pul munosabatlari haqida ma‘lumot olish.





TARIXIY HUJJAT

BUXORONING MA'MURIY TUZILISHI

...Buxoro xonligida boshqaruv tizimi moliyaviy, ma'muriy, sud va diniy idoralarga bo'linadi. Markaziy muassasalarning barchasida boshqaruv hokimiyati bosh ma'muriy shaxs – qo'shbegiga qaraydi. Ichki ishlar, amirning yo'qligida barcha boshqaruv uning vazifasiga kiradi va mahalliy beklar to'g'ridan-to'g'ri unga bo'ysunadi. Undan tashqari, ikkinchi qo'shbegi bo'lib, u tashqi ishlar bilan shug'ullanadi va Sankt-Peterburgga elchi sifatida ham yuboriladi. Xonlik 25 (*ba'zi adabiyotlarda* 27) ta beklikka bo'linib, turlicha hududiy maydonga ega. Aholi soniga qarab har bir beklilik 3 tadan 24 tagacha amlokдорlikka bo'lingan. Amlokдорlikni amlokдор boshqaradi, u ruslarning uyezd boshlig'i lavozimiga to'g'ri keladi. Har bir aholi punktini oqsoqol boshqaradi, bir necha aholi punktini mingboshi boshqaradi, ko'chmanchi aholida har bir qabilani elbegi (qabila boshlig'i) boshqaradi.

Diniy boshqaruvning asosiy boshlig'i kalon (*qozikalon*) deb nomlanib, uning zimmasiga din ishlari nazorati, barcha oliy toifadagi va boshlang'ich madrasalar nazorati kiradi. Har bir beklilikda rais lavozimi bo'lib, amlokдорlik tarkibida bo'ladi. Lekin u amlokдор va bekdan mustaqil ravishda beklilikdagi bosh raisga bo'ysunadi, bosh rais o'z o'rnida kalonga bo'ysunadi. Moliyaviy soha boshlig'i bosh zakotchi bo'lib, unga amlokдорlikdagi va beklilikdagi barcha zakotchilar bo'ysunadi. Ular o'z yig'im ishlarini beklardan mustaqil va ularga bo'ysunmagan holda bajarganlar. Hujjatlarni huquqiy jihatdan

tasdiqlash (notarial xizmatlar), sud va din ishlarini qo'shbegi lavozimi bilan barobar bo'lgan, yuqorida ta'kidlangan kalon lavozimiga ega bo'lgan amaldor boshqargan. Harbiy boshqaruv muhim amaldor – to'pchiboshi lavozimi zimmasida bo'lgan. Batalyon boshliqlari bekliliklarda tashkil qilingan bo'lib, to'pchiboshi ularni moddiy jihatdan ta'minlaydi. Har bir vakil o'z boshlig'i oldida hisobot berib, hech qanday taftish usuli yo'lga qo'yilmagan. Har bir amlokдорlik va beklilikda politsiya vazifasini bajaruvchi amaldorga qarashli navkarlar ish olib boradi. Rais, zakotchi, bek, qozi va amlokдорlar amirdan hech qanday maosh olmaydi. Kichik amaldorlar amir va bekliliklardan maosh olgan. Har bir beklilikda jinoyatchilar uchun kichik bir qamoqxona bor. Butun amirlikda harbiylardan tashqari kichik amaldorlarning soni taxminan 50 000 ga yetadi.

Aholisi. 3 mln kishini tashkil etuvchi Buxoro xonligining aholisi etnografik jihatdan quyidagi qavmlarga bo'linadi: 1) o'zbeklar – amirning ushbu qavm mang'it urug'idan kelib chiqqanligi sababli aholining imtiyozga ega qismi hisoblanadi. Ular butun mamlakat bo'ylab keng tarqalib, davlatning yuqori mansablarini egallaganlar; 2) qirg'izlar – chorvachilik bilan shug'ullanadilar. Ular Hisor tog' tizmalarida, shuningdek, Qizil va Toir-Su daryolari oqimlari bo'ylab Ko'lob, Baljuvon hamda Qorategin bekliliklarining tog'li vodiylarida yashaydilar; 3) turkmanlar – Amudaryo va Panj daryolari qirg'oqlari bo'ylab yashaydilar; 4) tojiklar – Sharqiy

Buxoro togʻlari maydonlarining katta qismida istiqomat qiladilar; 5) Buxoro yahudiylari – asosan, Buxoro, Shahrisabz va Qarshida yashaydilar; 6) hindlar – mamlakatning deyarli barcha shaharlarida uchraydi (*Logofet barcha loʻlilarni hindlar deb hisoblagan*); 7) xazarlar – Baljuvon hamda Qoʻrgʻontepa bekliliklarida yashaydilar; 8) afgʻonlar – Amudaryodan Panjobga qadar boʻlgan hududlarda istiqomat qiladilar. Mamlakat jami aholisining taqsimlanishi koʻrib chiqiladigan boʻlsa, Zarafshon daryosi, Qashqadaryo, Amu-

daryo, Surxon, Kofirnihon, Qizilsuv vohalari aholi eng zich joylashgan hududlar hisoblanadi. Aholi soni boʻyicha esa, eng koʻp aholisi bor shaharlar Buxorodan keyin Qarshi, Shahrisabz, Hizzor, Gʻuzor, Baljuvon, Chorjʻoy, Kerki, Koʻlob shaharlari hisoblanadi. Ushbu shaharlar nomi bilan nomlangan bekliliklar katta daryolar yaqinida joylashgani bois, aholisi zich va koʻp joylashgan.

D. N. Logofetning «Buxoro xonligi va uning zamonaviy holati» kitobidan.

BUXORO AMIRLIGI BEKLIK LARI HOKIMLARI

(XIX asr oxiri – XX asr boshi)

№	Hokimning nomi	Viloyati (beklik)
1	Jonmirzobiy parvonachi	Shahrisabz bekligi
2	Avliyoqulbek	Kitob bekligi
3	Sayyidqulbek toʻqsoba qalmoq	Chiroqchi bekligi
4	Toʻraxoʻja Sudur	Qarshi bekligi
5	Abdulrahimbek	Yakkabogʻ bekligi
6	Ernazarbiy dodxoh	Karki bekligi
7	Fozilbek	Kalif bekligi
8	Akromxontoʻrabi	Gʻuzor bekligi
9	Ostonaqulbiy qoʻshbegi	Hizzor bekligi
10	Pirnazar parvonachi	Koʻlob bekligi
11	Abdulqodir parvonachi	Baljuvon bekligi
12	Abdulkarimbek toʻqsoba	Denov bekligi
13	Toʻra Moʻminxon	Boysun bekligi
14	Abdulxalilbiy parvonachi	Sherobod bekligi
15	Qulmuhammad toʻqsoba	Narazum bekligi
16	Haydarqulbiy dodxoh	Chorjoʻy bekligi
17	Xoʻjabek Qovoqli	Usti bekligi
18	Moʻminbek miroxoʻr	Qorakoʻl bekligi
19	Muhammad taqobiy	Xatirchi bekligi



20	Qorabek to'qsoba	Ziyovuddin bekligi
21	Rahmatullohbek to'qsoba	Karmana bekligi
22	Abdulqorбек to'qsoba	Nurota bekligi
23	Abdulahimbek to'qsoba	Qorabog' bekligi
24	Abdulsattoriy Bahrayni	Qobadiyon bekligi
25	Mirzo Muhammad to'qsoba	Xo'ja Jahon bekligi (G'ijduvon)
26	Abdulqodirbek miroxo'r	Vobkent bekligi
27	Muso Xo'ja O'roq	Vardonze bekligi

(Buxoro amirligi tasarrufidagi beklklar hujjatda viloyat deb berilgan)

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxividagi I-126 raqamli
«Buxoro amirligi qo'shbegisi» jamg'armasi, 1-ro'yxat, 69-yig'ma jild.*

BUXORONING HARBIY TUZILISHI

Buxoro hukumatining mustabid Rossiya hukumati bilan imzolagan shartnomasiga muvofiq, Buxoro o'z tinchligini himoya qilish uchun 12 mingga askarga ega bo'lishi mumkin edi. Birinchi navbatda Abdulahad hukumati davrida Buxoro nizomiy askarining soni 5-6 mingga yetgan edi. Askarlar oyiga avval 14 tanga, keyinroq 20 tanga haq oladigan bo'ldilar. Askarlar o'z navbatidagi bir necha idora va qo'mondonlikka bo'linar edilar va hammalari amir to'pchiboshi (to'pchiboshi – lashkar vaziri, harbiy qo'mondon)ga tobe edilar.

...Oxirgi paytda Olimxon askarlarining soni 20 mingdan oshgan edi. Lekin faqat barbarlar voqeasi (*Qizil armiya bilan 1918-yilgi urush nazarda tutilmoqda*) bu 20 ming askarning mohiyati va harbiy qudratini ko'rsatib turar edi. Olimxon dastlab o'spirin suvora askarlarga ishonch bildirib, sal vaqt o'tmasdan inqilobiy tashviqot ularga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ular tez orada amirga qarshi yashirincha uyushmalar tuza boshladi. Ular hatto isyon ko'tarib, sho'rolar tuprog'iga o'tib ketishga ham qaror qilgan edi. Biroq ularning bu fikri saroyga ma'lum bo'ldi.

Amir ulardan ayrimlariga jazo berdi, qolganlari esa qochib, Toshkentga keldilar. Xossa askarlaridan hafsalasi qaytgan amir madrasa shogirdlariga qurol berib, ularni askarchasiga mashq qilishga undadi. Butun atrofdagi uloq chopuvchilarni yig'ib, ularga qurol va mansab berdi. O'sha vaqtda Buxoroda bo'lgan do'stlarimdan biri ushbu voqeani o'z ko'zi bilan ko'rib, amirning bu siyosatini, uning saroyidagi vaziyatni quyidagicha tasvirlagan edi: «Amir juda ko'p askarlarni atrofiga to'pladi, necha to'da va guruhlarni tuzib, ularga juda chiroyli kiyim kiydirdi. Harbiy kiyim turkcha uslubda bo'lib, unga «turk» deb nom berdi. Boshqa bir qismini tuzib, unga «arabbachcha» unvonini berdi. Zindonda yotgan o'g'rilarni ozod etib, ularga o'xshash bandi bo'lganlarni tumanlar va turli joylardan topib, «sherbachcha» deb nomladi. Bulardan tashqari oqsoqollar, atrofdagi dehqonlar, uloq chopadigan yigitlarni ot-ulovi bilan chaqirib, chorbog'laridan joy berdi. Istagan oziq-ovqatlarini muhayyo etdi...»

Abdurauf Fitratning «Amir Olimxonning hukmronlik davri» asaridan.

BUXORO AMIRLIGINING IQTISODIY IMKONIYATLARI

Amirlikdagi barcha beklıklardan yiliga amir xazinasiga quyidagicha miqdorda daromad kelib tushgan:

№	Bekliklar nomlari	Daromad miqdori (rublda)
1	Ko'lob	350.000
2	Qorategin	600.000
3	Baljuvon	450.000
4	Hisor	600.000
5	Chorjo'y	400.000
6	Qaboqli	30.000
7	Nurota	200.000
8	Karmana	300.000
9	Ziyovuddin	200.000
10	Shahrisabz	500.000
11	Kitob	200.000
12	G'uzor	300.000
13	Yakkabog'	150.000
14	Qarshi	600.000
15	Chiroqchi	200.000
16	Boysun	150.000
17	Sherobod	150.000
18	Karki	500.000
19	Denov	200.000
20	Qobadiyon	100.000
21	Qo'rg'ontepa	60.000
22	Darvoz	25.000
23	Xatirchi	200.000
24	Buxoro	750.000
25	Qorako'l	100.000
26	Burdaliq	150.000
27	Kalif	50.000
Jami		8 mln ga yaqin

Buxoro amirligi beklıklardan yiliga taxminan quyidagicha miqdorda soliq yig'ilgan:

№	Bekliklar nomi	Soliq miqdori (rublda)
1	Ko'lob	500.000
2	Qorategin	600.000
3	Baljuvon	500.000
4	Hisor	600.000
5	Chorjo'y	400.000

6	Qaboqli	30.000
7	Nurota	250.000
8	Ziyadin	200.000
9	Zirabuloq	200.000
10	Shahrisabz	700.000
11	Kitob	250.000
12	Yakkabog'	200.000
13	G'uzor	250.000
14	Qarshi	800.000
15	Chiroqchi	200.000
16	Boysun	150.000
17	Sherobod	150.000
18	Karki	500.000
19	Denov	200.000
20	Qobadiyon	250.000
21	Qo'rg'ontepa	50.000
22	Darvoz	30.000
23	Buxoro	1000.000
24	Xatirchi	200.000
25	Karmana	300.000

Jami soliq miqdori 9 mln rublga yetadi.

Bundan tashqari har bir beklikdan 50 000 rubldan 100 000 rublgacha, Buxorodan 500 000 rublgacha, Qarshidan 300 000 rublgacha, Shahrisabzdan 200 000 rublgacha zakot solig'i yig'ilgan.

Amirlik hududida oltin, kumush va mis pullar muomalada bo'lib, ularning rus pullariga nisbatan qiymati quyidagicha edi:

1. Oltin pul: tilla – 6 rubl 80 kop.
2. Kumush pul: tanga – 15 kop.
3. Mis pul: mira – 4 kop., pul-1/4 kop., paysa yoki yarim mira – 2 kop.

1901-yili rus hukumati Buxoro amirligining barcha hududida Buxoro tangasini rus puliga 15 kopeykadan bir xil almash-tirishni talab qiladi.

D.N.Logofetning «Buxoro xonligi rus protektorati ostida» kitobidan.

**BUXORO AMIRLIGINING BEKLIKlardan OLADIGAN DAROMADI**

Buxoro amirligida 50 ga yaqin soliq va to'lovlar joriy etilgan bo'lib, aholi bularni to'lashga majbur edi. Amirlikda to'lanishi shart bo'lgan umumiy soliqlardan tashqari har bir beklikda qo'shimcha to'lovlar ham joriy qilingan. Har bir bek qo'shimcha soliqlarni o'z bilganicha belgilagan. Soliq yig'uvchilar esa Buxoro hukumati tomonidan joriy etil-

magan to'lov va majburiyatlarni ham aholidan talab qilishgan. Mansabdor shaxslar ko'pincha boylik orttirish maqsadida mansablaridan foydalanib, belgilangan miqdordan ikki barobar ko'p soliq yig'ib olishgan.

Buxoro amirligining bekliklardan yig'iladigan yillik daromadlari miqdori quyidagicha bo'lgan:

№	Bekliklar va tumanlar nomlari	Hovlilar soni	Aholi soni	Razvedkachilar ma'lumotlari asosida daromadlar miqdori	Siyosiy agentlik ma'lumotlari asosida daromadlar miqdori
1	Buxoro shahri	10.000	60.000		
2	Vobkent	Taxminan 128.000	640.000	80.000	60.000
3	G'ijduvon			160.000	135.000
4	Zandona			60.000	60.000
5	Vardonze			80.000	90.000
6	Qorako'l			140.000	105.000
7	Karmana			160.000	165.000
8	Ziyadin			200.000	150.000
9	Xatirchi			180.000	75.000
10	Nurota			20.000	22.500
11	Shahrisabz			30.000	150.000
12	Kitob	20.000	100.000	40.000	37.500
13	Yakkabog'	4.000	20.000	10.000	15.000
14	Chiroqchi	6.000	30.000	20.000	30.000
15	Qarshi	40.000	200.000	160.000	150.000
16	G'uzor	10.000	50.000	60.000	40.000
17	Hisor	30.000	150.000	480.000	400.000
18	Denov	4.695	23.525	40.000	45.000
19	Boysun	5.600	28.000	20.000	18.750
20	Sherobod	15.000	75.000	40.000	50.000
21	Kalif	1.647	10.000	8.000	6.000
22	Karki	12.420	62.100	12.000	15.000
23	Chorjo'y	33.423	167.115	200.000	225.000
24	Burdaliq	3.000	15.000	-	5.250
25	Narazm	2.000	10.000	-	2.250
26	Qobadiyon	2.500	12.500	-	6.000
27	Qorategin	10.119	51.000	-	30.000
28	Ko'lob	60.000	30.000	-	100.000
29	Baljuvon			-	
30	Darvoz			-	
	J A M I:	428.404	2.153.240		2.083.250

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxividagi
I-1-jamg'arma, 34-ro'yxat, 791-yig'ma jild.

BUXORONING DAVLAT TUZUMI VA TABIIY JUG'ROFIYASI

Buxoro mamlakati Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni Rusiya Pomiridan to Xevaning keng dashtlarigacha cho'zilib boradi. Rusiya bilan Buxoro o'rtasida bo'lgan urushdan oldin 1868-yili va bolsheviklar hukumati tasarrufida (1920) bo'lgan chog'da Buxoro shimol tarafdin Qizilqum sahrosi bilan chegaradosh. G'arb tarafdin Sirdaryo bilan hamda Ho'qand xonligi bilan, janubdan esa Afg'oniston, Sharqdan turkman o'lkasini ham Xeva dashti bilan chegaradosh. Buxoro aholisi uch yarim million nafardan iborat. Uning maydoni 225 000 km² keladi, ya'ni taxminan Italiya maydoni bilan teng. Uning aholisining asosiy qismi o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq, tojik, yahudiy va arablardan iborat. Buxoroning g'arbiy qismi, xususan, Amudaryo sohillaridan tashqari joylari ekin ekishga va dehqonchilik qilishga qobil emas. Aksincha, daryoga yaqin joylar ancha serhosil yerlardir. Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Kofirnahang va G'iyshlar tevaragida dehqonchilik qilishadi. Qadimiy madaniy yodgorliklar mavjud shaharlar, chunonchi, Qarshi, Kitob (Kifti ob), Shahrisabz, G'uzor, Buxoro, Ziyouddin, Karmana, Chahorjo'y, Karki, Boysun, Qoratog', Ko'lob, Boljuvon, Sherobod, Hisor, Dushanba, Fayzobod va boshqalari hanzuz mashhur va ma'lumdir. Buxoroning sharqiy qismini ulug' tog'lar o'rab turadiki, ular dunyoning eng baland tog'laridir. Hisor tog'larini o'rab olgan qanchadan qancha cho'qqilari borki, undaylar juda oz bo'lib, ularning balandligi besh ming besh yuz metr ga yetadi. Bir-biriga zanjir bo'lib ulangan yerlari to olti ming bir yuz metr ga yetadi. Jumladan, Darvoz tog'lari to Pomir dashtigacha cho'ziladi.

BUXORONING SIYOSIY VA IDORIY TASHKILOTLARI. Garchi Buxoro mamlakati Rusiya davlati himoyasida bo'lgan bo'lsa-da, lekin u o'zining qadimgi mustaqilligini saqlab qolgan edi. Buxoro amirlari hukm yuritishlarida shariat usul va odatlariga rioya qilar edilar. Buxoroning islom ulamolari amirni payg'ambar xalifasi o'rinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilardi. Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos bo'lardi, uni buzishi mumkin emas edi. Buxoro xonlari butunlay mang'itlarning o'zbek toifasidan bo'lgan. Buxoro podshohlarining mo'g'ul odatlariga ko'ra, to'shakcha ustiga tabarukona o'tqazilib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar uni yerdan ko'tarardilar.

Buxoro mamlakati yigirma sakkiz beklikka bo'lingan edi (*Amir Olimxon o'z davrini nazarda tutmoqda, Amir Abdulahad davrida 27 beklik mavjud edi*). Shu qarorga muvofiq Nurota, Qorako'l, Qaboqli, Chahorjo'y, Karki, Burdolik, Kalif, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, G'uzor, Qarotegin, Boysun, Hisor, Dehnav (Denov), Qo'rg'on (tepa), Boljuvon, Ko'lob, Qobadiyon, Darvoz, Ruvshon bekliklari va mirliklariga bo'linib, bu vazifalar qadim-qadim ayyomlardan buyon irsiy, ya'ni meros bo'lib qolardi. Biroq Amir Sayid Olimxon zamoniga kelib saylash usuliga o'tildi.

Buxoroning siyosiy va idoriy ishlari esa Qushbegi deb atalgan bir kishi raisligi qo'l ostida idora qilinardi. Mamlakatning moliyaviy ishlari devonbegi qo'l osti va nazorati ostida amalga oshirilardi. Diniy masalalar, qozilik ishlari, umumiy ta'limot masalalari bilan shug'ullanish qoziyul-quzzot – qozilar qozisining burchiga kirardi. Askariy ishlar esa to'pchiboshi rahbarligida o'tardi. Uning vazifa darajalari ush-



ular qaroridan kelib chiqadi: Qushbegi, devonbegi, parvonachi, inoq, dodhobiy, to'qsoba. Uchinchi Iskandar (Iskandar solis) nishoni eng muhim nishonlardan biri edi. Buxoro amiri u bilan mansabdor kishilarni va harbiy ofitserlarni mukofotlardir. Quvvayi qazoia-mamlakat taqdirini hal qilish masalasi – amirning o'z qo'lida edi. Bu Qur'on hukmlari va islom shariat qonunlari asosida yuritiladi. 1868-yilda Buxoro bilan Rusiya o'rtasidagi tuzilgan qarorga binoan Rusiya fuqarolari Buxoro amirligiga soliq to'lashdan ozod edi, lekin ular Buxoro bozorlarida o'zlarining tijoriy mollarini sotganlarida sotilganning yuzdan ikki yarim foizini Buxoro hukumatiga berishlari shart edi.

BUXORONING TABIIY BOYLIK-LARI: tillo, kumush, qo'rg'oshin, mis, temirlar Buxoroda ko'p miqdorda topiladi. Xususan, Sharqiy qismlarda ma'danlar borki, ular to shu mahalgacha ishlab chiqilmagan. Tabiiy boyliklar ichida neft, ko'mir, gugurt, nashatirlar bor. Savdo-sotiq ishida teri, yung, shoyi gilamlar – mamlakatning tashqariga chiqaradigan asosiy mollarini tashkil etadi. Buxoro mevalari dunyoga mashhurdir. Buxoro otlari, xususan, qorabayir navi 1914-yilgi urushda ahamiyat qozonib, yaxshiligini isbotladi. Buxoro amiri qanchadan-qancha ming bosh otni Rusiya davlatiga berdi. Har xil fasllarda tog'-u chamanzorlar rang-barang bo'lganidan qo'y, echki, ot va tuya suruvlari o'z o'tloqlarida miriqib o'tlab yurishadi. Buxoroning asosiy savdosi Rusiya, Eron, Afg'oniston mamlakatlari bilan bo'ladi.

Bolsheviklar inqilobidan oldin Buxoro savdosi faqat Rusiyaning o'zi bilan ikki yuz ellik million frankka yetar edi. Lekin baxtga qarshi yuklarni eltish vositalarining bo'lmas-

ligidan savdo ishining rivojlanishiga katta to'sqinlik paydo bo'ldi. Vaholanki, qanchadan-qancha temir yo'l vositalari mamlakatning boshidan oyog'igacha cho'zilgan edi.

BOLSHEVIKLARNING BUXOROGA HAMLASI: 1917-yil fevral inqilobidan so'ng bolsheviklar o'zlarining yomon niyatda bo'lgan ilk qadamlarini targ'ibot va tashviqot yo'llari bilan boshlab yubordilar. Ichkaridagi mojaroparast unsurlar bilan hangomatalab unsurlar bir-birlari bilan til biriktirib bolsheviklar bilan hamkorlik qilishdi. Ular hukumat uchun ko'p qiyinchiliklar tug'dirdi. 1918-yilning o'ninchi martida bolsheviklar Buxoroga hamla qilib, Ziyouddinni egallab oldilar. Shundanki, Buxoro aholisi haqiqatni bukib yuboradigan tarzda bo'layotgan bolsheviklarning bu oyoq olishlarini mushohada qilishardi. Afg'oniston chegarasida bo'lgan barcha rus askarlarini o'ldirdilar, oz-ozdan bo'lsayam inqilob olovi boshdan-oyoq mamlakat bo'ylab alangalana boshladi, natijada bolsheviklarning qo'mondoni Kolesov majbur bo'lib, 1918-yil yigirma beshinchi martda amir bilan sulh tuzishga qaror qildi. Lekin baxtga qarshi bolsheviklar o'zlarining pastkashlik ishlaridan qo'l tortmadilar, 1920-yil beshinchi sentyabrda Buxoroyi Sharif bolshevik askarlari qo'lga tushdi. Ota-bobolari 1753-yildan boshlab saltanat surgan Amir Sayid Olimxon Buxoroda hukm suraturib biroz kishi bilan Afg'onistonga qochib ketdi; qizil askarlar bo'lsa odamlarni bexonumon qildi. Zulm qo'lini uzun qilib, mamlakatni boshdan-oyoq g'orat qilib taladilar, buning natijasida, nihoyat, ellik ming nafarga yaqin odamlar bexonumon bo'ldilar.

Amir Sayid Olimxonning «Buxoro xalqining hasrati tarixi» kitobidan.

ROSSIYA – BUXORO BOJ SHARTNOMASI (1894-yil)

...Buxoroyi Sharif bozorida man bo'lg'on, ya'ni ruxsat berilmagan mahsulotlar: Yevropa iqlimidan keltirilgan farang mol bamulaqqab deb nomlangan matolar: birlamchi, Istanbul yo Hindistondan keladurg'on andar bo'y, ikkilamchi saf, uchlamchi kimxob, to'rtlamchi shol anbar sari. Ushbu zikr etilg'onlardan boshqa g'ayr mamlakatlardan kelaturg'on mis va fag'furdin (chinni) qilingan mollar va g'ayrinarsalarning kelturmog'i ham man etilg'ondur. Hindiston charmidan qiling'on etikni har qadoqidan bir so'm tillo hisobida boj olinadi. Qimmatbaho tosh va mazkurg'a o'xshash boshqa toshlar, har xil toza marvarid, ipga chizilgan yo bo'sh keltirilgan aqiq va marjon yo marjonga o'xshash boshqa teshilgan yo teshilmagan naqshlik yo benaqsh toshning har qadoqidan tillo hisobida uch so'm boj olinadur. Qimmatbaho toshlarga tillo yo kumush yoki boshqa xalqa qilingan bo'lsa, u vaqtda uning boji bojxonaning 148 lamchi bobiga muvofiq olinsa kerak.

Nil (to'q ko'k rang bo'yoq), nuqra va boshqa xildan har pudidan olti so'm qog'oz boj olinadur. Oq dokaning har qadoqidan bir so'm qog'oz boj olinadur. Murabbo va qandlik non, konfet va qandlik meva, novvotning pudidan bir so'm oltmish besh tiyin qog'oz boj olinadur. Uchlamchi, Yevropa savdosig'a muvofiq mollar, afyun va butkul kayf qiladurg'on narsalar, har xil miltiq, har qanday jangga darkor asbob va qurol-yarog'lar keltirmak mandur. To'rtlamchi, bul tarafdin boshqa yurtga ipak qurtining tuxumi, har qanday daraxt va uning ko'miri, asbobi jang va miltiq dorusi olib borilishi mandur. Beshlamchi, mazkur zikr etilgan mollardan boshqalarini bu tarafdin boshqa mam-

lakatlarga beboj olib borishga ruxsat va ijozat berilgandur.

Moliyot vaziri (moliya) 1894-yildan olib kelinadurg'on quyidagi ta'rif va qoidalarini mustahkam joriy qildi: Kaspiyorti viloyati bilan Buxoroyi Sharifga boshqa mamlakatlar, birlamchi, Eron va Afg'onistondan keladigan molning boji uning bahosining beshdan biridur, ya'ni keltiriladigan mol bahosining beshdan bir qismi miqdorida. Ikkilamchi, Yevropa bilan ingliz va Hindiston mollarining quyida zikr qilg'ondan boshqalarini olib kelishi mandur: apelsin va limonning boji har bir qopi va yo qutisi bilan o'lchangan pudidan tillo hisobida yetmish tiyin olinadur. Quruq xurmo va turkning «rohati luqum» degan konfeti, halvoning har pudidan bir so'm sakson tiyin boj tillo hisobida olinadur. Kichik qutilarga solib keltirgan quruq mevalardan boj mazkur qutilari bilan birga o'lchanib olinadur. Shirin guruch, nil, za'faronning har pudidan o'n to'rt so'm qirq tiyin boj tillo hisobida olinadur. Ikkilamchi karvon va siporiydan to'rt so'm sakson tiyin tillo hisobida har pudidan olinadur. Qalampir va uning boshi, dolchin, murch, bodiyon va g'ayri shularga o'xshash narsalarning har bir pudidan tillo hisobida uch so'mdan boj olinadur. Lavr yaprog'i va uning mevasining har pudidan boji tillo hisobida bir so'm o'ttiz tiyindur. Qora choyning har pudining boji yigirma besh so'm qog'ozdur. Oltlamchi, ko'k choyni Kaspiyorti viloyati va Buxoro mamlakatiga tranzit bilan Botum, Boku va Uzunoda ustidan Ashxobod va Buxoro bojxonasiga olib kelishga ruxsat berilg'ondur, lekin mazkur bojxonalarda yuqorida zikr etilgan bojini bersalar kerak. Yettlamchi, Eron molini Ashxobod va Uzunoda ustidan



Respublika
ta'lim markazi

tranzit bilan beboj o'tkazishga ruxsat berilg'ondur. Sakkizlamchi, Xurosondan Eron mollarini Ashxobod va Uzunoda ustidan tranzit bilan Kaspiy dengizi labidagi shaharlarga va ulardan boz Xurosonga beboj olib borishga ruxsat berilg'ondur. To'qqizlamchi, Eronga qandni pulini qaytarib olib va nechtadan qilg'on matolarining kfitonsalarini (kvitansiya) ma'lum qilib, mazkur narsalarni nechtadan mato qilganiga xarajat qilgan pulini qaytarib olib, Ashxobod va Dushox bojxonalarini ustidan o'tkazib olib borishga ruxsat berilg'andur. O'nlamchi, yo'lovchi va musofirlarning narsalarini 1892 lamchi yilda joriy bo'lgan boj zakonini, 1293 lamchi bobiga muvofiq yuboradilar. O'n birlamchi, Kaspiyorti va Buxoro mamlakatiga boshqa atroflardan keltiradigan narsalardan boj

choy, nil, doka va qand qo'shib qilgan narsalardan boshqadan tillo hisobida olinadur. Xulosayi kalom, bojni nechuk tariqa bilan olish vaziri moliyot (moliya vaziri)ning farmoyishiga muvofiq bo'lsa kerak. Lekin Uzuno bojxonasi qandog' moldin bojini tillo bilan oladur.

Ushbu ta'rif va qoida, ya'ni nizomga vaziri moliyot, janob voyenniy (harbiy) qo'llarini qo'yg'ondurlar. Ushbuning haqiqatligiga qo'lli Turkiston viloyatining bojxonalari boshlig'ining lavozimin ado qilg'uvchi revizor, ya'ni tergovchi Arsenyev qo'lini qo'yg'ondur.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxividagi I-126 raqamli «Buxoro amirligi qo'shbegisi» jamg'armasi, 1-ro'yxat, 1101-yig'ma jild.

BUXORODA BOZORNING AHAMIYATI

Buxoroning bozori xususida yozadilarki, Buxoro bozori hamma ishlarga payvasta bo'lib, hattoki vaqtni ham bozordan hisob qiladilar. Chunonchi, biror odam bir bo'lgan hodisa qaysi vaqt edi, deganda javob beradurlarki, ikki bozor yoki uch bozor ilgari, deb. Va yana jami hukumat tarafidan e'lon qilinadigan ishlar ham bozorda bo'ladur. Biror buyruq bo'lsa, yoki pista yig'moq va moliyot to'lash vaqti va yo biror xursandlik xabar, bayram va shunga o'xshash nimarsalarni ham Buxoro chenovniklari jarchi orqalik bozorda e'lon qiladurlar. Va avval bozorlarda xalqning ko'z oldida gunohkor odamlar qatl qilinub, nasiya mollarin va qarz aqchalar muomalasi ham bozorda bo'lub, va ham keyingi keladurg'on bozorg'achanonga, molga, go'shtga, yog'ga, tuxumga va boshqa nimarsalarga baho miqdor bo'lur ekan. Bozor kunlar amlokdorlarga

nihoyatda xursandlik kun bo'lsa kerak, na uchunkim, o'shal kunlarda fuqarolar mulkdor eshiklariga o'zlarining bahsu jinjol (janjal), fitna va fasod ishlari birlan soat sakkizdin to kunduzgi soat birg'acha amlokdorlarning hovlisida jang-u jadal-lar va da'volar so'rolib, ishtiroflar hukm bo'lib... xullas, kalom bozor kunlari jang-u jadal ko'p bo'lub, har qaysi Buxoro chinovnikig'a yemish topulur ekan. Va yana bozor kunlari savdogarlarga ham zarur kun bo'lib, mollarini naqd va nasiyaga o'tkuzub va ham mollar xarid qilib, savdogarlar xarid qilsalar, aqcha to'lamasdin, oni muzdig'a mol to'lab, shul sabab mollarini narxini nihoyatda qimmat baho qo'yadurlar. Ammo har xil ajnos, chunonchi, pista, birinj (guruch), paxtalarg'a faqat aqcha to'lab, va boshqa nimarsalarni nasiyaga yarmig'a aqcha to'lab, yarmig'a mol to'lab bir qancha foyda qilodur ekan-

lar. Mollarni nasiyaga bergan vaqtda bahosini va'da qilgan muhlatga qarab, baho qo'yur ekan. Chunonchi, bir tuftikni naqtg'a 35-40 tangaga sotsalar, qarzg'a berg'on vaqtda biror foydasig'a sotur ekanlar. Aksar fuqarolarda aqcha kamligidin, mollarni nasiyaga oladurlar va ham fuqarolar molni nasiyaga olmoqlikka ko'p rag'bat qiladurlar. Ammo savdogarlari xaridorga nasiyaga mol bergan vaqtda kafil so'raydirlar. Ammo doimo kafil topmaklik mushkuldur. Na uchunkim, har qaysi kafil bo'ladurg'on odam amlokdor tomonidin bir ishtirafga qolmaylik, deb xavf qiladur. Shul sababdin xaridorlarga miroxo'r kafil bo'ladur. Agarda nasiya olgan xaridor aqchasini o'z vaqtida topib bermasa, ul vaqtda miroxo'r ul odamning aqchasini topib berguncha ijarasig'a ishlatadur. Buxoroda ishtiraf (shtaraf) uchun aqcha bermaklik lozim bo'ladur.

...Buxoroda bozor kunlari bozor kech boshlanib, ayni bozor soat 10 dan 18 gacha qizib, o'shal fursatdin bozorg'a hamma joylardin odamlar kelib, tiqilib, shovqun-to'polon bo'lib, ba'zi vaqtlarda qarz bergan odamlar o'zlarini qarzdorlarini bozorda topib, shovqin qilib yoki bir jang-u jadal bo'lib qolib, shovqin qilodir. Xususan, betartiblik va janjalga ko'pincha dallollar sabab bo'ladur. Na uchun-

kim, ularsiz hech bir mol olmoqlik, sotmoqlikning iloji yo'qdur. Dallollar besh o'n tangadin olib, savdogar bilan savdo qila boshlab, necha marotaba tillari chiqib, qancha qasamlar ichib, mol sotadigan odamning ham qo'lini olib, bir tanga, ikki tangadin oshib chiqib, oxiriga zo'rlik qilib, savdogarga biy puli (patta) beradur. Ul savdogar biy pulini olgan zamon savdogar bilan xaridorning bir-birovini qo'l qoqishtirib, ishni bitirib, ikki tarafdin bir yoki ikki tangadan olib, yaqin joyda qarab o'lturg'on Buxoro chinovnikiga ul aqchani olib, ohista kelib, yana ikki tarafdin ham uch, to'rt tangadin nizomdin tashqari tangani oladur. Bul orada mazkur dallol yanada boshqa joyda shul tariqa bir ikki savdogarning ishini bitiradur...

Bozor boshlang'on soatdin boshlab to tamom bo'lguncha amlokdorlarning xizmatkorlari qo'llarida uzun qizil tayoq bilan yurib, o'tun ... va shunga o'xshash bozorga sotmaklikka olib kelgan nimarsalardin boj oladirlar. Naroyvonchada podshohlik tarozisi bo'lib, Buxoro chinovnigi ul tarozuga olib kelgan un, arpa va shunga o'xshash nimarsalarni tortib, tortgani uchun har qaysi 10 qadoq nimarsalardin bir qadoqni oladurlar emish.

*Turkiston viloyatining gazetasi.
1910-yil 21-noyabr, 87-sonidan.*

BUXORO AMIRLIGIDA ISHLAB CHIQRISH, KO'NCHILIK VA SAVDO

...Xonlikda quyidagi sohalar keng tarqalgan:

1) GILAMDO'ZLIK. Qo'y va tuya junlarining katta qismi yashash joylari – o'tov va yo'rta qurish, gilam, palos, namat va qoplar tayyorlash uchun ishlatilgan. Gilamdo'zlik bilan asosan turkmanlar shug'ullangan bo'lib, ular namuna

va rangni Erondan olganlar. Gilamlarning asosiy qismini Karki va Kalif bekliklarida mahalliy turkmanlar tayyorlagan. Xorijda gilamlarga talab oshganligi sababli, narxlar 1 kv. arshinga (1 arshin – 70–75 cm) 4 rubldan, 8 rublgacha ko'tarildi. ...Xorijga olib chiqilgan gilamlarning yillik qiymati 100 000 rublga yetadi.



2) GAZLAMA ISHLAB CHIQA-RISH. Olacha – turli ranglar bilan bo'yalgan mato bo'lib, asosan, xalat tikishda ishlatilgan; surp – oq mato; xos doka – ro'molning past sorti; bo'z – dag'al oq mato; misti va chapanash – yaktak va chopon tikiladigan mato.

3) IPAK VA YARIM IPAK MATO ISHLAB CHIQA-RISH. Ipakchilik bilan xonlikning Buxoro, Karmana, Shahrisabz, Chiroqchi, Konibodom va Hisor beklilari aholisi ko'proq shug'ullanadi va ipak tolasidan quyidagi matolar to'qiladi: bayroq olacha, duxoba olacha, adras, shoyi, chesuncha, olacha.

4) KO'NCHILIK. Sanoatning bu turi xonlikning deyarli barcha beklilari-da tarqalgan bo'lib, ot terisi yaxshi oshlanib, qizilga bo'yaladi va qurol-aslaha, egar-jabduq yasashda ishlatilgan. Mol terisidan poyabzallar tayyorlangan, lekin u qadar sifatli bo'lmagan. Qo'y va echki terilari yarim xomashyo sifatida Rossiya-ga olib ketiladi hamda yillik narxi taxminan 300 000 rublni tashkil etadi.

5) TEMIRCHILIK. Usta-temirchilarning asosiy mahsuloti Hisor, Qal'ai Xum, Qal'ai Garmda pichoqlar, xanjar qinlari tayyorlangan va butun xonlikda sotilgan.

6) YOG'OCH O'YMAKORLIGI. Juda keng tarqalgan bo'lib, masjid va uy eshiklari, ustun, stol va panjaralarni bezashda foydalanilgan. Asosan, yong'oq daraxtidan foydalanilgan.

7) KULOLCHILIK. Yaxshi tayyorlangan idishlar, asosan, Buxoroda sotiladi.

8) ZARDO'ZLIK. Asosan, Buxoro, Qarshi va Shahrisabz bekliliklarida rivojlangan. Do'ppi, belbog', ot yopinchiqlari tikilib, teriga, matoga zar urilgan.

9) ETIKDO'ZLIK. Xonlikning barcha shaharlarida rivojlangan bo'lib, kosiblar turkman uslubida oyoq kiyimlarini uchini ko'tarib, poshnasini baland qilib tayyor-

laganlar. Etiklar sariq teridan tayyorlangan. Shuningdek, poshnasiz etiklar va kovushlar keng tarqalgan.

10) KUMUSH VA MISGARLIK. Buxoro va Qarshida misdan qumg'on, tog'ora, patnis, chilim, siyohdon va boshqa buyumlar tayyorlanib, qadimgi naqshlar bilan bezatilgan. Keyingi yillarda misning narxi oshganligi sababli, ustalar soni ham kamayib borgan.

11) YOG'MOY ISHLAB CHIQA-RISH. Xonlikning sharqiy qismida o'simlik urug'laridan yog' olinadi. Unda juvozlardan foydalaniladi va juvozni aylantirishda, asosan, otlar mehnatidan foydalaniladi. Yiliga bir ot bilan juvoz orqali 200-250 pud moy olish mumkin.

12) SOVUN VA SHAM ISHLAB CHIQA-RISH. Bu soha uncha rivojlanmagan. Sovun, asosan, hayvonlar yog'ini qovurish orqali olingan bo'lib, deyarli har bir qishloqda bo'lgan. Juda oz miqdorda chiqarilgan. Sham so'nggi yillarda kerosinning ko'p tarqalishi natijasida biroz pasaygan. Buxoro bozorlarida qimmatroq bo'lib, narxi bir funtga 1-12 qop baholanadi.

13) VINOCHILIK ZAVODLARI. Spirtli ichimliklar iste'mol qilish va ishlab chiqarish yahudiylarga diniy tomondan ruxsat berilgan bo'lsa-da, xonlikda ularga amir tomonidan ruxsat berilgan bo'lishi kerak va shu bilan birga, musulmonlarga sotish qat'iyman man qilingan. Berilgan ruxsatnoma natijasida Buxoro, Dushanbe, Qarshi, Hisor bekliliklarida vino ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, xonlikda xomashyoni yarim tayyor holatga keltirish ham yo'lga qo'yilgan:

1) PAXTA TOZALASH ZAVODLARI. Zavodlar Yangi Buxoro (Kogon), Chorjo'y, Kerki, Karmana, Termiz va bir

qator temiryo'l bekatlari yaqinida qurilgan. 1911-yilga kelib, ularning soni 15 tani tashkil etdi. Tozalangan paxta Rossiya jo'natilardi. Buxoro hukumatiga temiryo'ldan 2 verstdan uzoq joyda zavod qurishni man etganligi, bu sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qildi. 1908-yilda Buxoro va Chorjo'y temiryo'l stansiyalaridan 1 mln 200 000 pud paxta har pudiga 8,50 rubldan, jami 10 mln rublga baholanib, olib ketilgan.

AMIR SAYID OLIMXON HUKMRONLIGI DAVRI HIKOYASI

1329-hijriy sichqon yilida (1910) Sayyid Amir Muhammad Olimxon hazrati oliylari e'tiqod jangchisi Buxoroyi Sharif davlati taxtiga o'tirdi. Ollah barakasini berguvchi xazina eshiklarini ochib, barcha davlat tabaqalariga qabul uyushtirdi. Barcha ulamolar va harbiy sarkardalarga o'z muruvvati bilan xursandchilik baxsh etdi. U sarpo, qimmatbaho anjomlari bilan ot, tanho har kimning hurmatiga yarasha sovg'a in'om etdi. Navkarboshilarning maoshi ikki barobarga oshirildi. Har yili ular oladigan tanobona miqdori quyidagicha belgilandi: chuhra og'asi tanobonasi 90 tanga edi, 220 tanga bo'ldi. Mirzaboshi tanobonasi 130 tanga edi, 300 tangaga oshdi. Jibachi 180 tanga edi, 400 tangaga oshirildi. Qorovulbegi tanobonasi 220 tanga edi, 600 tanga qilib belgilandi. Miroxur tanobonasi 300 tanga edi, 800 tanga qilindi. To'qsoba tanobonasi 350 tanga edi, 1000 tangaga ko'tarishdi. Eshik og'aboshining tanobonasi 400 tanga edi, 1200 tangaga aylantirildi. Amiratpanoh biylar tanobonasi 500 tanga edi, 2000 tanga qilib belgilandi. Ushbu barcha tanobonalar va ust-bosh, sarpo to'plamini ilgari yiliga bir bor berishardi. Baxtiyor yosh podshoh yillik tanobona va to'plam-

2) UN ZAVODI. Xonlikda 2 ta un zavodi bor.

3) TAMAKI ISHLAB CHIQARISH. Biri Chorjo'yda, yana biri Yangi Buxoroda bo'lgan zavodlar kichik hajmda tamaki ishlab chiqaradilar.

4) VINOCHILIK. Qorako'l bekatida fransuz jamiyatining uzum vinosi zavodi joylashgan.

D.N.Logofetning «Buxoro xonligi rus protektorati ostida» kitobidan.

lar adadini (sonini) yiliga ikki bor berishga qaror qildi. Bundan tashqari, amiratpanoh xizmatchilardan tortib, saroy soqchilari boshlig'igacha yiliga bittadan ot hadya qilish odatini joriy etdi. Muntazam qo'shin navkarlarining oylik maoshi Amir Muzaffarxon hazrati oliylari davridan, a'lo hazrat saroyida Sayyid Amir Abdulahadxon hukmi davrigacha 20 tanga edi. Muntazam qo'shin askarlari maoshini birdaniga 3 barobar ko'tarib, 60 tanga etib belgilashdi. O'shanda Buxoro davlati hududida yashovchi fuqarolardan hosilning har manidan 10 tanga miqdorida olinadigan (o'shandagi narxga asosan) yer solig'idan kechildi. Kelasi yilgi yer solig'i miqdorini yarmiga qisqartirishdi. Hosil miqdoriga qarab, bog'larning har tanobidan 200 dan 400 tangagacha yer solig'i olingan bo'lsa, endi 30 tangadan oladigan bo'lishdi. Ilgari polizning har tanobidan 100 dan 300 tangagacha olingan bo'lsa, endi yer solig'i 20 tanga qilib belgilandi. O'zining ushbu marhamatlari bilan amir barcha fuqarolarga xuzr-halovat baxsh etdi.

Oliy Ark darvozasida vaqtincha turgan Mirzo Nasrullo parvonachini darhol qushbegi darajasiga ko'tarib, Buxoroyi Sharifdagi barcha davlat hokimiyatini top-



shiridilar. Amir otasi kabi har yili Rossiya-ga, Bog'chasaroy chorbog'iga borardi. Vaqtining katta qismini Karmana viloyatida, shuningdek, otasi barpo ettirgan Sitorayi Mohi Xosa chorbog'ida o'tkazar edi. Bundan tashqari, u shu yerda keng, baland, shohona binolar qurdirib, bu joyni o'z oliy poytaxti va qarorgohiga aylantirdi. Bu yerda u shikoyatlarning adolati muhokamasi bilan shug'ullanar edi. Chunki barcha davlat ishlarini yuritish Mirzo Nasrulloqa topshirilgan edi.

Ilgari shunday odat bor edi, agar hukmdor qaysidir hokimni mansabidan olmoqchi yoki mansabga ko'tarmoqchi yoki kimgadir faxriy sarpo taqdim etmoqchi bo'lsa, biror-bir muhim topshiriq bersa, bularning bari hukmdor farmoni bilan amalga oshiriladi yoki oliy dargoh xizmatchilaridan biri – mahramga vakolat

berilar edi. Endi-chi, bu kabu hukmdor vakolatlari Mirzo Nasrullo qushbегining ixtiyori va buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Ayrim vaqtlarda oliy dargoh xizmatchilaridan kimgadir hukmdor martaba berib, bu Mirzo Nasrullo odamlaridan biriga tegmagan bo'lsa, ushbu ish oxirigacha yetkazilmasdan qolar edi. Oliy dargoh xizmatchilari o'z navbatida uning roziligisiz biror chora ko'ra olmasdilar. Hatto uning odamlari ixtiyorisiz hech narsaga kirishishmasdi. Kimki Mirzo Nasrulloning odamlariga hurmat-ehtiromlar ko'rsatmasa, shu lahzadayoq oliy dargoh xizmatchisi sharafidan mahrum bo'lar edi. Hukmdor ma'qullamagan hech kimga muruvvat ko'rsatmas edi. Hukmdor faqatgina so'zda hukmdor edi.

*Mirzo Salimbekning
«Tarixi Salimiy» asaridan.*

YOSH BUXOROLIKLAR YASHIRIN JAMIYATINING TA'QIBI

Jahon urushi arafasida rus ma'murlari Buxoro yoshlarini diqqat bilan ta'qib qilg'onlari uchun yashirin jamiyat tez-tez yig'ilmas va yig'ilg'on chog'larda ham shaharning biron burchaginda yig'ilib, ishini ehtiyot bilan yuritardi. Rus elchixonasi to'g'ri bir axbor bilan emas, qiyosiy bir yashirin jamiyat borlig'ini sezdi. Ko'kaldosh madrasasida ushbu satrlarni yozguvchi turdig'indan, Dasturxonchi guzarinda Fitrat afandi va Fazliddin mahdum kabi mashhur taraqqiyparvarlar bo'ldiqlarindan yashirin jamiyatning yig'ilaturg'on o'rni ushbu yerlarda bo'lur, deb gumon qildi. Ushbu qiyos va gumonlarga binoan, qo'shbegi qozikalonga: «Ko'kaldosh madrasasida va Dasturxonchi guzarinda yashirin jamiyat bor ekan. Yashirin odamlar vositasi ila ushbu jamiyatdan yig'ilg'on chog'inda xabardor

bo'lib, a'zolarini hibslar va daftarlarini zabt qilingiz», deb maktub yubordi (ushbu maktub kelgan kuni yoshlarga (yosh buxoroliklarga) ma'lum bo'lib edi). Qushbegi va qozikalon mazkur yerlarda yashirin tergovchilar (ayg'oqchilar) qo'yib, bir oy chamasi ko'zlatdilar. Tergovchilar Ko'kaldosh madrasasi ichida oshnalar paydo qilib, oqshomlar poyladilar. Tabiiy, ushbu tahqiq va taftishlar natijasida biron foyda qo'lg'a kirmadi. Lekin elchixona a'zolari va po'li (politsiya) ma'murlari haqiqat darajasida aniq deb gumon qildiqlari yashirin jamiyatni topa olmayin, jonlari siqilar va tobora diqqat bilan ta'qib qilar edilar. Rus po'lisining boshlig'i Velman o'zi biznot ishga kirishib, Buxoro hukumatining vositachilig'idan boshqa taftish qila boshladi. Bu jumladan, Ko'kaldosh madrasasida turg'uchi Akbarxon bilan oshno

bo'lib, uning vositasi bilan har turli xabarlar topmoqchi bo'ldi. Tabiiy, Akbarxon ham madrasadan biron xabar topib bera olmadi. Zero, madrasada biror narsa yo'q edi. U kunlarda men Akbarxonning Velman odami ekanligidan xabarsiz edim. Har bir bahona bilan hujramga kelib ketar edi. Bir oqshom shom bilan xufton orasinda Akbarxon kelib, meni o'z hujrasiga chaqirdi va «hujramga bir tatar mehmon keldi, siz bilan ko'rishmoq istaydi», dedi. Qabul qilib, bordim. Hujraning eshigidan kirar-kirmas ko'zim mehmonning ko'ziga tushdi. Diqqat ila qarasam, beqasam to'n kiyib, yuzini teatr sahnasiga chiqadigan artistlardek bo'yab, to'rda o'lturg'an tatar afandi po'lis mudiri Velman janoblari edi. Men o'zimni bilmaslikka solib, ko'rishib, hol-ahvol so'rashdim. Asli qaysi go'bernadan bo'lub, qaysi joyda turishini va nima bilan mashg'ullig'ini so'radim. Birinchi savolim'ga javob berar-bermas, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi savollarimni berar edim. Yarim soat chamasi shundoq ma'nisiz savollar bilan mehmon tatar qiyofasiga kirgan po'lis mudiri janoblarning boshini shishdirib, «hujramda zarur ish bor», deb ushbu shaytonning oldidan chiqib ketdim.

YASHIRIN TASHKILOTNING HOLI.

Urush vaqtida yashirin jamiyat tez-tez yig'ilmas edi. Yolg'iz biron muhim ahvol yuz bergan taqdirda bir kecha yig'ilar va lozim ko'ringan qarorlarni qabul qilib, tarqalar edi. Shundoq ham bo'lsa, yashirin jamiyat 1917-yil fevral inqilobiga dovur Buxoro yoshlariga markazlik va rahbarlik vazifasini o'tab turdi. Fevral inqilobi asnosinda ushbu jamiyatning siyosiy ishlari boshqa jamiyatning qo'liga o'tganligindin, tabiiy, muning siyosiy vazifasi tamom bo'ldi. Yashirin jamiyat Buxoroning ilmiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy inqilo-

big'a boshlab xizmat etgani sababli, buyuk tarixiy ahamiyat'ga molikdir. Shuning uchun ushbu jamiyat'ga a'zo bo'lg'on zotlarning ismlarini to'plab, ushbu sahifalarda yozib qo'yishimiz lozim: Mirzo Abduvohid Manzum, Ahmadjon mahdum Hamdiy, mudarris Hoji Rofe', mudarris Hoji Siroj, Homid Xo'ja Mehriy, Mirzo Abduqodir Muhiddin o'g'li, Aminjon mahdum Ziyoiy, Muhyiddin mahdum Sudurzoda, Abdunasr mahdum Sudurzoda, Porso Xo'ja Hasan Xo'ja o'g'li, Hoji Hamroh Yo'ldosh o'g'li, Ahmad Komil, Mukmiliddin mahdum Burhon o'g'li, Mazhar mahdum Burhon o'g'li, Muhammad Nazar mahdum, Musojon Yo'lishosh o'g'li, Zamon oxund Amin o'g'li, Ismoil Sadriy, Hoji Abdusattor dallol, Qori Hoshim Shoiq, Qurbonbek yuzboshi, Mirzo Nasrulloh Abduqahhor o'g'li, So'fi Abdurahim, Mirza Izzatulloh Amin o'g'li, Mirzo Muhammad va Sadriddin Ayniy.

Ilm va maorif yo'lig'a yoshlar va yosh fikrlilar tomonlaridin qilinaturg'on ittifoqiy hayriya (yordam) jamiyat a'zolari vositalari ila ushbu jamiyat xazinasig'a yig'ildig'idek, jamiyat a'zolari jamiyatning sirini ochmasdan, bir necha maorifparvarlarni muayyan oylik moyanag'a ham bog'lag'on edilar. Bu jumladan, Mirzo Muhiddin Mansur o'g'li, qozi Sharifjon Sadr, qozi Sayyidjon va yana ismlari esimda qolmag'on bir necha zot har oy boshida muayyan bir miqdor oylik berib turar edilar. Shuning ila barobar, ma'naviy jihatdan bo'ldig'idek, moddiy jihatdan ham ushbu jamiyatning og'ir yuki bir hovuch o'z a'zosi bo'ynig'a tushar edi. Jamiyat xazinasinda to'plang'on aqcha jamiyatning umumiy majlisi qarori bilan lozim ko'rilgan yerlarga sarf qilinar va hisobi jamiyat daftarig'a qayd bo'lur edi.

*Sadriddin Ayniyning
«Buxoro inqilobining tarixi» kitobidan.*



BUXORO XALQINING HASRATI TARIXI

...O'z ahvolim va boshdan kechirganlarimni yoshlik chog'imdan olib borilgan to Buxoro poytaxtida saltanat uchun bolsheviklar bilan olib borilgan janglarda bo'lib, o'zimning Qobul dorussaltanasiga ko'chishim voqealarini tahrir ipiga tizib ushbuda bayon qildim, unga «Tarixi huzni milali Buxoro» («Buxoro xalqining hasrati tarixi») deb nom qo'ydim, tokim o'quvchilar va unga ko'zi tushgan zotlar bu faqirning bayon qilgan hollaridan va Buxoro saltanati poytaxti va unga taalluqli bo'lgan ma'lumotga ega bo'lsalar va bolsheviklar bilan bo'lgan muhobaba va Afg'onistonga ko'chishim sabablarini mutolaa qilib, unga insof nazari bilan boqsalar.

Endi til nutqini bayon etuvchi to'ti bo'lmish – qalamni tilga kiritib, ahvol bayonini ushbu bitikda tarannum etadigan bo'lsam, shundayki, bu banda dargohi oliy Sayyid Amir Abdulahadxon o'g'li Sayid Olimxon dor ul-foxira bo'lmish Buxoroyi Sharif hukmdoridurman. Men hazrati padari buzrukvorim saltanati qaror topgan davrda diyonat ilmi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlardan tahsil qilganimdan keyin saltanat va mamlakatni idora qilish qonunlarini egallash maqsadida rus ulug'larining sahovatidan foydalandim. Shunda o'n uch yoshligimda milodiy yilning ming sakkiz yuz to'qson uchida buyuk shahanshoh bo'lmish padari buzrukvorim hazratlari amr-u farmonlari bilan bir necha mo'tabar namakxo'r-yaqin do'stlar hamrohligida Peterburgga borishga azm qildim. Tartib-qoida yuzasidan u yer maktablarida yetti yil o'qitilar edi. Binobarin, padari buzrukvorim istagiga ko'ra ta'limotni tezashtirish maqsadida o'qish muddati uch yil deb qaror qilindi. Bu uch yil orasida yozlari maktablar yo-

pilgan kezlari Buxoroga, padarim xizmatiga kelib-ketib turardim. Shunday qilib, men uch yil davomida ta'lim olib, mamlakat tartib-qoidalarini biladigan darajada bilim hosil qildim, o'qishlarni tugatib, imtihon topshirdim. Rus davlati ulug'larini meni Buxoro davlati valiahdligiga mansub bo'lganligim uchun Buxoroga qaytarishdi. Shu bilan men milodiy yilning 1896-yilida Peterburgdan Buxoroyi Sharifga, zoti shohona Padari buzrukvorim hazratlari dargohlariga qaytdim. Shunday qilib, men qiblagohim qo'llarini o'pib, doim u kishi bilan birga bo'lishga musharraf bo'ldim. Padari buzrukvorim meni ikki yil davomida o'z xizmatlarida hamrikob qilib yonlarida olib yurdilar. Men qo'l ostimda bo'lgan muqaddas vatanning ichki ahvollari haqida ba'zi bir ta'limotlarni u kishining muborak tillaridan eshitib turgandim; bulardan men ko'p foydalar ko'rdim. So'ng zoti shohona padari buzrukvorim menga Buxoroyi Sharifga qarashli bo'lgan o'lkalardan biri Nasaf viloyati hukmronligini marhamat qildilar. Bu bilan menga baxtiyorlik baxsh etib, shohona to'nlarni kiydirdilar, xisravona hukmronlik tojini boshimga qo'ydilar. Padari buzrukvorim ijozatlari bilan mazkur viloyatga azm ayladim. Shunda mazkur viloyatning barcha a'yon va xos kishilari mening istiqbolimga chiqib kutib oldilar. Shunday qilib, men ular bilan hol-ahvol so'rashib, ular iltifotidan boshim ko'kka yetdi, ularga mehr-u hurmatimni bildirib, Nasaf viloyati qo'rg'onining ichiga kirib bordim, barcha kattakon bo'lgan odamlarni muborakbod etib, ularni xursand va mamnun ettirdim. Bu ojiz bandaning Nasaf viloyatidagi hukmronligi muddati o'n ikki yil davom etdi. Bu muddat ichida mening hukumatim hamisha faqirparvar

va g'aribnavozlikka intilardi, mazlumlarni zolimlardan asrab, haqni qaror topdirardi. Shunday qilib, mazkur viloyat aholisini o'zimdan xursand-u mamnun ettirardim. Mazkur viloyatga yaqin joyda Qashqa degan sho'x daryo o'qardi. Undan kambag'al beva-bechoralarning kechib o'tishida rohati buzilib, doimo g'am-tashvishda edilar. Aholining osoyishtaligini ko'zlab mazkur daryoga toshu temirdan bir ko'prik qurdirdim, ko'prikni esa o'z nomim bilan atadim. Shoyad faqir-u fuqarolar suv kechish tashvishidan qutilib, tinch-u osuda yashasalar, deb o'yladim. Shu bilan yana boshqa bir qancha madrasa va ibodatxonalar qurib, bu borada anchagina yumushlarni yuzaga keltirdim. Bundan so'ng, hukm yuritganimdan o'n ikki yil o'tgach, zoti shohona padari buzrukvorim meni dor-ul-fohira Buxoroyi Sharifga qarashli joylardan biri bo'lgan Xo'rok vodiysining Karmina (Karmana) nomi bilan mashhur bo'lgan viloyat hukmronligiga ko'chirdi. Bu bilan zoti shohona meni o'zlariga yaqin bo'lgan joyga olib keldilar. Nasaf viloyati hukmronligidan Karmina viloyati hukmroniga aylandim. Mana shu zikr etilgan viloyatda ikki yil davomida hukm yuritdim. Shu asnodda zoti shohona hazrat Sayyid Amir Abdulahadxon – mening padari buzrukvorim taqdiri ilohiy amri bilan foniylik olamidani boqiylik dunyosiga rihlat etdilar. Shunda iqtidor egasi bo'lmish padari buzrukvorim podishoh hazratlarining saltanati muddatiga yigirma olti yil bo'lgan edi.

Shu bilan men 1329-hijriy yili muharram oyining o'ninchi kuni, milodiyning 1911 (*Amir Olimxonning o'zi milodiy yilni 1911-yil deb keltiradi, aslida bu sana 1910-yilga to'g'ri keladi*) yili menga meros bo'lib qolgan marhum va mag'fur padarim saltanati taxtiga o'tirdim. Buxoroyi Sharifning barcha aholisi bu ojiz banda-

ga xizmat qilmoqqa qasamyod etdilar. Taxtga o'tirganimdan so'ng bu banda dargohi oliyda mamlakatimning bir yillik xiroj to'lashdan ozod qilish farmoyishini berdim. Shu tariqa ish tutishim bilan faqir-fuqarolarni ko'p xursand qildim, ularning boshlari ko'kka yetdi. Oradan bir yil o'tgach, eltutish va faqirparvarlik tartibini o'rnatishga intildim, Buxoro davlatida tartib-intizom va obodlik ishlarini bajo keltira boshladim. Buyuk ishlarni barpo etishga sa'y-harakat etdim, madrasalar, ibodatxonalar bino qilishga kirishdim. Barcha ilmlarni o'rgatish borasida anchagina harakat qildim. Buxoroyi Sharif arkining yaqinida, Baloyi havz deyilgan joyda o'z nomimga bir ibodatga masjid bino qildirdim. Buxoro minorasining past tomonida bozorning ichki tomonida o'z nomimdan Dor-ul-ulum – Bilim uyi bo'lgan bir madrasa qurdirdim; har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin etdirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim-kechagi ham o'z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin etdim; ularning yemak-ichmak, maosh va kiyim-kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkazdirardim. Bozor va yo'l obodligiga ko'p harakat qildim, uch yil ichida Buxoro mamlakati ancha obod bo'ldi, unga zeb-ziyat va tartib-intizom o'rnatdim. Mening sa'yi-harakatimdan Buxoro aholisi va butun mamlakat mamnun bo'ldi. Banda o'z xalqim uchun qo'limdan keladigan xizmatimni bajo keltirganimga shukr qilardim. Bu bandayi ojiz Turon mamlakatida o'n yil davomida saltanat surdim. O'n yildan so'ng, Sovet davlatiga qarshi kurashdim, nihoyat Afg'oniston davlatiga ko'chdim.

Amir Sayid Olimxonning «Buxoro xalqining hasrati tarixi» kitobidan.



XIVA XONLIGI TAFSILOTLARI

Orol-Kaspiy pasttekistligining shimoli-sharqiy qismini egallagan Xiva vohasi Amudaryo bo'limi va Xiva xonligidan tashkil topgan. U shimol va sharqda Orol dengizi va Sirdaryo viloyatining Kazalinsk, Perovsk, Chimkent uyezdlari, Samarqand viloyatining Jizzax uyezdlari bilan janubdan Buxoro amirligiga tobe hududlar va Kaspiyorti viloyatining Marv, Ashxobod va Krasnovodsk uyezdlari bilan, g'arbdan Kaspiyorti viloyatining Mang'ishloq uyezdi bilan chegaradosh... Uning hududi 130 590 kv. verst bo'lib, shundan 75 900 kv. verst Amudaryo bo'limiga, 54 690 kv. verst Xiva xonligiga tegishli. Shayx-Jalil va Sulton Uvays tog'i Xiva rayonidagi eng muhim tog' tizmalaridan sanaladi. Sulton Uvays tog' tizmasiga bu nom shu yerda dafn qilingan diniy ulamo sharafiga qo'yilgan. Tog'larning eng baland cho'qqisi 2000-3000 futga yetadi... Sulton-Saroy ko'lining sharqiy qirg'og'i bo'ylab baland cho'qqili tog'lar, uning g'arbiy va janubi-g'arbiy qismida baland bo'lmagan tog'lar joylashgan. Xiva rayonidagi barcha qumliklarning umumiy maydoni 80 000 kv. verstni tashkil etadi. Shundan 56 000 kv. verst Qizilqumga va qolgan 24 000 kv. verst Qoraqumga to'g'ri keladi... Xiva aholisi o'zi foydalanayotgan dehqonchilik yerida shamol orqali kelgan va ekinlarga zarar yetkazadigan qum uyumlari bilan kurashib kelgan.

Ma'muriy jihatdan Xiva xonligi 20 ta beklikka va 2 ta noiblikka bo'linadi. Shuningdek, Xiva shahri va uning atrofi xon qo'l ostidagi alohida ma'muriy hududni tashkil etadi. Bekliklar quyidagilardan iborat: Pitnak, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'shko'pir, G'azovot, Qiyot, Shoh obod (Shovot), Tosh hovuz, An-

bar-manoq, Gurlan, Mang'it, Qilich Niyozboy, Qipchoq, Porsu, Ilyoli (Aleyli), Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Chumanoy, Qo'ng'irot. Bundan tashqari, Beshariq noibligi 5 ta noib tomonidan va Qiyot-Qo'ng'irot 2 ta noib tomonidan boshqariladi. Bekliklarga xon tomonidan tayinlangan hokim boshchilik qiladi. Unga o'z hududining o'zbek va sart (o'troq) aholisi to'g'ridan to'g'ri bo'ysunadi. Ko'chmanchi aholi – turkman, qirg'iz (qozoq), qoraqalpoqlar oqsoqollar tomonidan boshqariladi. Hokim 10 tadan 100 tagacha o'z askariga ega. Eng kichik ma'muriy-hududiy birlik masjid qavmlaridan tashkil topgan... Urug' oqsoqollari turkmanlarda – kadxudo, oqsoqol, qoraqalpolarlarda – biy va qirg'izlarda – otaliq deb ataladi. Barcha urug' oqsoqollari beklarbegiga bo'ysunadi. Ushbu lavozimlarning barchasi avlod-dan avlodga o'tadi...

Har bir shaharda 2 ta qozi mavjud. Xiva shahrida darajasi bo'yicha xonlikda eng nufuzga ega 2 qozi – Qozikalon va Qozio'rda mavjud. Ular huzurida a'lam va muftiylar faoliyat ko'rsatadilar. Har bir shaharda, shuningdek, musulmon aholining kundalik hayotida shariat ahkomlariga asoslanib yashayotgan qozirais faoliyat ko'rsatadi. Xiva xonligida quyidagi soliq va yig'im turlari mavjud: yer solig'i – solgut, solg'ut kesma va dahyak; Eron, Buxoro va Afg'onistondan olib kelingan chorva mollari uchun – zakot; mazkur hududlardan olib kelingan tovarlar uchun – zakot va savdo huquqini beruvchi – kesim; o'tov solig'i; tagjoy yoki bozor yig'imi; tarozi puli; cho'ppuli yoki davlat yerlarida chorvasini o'tlatish huquqini beruvchi yig'im.

...Xiva xonligining 2400 qo'shini bo'lib, shundan 2000 tasi aholining deh-

qon qismidan shakllantirilgan. Qolgan 400 tasi Xivada xon va uning mulozimlari xizmatida bo'lganlar... Qirg'iz va qoraqalpoqlardan 2/5 miqdorda yer uchun dahyak va 1/40 miqdorda qoramoldan zakot olingan. Keyinchalik bu soliq turlari cho'ppuli bilan almashtirilgan.

...Xonlikda harbiy xizmatdan tashqari, begar va obxo'r kabi majburiyatlar ham bo'lib, ular irrigatsiya inshootlarini qurish, yo'llarni qurish bilan bog'liq. Har bir begarga chiquvchi shaxs 30 kop. miqdorda afanak puli to'laganlar. Bu mablag' irrigatsiya inshootlariga mas'ul mansabdor shaxsga uning xizmati uchun to'langan. 1897-yilda Amudaryo bo'limida aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan. Xiva xonligi aholisining umumiy soni kamida 600 000, Amudaryo bo'limi aholisi soni taxminan 205 000 ni tashkil etadi... Xonlikdagi o'zbeklar 30 urug'ga bo'linganlar. Xonlikdagi barcha turkmanlar 7 ta katta urug'ga bo'linadi: Issen-lli, Yovmut, Impreli, Qoradoshli, Go'klan, Ota va Arabachi. Ushbu urug'lar bir necha urug'cha va qismlarga bo'linadi. Xonlik va Amudaryo bo'limida turkmanlarning umumiy soni 30 050 xonadonda taxminan 152 370 kishini tashkil etadi.

Vohada qoraqalpoqlar XVIII asrda paydo bo'lganlar. Ularning umumiy soni 115 000 kishini tashkil etadi. Shulardan 20 000 xonlikda, qolganlari Amudaryo bo'limida yashaydi. Barcha qoraqalpoqlar ikkiga: Qo'ng'iro't va O'n to'rturug'ga bo'linadi.

Vohadagi qirg'izlar (qozoq) uchta yirik urug'ga bo'linadi: Tabin, Alim va Boyuli. Amudaryo bo'limida ruslar soni 3 113 kishini (qo'shinni hisobga olmaganda) tashkil etadi.

Xonlikda nemislar Kaufman taklifi bilan Turkiston o'lkasiga qishloq xo'jaligi holatini yaxshilash uchun Saratov-

dan kelganlar, keyinchalik ular xonlikka ko'chib o'tganlar. Ular 36 xonadon, 142 kishini tashkil etadilar.

Vohada armanlar ham bor, ular savdo-sotiq bilan shug'ullanadilar... Amudaryo bo'limida aholining o'sishi yiliga 2,4 foizni tashkil etadi, vohaning umumiy aholisi 136 496 xonadon – 713 937 kishidan iborat. Qum va cho'l hududlari voha hududining 74 foizini tashkil etadi. Vohaning aholisi ikkiga – o'troq (9,4%) va ko'chmanchiga (8%) bo'linadi. Aholining 95% qishloqlarda va 5% esa shaharlarda istiqomat qiladi. Vohada jami 25 ta shahar mavjud. Petro-Aleksandrovsk shahri Amudaryodan, Bo'zyob va To'rtko'ldan 1,5 verst oraliqda joylashgan. Unda 800 ga yaqin uylar mavjud. Xivada 3840 xonadon mavjud bo'lib, uning aholisi 19 000 dan ortiq. Xivada 2 ta xon saroyi, 20 masjid, 38 madrasa, bir necha karvonsaroylar va bozorlar mavjud.

Xonlikdagi sug'oriladigan yerlar 380 025 desyatini tashkil etadi va har bir xonadonga 7,6 tanob yoki 2,9 desyatina demakdir. 100 000 desyatina xon va uning qarindoshlari va mulozimlari, boylarga tegishli... Aholi magistrat kanallarini yop deb, ulardan yerlarni sug'orishga mo'ljallangan kanalni solma deb ataydi. Xonlikda katta tegirmonlar yo'q. Har bir qishloqda uch-to'rtta kichik tegirmonlar mavjud va ularda ot va tuya mehnatidan foydalaniladi.

Vohada otlar soni 159 600 bosh (Xiva xonligida – 97 300) ga yetadi. Vohada otlarning qirg'iz, qorabayir va arg'amaq kabi turlari mavjud. Tuyalar qirg'iz (bir va ikki o'rkachli) va turkmanlar (bir o'rkachli) tomonidan yetishtiriladi. Bir o'rkachli tuya – nor, ikki o'rkachli tuya – air-urkush deb ataladi.

Ko'chmanchi aholi orasida gilam va shoyi ishlab chiqarish keng rivojlangan.



Respublika ta'lim markazi

Eng yaxshi shoyilardan biri yovmut shoyilari bo'lgan. Tuz ishlab chiqarish vohada Pitnak atrofi va Qo'ng'iroq yaqinida rivojlangan. Baliqchilik bilan asosan qirg'iz va qoraqalpoqlar shug'ullangan... Ko'hna Urganchda selitra olinadi va undan porox hosil qilinadi.

Xiva xonligida, asosan, kumush tanga muomalada keng tarqalgan. Undan keyin

tilla bo'lib, u 9 tangaga teng. 18 tanga – *puxta tillani* tashkil etadi. Tangada xon ismi va unvoni zarb qilingan bo'lib, pulni zarb qilish Xivadagi xon saroyi zarbxonasida amalga oshirilgan. 1892-yildan boshlab Xivada tanga zarb qilish rus hukumati talabi bilan taqiqlab qo'yildi.

Kapitan V.Girshfeldning «Xiva vohasining harbiy statistik bayoni» kitobidan.

SAYYID MUHAMMAD RAHIMXON SHAXSI HAQIDA

...Xon hazratlari she'rga ko'p zavq paydo qilib erdilar. O'zlari ham ilgaridan Feruz taxallusi bilan mutaxallis bo'lib, she'r aytur edilar. So'ngroq she'rga ko'proq haris (*bir narsaga qattiq xirs qo'yish, orzumand bo'lish*) bo'ldilar. Har kishining she'r aytmoqqa sahl (*oz bo'lsa-da*) qobiliyati bo'lsa, nav'i she'rlarini aytib, oliy dargohg'a olib bora berdilar. Shoirlarning adadlari (soni) kam-besh qirg'ga yovuq bordi. Ali mahramning Ahmad otlig' bir o'g'li bor edi. Ul ham o'zini Tabibiy taxallusi bilan mutaxallis etib, she'r aytmoq boshladi. Xon hazratlari o'z g'azallaridan yuz g'azalni shoirlarga berib, buyurdilar: «Munga payravlik (*yo'nalish, izdosh*) etib g'azal aytinglar». Shoirlarning har biri unga payravlik etib, g'azal aytdilar. Xon hazratlari Tabibiyg'a amr etdilar, tokim, ul g'azallarni masnaviy zimnida jam qilib, bir kitob etgay. Tabibiy farmonga amal qilib, ul g'azallarni jam qilib har g'azalni yozmoqchi bo'lg'onda masnaviy bilan ul g'azalni aytg'on kim ekanini bayon etib, shul g'azallarni tamom etib, ul kitobg'a «Majmuat ush-shuaro» deb ot qo'yildi.

...Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzib kitobxonlik etdurur edilar. Andog'kim, Yusuf hoji oxund va Ismoilxo'ja oxund va Xudoybergan oxund va olimu ilm ma'qul va manqulda Mullo Muham-

mad Rasul va faqiru haqir (*haqir – hech kim hurmat qilmaydigan, qadrsiz, e'tiborsiz odamlar*) majlisi humoyunlarig'a (*oliy dargohiga*) ikki martaba hozir bo'lib kitobxonlik etar edik. Goho domla Muhammad Rasul bilan ikkovimiz kirib, suhbat humoyunlarida kitobxonlik qilar erdik va sipohiylar va to'ralarni ham kitobxonlik qilishga targ'ib etar edik. Shu tahlit viloyat ahli kitobxon bo'ldi.

...Hijratning 1328-yilida (1910) xon hazratlariga bir qattig' bemorlik tegib, ul marazlik badanlaridan zoyil (*yo'q, bartaraf*) bo'lmadi. Harchand zohidlar va obidlar dam soldilar, ta'sir etmadi. ...Sha'bon oyining yigirma to'rtinchisi va dushanba kuni (1910-yil 30-avgust) erdi, jahon bo'stonidan jannat gulistonig'a xirom (*chiroyli va nafis qadam bosish, yurish*) etdilar. Ul hazratning hayotlari oltmish olti yil va saltanat hukmi muddati 47 yil-u o'n besh kun edi. Hazratlaridan olti o'g'il yodgor qoldi: Avvalg'isi Asqar to'ra, ikkilamchi Mehdiyot to'ra, uchlamchi Sayyid Abdullo to'ra, to'rtlamchi hazrati valiahd Sayyid Asfandiyot to'ra, beshlamchi Ubaydullo to'ra, oltinlamchi Muhammad Yusuf to'radurlar.

Muhammad Yusuf Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy» asaridan.

ASFARDIYORXON DAVRINING BA'ZI TAFSILOTLARI

...Hijriy 1328-it yilining mohi sha'bon ul-mukarram yigirma to'rtida dushanba kuni (1910-yil 30-avgust) shomdan to'rt soat avval hazrati xulofatpanoh, saltanatdastgoh, sipehrifa't, xurshidmartabad, iskandarnishon, sulaymonmakon ...Asfandiyor Muhammad Bahodurxon soniyi farruxiqbol saltanat taxtiga minib, xustav tojini muborak boshiga kiyib, nigini Sulaymoni hukumatni qabzayi taxti tasarrufiga oldi.

...Xon hazratlari tamom-u fazalo-yu sipoholar-u amaldorlarni o'z joy-amallariga barqaror qo'yib, Qutlug'murod yasovulboshini azl etib, o'rnig'a Shayxnazarboy valadi Muhammadmurod devonbegini yasovulboshi qilib, Sayyid Islomxo'jag'a vaziri akbarlik mansabini berdilar.

...Ondin so'ng xon hazratlari Sayyid Islomxo'jag'a amr qildilarkim, Xivaning shimol taraf darvozasikim, eski bo'lgan erdi, ani yiqitib, o'rnig'a yangidan ikki qo'sh darvoza bino qildirgil, nechunkim Xivaningdirkim, yo'li omma (ko'pchilik yuradigan yo'l) erdi, fuqarolar qal'ag'a kirib-chiquvchi ko'p muattal bo'lur erdilar. Sayyid Islomxo'jamiz amrlarig'a muvofiq etib Otajon devong'a qo'shdarvoza binosin buyurdilar. Ondin so'ng, xon hazratlari Sayyid Islomxo'jag'a fuqarolarimiz farog'atligi va osoyishtaligi uchun va savdogarlarning manfaati uchun Xiva qal'asining shimolida hazrat Pahlavon Otaning anhorining janubida rohi ommaning g'arbida po'shta (pochta) telegramxona bino qilmoqqa amr qildilar. Va yana yo'lning sharqida Pahlavon Ota arig'ining janubida bir shifoxona-xastaxona bino qilmoqqa amr qildilar, tokim fuqaro, g'arib, yetim, beva, g'ani (*kambag'al*), faqirlar manfaat olsunlar, har nave marazi, har nave kasali bo'lsa, shifo topsunlar. Xiva hokimlari johil, nodon turur, tib ko'rmay, marazin bilmay, kasallarg'a davo qilur-

lar, deb fuqaroparvarlik qilib, hayr-ehson qilmoqqa amr qildilar. Sayyid Islomxo'ja Rahimbergan mahramlarig'a buyurdilar, tokim talabgor jam bo'lib, shifoxona binosi qurishg'a mashg'ul bo'ldilar.

Bozor narxi – g'alla ko'p qimmat erdi; bug'doy, jo'xari yigirma besh va o'ttiz tanga erdi. Bechora fuqarolar chiqib kunlik ishlar erdilar. Har kunda talabgorlarga (quruvchilar) besh non, uch tanga berur erdilar, tokim bechora fuqarolar bir nonni o'zi yeb, qolgan to'rt nonni bola-chaqalarig'a berib, ovqat kechirib, xon hazratlarimiz haqig'a duo qilur edilar. Va yana xon hazratlarimiz ko'ngliga vaqf ehson qilmak tushib, Sayyid Islomxo'jag'a buyurdilar, hazrat Pahlavon Mahmud ota arig'ining shimolida, yo'lning sharqida bir madrasa bino qildirgil, tokim ikki burjida ikki ko'k minora bo'lsin, ichida qirq hujra, olti dahmayi shohiy bo'lsin. Sayyid Islomxo'ja amrlarig'a muvofiq madrasa binosig'a mashg'ul bo'ldi...

...O'sha yili 25-mohi zulqa'dada (1912-yil 5-noyabr) po'shta telegromxonana binosi bitib, xon hazratimiz xushnud bo'lib, tamomi ulamolarg'a to'y berib, po'shtaxonani obod qilib, yurt manfaati uchun xushnud bo'ldilar.

...Hijriy 1331-bars yili 13-rabi ul-avvalda (1913-yil 20-fevral) xon hazratimiz ikkinchi marotaba Oq Podshoh tarfig'a samar etmoq uchun o'rinlariga fuqarolarining arz-dodi uchun qoziyi dor ul-quzzo (qozikalon) Muhammadsalim oxund bilan Qoziyi askar Hikmatulloh oxund, Devonbegi Husaynmuhammadboyni qo'yib, qal'a muhofazasi uchun Shayxnazarboyni qo'yib, seshanba kuni (20-fevral) safga chiqib kettilar. Ikkinchi Nikolay Oq Podshoh xizmatlarig'a borib, o'n ikki kun xizmatlarig'a turib, yana Oq Podsho ko'p mehmonbonlik qilib, ko'p hadya berib, Xivag'a qaytmoqqa ruxsat berdilar. 12-jumo-



Respublika ta'lim markazi
do ul-avvalda (1913-yil 19-aprel) qaytib kelib, saltanat taxtiga barqaror bo'ldilar.

...Mazkur yil zulqa'dada (1913-yil oktyabr) shifoxona-do'xtirxona binosi bitib erdi. Xon hazratimiz ko'p xursand bo'lib, Rusiya davlatidan Oq Podshoh Nikolayevichdan ruxsat olib, ikki erkak do'xtir, ikki nochor (*ayol kishi nazarda tutilgan*) barcha ulamo-yu sipoholarga kasalxonaga ichra to'y berib, do'xtirlarni qo'yidilar. Shul to'yg'a Toshkanddin general-gubernator G'alkin (*shu davrda Sirdaryo viloyatining gubernatori bo'lgan A. Galkin nazarda tutilmoqda*) kelib, Xiva davlati ulamolara

rining birdamlig'i, dili jamligini ko'rib, xursand bo'lib, xon hazratlariga ko'p-ko'p xushomadlar aytib, do'xtirlarg'a ham ko'p ehson-in'omlar berib, yana Toshkandg'a qaytib ketdi. Barcha kambag'allar, supaholar (oddiy askarlar) ham andak marazi (kasal) bo'lsa, do'xtirxonaga borib, shifo bo'lur edilar. Xotin jamoasining marazin xotin do'xtir qarab sihat qilar edi. Barcha faqiru fuqaro xon hazratlari va valiahd shahzoda Temurg'osi to'ramizni duo qildilar.

Hasanmurod Laffasiyning «Gulshani saodat» asaridan.

XIVA XONLIGIDA XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA MANSABLAR

1	Amir	21	To'shakchi
2	Beklarbegi	22	Bosh Mehtar
3	Otaliq	23	Yillig (Illik) boshi
4	Biy – qozoq, qoraqalpoq	24	Yuzboshi
5	Shig'ovul – elchilar boshlig'i	25	Daha (o'n) boshi
6	Chanog'oloqbegi	26	Tunqotar
7	El oqsoqoli	27	Mirshabboshi, Jallodlar boshlig'i
8	Chag'otoy inoq	28	Naqib
9	Arbob	29	Qozikalon
10	Udaychi	30	Qozi O'rda (Qozi askar)
11	Inoq	31	Qozi xoss
12	Mirobbegi	32	Devonbegi
13	Qo'shbegi	33	Mirzaboshi
14	Mehtar	34	Xazinachi
15	Vazir	35	Dorug'abegi
16	Shayx ul-Islom	36	Qurjiboshi
17	Yasovulboshi	37	Miroxur – otxonalar boshlig'i
18	Mahramlar boshlig'i	38	Sarxang qism boshlig'i
19	Karvonboshi – savdo boshlig'i	39	Sarito'p – to'pchiboshi boshlig'i
20	Parvonachi – xon oldida xizmatchi	40	Dasturxonchi

XIVA XONLIGIDAGI MADRASALAR

Pahlavon Bobo madrasasi, Arabxon madrasasi, Sherg'ozixon madrasasi, Yaqub Mehtar madrasasi, Muhammad Murod devonbegi madrasasi, Ibrohim Xo'ja madrasasi, Oллоhqulixon madrasasi, Rahimqulixon madrasasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Muhammad Rahimxon madrasasi, Mozori sharif madrasasi, To'rt Shobboz madrasasi, Nurullabek madrasasi, Sayyid Muhammad Mohi Ro'y madrasasi, Sayyid Muhammad Mohi Ro'y Kichik madrasasi, Otajon To'ra madrasasi, Muso To'ra madrasasi, Qutlug' Murod Inoq madrasasi, Abdullohxon madrasasi, Nurullahboy madrasasi, Rofinak madra-

sasi, Islomxo'ja madrasasi, Yusuf yasovulboshi madrasasi, Do'st A'lam madrasasi, Qozi Salim madrasasi, Shoh Qalandar madrasasi, Abulg'ozi Xorazmiy madrasasi, Eshmurod Mirob madrasasi, Qaro Ko'z madrasasi, Sayyid Niyoz Sholikor madrasasi, Muhammad Murodboy madrasasi, Muhammad Murod Devonbegi madrasasi, Muhammad Niyoz Devonbegi madrasasi, Muhammad Rasulboy Mirzaboshi madrasasi, Qadam yasovulboshi madrasasi, Ummat Mahram madrasasi, Abdurasulboy madrasasi, Polvon Qori madrasasi.

Abdulla Boltayevning «Xorazm tarixiga oid materiallar» kitobidan.

XORAZM MADRASALARI VA MASJIDLARI HAQIDA MA'LUMOTLAR

Xiva shahrini ichkari va tashqari qal'asining kattaligi 468 tanobdur. Har ikki yarim tanob bir gektar bo'ladi.

Ichkari qal'adagi (Ichan qal'a) masjidlar	34 ta
Tashqari qal'adagi (Dishan qal'a) masjidlar	45 ta
Jami masjidlar	79 ta

Boshqa ma'lumotlar:

Xiva shahri ichkarisi va tashqarisidagi madrasalar	62 ta
Xiva shahri ichkari qal'asidagi xo'jaliklari	909 ta
Xiva shahri tashqari qal'asidagi xo'jaliklar	4049 ta
Jami xo'jalik	4958 ta
Xiva shahri ichkari qal'asining jon hisobi	3316 ta
Xiva shahri tashqari qal'asining jon hisobi	13767 ta

Xivadagi 62 ta madrasadagi xizmatchilar hisobi:

1	Dars beruvchi oxundlar	158 nafar	Farroshlar	60 nafar
2	Imomlar	74 nafar	Quduqchilar	31 nafar
3	Muazzinlar	62 nafar	Suvchilar	43 nafar
4	Sartaroshlar	56 nafar	Mutavallilar	69 nafar

Abdulla Boltayevning «Xiva xonligi tarixiga oid materiallar» kitobidan.



XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLAR TURMUSH TARZI VA MADANIYATI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilar qoraqalpoqlarning tarixan xalq bo'lib shakllanishi, yashash tarzi va hududiy joylashuvi haqida ma'lumotga ega bo'lishadi;
- o'quvchilar qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida tushunchaga ega bo'ladilar;
- o'quvchilarning soliq va majburiyatlar, hunarmandchilik va savdo-sotiq munosabatlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarga qoraqalpoqlarning boy tarixiy madaniyati, urf-odatlar, ta'lim tizimi, xalq og'zaki ijodi, vatanparvarlik va qahramonlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan xalq dostonlari va ularning mazmuni haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarga qoraqalpoq adabiyoti va uning namoyondalari hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa). Qarang: 1-dars.

II. UY VAZIFASINI TAKRORLASH (15 daqiqa).

«Guruhlar ishi». O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi va har bir guruh bitta ustundagi tushuncha yuzasidan ma'lumot to'playdi.

Guruh	Qo'zg'olon hudulari	Qo'zg'olon sanasi	Qo'zg'olon sabablari	Qo'zg'olon oqibatlari
1	Andijon			
2	Toshkent			
3	Namangan			
4	Xo'jand va O'ratepa			

III. YANGI DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQRISH USTIDA ISHLASH

(10 daqiqa).

1-usul

«Guruhlar ishi». Bunda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi va har bir guruhga ma'lumot to'plash uchun alohida-alohida jadval beriladi. Jadvalni to'ldirishda darslik asosiy yordamchi vosita bo'lishi mumkin.

1-guruhga:


Soliq turlari	Urf-odatlar	Harbiy safarbarlik

2-guruhga:

Majburiyatlar	Qo'zg'olon sabablari	Yer solig'i

3-guruhga:

Erna-zarbiy	Qo'zg'olon markazlari	Qo'zg'olon mohiyati



2-usul

O'qituvchi o'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar tomonidan tuzib kelingan boshqotirmalar, «Marra tomon olg'a» degan usul bo'yicha savollardan tashkil topgan o'yinlarni amalga oshiradi. Sinf guruhlarga bo'linadi va mavzu bo'yicha o'quvchilar tomonidan uyda tuzib kelingan bir guruhning savollari boshqa guruhga beriladi (10 daqiqa).

Bilim cho'qqilarini zabt etish uchun marra sari olg'a!

Izoh: Aylana ichiga savol yoziladi, guruhlardan chiqqan o'quvchilar birin-ketin savolga javob beradi, javob berolmagan yo'lda qoladi, javob bergan o'quvchi marra tomon ketaveradi. Mashq savollari:

1. Sayid Muhammadxon Ernazarbiy qo'zg'olonini bostirish uchun kimni qo'shin bilan jo'natgan? (Mahammadniyozni)
2. Qo'zg'olon markazi qaysi shahar bo'lgan? (Qo'ng'iro't)
3. 1855-yilgi qo'zg'olonga kim rahbarlik qilgan? (Ernazarbiy)
4. Ernazarbiy tomonidan qurdirilgan mudofaa qo'rg'oni nomini qayd eting. (Qozoqdaryo)
5. Ernazarbiy qo'zg'olonini bostirish uchun katta qo'shin yuborgan xonni qayd eting. (Sayid Muhammadxon)
6. Ernazarbiy rahbarligidagi qo'zg'olon boshlangan yilni qayd eting. (1855-yil)

7. Ernazarbiy qaysi qabila vakili bo'lgan? (Qo'ldovli)
8. Urush boshlanishida qoraqalpoqlardan qanday soliq yig'ib olinar edi? (Qozon puli)
9. 1845–1855-yillarda hukmronlik qilgan Xiva xonini qayd eting? (Muhammad Aminxon)
10. Sayid Muhammadxon nechanchi yilda Xiva xonligi taxtiga chiqdi? (1856-yil)

3-usul

Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Amudaryo bo'limidagi qoraqalpoqlar	Xiva xonligidagi qoraqalpoqlar	Tovar-pul munosabatlari	XIX–XX asrlarda ijtimoiy hayot

V. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (12 daqiqa).

1-usul

«Guruhlar ishi». O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi va ularga topshiriqlar beriladi. Har bir guruh mavzuga doir alohida-alohida matn beriladi. O'rganilgan matn bo'yicha guruhlar o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

1-guruhga: *Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi.*

Xalq iste'dodi namoyon bo'lguvchi boy og'zaki she'riy ijodiyotning xillari ancha ko'p bo'lgan. Qoraqalpoq xalq og'za-



Respublika ijodida kulgi kahramoni bo'lgan obraz
ta'lim markazi

O'zbek laqqi orqali razillik, yomonlik, yovuzlik, xalqqa ozor beruvchilar, ya'ni salbiy illatlar hajv yo'li bilan fosh etilib, mehnatsevarlik, ezgulik, qahramonlik ulug'landi. Xalq orasida qoraqalpoq folklorining doston yo'llari mashhur edi. Epik asarlar botirlar haqida she'riy asarlar bo'lib, ularda xalq baxt-saodati va farovonligi uchun kurashgan afsonaviy botirlarning ko'pincha buyuk jasoratlari vasf etilgan. Ancha mashhur bo'lgan dostonlar orasida esa qoraqalpoqlarning ozodlik va mustaqillik uchun fidoyilarcha kurashi tasvirlangan «Qirq qiz» dostoni alohida ajralib turadi. Dostonning bosh g'oyasi – yuksak vatanparvarlik hissi va ona Vatanga, xalqqa fidoyilarcha muhabbatdir. «Qirq qiz» dostonini jahon poeziyasi durdonalaridan biri, desak mubohag'a bo'lmas.

2-guruhga: Berdaq.

Berdag (1827–1900) – shoir, qoraqalpoq adabiyotining asoschisi. Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdag yoshligida ota-onasidan yetim qolib, bir burda non uchun ovulma-ovul ish qidirishga majbur bo'lgan. Avval ovul maktabida, so'ng madrasada tahsil olgan. Uning ijodi 18–19 yoshlarida do'mbira chertib she'r aytishdan boshlangan. U tarixni va xalq og'zaki ijodini yaxshi bilgan. 25 yoshida u iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanilgan.

Uning she'rlarida mehnatkash xalqning og'ir hayoti o'z aksini topib, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Berdag ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy

mavzudir. Xususan, shoir o'zining «Xalq uchun» degan she'rida yoshlarni mehnatkash xalq uchun jonini ayamaskikka chaqiradi. Tarixiy mavzudagi «Avlodlar», «Omongeldi», «Oydo'sbiy», «Ernazarbiy» asarlarida shoir xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi. Uning «Ernazarbiy» dostonida Xiva xonligiga qarshi ko'tarilgan isyon aks ettirilgan edi. Xususan «Omongeldi» dostoni Buxoro amirligiga qarshi ko'tarilgan (XVIII asr) qo'zg'olon boshlig'i Omongeldi jasoratiga bag'ishlangan. O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda Berdag tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi (1998-yil). Toshkent shahridagi xiyobonlardan biriga Berdag nomi berildi va byusti o'rnatildi. Shoir tug'ilgan joy – Bo'zatovda ham byusti o'rnatilgan (1998-yil). Nukus shahrida Berdaqga haykal qo'yilgan, musiqali drama teatri, ko'cha va maktabga Berdag nomi berilgan.

Shundan so'ng, o'qituvchi ishtirokida vatmanga chizilgan quyidagi jadval to'ldiriladi.

t/r	Adibning nomi	Asarlari	Asarlardagi g'oyalar
1			
2			

2-usul

O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar tomonidan uylarida tayyorlab kelingan turli savollar o'yini o'ynaladi.

1	2	3	4
5	6	7	8
9	10	11	Rag'bat



Izoh: Guruhlardan o'quvchilar galmagal chiqib strelkani aylantiradi va savollarni tanlab oladi. Guruhdan chiqqan o'quvchi javob berolmasa, guruhdoshlari yordamlashadi. Mashq savollari:

- 1868-yilgi Rossiya gazetasida qoraqalpoqlarning qaysi mashg'uloti haqida yoziladi? (Dehqonchilik)
- Amudaryo bo'limi nechanchi yilda tashkil etilgan edi? (1873-yil)
- Amudaryo bo'limi qaysi viloyat tarkibida bo'lgan? (Sirdaryo viloyati)
- 1870-yillarning boshlariga kelib qoraqalpoqlar hayoti qanday o'zgardi? (O'troq turmush kechira boshladilar)
- Amudaryo bo'limida qoraqalpoqlar soni qancha bo'lgan? (70 ming)
- Qoraqalpoq yerlariga Rossiyadan ko'chib keltirilganlar qancha kishiga yetgan? (1000)
- Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganda Xiva xonligida qancha qoraqalpoq qoldi? (25 ming)
- XIX asr ikkinchi yarmida qoraqalpoqlarning ma'muriy markazi qaysi shahar edi? (Chimboy)
- Ko'chirib keltirilgan rus aholisi asosan qanday mashg'ulot bilan shug'ullangan? (Baliqchilik)

- Xonlar tomonidan qoraqalpoq biylarini tasdiqlovchi yorliqlar nima deb atalgan? (EI)
- «Qoraqalpoq ulusi» qaysi xon davrida tashkil qilingan? (Muhammad Rahimxon I)

3-usul

Insert jadvalini «B.B.B» usulida to'ldirish:

V	+	?
1	2	5

«Insert usuli» raqamlar qo'yib belgilar asosida o'qitish. Masalan:

- | | |
|----------------------------------|---|
| 1. O'mirbek laqqi | V |
| 2. «Qirg'iz» dostonining mazmuni | + |
| 3. Berdaq faoliyati | V |
| 4. Ajiniyozning taxallusi | + |
| 5. O'mirbek laqqi hajviyalari | ? |
| 6. Tarixiy asarlar haqida | ? |

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (4 daqiqa).

Mavzuga doir asosiy tushunchalarni o'quvchi daftariga yozdirish. O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish. Baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA (2 daqiqa):

- Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash;
- Mustaqil ish. Bunda darslikdan tashqari manbalardan ham foydalanish mumkin.

Yashagan hududi	Soliq va majburiyatlari	Qo'zg'olonlar	Ma'naviy madaniyati



TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilar Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, jadidchilik g'oyalarining paydo bo'lishi haqida bilib oladilar;
- jadidlar, ularning dasturiy maqsadi va vazifalari haqida tushunchaga ega bo'ladilar;
- Ismoil Gaspiralining Turkiston jadidlari faoliyatiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot oladilar;
- milliy taraqqiyparvarlik harakati hududiy xususiyatlari va ajdodlarimiz merosini o'rganishga bo'lgan munosabatlarini yanada rivojlantiradilar.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

II. UY VAZIFASINI TAKRORLASH.

O'quvchilar guruhlariga bo'linib, ularga quyidagi savol va topshiriqlar beriladi (15-daqiqa):

1-guruhga: Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida gapirib bering.

2-guruhga: Qoraqalpoqlarning xalq og'zaki ijodi haqida nimalarni bilasiz?

3-guruhga: Qoraqalpoqlar XIX asrda qaysi hududlarda yashagan?

4-guruhga: Qoraqalpoq adabiyoti haqida gapirib bering.

O'quvchilar ularga 2 daqiqa tayyorgarlikdan keyin javob beradilar.

III. DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQRISH USTIDA ISHLASH

(12 daqiqa).

1-usul

O'qituvchi yangi mavzu yuzasidan «Kichik ma'ruza» qiladi.

1. O'qituvchining qisqa ma'ruzasi. Bunda jadidlarning g'oyalari va mafku-

ralari, jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati sodda va ravon tilda o'quvchilarga tushuntiriladi.

2. Oquvchilarga mavzu bilan tanishib, o'zlariga notanish bo'lgan yangi tushunchalarni daftarlariga qayd etishlari uchun 7 daqiqa vaqt beriladi.

3. O'qituvchi o'quvchilarga «O'zingizni sinang» rukni ostida berilgan tushuncha va ismlarni aytib murojaat qiladi va ulardan javob oladi, shundan so'ng mavzuni umumlashtirib beradi.

2-usul

Darsning bu bosqichida quyidagi test topshiriqlari bajariladi (bunda 4 ta ochiq va 2 ta yopiq test beriladi).

1. *Ismoil Gaspirali nechanchi yillarda yashagan?*

- A) 1845–1909-yillar B) 1851–1914-yillar *
C) 1829–1901-yillar D) 1856–1918-yillar

2. *Turkistonda ikkinchi jadid maktabi qaysi shaharda ochilgan?*

- A) Qo'qon * B) Andijon
C) Toshkent D) Samarqand

3. *«Usuli savtiya» birikmasining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?*

- A) yangi usul
B) birgalikdagi ta'lim
C) harf tovushi usuli *
D) yozib o'rgatish usuli

4. *Ismoil Gaspirali 40 kunda nechta o'quvchining savodini chiqargan?*

- A) 4 ta B) 28 ta C) 19 ta D) 12 ta *

5. *1884-yilda qaysi shaharda birinchi jadid maktabi ochildi?*

J: _____

(Boqcharoyda)

6. *«Muzaffariya» jadid maktabi kimning tashabbusi bilan tashkil qilingan?*

J: _____ (Ismoil Gaspirali)

IV. O'NILGAN MAVZUNI MUSTAH- KAMLASH (10 daqiqa).

1-usul

1. «Hamma bir-biriga o'rgatadi» mashqi. Sinf o'quvchilari 5-6 kishilik kichik guruhlariga bo'linadilar. Guruhlarga bugun o'nilgan mavzu matnidan bir parcha beriladi. Guruhlar matnni o'qib o'rganadilar va har guruhdan yana bittadan yangi guruh tuziladi. Yangi guruhda galma-galdan har bir o'quvchi avvalgi guruhda o'rganagan matnni gapirib beradi.

2. O'qituvchi mavzuga oid savollar yoki tushunchalar bilan sinfga murojaat qilib, o'quvchilarning bugungi darsdan olgan taassurotlarini bilib oladi.

2-usul

«Kim tez topadi?» aqliy mashqi. O'qituvchi tomonidan yangi dars mavzusiga doir savollar o'qiladi, o'quvchilar tezlik bilan javob berishlari lozim.

1. «Usuli qadim» nima? (Eski usuldagi, an'anaviy maktablar)
2. Jadid maktablariga dastlab qaysi mamlakatlar darsliklari qo'llanma sifatida foydalanilgan? (Orenburg, Qozon)
3. Jadidchilik harakatining markazlari qaysi shaharlar? (Toshkent,

Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xiva)

4. 1911-yil Turkistonda qancha jadid maktabi bor edi? (63 ta)
5. 1910-yil Toshkentning o'zida qancha jadid maktabi bo'lgan? (24 ta)
6. 1917-yilga kelib Turkiston o'lkasida qancha jadid maktabi bor edi? (100 ga yaqin)
7. Jadidlar faoliyat olib borgan dastlabki soha qaysi edi? (Ma'rifat ulashish)
8. Jadidlar qobiliyati yuqori o'quvchilarga qanday imtiyoz bergan? (Chet elga yuborish)

V. DARS YAKUNLARINI CHIQRARISH

Mavzuga doir asosiy tushunchalarni o'quvchi daftariga yozdirish. O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish. Baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA:

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.
2. Yangi mavzu matni bilan tanishib kelish.
3. Qo'shimcha manbalarga asoslanib, jadidchilar haqida ma'lumot to'plash.






QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

Ismoilbek Gaspirali (1851-yil 21-mart, Boqchasaroy yaqinidagi Ajiko'y qishlog'i – 1914-yil 11-sentyabr, Boqchasaroy) – taniqli qrim-tatar ma'rifatparvari, turkiy xalqlar orasida jadidchilik harakatining asoschisi, yozuvchi va publitsist. Jadidlar harakatiga salmoqli g'oyaviy ta'sir o'tkazgan.

Gaspirali qishloq musulmon maktabi, Oqmachit (hozir Semfiropol) gimnaziyasi va Voronejda Moskva kadetlik korpusida o'qidi (1864–67). Qrimga qaytgach, rus tili o'qituvchisi bo'lib ishladi (1867–70). Istanbul va Sorbonna (Parij) universitetlarida o'qidi (1871–75). Jazoir, Tunis, Misr, Gretsiyada bo'ldi. Parijda fransuz sotsialistlari va liberallari bilan yaqinlashdi. Turkiyada yosh turklar rahbarlari bilan tanishdi (1875–77). Boqchasaroy shahri meri qilib saylandi (1877).

Gaspirali turkiy xalqlar tarixi va adabiyotini o'rganib, Sharq bilan G'arb olamini taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ldi. Gaspirali «Rusiya musulmonligi» (Simferopol, 1881) ilk risolasida Yevropa sivilizatsiyasidan ko'r-ko'rona andoza olishga qarshi chiqib, uni tanqidiy qabul qilishga, musulmonlarni ilm-fanni egallashga, texnika yutuqlaridan foydalanishga da'vat etdi. «Ovropa madaniyatiga bir nazar muvonizi» (Istanbul, 1885) asarida esa sotsializm g'oyalari bilan bahsga kirishib, uni asosiy tamoyillarini shubha ostiga oldi.

Gaspirali Rossiya mustamlakasidagi barcha musulmon maorifini tubdan is-



loh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor berdi. Boqchasaroyda dastlabki «Usuli jadid» (Yangi usul) maktabini ochdi (1884). Turkiston general-gubernatori N.O. Ruzenbaxga musulmon maktablarini isloh qilishga doir loyahasini yubordi. Rad javobini olgach, 1893-yilda Turkistonga o'zi keldi, Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan

uchrashuvlar o'tkazdi. Gaspirali jadidchilik g'oyalarini kengroq yoyish uchun «Tarjimon» (1883-yil 10-apreldan) «Millat» (1908), «Bolalar olami» (1908–15), «Uyg'onish» (Qohira, 1908, arab tilida) gazetalari, «Ayollar olami» jurnali (1908–10), «Ha-ha-ha!» hajviy haftanomasini chiqardi. Uning «Tarjimon» gazetasi Turkistonda ming nusxada tarqalar edi. Jadid maktablari uchun «Xo'jayi sibyon» («Bolalar muallimi») darsligini, «Rahbari muallimin» yoki «Muallimlarga yo'ldosh» (1888) kitobini yozdi.

Gaspirali musulmon milliy ozodlik harakatining yo'l boshchisi sifatida tanildi. U Kavkaz, Volgabo'yi, Misr va Hindistonga borib, umummusulmonlar qurultoyini chaqirishga harakat qildi. Butun Rossiya musulmonlari 3 ta kongressi ishida faol qatnashdi (1905–06). Dastlabki umummusulmon siyosiy partiyasi «Ittifoq ul-muslimin»ni tuzish tashabbuskorlaridan biri bo'ldi (1906). «Dor ul-rohat musulmonlari» ilmiy-fantastik asari, «Yuz yildan so'ng. 2000-sana» badiiy-publitsistik romani, «Turkiston ulamosi» kitobining muallifi.

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARI VA ULARNING FAOLIYATI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarni jadidlar, ularning shaxsiy faoliyati, hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati bilan tanishtirish;
- jadid allomalari tomonidan amalga oshirilgan ishlar va yaratilgan asarlar orqali o'quvchilarni ma'rifiy dunyosini boyitish, ajdodlardan g'ururlanish hisini kuchaytirish;
- o'quvchilarda jadidlar mafkurasining Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy va ma'daniy hayotiga ta'sirini tahlil qila olish ko'nikmasini rivojlantiradilar.

I. TASHKILY QISM (2 daqiqa).

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKROR-LASH (12 daqiqa).

Darsning bu bosqichida quyidagi test topshiriqlari bajariladi.

1. 1910-yil Toshkentda ...jadid maktabi faoliyat ko'rsatib, ularda ...o'quvchi o'qigan.

- A) 63 ta, 4106 ta B) 24 ta, 1740 ta *
C) 83 ta, 2430 ta D) 61 ta, 4102 ta

2. 1911-yilda O'rta Osiyoda yangi usuldagi maktablar soni ...ga, undagi o'quvchilarning soni ...ga yetdi.

- A) 63 ta, 4106 ta* B) 24 ta, 1740 ta
C) 83 ta, 2430 ta D) 61 ta, 4102 ta

3. Dastlabki paytlarda Turkistondagi yangi usul maktablarining ko'pchiligida qayerda nashr qilingan qo'llanmalardan foydalanilgan?

- A) Angliya va Germaniya
B) Turkiya va Eron
C) Xitoy va Hindiston
D) Qozon va Orenburg*

4. O'rta Osiyo taraqqiyparvarlari rivojlangan davlat tashkil etish vazifasini amalga oshirishda quyidagi qaysi yo'nalishlar ustuvor bo'lib hisoblanadi?

1) o'lkada yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; 2) qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish; 3) turli ma'rifiy jamiyatlar, teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish; 4) xalqni mustamlakachilarga qarshi targ'ib qilish yo'li bilan mustaqil demokratik davlat tuzish; 5) harbiy-siyosiy tashkilotlar tuzish va u orqali mustaqillikka erishish; 6) xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini oshirish yo'li bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

- A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 5, 6
C) 1, 2, 3, 6* D) 1, 5, 6

5. Turkistondagi yangi usul maktablari ta'lim jarayonida qanday standart mezon qilib olingan edi?

- A) Turkiya standartlari
B) Yevropa standartlari*
C) Amerika standartlari
D) Sharqiy Osiyo standartlari

6. Jadidlar xotin-qizlar ta'limi masalasida qanday fikrda bo'lgan?

1) alohida ayollar maktabini tashkil qilish; 2) islom istagan ayolning ma'rifatli bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi, deb hisoblagan; 3) jadidlar o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitishni yoqladilar; 4) jadidlar qizlar uchun faqat diniy bilimlar o'rgatilishini yoqlab chiqdilar.

- A) 1, 4 B) 2, 3*
C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 4



III. DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQARISH USTIDA ISHLASH

(14 daqiqa).

1-usul

O'qituvchi kichik ma'ruzadan keyin o'quvchilarga darslik matnidan foydalanган holda quyidagi jadvalni to'ldirishni topshiradi. Bunda jadval har bir o'quvchiga kartochka shaklida tarqatiladi va o'quvchilar vazifani bajarib bo'lgach, har bir o'quvchi o'z sherigining ishini almashgan holda tekshiradi.

Jadvalni + belgini qo'ygan holda to'ldirish lozim (o'qituvchi to'g'ri javob yozilgan vatmanni doskaga ilib qo'yishi kerak).

	Behbudiy	Munavvarqori	A. Avloniy	M. Mirmo'minboyev
1. «Shuhrat» gazetasini tashkil etgan			+	
2. 1875-yil tug'ilgan	+			
3. «O'rta Osiyo jadidlarning otasi»	+			
4. Andijonlik sarmoyador, jadid g'oyalari tarafdori				+
5. 1904-yildan ijtimoiy-siyosiy faoliyat boshladi		+		
6. «Birinci muallim» darsligini yozdi		+		
7. «Turkiy guliston yoxud axloq» asarini yozdi			+	
8. Toshkent jadidlari faoli			+	
9. «Yer yuzi» darsligi muallifi		+		
10. Jadid maktablariga pul ajratgan sarmoyador				+
11. Samarqandda tug'ilgan	+			
12. 1931-yil vafot etgan		+		

2-usul

Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartochkalar yordamida amalga oshiriladi.

1-kartochka: Turkistonda milliy g'oya yaratish tashabbuskorlari kimlar bo'lgan?

2-kartochka: Jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri nima edi?

3-kartochka: Yevropaning ko'zga ko'ringan qanday ma'rifatparvarlarini bilasiz?

4-kartochka: Teatr ularning ko'pchiligi uchun qanday maktab bo'ldi?


5-kartochka: Jadidlar adabiyotining birinchi pyesasi kim tomonidan yozilgan edi?

6-kartochka: Jadid allomalarining rasmlariga qarab, ularning kimligi va faoliyati haqida matn tuzing.

IV. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (11 daqiqa).

1-usul

Guruhlarda ishlash. Ikki guruhga bo'lingan holda mashg'ulot o'tkaziladi. 1-guruh «Klaster» usuli asosida keltirilgan jadidlarga tegishli beshtadan ma'lumot yozadi.



Ikkinchi guruh jadid allomalarining faoliyat ko'rsatgan hududiga qarab tegishli jadvalni to'ldiradi.

Hududi	Toshkent	Buxoro	Xiva	Samarqand	Farg'ona
Shaxs nomi					

2-usul

O'qituvchi yangi mavzu yuzasidan «Kichik ma'ruza» qiladi (4 daqiqa).

1-bosqich: Guruhlarga bo'linadilar. Guruhlarga mavzu bo'yicha hikoya tuzish beriladi (15 daqiqa).

2-bosqich: Taqdimot (5 daqiqa).

3-bosqich: Muhokama (5 daqiqa).

O'zingizda nimalarni his etdingiz?

Jadidlar o'zbek xalqi uchun qanday ishlarni amalga oshirgan ekanlar?

Turkistonda jadidlarning qanday gazeta va jurnallari nashr etila boshladi?

Ma'rifatparvarlar nima uchun siyosiy harakatni amalga oshira boshladi?

Jadidlar nimalarga birinchi darajada ahamiyat berishardi?

Milliy-ozodlik harakatining rivojlanishiga qanday voqea katta ta'sir o'tkazdi?

Jadidlarning islom tarixiga oid asarlar yozishiga undagan omillar nima edi?

Hikoya tuzishda qiynalmadingizmi?

Izoh: O'qituvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlab, ularni mantiqiy fikrlashga chorlashga chaqiradi. Faol harakat qilishlariga undab turadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ma'rifatparvar ajdodlarimiz nomlari abadiylashtirilganliklari haqida qo'shimcha ma'lumot beradi.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQRARISH

1. Mavzuga doir asosiy tushunchalarni o'quvchi daftariga yozdirish.
2. O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish.
3. Baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.
2. Yozuvsiz xarita bilan ishlash.
3. Taraqqiyparvarlarning yoshlar ta'lim olishiga qo'shgan ulkan hissasi haqida kichik matn tuzing.

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT**TARIXIY HUJJAT****JADIDLAR HAQIDA TINGLANG**

1320-hijriy qoplon yilida (1903-yil) men Boysun viloyati hokimi lavozimiga ko'tarildim. O'shanda menga xabar qilishdiki, Buxoroyi Sharifda jadid maktablari ochilgan deya. Mulla G'iyosiddin oxun, Mulla Abduroziq muftiy ularni yoptirish harakatini qilib, bunda muvaffaq bo'lishdi. Vaziratpanoh Ostanaqul qo'shbegi va boshqa muftiylar ularning zararsizligi xususida hisobsiz mulohazalar olib bordilar. Ta'kid etilgan oxun va muftiy Mulla

Abduroziq Ho'qandiy o'z fikrlarida turib olib, ularni yopilishiga intilib, deyishardi: «Qancha yillardan beri barcha odatiy, eski maktablarda o'qib, savod chiqarishdi. Jadid maktabi yanada kengroq quloch yoyib, ko'proq fitna va isyonlar o'ylab topilishi sababchisiga aylanadi». Shu ikki kishidan boshqa barcha: «Jadid maktabi zararsiz. Agarda eski maktablarda bolalar 10-12 yil shug'ullanishgan bo'lsa, jadid maktabida esa, tezroq sa-



...Amir Sayyid Abdulahadxon a'lo hazratlarining so'nggi kunlarigacha jadid maktablari taqiq ostida bo'lib, maxfiy va yashirin faoliyat yuritardi. ...Buxoroda vazirlik Mirzo Nasrullo qo'liga o'tgach, u bosqichma-bosqich, sezilarsiz ravishda jadid maktablari rivojiga o'z kuchini sarf etib bordi. ...Rossiyadan bug'doy va gugurt keltirishadi degan bahona bilan 100-200 million so'mni xazinadan ajratdi va jadidlar faoliyatini kengaytirishga urindi. U ...ning ishlarini hech kim sezmedi. ...Sirasini aytganda, bolsheviklar bilan urush tugab, bitim tuzilgach (*1918-yilgi Qiziltepa bitimi*), ichki dushman – jadidlarga urush ochishdi. Jadidlarni ko'chalarda, savdo rastalarida va o'z xonadonlarida tutib, oliy Arkka keltirishardi va hech qanday so'roqsiz o'ldirishardi. 23 kun davomida jadidlar quvg'ini uyushtirishdi. Ularning hovlilari, yerlari, mulklari va boyliklarini davlat foydasiga musodara qilishdi. Shunday holatlar bo'ldiki, kishi boshqa bir kishi uchun o'rtaga tushib, uning jadid emasligini isbot etish imkoni bo'lmagan vaqtlar yuz berdi. Qon to'kish avjiga chiqdi. ...Ammo a'lo hazratlari bularning barchasidan bexabar edi. Bularning bari Imomqulibek biy dodxoh, xudoychi, qalmoqning va Xo'ja Latif to'qsoba, devonbegi, yuqori lashkarboshining ishlari edi. U va xudoychidan boshqa hech kim a'lo hazratlari huzuriga kirish huquqiga ega emasdi. ...Xo'ja Latif, Imomqulibek dodxoh bir necha millionlik jadid va jadid bo'lmaganlarning boyliklari va mulklarini kuch bilan tortib olishdi. Ular shunday ajoyib hovlilarning egalari bo'lishdiki, ularning ayrimlariga 400-500 ming so'mga xaridorlar chiqdi.

3-4 yil o'tib yangi uslubda o'quvchilar ozodlikka yuz tutdi. Bolalar juda tez savod chiqarishdi. Eskicha maktablar e'tibordan qoldirildi. Mullalar, harbiylar, savdogarlar, rasta egalari o'z o'g'illarini yangi maktablarga bera boshladi.

*Mirzo Salimbekning
«Tarixi Salimiy» asaridan.*

ISMOIL GASPIRALINING TURKISTON GENERAL- GUBERNATORIGA MAKTUBI

Musulmonlarning rus tilini o'rganishga ishtiyoqining sustligini, odatda, ulardagi mutaassiblik va begonalikda, deb tushuntirilsa-da, aslida buning boshqa jiddiy sabablari bor, deb o'ylayman.

Madrasalarda bir necha yil mobaynida rus tili o'qituvchisi sifatida ishlab va undan so'ng musulmonlar orasida yashab yurgan chog'larimda ularga rus tilini o'rganish to'g'risida tez-tez gapirib turar edim. Ulardan hech qachon buni o'rganishga qarshi biror nima eshitmaganman. Biroq menga doim shunday der edilar: «U bilan mashg'ul bo'lishga vaqt yo'q, chunki bolalarning shariatga muvofiq diniy ta'limot va arabcha savod chiqarishga vaqti yetmayapti; rus maktabi yoki sinfiga boradigan bo'lsa, o'zining diniy ta'limotini o'rganishdan yana orqada qoladi». Bu motiv bir qarashda qanchalik qaltis ko'rinmasin, o'zining jiddiy hayotiy zaminiga egadir. Negaki, musulmonlar uchun diniy ta'lim majburiy, shuning uchun bolalarining ko'pchiligi, xoh o'g'il, xoh qiz bola bo'lsin, ba'zan umumiy, ba'zan yakka tarkibdagi o'qishga boradilar. O'z farzandlarini maktabga yubormaydigan musulmonlar juda kam, shu bois, birorta maktabi bo'lmagan qishloq yoki mahallani topish amri mahol...

Bolalar 7-8 yoshda maktabga kirgach, arabcha qiroatni (Qur'oni karim va namozni), turkcha (shariat qoidalari va ilohiyotini) o'qishni, yozuv va ba'zan arifmetikaning boshlang'ich amallarini o'rganadilar. Bu mohiyatan hech nimaga arzimas kurs maktab darslari va o'rtamiyona pedagogik usulning yo'qligi sababli o'qish 4-5 yilga cho'ziladi. Shunday qilib, 13-14 yoshli o'smir o'g'il bolalar

maktabni bitirishlari bilanoq ularni otalari o'zlariga yordamchi qilib ishga oladilar. Qizlar esa kelinchaklar qatoriga o'tadilar. Maktab yoshiga yetmagan hamda maktabni tugatgan musulmon bolalarining o'z ijtimoiy sharoitiga ko'ra faqatgina rus tilini o'rganish u yoqda tursin, tor diniy ta'limdan boshqa biror narsa bilan shug'ullanishga imkoniyat yo'q.

Maktab o'quvchilarining bir qismi, taxminan, 4-5 foizigina musulmon oliy o'quv yurti madrasalarda o'qishni davom ettiradilar. Ular bu yerda arab tili, aqid, huquq, mantiq, arifmetika, axloq, turk, arab xattotligini, ba'zi bir madrasalarda esa yana falsafani, musulmon dunyoqarashi bilan bog'liq hamda arablarning Arastu falsafasi tahlidi bilan tanishadilar. Madrasada o'qish muddati 10 yildan 20 yilgacha cho'ziladi. Imtihonlar o'tkazilmaydi. O'qish yiliga 5-6 oygina davom etadi. O'quvchilar bu yerlarda yashadilar, ularga xalfa rahbarlik qiladi. Ular o'zlariga o'zlari ovqat tayyorlaydilar, non yopadilar va hokazo... Katta talabalar kichiklarini o'qitib, o'zlari esa mudarrislardan butun kursni o'rganadilar.

Bu madrasalarda rus tilini o'rganishning imkoniyati juda ham oz, chunki talabalar saboqni samarasiz yodlashdan tashqari, yana xo'jalik ishlari bilan ham shug'ullanadilar. O'quvchilarning rus sinflaridan bo'yin tovlashi va otalarining esa ularga monelik qilayotganligining sababi diniy ta'limni o'rganib olishga vaqti yetmay qolishdan cho'chiyotganligiga ishonchim komil bo'lgani uchun men shunday xulosaga keldim: agar ular belgilangan 4-6 yillik muddat davomida maktabda diniy ta'limni hech qanday



«Siqsiz to'la o'zlashtirib olsalar, musulmonlardan hech kim bolalarning rus tilini o'rganishiga qarshilik qilmas edi. Shunday qilib, rus tilini musulmonlar orasida joriy qilish masalasi maktabda o'qitishni soddalashtirish yoki boshqacha aytganda, oson yo'lga solishga borib taqaladi. Bu ish bilan yaqindan tanishish natijasida ma'lum maktab tartiblari amalga oshirilsa, xo'jalar, ya'ni o'qituvchilar faqat o'qish va yozish uchun qo'llanmalar tuzib bersalar, butun olti yillik maktab bilimni ikki yilda o'rganish mumkinligi ma'lum bo'ldi. Shu yo'l bilan tejab qolingan 3-4 yilni musulmonlar turmush sharoitini, maktabini buzmaganda holda maktablarda rus tilini o'qitishga bag'ishlash mumkin. Har qanday musulmondan, sening bolang maktabda 5 yil o'qiydi, sen uning boshqa maktabda 2-3 yilda yanada bilimli bo'lishidan tashqari qo'shimcha ravishda rus tilini ham o'rganib olishini xohlaysanmi, deb so'rasang, u, albatta, bundan xursand bo'ladi, biroq bunday maktabni qayerdan olish mumkin?»

Men bu masalani o'rganib chiqib, 1884-yili Boqchasaroyda bir maktab ochib, uni yangi usuldagi maktab, deb nomladim. Musulmonlar avval bu maktabga ishonqiramay qaradi, ammo birinchi ommaviy ochiq imtihondan keyin o'quvchilarning soni birdaniga 9 dan 30 taga yetdi. Buning ustiga o'quvchilar xo'ja (o'qituvchi)ga har oyiga oldingi eski maktabdagi 15–20 tiyin o'rniga, endi bir so'mdan to'laydigan bo'ldi. Rus maktabiga taqlid qilib, ulardan olingan tartib qoidalar va o'qitishda usuli savtiya qo'llanilishi tufayli mening rahbarligimda xo'ja bolalarga olti oyda turkcha (qrimcha) va arabcha o'qishni, turkcha yozishni va boshlang'ich diniy qoidalarni o'rgatishga muvaffaq bo'lindi.

Shunday qilib, bolalar bir yarim yilda odatdagidan ko'ra butun maktab kursini juda keng va asosli ravishda o'zlashtirib oladi. Bundan keyin o'qituvchilar uchun pedagogik qo'llanmalari bo'lgan yangi maktab darsligini nashr etish bilan shunga erishdimki, hozir har xil joyda 30 ga yaqin yangi usul maktablari mavjud, mening «Xo'jayi sibiyan» (Bolalar muallimi) deb nomlangan qo'llanmam 4 ming nusxada tez tarqalib ketdi.

Men to'plangan tajribalarim natijasida maktabdagi tartib-qoidalar va o'qitish usuli osonlashtirilsagina, rus tilini o'qitish muvaffaqiyatli borishi va maktab vaqti tejalishi mumkin, degan xulosaga keldim.

Buning uchun o'qitishning yangi usuli va jadid maktablari ommalashtirilmog'i lozim, keyinchalik ularda arab, turk, rus tillarini birgina eng yaxshi xo'ja yoki mullaning o'zi o'qitishi mumkin bo'ladi. Men buning uchun «guberniyada oliy madrasalar» soni yetarli darajada bo'lmog'i kerak deb o'ylayman. Ularga o'qishga kirgan shogirdlar o'zlarini mahalla masjidlarida xizmat qilishlari hamda xo'jalikka (o'qituvchilikka) tayyorlagan bo'lur edilar.

Mavjud madrasalardan ba'zi biri «oliy» darajada qayta qurilib, isloh qilinsa, talabalarga harbiy majburiyat bo'yicha imtiyoz berilib, diniy boshqarma qoshidagi imtihonlardan ozod qilinsa, ular ham diniy, ham pedagogik xizmat qilish huquqiga ega bo'lur edi. Rus tili, rus qonunshunosligi va pedagogikasini asosli ravishda o'rganish «oliy madrasa» kursining maqsad va asosi bo'lmog'i lozim. Ularni vaqf, vaqflar bo'lmagan joylarda esa jamoat yoki davlat mablag'i hisobiga boqish mumkin. O'quvchilar mulla yoki xo'jalikka nomzod bo'lganlar guberniya o'quv yurtlari direksiyasi va musulmoncha va ruscha o'qishni tashkil

qilishlari mumkin bo'lgan edi. Hech bir otana o'z bolasining mulla yoki xo'ja rus tilini o'rgatsa qarshilik qilmaydi, ana shundan so'ng hech nimaga ishonmaydigan kishilarda ham Islom dinining buzilmasligiga zarracha shubha qolmas edi. Davlat tili esa oqsuyakli, o'qituvchilar instituti va maktab tarbiyachilari, unchalik ko'p bo'lmagan o'qituvchilar vositasida emas, balki bevosita musulmonlar orasida juda keng miqyosda tarqalgan bo'lgan edi.

Bu o'rinda vaqfga boy Boqchasaroy shahridagi «Zanjirli» madrasasi o'rnak bo'la oladi. U sobiq muvaqqat Odessa general-gubernatori janob X.X.Rookning yordami bilan butunlay qayta ta'mirlandi. Mudarrislar xohishi va ishtirokida o'qituvchilar yotoqxonasi va o'qitish tartibi hamda maktab intizomi mutlaqo yangi yo'lga solindi. Shu bilan birga, rus imlosi (mudarris tashabbusi bilan) majburiy fan sifatida dasturga kiritildi.

Garchand bu o'zgarish mahalliy musulmonlar orasida ko'pgina mish-mishlarga sabab bo'lib muattarizlar ko'rsatsa-da, lekin barcha ishlar mudarris tomonidan amalga oshirilayotganini ko'rgan jamoat asta-sekin tinchlanib, ya'ni o'qituvchilarning odobi, tarbiyasi hamda muvaffaqiyatiga kafolat beradi. To'rt-besh yildan

keyin bu madrasani birinchi bo'lib tugatgan va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan mullalarga masjidlarda xizmat qilish hamda bolalar maktabini ochish imkoniyatini berish mo'ljallanmoqda. Shu bilan birga, o'z maktablarida rus tilidan dars berganlari uchun uncha katta bo'lmagan yiliga 100 so'm hajmda nafaqa va o'quv yordami beriladi.

Men ana shunday yo'l bilan musulmon diniy maktablarida o'qitishni sodalashtirish va yaxshilay boshlanishni nazarda tutmoqdaman. Ularning o'quv tizimiga rus xat-savodini begona sirdan tiqishtirilgan narsa sifatida emas, balki maktab xususiyatiga va ta'lim-tarbiya uchun xos narsa ekanligini nazarda tutmoqdaman. Shubhasiz, shogirdlar rus tilini madrasada bo'lajak o'qituvchilariga loyiq tarzda o'zlashtira olmaydilar. Ular o'qituvchilar seminariyasi toliblari darajasida tayyorgarlikka ega bo'lmaydilar. Shunga qaramay, men davlat tilini mul-lalar orqali ommaviylashtirilishi bilangi-na qanoatlanmoq lozim, deb o'ylayman. Bu taklifning qanchalik asosga egaligini yaqin kelajakda qo'lga kiritiladigan tajriba ko'rsatadi.

*O'zbekiston Markaziy Davlat arxivi
I-47. 1-ro'yxat, 361-yig'ma jild.*

UBAYDULLA ASADULLAXO'JA O'G'LINING 1909-YIL 29-MAYDA RUS YOZUVCHISI L.N.TOLSTOYGA YO'LLAGAN MAKTUBI

Hurmatli Lev Nikolayevich!

Men sizni bezovta qilishni xohlama-sam-da, ushbu maktubim orqali o'zim uchun shubhali tuyulgan «yovuzlikka yovuzlik qilmaslik» haqidagi savolga javob olish uchun murojaat qilishga jazm etdim. «Yovuzlikka yovuzlik qilmaslik» haqidagi gap so'zsiz haqiqat ekanligini e'tirof et-sam-da, quyida keltirilayotgan voqeadan

keyin qanday harakat qilish lozimligini bilmayman. «Yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslik» nafaqat men amal qiladigan Islom dini va dunyoqarashiga, balki Injil va Tavrot talablariga ham to'liq mos keladi. Menimcha, «yovuzlikka yovuzlik qilmaslik»ning asosida «agar biror kishi qandaydir yovuzlik qilsa, bu bilan bitta yovuzlik sodir etiladi, agar men o'sha yo-



Yovuzlikka qarshilik qilsam va qasos olsam, tabiiyki, buning oqibatida bitta yovuzlik o'rniga ikkita yovuzlik sodir etilgan bo'ladidi. Agar men qarshilik qilmasam, bitta yovuzlik ko'paymaydi, bittaligicha qoladi», degan haqiqat yotadi. Shunday qilib, qarshilik qilmaslik va boshqa yo'llar bilan yovuzlikni iloji boricha kamaytirish kerak degan xulosa chiqadi. Faraz qilaylikki, men qandaydir bir kishining butun bir uyni, shaharni yoqib yuborish, yoki poyezd yo'paroxodni halokatga uchratib, so'zsiz o'nlab-yuzlab va minglab kishilarning halok bo'lishiga olib kelishi kerak bo'lgan katta yovuzlik qilmoqchiligidan xabardorman. Insoniylik nuqtayi nazaridan qaraganda, men tayyorlanayotgan yovuzlikdan ogohlantiruvchi choralari ko'rishim lozim. Ammo buning uchun mening balki o'sha yovuzlik qilmoqchi bo'lgan kishini o'zining qabih niyatini amalga oshirmasdan, yo'q qilmasdan boshqa choram bo'lmas. Mening u yovuzni yo'qotish bi-

lan qilgan yovuzligim o'nlab, yuzlab va minglab kishining qutqarilishi tufayli oldi olingan juda katta yovuzlik oldida hech narsa emas. Men o'zimning harakatimni yovuzlik emas, undan ham katta yovuzlikning oldini olishning yagona yo'li degan bo'lar edim.

Mening fikrim shunday, ammo uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilmayman, shuning uchun ham sizga uzoq ikkilanishlardan so'ng, tushuntirib berishingizni so'rab, murojaat qilishga jazm etdim. Agar meni juda qiziqtirgan savolga o'zingizning sharhingizni ravo ko'rsangiz, abadul-abad Sizdan minnatdor bo'lar edim.

Mening turar joyim: Saratov shahri, Yurenkov passaj-uyi, huquqshunoslik bo'limi, Xo'jayev Ubaydullo Asadullayevichga deganda, Sizga sidqi dildan sodiq musulmon.

*U.A.Xo'jayev, 1909-yil
28-may, Saratov shahri.*

L.N.TOLSTOYNING JAVOB MAKTUBI

Yasnaya Polyana, 1909-yil 5-iyun.

Ubaydulla Asadullayevich!

Siz mendan so'rabsizki, bir kimsaning ko'p odamlarga yovuzlik qilish niyati ma'lum bo'lsa, u taqdirda qarshilik ko'rsatmaslik haqidagi ta'limotni tan olgan kishi nima qilishi kerak? Ko'pchilik halokatining oldini olish uchun o'sha bir kishiga qo'llash ma'qul emasmi?

Afv etasiz, savolingiz, ko'plarning shu xildagi savollari singari haqiqatni bilish istagidan emas, aksincha, haqiqat deb hisoblangan narsani ado etmaslikni oqlash istagidan kelib chiqqan. Insonga mehr-muhabbat haqidagi ta'limot qarshilik ko'rsatmaslik tushunchasini ham o'z ichiga olib, u inson intiladigan idealni

bildiradi. Idealni taomilning oddiy qoidasi deb bilish esa, katta xato yoki o'z-o'zini aldashdir. Bu hayotda hech qachon to'la erishib bo'lmaydigan yetuk kamolotni talab etuvchi idealgina ideal bo'la oladi. Lekin u hayotga rahnamo sifatida zarurdir. Hayotda erishib bo'lmaydigan ana shu kamolotdan darak bergandagina zarurdir. Mehr-muhabbat ideali haqida ham shuni aytish mumkin. Qarshilik ko'rsatmaslik tushunchasini ham o'z ichiga oladigan mehr-muhabbatni talab etish – hech vaqt ado etib bo'lmaydigan narsadir. Shuning uchun uni ado etishga intilish kerak emas, degan mulohaza menga kompas tutgan shunday bir

odamni eslatadi: yo'lda manzilingga tikka bor deb, uning qo'liga kompas tutqazganlar, u bo'lsa, kompas ko'rsatgan to'g'ri yo'ldan o'tib bo'lmaydigan to'siqlar: tog'lar, daryolar va hokazolar bor, shu sababli ham, men mumkin qadar mutlaqo to'g'ri yo'lga tushib olish uchun kompasga rioya qilib o'tirmay, boshim oqqancha chetga qarab ketaverishim mumkin, deb turib oladi. Qarshilik ko'rsatmaslikni ham o'z ichiga oladigan mehr-muhabbat masalasida esa kompas doimo nima qilish kerakligini (sayyohga yo'nalishni) ko'rsatadigan axloqiy-diniy tuyg'udir. Odamning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan

oqibatlar esa hech qachon unga ayon bo'lmaydi. Shunga ko'ra, sayyoh uchun kompas ko'rsatgan mutlaq to'g'ri yo'nalishga mumkin qadar yaqinroq yurish birdan-bir rahnamo bo'lganidek, axloqiy idealga mumkin qadar yaqin bo'lishga intilish – inson uchun birdan-bir rahnamo bo'lishi kerak.

Savolingizga bergan javobim Sizni qanoatlantira olsa, g'oyat xursand bo'lur edim.

Lev Tolstoy.

Yasnaya Polyana, 1909-yil 5-iyun.

«O'zbekistonning yangi tarixi»

(1-jild) kitobidan.

ABDULHAMID CHO'L PON XUSUSIDA...

...Turkistonda tanishgan shaxslar orasida Nazir To'raqulov bilan Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon) menga alohida yaqin do'st bo'ldilar... Keyinroq o'zbeklarning eng buyuk shoiriga aylangan Cho'lpon o'sha vaqtda 15 yoshlarda bo'lsa kerak. Menga, tarix kitobimni o'qib, ilhomlanganligi va fikrdoshlik qilishimni aytib, xat yozdi. Andijonga, uylariga mehmonga taklif qildi... Buyuk o'zbek shoirining o'zi bilan ham, uning mehmondo'st otasi bilan ham tanishib oldik. Sulaymon aka bilan xayr-

lashdik, u kishining menga qilgan sovg'alarini onamga olib borib berdim.

Cho'lpon 1914-yildan Qo'qonda «Sadoyi Farg'ona» nomi bilan chiqayotgan jadid gazetasining Andijondagi obunachisi va e'lon qabul qiladigan vakili edi. U 1913-yilda Turk tarixiga oid asarlarni o'qib chiqqan, so'ngra «Turk yurti» va «Sayyora» kabi turkchilik nashrlarini kuzatib borar edi.

Zaki Validiy To'gonning «Xotiralar»

kitobidan. Sharq yulduzi, 1993-yil.

BIZNI JAHOLAT — JAHLI MURAKKAB

Har millatni maktab va madrasasi uldug'i kabi bizni ham maktab va madrasalarimiz garchi benizom va beusul o'lsa ham, yo'q demak darajada oz emasdur. Har millat avlodini tarbiyat va ta'limi ulumda ko'rsatgan himmat va g'ayrati kabi bizlarda ham o'z ma'sum avlodlarini jaholat va g'aflat zulmatida qolmoqig'a hech bir rizolari o'lmay, qo'llaridin kelganicha ta'lim va tarbiyati avlodda qusurlik

ko'rsatmakchi zotlar mavxuddurlar. Va lekin dunyog'a nima uchun kelganin bilmay, ilm va maorifg'a aslo rag'bat qilmay, jonidin shirin bolalarini ko'cha-bako'cha kezdurib bechora ma'sumni aziz umrini jaholat otashina yondirg'uvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur. Ko'p dindoshlarimizni ko'ramizki, o'z farzandlarini aslo maktabg'a bermay, orqalaridin ergashturib ruslar eshi-



ida o'zlari kabi xizmatchilikka o'rgatub dunyo va oxiratni saodati o'lg'on ilm va maorifdin mahrum qo'ymoqdin hech bir ibo qilmaslar. Ba'zi azizlarimiz bordurki, o'g'lini qo'lidan tutib maktabg'a olib borur. Muallimdan talab qilurki, «taqsir, shu o'g'lumni go'shti sizniki, ustuxoni bizniki, bir iloj qilib, tezlik ila naqd va nasiya yozmoqni o'rgatib berursiz», der. «Eshakig'a yarashur tushovi» degan satrlarni maqolicha, muallimlarni ham aksarlari qonuni ta'lim va tarbiyatdan butun-butun bexabar kishilar o'lub, balki o'quv va yozuvni ham lozimcha bilmasliklari vajidin bechora ma'sumlarni iste'dod o'z zotiyasig'a nazaran ikki yil zarifida hech lavozimoti diniyani bildurmoq mumkin o'lg'on holda 4–5 yilg'acha xijja usuli birla dunyoi va oxiratg'a foydasi o'lmag'on Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz va Bedillar kabi mushkul manzuma kitoblarg'a umri azizini barbod etarlar. Ey, vatandoshlar! Diqqati nazar ila boqing! Bir bolani maktabg'a bermakdin maqsud va ijobat diniyamiz o'lg'on ilmi qiroat, namoz va ro'za, haj va zakutlarni va ham zaruriyoti dunyoviyyamiz o'lg'on ilmi hisob, jo'g'rofiya, tavorix, xusuan, tarixi islom kabi foydalik ilmlarni bildurmoq o'lg'on holda johil domlalarni ta'limi falonning qoshi qaro, yuzi oq, so'zi shirin, deb bolalarni fasod axloqig'a birinchi sabab o'ladurg'on manzuma kitoblar o'lmish.

Bu xususda otada ham ayb yo'q. Chunki bu bechorani e'tiqodida bolani o'qutmaq yolg'iz naqd va nasiya yozdurmoqdin iboratdur. Muallimda ham ayb yo'q. Chunki bu zikr qiling'on umumiy zaruriyalarni bechora muallimni o'zi ham bilmas, balki ba'zilarini ismini ham eshitkon emas. Bechora na qilsun? Nochor, befoyda bo'lsa ham, maktablarda bolalarga o'qitg'udek bulardin boshqa bir kitob topilmag'on zamonlarda o'zi o'qub

bilg'on kitoblari shu kitoblar o'ldig'chun eski o'rinlarda eski tushlarni ko'rmakdadur. Mani bu so'zimdin Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz, Bedillar kabi ulug' zotlarni tahqir qildi, deb gumon qilinmasun. Chunki mani g'arazim bu kitoblarni zotini befoyda demak emas, balki yosh bolalarg'a bu kitoblarni ta'limi befoyda demakdur. Masalan, bir bolag'a Fuzuliy o'rnig'a ilmi qiroat, Navoiy o'rnig'a masoili e'tiqodiya, Xo'ja Hofiz joyig'a masoili amaliyot, Bedil o'rnig'a ilmi hisob o'qutulsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib musulion o'lur. Bil'aks, bu kitoblarni o'zi o'qitulg'on holda bu foydalardin mahrum qolib, balki fasodi axloqg'a muhtalo o'lmog'i ham ehtimoldur. Chunki bu kitoblarni tasnif qilg'on zotlar Alloh Taolog'a qaribat paydo qilg'on kishilar o'lg'onlari uchun etgon so'zlarini zohiri shariatg'a muxolif o'lsa ham, haqiqati muvofiqdir.

Bu kabi so'zlarni zohiri muxolif kitobi sunnat bo'lsa ham, haqiqati boshqadur. Ammo yosh bolalar, shubha yo'qdirki, buni haqiqatini bilmasdur. Balki o'qutg'on muallimlari ham bilmaslar. Nochor zohiriy ila amal qilib, fasodi axloqg'a muhtalo o'lmoq xavfi bordur. Ba'zi juxalo dermishki, bu tartib Hazrat Imom A'zamni tartiblari, buni buzaman degan kishini o'zi buzilur. Ajabo, bu kabi jaholat ham bo'lurmi? Bu jahl-jahli murakkab emasmu? Chunki bu johillar hazrat imom A'zamni umrlarida bu kitoblardin hech bir asar o'lmog'ini bilmaslar. Bilmaganlarini ham bilmaslar. Qachon ul janob bu kitoblardin bolalarga ta'lim berdilar? U janob kabi zotni xulqlarig'a bu kabi yolg'on, ixtro, tuhmat qilg'on johilni Inshooloh o'zi buzilur.

Ba'zi nodonlar dermishki, shu kitoblarni o'qimag'uncha bolalarni savodi chiqmas. Bu ham e'tiqodi fosid va da'vo-yi bedalidur. Chunki bu e'tiqod durust

bo'lsa edi. Turkiston viloyatindin boshqa viloyatlarda xat bilmaydurg'on kishi yuzdin o'n o'lsa, Turkiston viloyatinda yuzdin to'qsondur. Mundin ham ma'lum o'lurki, savod chiqmoq bu kitoblarni o'qumog'ga mavfq emas. Balki bu kitoblar g'oyat qiyinligidin bolalarni besavod qilmog'ig'a ham sabab o'lur. Chunki bu kitoblar o'quladurg'on maktablarda ellik boladan o'n bola 4–5 yilda bazo'r ushbu kitoblarni o'ziningina xatini tanib chiqur. Boshqa kitoblarni yana durust bilmas. Ammo bu kitoblar o'qulmaydurg'on jadi-diy maktablarda ikki yil ichida ellik bolaning qirq to'quzi, balki hammasi alayal-saviya necha xil ilmlardan imtihon berib chiqur. Boz bu kitoblarni ham bilur. Xayr durustroq ham bilmasun. Ammo bilmagani birla bu bolani dunyosig'a va na oxiratig'a hech bir zarar yo'qdur. Chunki bu kitoblarni o'zini dunyo va oxratg'a hech bir foydasi yo'qdur. Balki zararini bolada zikr qilindi. O'g'lini maktabg'a bermakdin maqsadi naqd va nasiya yozdurmoq o'lg'on johil otani o'g'lig'a qilg'on muallim bechorani tarbiyat va chekkan mashaqqatini va ma'sum bechorag'a maktabda bergan kulfatini yozib biturmak mumkin emasdur. Ko'rgusi va bilgusi kelgan kishi bizni Toshkand maktablarini birig'a kirib, ikki soat istiqomat qilsin. Chunki demak mumkindirki, muallim afandi qo'lida zo'r bir tayoq, qaysi bolani boshi harakatdin qolsa, ushbu tayoq shu bolani boshida o'lur. Ammo o'qug'on-o'qumog'on ila hech kimni ishi yo'q. Boshini qimirlatib o'ltursa, kifoya qilur. Hattoki, o'tgan yillarda bu tariqa zolim muallimlarni tayoqini ostida vafot qilmoq ham voqe o'ldi. Bu tariqa zolim va badxulq johil muallimlarni tarbiyasida o'sgan bolalardin nima umid qilmoq kerak, fasodi axloqdin boshqa bir

ish o'rganmas. Johil otalarni umid etduk-lari naqd va nasiya yozmoq ham tanho o'ndin bir, yigirmadin bir bolag'a hosil o'lub boshqalari esa «maktabda o'qumog' igna ila choh qazimoqdan ham qiyin (mushkul) ekan» deya-deya qochar-ke-tar. Bunga sabab muallimning badxulq-ligi, maktabni benizomligi o'lur. Agar bizlarni maktablarimiz boshqa millatlar maktablari kabi bir nizomg'a qo'yilub, yaxshi muallimlik vazifasini lozimincha ado qilurlik kishilardin muallimlar tayin qilinsa edi, ma'sum avlodlarimizni ruhoniy hayotig'a, dunyo va oxiratini saodatig'a birinchi sabab o'ladurg'on ilm va maorifdin bu darajada mahrum o'lmoqig'a sabab o'lmas edik.

Ey qardoshlar va ey millatdoshlar!

Ko'zumuzni g'aflat uyqusidan ochib atrofimizga nazar solmakimiz lozimdur. Har millat o'z saodati va istiqbolini muhofazatig'a birinchi vosita ilm o'lmog'ig'a qanoat hosil qilub, ilm va maorifg'a ortiq darajada qo'shish qilg'on bu zamon-da bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqolimiz nihoyatda xavfli o'lib, hamma olamg'a masxara va kulgu o'lmog'imizda shubha yo'qdir. Balki bu jaholat zulmatida saodati oxiriyadin ham mahrum qolmoq xavflidur. Bu jaholat natijasidurki, o'zimiz yerlik musulmon-lardan o'ldug'imiz holda, musofir va rus va yahudiylar eshikida mardikor va xizmatchi o'lduk. Va bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun xotin qurbon qilmoq-g'a loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridin chiqarib, iste'dod va g'ayratlarini choyxona va pivoxonalarg'a sarf etmakdadurlar.

*Qori Munavvar ibn Abdul Rashidxon
«Taraqqiy» gazetasi, 1906-yil, 14-iyun.*



TURKISTONDA ILM-FAN VA MADANIYAT

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda maorifning rivojlanishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
- XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda jadid maktablari, ularga qarshi chor hukumatining kurashlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar;
- o'quvchilar XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi va ularning faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar;
- o'quvchilar Turkistondagi an'anaviy xalq teatrlari va an'anaviy musiqa maktabining shakllanishi, ularning faoliyatlari bilan tanishib oladilar;
- o'quvchilarga jadid matbaachiligi, mustamlaka sharoitida tasviriy san'atning rivojlanishi va me'morchilik san'atining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKROR-LASH (15 daqiqa).

O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar tomonidan tayyorlab kelingan turli savollar o'yini o'ynaladi.

1	2	3	4
5	6	7	8
9	10	11	Sovg'a

Izoh: Guruhlardan o'quvchilar galma-gal chiqib savollarni tanlab oladi. Strelkani aylantiradi, javob bergan o'quvchilar, o'zlari tomonidan qo'yilgan daftar, ruchka, qalam, rag'bat kartochkalarini berib, ularni olqishlashadi.




III. DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQRARISH USTIDA ISHLASH

(15 daqiqa).


«Klaster» usuli asosida.

O'qituvchi vatman qog'ozining markazida ikkita doira chizadi va uning ichiga «Allomalar» deb yozadi. O'quvchilar allomalarning ismlarini yozib chiqishlari kerak.

1-guruhga: Mahalliy allomalar.



2-guruhga: Rus olimlari.




IV. O'ZILGAN MAVZUNI MUSTAH- KAMLASH (10 daqiqa).

1-usul

«Klaster» usuli asosida.

O'qituvchi vatman qog'ozining marka-
zida doira chizadi va uning ichiga «Teatr»
deb yozadi. O'quvchilar teatr san'atiga oid
ism, tarixiy voqea-hodisalarni yozib chi-
qishlari va izohlashlari kerak.




2-usul

O'quvchilar «Marra tomon olg'a»
degan usul bo'yicha savollardan tashkil
topgan o'yinlarni amalga oshiradi. Sinf
guruhlariga bo'linadi va mavzu bo'yicha
o'quvchilar tomonidan uyda tuzib kelin-
gan bir guruhning savollari boshqa gu-
ruhga beriladi.

Bilim cho'qqilarini zabt etish uchun
marra sari olg'a!

Mashq savollari:

1. «Risolai aziza» kitobining muallifi kim? (*So'fi Olloyor*)
2. Xoja Hofizning «Xoja Hofiz» devo-
ni qaysi tilda yozilgan? (*fors tilida*)
3. Turkistondagi an'anaviy maktablar
qanday qoidalar asosida tashkil etilgan
edi? (*diniy qoidalar*)
4. Mustamlaka davrida eski maktab-
larning moddiy ta'minoti qaysi tashki-
lot tomonidan amalga oshirilgan? (*ular
moddiy ta'minotdan chetda qolgan*)
5. XIX asrda O'rta Osiyo boshlang'ich
maktablaridagi butun ta'lim davri necha
yilgacha borar edi? (*5-6 yil*)
6. Buxoro amirligida jadid maktablari
nechanchi yilda yopib qo'yildi? (*1913-yil*)
7. Turkiston o'lkasida boshlang'ich
maktablar, rus-tuzem maktablari tar-
mog'ini yaratish loyihasini ishlab chiqqan
general-gubernator kim? (*G.O.Rozen-
bax*)
8. 1911-yilga kelib Turkiston o'lkasi-
dagi rus-tuzem maktablarining soni qan-
chaga yetdi? (*89 ta*)
9. Turkistonda birinchi rus-tuzem
maktabi Toshkentning qayerida ochildi?
(*Saidg'ani Saidazimboy xonadonida*)
10. Turkistondagi dastlabki mahalliy
gazetaning nomi nima? (*Taraqqiy*)
11. Turkistondagi dastlabki mahalliy ga-
zetani kim tashkil qilgan? (*Ismoil Obidov*)
12. Turkiston general-gubernatorligi-
ning rasmiy nashri nomi nima? (*Turkes-
tanskiye vedomosti*)





Respublika ta'lim markazi **V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH.** Baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA:

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.

2. Guruhlarda ishlash. Jadvaldagi har bir ustun har bir o'quvchi tomonidan uyda to'ldirib kelinadi.

Mahal-liy teatr	Rus va Yev-ropa teatri	Teatr asarlari	Musiqa san'ati

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

TARIXIY HUJJAT

RUS-TUZEM MAKTABLARI

1884-yil 19-dekabrda Toshkentda savdogar Saidazimning o'g'li Said G'ani Azimboyev hovlisida rus-tuzem maktabi ochildi. Maktab mudiri va rus o'qituvchisi etib V.P. Nalivkin, musulmon sinfining o'qituvchisi etib esa mulla Solixo'ja Kichkinaxojinov tayinlangan. Rus ma'muriyati mahalliy o'qituvchini rus o'qituvchisi bilan noteng vaziyatga qo'ygan: rus o'qituvchisi uchun yillik maosh 1 000 rubl, mahalliy o'qituvchining maoshi esa 400 rubl belgilangan.

Rus-tuzem maktablari mahalliy aholi uchun dunyoviy ta'lim olish mumkin bo'lgan Yevropa tipidagi birinchi maktab edi. Ushbu maktablarning maqsadi kelajakda tub aholi bolalaridan o'lka ma'muriyatining quyi pog'ona mansabdorlarini tayyorlash edi. Mazkur maktablarda rus tili birinchi yildan boshlab o'rgatila bosh-

langan. O'qish to'rt yillik bo'lgan. O'quv yili 130 kundan oshmagan. Qishloq joylarda o'qituvchilarning dala ishlari bilan bandligi tufayli o'quv yili kech kuzda boshlanib, bahorda ertaroq tugallangan. Maktabda yoshi 7 dan 17 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'qitilgan. O'quvchilar rus va mahalliy sinflarga ajratilgan. Maktabda Toshkent o'qituvchilik seminariyasini tugatgan bitiruvchilar rus tili va arifmetikadan dars bergan bo'lsa, mahalliy sinf o'qituvchisi – mulla mahalliy, arab tili va yozuvi hamda musulmon diniy ta'limotini o'rgatgan. Mashg'ulotlarning birinchi ikki soatini rus o'qituvchisi, keyingi ikki soatini mulla olib borgan.

N.N.Qodirovning «Turkiston o'lkasidagi rus ta'lim muassasalari tarixi» kitobidan.

MATBUOT YUZASIDAN AXBOROT

«Taraqqiy» gazetasi. «Taraqqiy» gazetasi Ivan Geyerning to'xtalg'on gazetasi o'rnig'a chiqdi, desa mumkindir. Uning obunachilari qolg'an haqig'a «Taraqqiy» gazetasi yuborildi. Bu gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki, hatto gazeta muharriri bo'lg'on Ismoil Obidovga *Taraqqiy* ismi be-

rildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidovning ismini *Taraqqiy* deb yuritadi. Bu gazeta o'sha zamon musulmon gazetolari orasida eng so'li bo'lib, hukumat va uning ma'murlarig'a qarshi hujum ochdi. Bu gazeta mehnatkash yosh yozuvchilarg'a sahifasidan keng o'rin berdi. Istibdod hukumatining favqulodda

saqlash qo'li bilan bu gazeta o'ldirildi. Xalq oziqsiz qolib, uzoq vaqt jimjittlik hukm surdi.

«Xurshid» gazetasi. Bu gazeta 1906-yili «Taraqqiy» to'xtalg'ondan keyin o'sha vaqtning yoshlari tomonidan tuzilgan bir shirkatning moddiy ko'magi, Munavvarqori Abdurashidxonovning mas'ul muharrirligi orqasida toshbosma usul bilan chiqa boshladi. El orasidagi e'tiboriga qarab baho qilg'onda «Taraqqiy»dan keyin ko'zga ilarlik gazeta «Xurshid» gazetasi bo'ldi. Bu gazeta ko'proq «Turkiston viloyati gazetasi» bilan kurashdi va uning buzuq harakatini elga onglatib bordi. 18-songa yetganda idorasida bir necha qatla tintuv yasalib, nihoyat bu ham favqulodda saqlash idorasi tomonidan to'xtatildi.

«Shuhrat» gazetasi. 1907-yilda Toshkent matbuot havaskorlaridan murakkab tuzilgan bir shirkatning moddiy ko'magi bilan chiqa boshladi. Hukumatdan bu gazetaning nashri uchun ijozat so'ralg'onda birdan «Haqiqat», «Shuhrat», «Osiyo», «Najot» ismlarida ketma-ket chiqarishga ruxsat olindi. «Haqiqat» gazetasi boshlab chiqar oldida muharriri Farg'onag'a qochdi. Shu kunlarda hukumat ham yoshlarga juda yomon ko'z bilan qarab qoldi. Pul berishni va'da berg'on azamatlar ham suvg'a urib ketdilar. Bulardan faqat bir kishi 25 so'm berdi. Shu sarmoya bilan 1907-yil 4-dekabrda boshlab chiqdi. Muharriri Avloniy edi. Orenburgda yashirin sur'atda nashr etiladigan «Soldat» ismli ruscha gazetani tarqatishda «Shuhrat» gazetasi ko'p fidokorlik ko'rsatdi... Gazeta 15-sonini to'ldirg'onda, bor narsasi hukumat tomonidan musodara qilinib, o'zi to'xtatildi.

«Osiyo» gazetasi. Bu gazeta 1908-yilda Ahmadjon Bektemirovning mas'ul muharrirligi ostida, «Shuhrat»ning ostida saqlab qola olg'on sarmoyasi bilan chiqa

boshladi. Senzuraning siqishi va eski hukumatning iskanjasi bilan bu ham 6-nomerga yetganda bo'g'ilib jon berdi.

«Tujjor» gazetasi. Bu gazeta Toshkentning mashhur tujjorparast boylaridan Saidkarimboy Saidzimboy o'g'li tomonidan chiqarildi. Bu gazeta Mulla Hoshim domlaning surkalishi orqali 36 nomer yashab mushtariysizlikdan vafot bo'ldi. Buning xizmati o'z-o'zidan bo'lg'on bo'lmasa Saidkarimboy na el, gazeta chiqarish na el. Faqat bu gazeta boylar o'rtasidagi raqobat va gruppabozlik orqasidagina chiqdi va shu yo'ldagina xizmat etdi.

«Samarqand» gazetasi. Bu gazeta 1913-yilda Samarqandda marhum Behbudiy tomonidan forsiy-o'zbek tilida chiqarilib, el-u xalqning ko'zini ochishga bois bo'ldi. Bu gazeta mushtariysizlik moddiy tanglik orqasida to'xtatildi.

«Sadoi Turkiston» gazetasi. Sadoi Turkiston gazetasi 1914-yilda Toshkentda yurist Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'ja o'g'lining mas'ul muharrirligi ostiga chiqdi. Bu gazeta o'zbek yoshlari tomonidan chiqariladurg'on gazetalarning eng uzoq davom etganidir. Bu gazeta ham moddiy yoqdan juda ko'p og'ir kunlar kechirib turg'on bir vaqtda Toshkentda «Turon» teatri to'garagi tuzilib, bu gazetaning biroz qaddini tiklab turdi. Bu gazetaga ham shu kungacha yozilib kelgan qalamlar ishtirok etgani kabi, yangi qalamlar ham ko'ri-la boshladi. Bu gazetaga ham o'sha zamonning muhit va musoadasiga qarab foyda yetkizdi. Nihoyat, muharriri sudga berilib, bir qancha tergov ko'rdi. 66-nomer chiqib, moddiy tanglik orqasida to'xtadi.

«Sadoi Farg'ona» gazetasi. Bu ham 1914-yil Qo'qonda «Sadoi Turkiston» bilan bir kunda Obidjon Mahmudovning mas'uliyati ostida chiqa boshladi. Bu gazeta har jihatdan «Sadoi Turkiston»dek



Respublika ta'lim markazi
o'la olmadi. Qalam ahillarini o'ziga jalb qila olmasdan, inqirozga yuz tutib to'xtadi.

«*El bayrog'i*» gazetasi. Bu gazeta sobiq «Turkiston viloyati gazetasi» harfia va matbaasida chiqqa boshladi. Bu gazeta-ga eski hukumat zulmidan qutulishning bir xotirasi uchun «Najot» deb qo'yildi. Gazeta muvaqqat hukumat boshlig'i Nalivkin qaramog'ida Munavvarqori mas'uliyati ostida chiqib, biroz davom etgandan keyin o'rniga «Kengash» gazetasi chiqdi.

«*Kengash*» gazetasi. Bu gazeta 1917-yilda Toshkentda mashhur muarrix Zaki Balidiy, so'ngra Munavvarqorining mas'uliyati ostida chiqib, Markaziy sho'roning noshiri afkori edi.

«*Turon*» gazetasi. 1917-yil chiqqa boshlagan, mas'ul muharriri Abdulla Avloniydir. Ikkinchi nomeridayoq Mirmuhsinning maqolasi Ulamo jamiyati va Sho'royi islom a'zolarining ba'zilarini g'alayonga keltirdi. Sho'royi islomning umumiy yig'inida «Turon» gazetasiga hujum bo'lib, Mirmuhsin bilan Abdulla Avloniy ustiga ag'darilmag'on ifloslik qolmadi. ...«Ulamo» jamiyati vakillari «Turon» jamiyati idorasiga kelib, gazeta chiqarmaslik uchun Avloniydan imzo oldilar. «Turon» gazetasi Avloniydan keyin Nizomiddin Mulla Husayn o'g'li, undan keyin Afandizoda muharrirligi ostida 20-nomer chiqqandan keyin, ulamolarning nufuzi va ularning o'giti orqasida ismi «Turk so'zi» bo'lib chiqdi.

«*Ulug' Turkiston*» gazetasi. Bu gazeta Toshkent shahrida 1917-yilda Kabir Bakirning muharrirligi ostida chiqdi. Bu gazeta totor shevasida bo'lsa-da, o'zbeklar onglarlik sodda bir tilda yozilg'oni uchun xalqni o'ziga tez jalb eta oldi. Bu gazeta-ning katta bir xizmati, bir qancha yangi yerlik qalam ahillari yetishtirib qoldirdi.

«*Turk eli*» gazetasi. 1918-yilda chiqqa boshlab, turk ellarini ayqash-quyqash qilib bu ham ketdi.

«*Sho'royi islom*» gazetasi. Bu gazeta Toshkent Sho'royi islomiyasining noshiri afkori bo'lib, o'zining Sho'royi islom jamiyatigacha ham maza-matراسi bo'lmasdan, tezroq joni chiqqa qoldi.

«*Mehnatkashlar tovushi*» va «*Mehnatkashlar o'qi*» gazetasi. Samarqandda chiqib, keyin «Kambag'allar tovushi» nomiga o'zgarib, to «Zarafshon» gazetasi chiqquncha davom etdi.

«*Turk so'zi*» gazetasi. 1918-yilda Temurbek Xudoyorxon o'g'lining javobgarligi orqasida chiqib, moddiy va ma'naviy qiyinchilik orqasida u ham yopildi.

«*Al-isloh*» jurnali. Bu jurnal eski hukumat ayg'oqchisi hamda Turkistonda bobiy mazhabining bonisi bo'lg'on mashhur Abdurahmon Sayyoh tomonidan chiqarilib, bir qancha zamon davom etgandan keyin, bohoyilar qo'liga o'tib ketdi. Bohoyilardan Pahlavonov bir necha numir chiqorg'ondan keyin to'xtalib qoldi.

«*Oyina*» jurnali. «Oyina» jurnali 1913-yilda Samarqandda chiqqa boshladi. Bu jurnalning noshiri va muharriri Mahmudxo'ja Behbudiy edi. Bu jurnal «Oyina» chiqquncha chiqqon jurnallarning eng birinchisi va eng yaxshisi edi. O'zi ham inqilobg'acha surgalib-surgalib davom etib keldi.

«*Dehqon*» jurnali. Bu jurnal 1915-yildan boshlab Toshkentda Novikov tomonidan chiqarila boshlandi. Bu jurnal qishloq xo'jaligi va ekin ishlariga xos bo'lsa-da, sheva va uslubining buzuvchiligi orqasida, o'quvchilarni tushuntira olmasdan, bu ham davom eta olmadi.

«*Yurt*» jurnali. 1917-yil ichida Qo'qonda o'rtoq Ashurali tomonidan chiqarila boshlagan. Bu jurnal shu vaqtgacha chiqqan jurnallarning eng ko'rkami va ma'naviy yoqdan boyi edi. Afsuski, bu ham uzoq davom eta olmadi.

«*Al-izoh*» jurnali. Bu jurnal Toshkentdagi qora guruh boy va ulamolarning

noshir afkori edi. Bu jurnal muvaqqat hukumatning qora guruh sinfiga sovuq qarash orqasida bir sidra juda gurullagan edi. Ulamo va ham boylar bilan qo'l tutishib, jahannamga ketdi.

«Chayon» *jurnali*. Bu jurnal kulgu jurnali edi. Jurnalning mas'ul muharriri Ibrohim Tohiriy edi. Bu jurnal ko'proq yerlik xalq

masalasiga ahamiyat bergani uchun suv yo'qligi va tilining totorchaligiga qaramasdan xalq orasida anchagina e'tibor qozondi va umrida bir qancha ulamo va boylarning yarasini tilib, tuz tiqdi. Mafkurasining buzuligidan, tabiiy, uzoq davom eta olmadi.

A.Avloniy. «Turkiston» *gazetasining 1924-yil 24-iyundagi 295-sonidan*

ULUG'BEK RASADXONASINING TOPILISHI

Havaskor o'lkashunos Vyatkin 1908-1909-yillarda Obirahmat arig'i yaqinidagi Poyi rasad tepaligida qazuv ishlarini olib bordi. Unga Shayboniyxon madrasasining mudarrisi Abu Said mahdum yaqindan yordamlashdi. U Qurbonjon dodxoh arxivini tartibga solish vaqtida qiziq bir hujjatga ko'zi tushgan va uni Vyatkinga bergan. Ana shu hujjat uni bevosita qazuv ishlarini boshlashiga muhim turtki bo'lgani haqida Vyatkinning o'zi shunday deydi: «Poytaxt Samarqandda Mirzo Ulug'bek tomonidan bino etilgan rasadxona ko'pgina musulmon adib va muarrixlari tarafidan muttasil zikr etilar edi. Xususan, Muhammad Zahiriddin Bobur o'zining mashhur

«Boburnoma» kitobida rasadxonaning turish joyini taxmin qilib ko'rsatgan edi. Shunday bo'lsa-da, bunday ahamiyatli va azim bir binoning manzili ushbu vaqtgacha ma'lum emasdi. ...Rasadxonaning manzili topib ochmoqqa mening qo'limga tushgan bir vaqfnoma sabab bo'ldiki, mazkur vaqfnoma bundan 250 yil avval yozilgan». O'zbek ziyolisi Abu Said mahdumning bu kashfiyotdagi xizmatini ruslarning o'zlari tan olishgan. O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik va etnografik jihatdan o'rganuvchi Rossiya qo'mitasi uni 100 rubl bilan taqdirladi.

«O'zbekistonning yangi tarixi»
(1-jild) *kitobidan. 2000-yil.*

BUXORODA ILM-FANLARNING RIVOJI, OLIMLAR, SHAYXLAR VA AHLI VAZIFA HAQIDA

Buxoro Turkiston va Movarounnahr-dagi davlatlar orasida ilm-u madaniyat, shariat fanlarining taraqqiy etganligi bilan afzal. Tafsiir, hadis, fiqh, kalom, usul, sarf-u nahv ilmlaridan iborat bo'lgan shariat ilmlari shu muazzim diyorda rivojlangan, hikmat ilmini ham madrasalarda zarurat yuzasidan o'qitadilar. Bu ilmi hikmat mantiq, qismati ilohiyatlardan iborat bo'lgan, biroq riyoziy va siyosiy ilmlar azaldan bu shaharda bo'lgan. Shuning uchun Buxoro davlatining siyosati boshqa islomiy davlatlar singari orqada qolgandir. Bu dav-

latda taxminan uch-to'rt ming talabalar o'qiydilar. Dars beruvchi mudarrislarining soni taxminan 800 nafar. Buxoroyi sharifning a'lo darajali mudarrislariga eshon qozi ul-quzzot, eshon raisi kalon, eshon shayx ul-islom, eshon oxund, eshon a'lam va eshon muftiy askar kiradilar. Bundan tashqari, shariat fatvolari sohasidan dars beruvchi muftiyalar ham bor. Ularning soni 22 nafar, bular a'lo va avsatlar bo'lib, o'rta darajali mudarrislariga bo'linadilar. Bu muftilar o'roqlik mansabiga erishishi mumkin bo'lganki, u eshik oqoboshi amali daraja-



Respublikamizga teng kelgan, shu bilan birga, sudurlik va sadirlik, shayx ul-islom, naqiblik, miri asadlik mansablariga ham yetishganlar.

Bu jamoaga umumiy imtihondan so'ng, «Hidoyati sharif»ni o'qib tugatishlari bilan amir buyrug'iga ko'ra dahyak (ushr) berilgan. Agar tolibi ilm tahsili ilmda peshrav bo'lsa yoki bundan ham ko'p bilimlarga ega bo'lgan bo'lsa, «Hidoyati sharif»dan o'qitib – imtihon qilib, dahyak berganlar, mansabdor qilganlar. Dahyaklar mansabiga ega bo'lish Buxoroning islomiy qonunlaridan biri bo'lgan.

Banda 1337-hijriy yili (1919-yil) Hazrati eshon qozikalon huzurlarida «Hidoyati sharif»dan «Kitobi nikoh», «Avliyo va akfo» bobini o'qib, dahyak olish uchun imtihon topshirib, dahyakka musharraf bo'lgan edim. Mudarrislarining yana bir jamoasi – «Banoraspo'sh» (Banoras kiyindiganlar) bo'lgan. Banoraspo'shliklardan

chiqqanlari muftiy mansabiga erishganlar. Ular taxminan 200 nafardirlar. Bularni yana «Avsata tadrisiy» – o'rta mudarrislar ham deydilar. Yana bir guruh – «Asfal tadrisi» (past darajadagi) mudarrislar hisoblangan. Ularni «Beqasampo'sh»lar deyishgan. Yana imom, mudarris va shunga o'xshashlari ham borki, ularning soni 300 dan ko'proqdir. Bu shaharda 400 madrasa va 296 ta besh vaqt namoz o'qiladigan masjid, 18 ta jome' masjidi, 80 ta qabriston mavjud. Buxoroda 13 ta kutubxona, 96 ta qorixona (qiroatxona) va maktabxona faoliyat ko'rsatadi.

Madrasa, masjid, maqbara, maktabxona va qorixonalarining har biriga vaqf tayinlangan. Madrasalarning hujralari oldi-sotdi ham qilinadi. Ammo podsholik madrasalari oldi-sotdisi man qilingan.

Muhammad Ali Baljuvoniyning «Tarixi nofeiy» (Foydali tarix) asaridan

BUXORO JAMOAT BINOLARI

Ibtidoiy (boshlang'ich) toifaga mansub madrasalar yuzdan ortiq bo'lib, ularning vaqfi ming tangadan o'n ming tangagachadir. Bu madrasalarning umumiy vaqf miqdori 500 ming tangaga yetadi. Buxoro 300 ibtidoiy maktab va o'n bitta katta kutubxonaga ega.

Buxoroda yigirmadan ortiq yirik va kichik taomxonalar bor. Yirik taomxonalar har birining yillik vaqfi 10 mingdan 40 ming tangagacha, kichik taomxonalarining har birining yillik vaqfi esa 4 mingdan 9 ming tangagachadir. Bular dan tashqari, 5 yoki 6 qorixona va qirqqa yaqin tahoratxona ham bor. Ularning har biri uchun ko'p miqdorda yillik vaqf tayinlangan.

Buxorodagi kutubxonalar va ularning yillik vaqf daromadi:

No	Kutubxonalarining nomi	Yillik vaqfi (tanga)
1	Ja'farxo'ja	18 000
2	Govkushon	5 000
3	Xo'janihol	8 000
4	Ko'kaldosh	1 000
5	Abdulazizxon	2 000
6	Mirzo Ulug'bek	800
7	Badalbek	800
8	Dor ush-shifo	3 000
9	Bozori Go'sfand	1 500
10	Boloi hovuz	1 600
11	Jo'ybor	1 400
Jami:		43 100

Abdurauf Fitratning «Hind sayyohining qissasi» kitobidan.

TURKISTONDA TIJORAT VA ZIROAT (MATBUOT MAQOLASI)

Zotan bu yillarda Turkistonda tijorat va ziroat ishlari tanazzul qilib, keyin ketib turmoqdadur. Bu yillardagi muvaffaqiyatsizligimizning birinchi sababi nasiyadur. Kichik savdogarlardan boshlab Moskov, Varshava firmalariga qadar shu mudhish nasiya balosiga muhtalo bo'lmishlar. Chunonchi, Moskov boylari xorij mamlakat banklaridan 3-4 foiz bilan ko'p aqcha olurlar va millionlar sarf etib, katta-katta fabrika va zavodlar ocharlar. Bunday korxonalar har yerda va har shaharda vujudga kelib, ortib-ko'payib turmoqdadur. ...Bizning Turkiston savdogarlari 5-6 ming so'm aqcha bilan Moskovga borsa-lar, Moskov firmalari 10–15 ming so'mni nasiya qilib, 15–20 ming so'mlik mol berib yuborurlar. Bizning savdogarlarimiz ul mollarni Moskovdan 10 foiz ila olib kelib, qimmat baho bilan nasiyaga sotarlar. Agar nasiyaga bermasalar, ishlari to'xtalib qolur. Shu tariqa nasiya rishtasi telefon chabg'i kabi Moskovdan boshlab Turkistonning shahar va qishloqlariga qadar cho'zilur.

Nasiya unmay qolishining sababi xalqning faqirligidan kelur. Xalqning faqir va kambag'al bo'lishining sababi ziroat ishiga ahamiyat bermasliklaridadur. Bu yillarda dehqonchilik butun ahamiyatdan tushib boradir. Aholimizning ko'prog'i, balki hammasi ilmsiz va aqchasiz kuy-larincha savdogar bo'lishni xohladilar. Xalqimiz va boylarimiz ushbu kundan e'tiboran ziroat ishiga ahamiyat berib, dehqonchilik va bog'dorchilik ishlarini taraqqiy qildirsalar, suvsiz yerlarga ariq qazib, suvlar chiqarsalar, eskirgan yerlarni yangilab, yangi asbob va mashinalar iqtisod kuchiga molik bo'lishimiz muqarrardir. Chunki, bu taqdirda xalqimiz nasiya va qarzdan qutulib, topgan aqchalarining hammasi o'z cho'ntaklariga kirib turar edi. Ziroat ishlarimiz taraqqiy qilib, iqtisodiy quvvatlarga molik bo'lsa, ohista-ohista sanoat ishlarini ham o'z qo'limizga olurmiz.

Sadoi Turkiston. 1914-yil, 11-may, 9-sondan.

HAJ YO'LI TO'SILDI

Musulmonlarga farz bo'lgan haj ibodatini ado qilishdan 1903-yilda Rusiya imperatorligi bir farmon ila man qildi. Buning sabablari ko'pdur. Masalan, hajga borgan turkistonlik u safar munosabatida chet davlatlarni ham ko'radur, sayohatdan foydalanadi, ko'zi ochiladur, musulmon davlatlari, xususan, Turkiya saltanatini, islomning shavkatini, islomning quvvatini ko'radur. Ko'zi ochiq ziyolilar bo'lsa, istibdotga qarshi chiqishni o'rganadur. Ma'lumotlari ziyodalanib, zehnlari

ochiladur. O'rik-o'rikni ko'rib olayadur deganidek, hajga borgan turkistonliklar mustaqil har davlatlarni ko'rib, havaslanadur. Xulosa, mubarak safar – haj safarining natijasi o'laroq turkistonliklar o'z huquqlarini, istiqloqlarini talab qiladurlar. Isyon chiqaradurlar deb man qildi. Andijondagi Dukchi eshon hodisasi ruslarning shundoq andishaga tushiradurg'on bir na'munadur.

Muso Turkistoniyning «Ulug' Turkiston fojiasi» asaridan.



TEYOTR (TEATR) NADUR?

Teyotr nadur? Javobi teyotr ibratxonadur, teyotr va'zxonadur, teyotr ta'zir adabidur. Teyotr oynadurki, umumiy hollarni ancha mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rib, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. ...Ayni zamonda yana tomoshagoh va yoinki ko'ngil ochguvchi milliy va adabiy jamiyatlarni boisidur. Taraqqiy qilg'on millatlar teyotrxonalarni ulug'lar uchun maktabi adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqning eng birinchi sabab va boislaridan biri teyotrlardur deyurlar. Umumiy odatlarni naf'i va zararlaridan paydo bo'ladigan natijalarni teyotrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur.

...Hikoyat va yoinki nasihat kitoblarinda ba'zi bir hodisa bayon qilingandurki, o'qib, asablanib, lazzat olinadur. Ammo teyotrg'a maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni felan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitgandin ziyodadur. Yana teyotrdan savodsiz odam ko'zi ila ko'rib, ko'zsiz odam eshitib, kar odam mushohada etib, ibrat va lazzat olar. Xulosa: teyotr bir nav maktab hukmindadir. Taraqqiy qilgan xalqlar o'rtasida teyotr u qadar taraqqiy etkandurki, har kun bir yangi asar tasnif bo'lib, sahnada qo'yilur. Asarni yozgan muharrirg'a 1 000 so'm va 10 000 so'mlab hadya berib, asarini mushaxxislar (shaxsiylashtiruvchilar) sotib olib, sahnada qo'yib, foyda qiladurlar. Ba'zi bir teyotr asarlari eski bo'lmay va haloyiqning ko'nglig'a urmay bir shaharda 20–30, hatto yuzinchi daf'a qo'yilg'onlari bordur. Teyotrg'a qo'yilgan asarni ortiqcha va oz yerlarini va yetishmaganlarini maishati milliyadan xorij nuqtalarini muharrirlar, jaridalar ila tanqid etadurlar. Haloyiqg'a

ma'qul bo'lib va yo bo'lmag'oni ila teyotr muharririni xursand va yo g'amlik bo'lur. Muharrirning asari yaxshi chiqsa, har kim uni tabrik etar va shu shuhrati ziyoda bo'lur.

...So'zning qisqasi teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur va unda mushaxxis bo'ladiganlar «o'yinchi» va «masxaraboz» bo'lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdir-lar. Taraqqiy qilgan xaloyiq orasida mushaxxislar ham bir kibor va muhtaram sinflar qatorindadur. Xususan, o'z xissasi na'fig'a mushaxxislik qilmay, balki maktab va o'z millati na'fig'a mushaxxislik qilganlarni qadri do'bolo ziyodadur. Bizning Turkiston va Buxoroda milliy teyotrdan asar yo'q edi. Muharriri ojiz «Padarkush»ni yozdiki, o'tgan fevral oyinda Samarqand, Xo'jand, Buxoro va Toshkand va Kattaqo'rg'on shaharlarinda millat nafi uchun ko'ngillilar sahnada qo'yib, to'rt-besh ming so'mni to'rt-besh kechada jamlab, maktablar foydasig'a berdilar. Mana endi muhtaram samarqandiy ko'ngilli mushaxxislar g'ayrat qilib, yana «Padarkush»ni Samarqandda 7-mayda sahnaga qo'yib, hosilini maktablarga sarf uchun berdilar. Muhtaram hamshaharlarimizdan rijo (*umid, iltimos, orzu*) etarmizki, kelib ko'rganlari gunoh bo'lgan joyini ko'rsatsalar. Inchunun, asarni tanqid etib, buzuq yerini matbuot ila bayot etsalar. Ammo bu kungacha muhtaram ahli qalam «Padarkush»ni buzuq yerini ko'rsatmay, balki «kuldurguvchi va ham yig'latguvchi nosih va nofe' asardur» holinda tabrik va taqrizlar ila yozdilarki, biz alarg'a tashakkur aytamiz.

*Mahmudxo'ja Behbudiy. Oyna.
1914-yil, 29-sondan.*

TURKISTON O'LKASI 1917-YIL FEVRAL-OKTYABR ORALIG'IDA

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri, Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komiteti faoliyati, Butunturkiston musulmonlari qurultoylari hamda «Sho'royi Islomiya» va «Sho'royi Ulamo» faoliyati haqida bilimlar berish;
- mustaqillik jamiki Turkiston xalqlarining asriy orzusi bo'lganligini, bu orzu ushali uchun o'ta mashaqqatli yo'l bosib o'tilganligini, shuning uchun ham doimo mustaqillikning qadriga yetish va uni asrash kerakligini yana bir bor anglatish;
- o'quvchilarda qaltis vaziyatlarda o'zini tuta olish, o'z oldiga muayyan maqsadlar qo'yib, ularga erishish yo'lida kurasha olish, shuningdek, Vatan ozodligini har narsadan ustun qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa). 1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (10 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilarning uy vazifasini qanday bajarganliklarini nazoratdan o'tkazish uchun ixtiyoriy ravishda 6 nafar o'quvchini taklif etadi. O'quvchilar sinf taxtasiga chiqishgach, o'qituvchi oldindan tayyorlanib, teskari qilib qo'yilgan 6 ta kartochkani o'quvchilarning oldiga qo'yadi. Har bir kartochkada O'zbekiston tarixining muayyan davrlari nomi yozilgan bo'ladi (masalan, Turkistonda maorifning rivojlanishi, jadid maktablari, rus-tuzem maktablari va teatr yuzaga kelish davri). O'quvchilar ketma-ketlik asosida kartochkalarni olishadi hamda o'zlariga berilgan davr to'g'risida imkon

qadar ko'proq ma'lumot aytishga harakat qilishadi. Topshiriq matnida so'ralgan savolga (davrlashtirish mezonlariga) oid aytilgan har bir ma'lumot o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan sanab boriladi va ularning soni sinf taxtasiga yozib qo'yiladi. 6 nafar o'quvchining barchasi ma'lumotlarni aytib bo'lgach, boshqa o'quvchilarga ham qo'shimcha qilishga ruxsat etiladi. O'quvchilar o'zlari aytgan ma'lumotlar salmog'iga ko'ra rag'bat kartochkalari bilan baholanadilar.

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (14 daqiqa).

O'qituvchi yangi dars mazmunini tushuntirish uchun «Muammoli ma'ruza» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda asosiy e'tibor mavzu matnidagi muammoli va qaltis vaziyatlarda o'quvchilar qanday yo'l tutishlari bilan qiziqishga qaratiladi. «*Shunday vaziyatda Siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?*» degan savol o'rtaga tashlanib, o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin bildirishlariga imkoniyat va sharoit yaratib beriladi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (11 daqiqa).

O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Kichik guruhlarda ishlash» uslubidan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi. Ularning har biriga quyidagi topshiriqlar beriladi. Topshiriqni bajarish uchun 7 daqiqa vaqt ajratiladi.

1-guruhga: Matndagi barcha sanalarni ajrating. Ular bilan bog'liq tarixiy voqealarni izchillikda yozib chiqing.

2-guruhga: Matndagi barcha tarixiy shaxs nomlarini ajrating. Ularning O'zbekiston tarixida qanday iz qoldirganligini aniqlang.



Respublika ta'lim markazi 3-guruhga: Mavzu matnidagi atamalarni yozing va ularni darslik matnidan kelib chiqib qisqacha izohlang.

4-guruhga: Mavzudagi siyosiy muassasa, tashkilot nomlarini aniqlang. Ularning qaysi tarixiy voqealar bilan bog'liqligini yozing.

O'quvchilar darslikdan foydalangan holda quyidagilarni aniqlashlari va ularga qisqacha izoh berishlari mumkin:

1-guruh Tarixiy sanalar	2-guruh Tarixiy shaxslar	3-guruh Tarixiy atamalar	4-guruh Muassasa nomlari
1903-yil; 1905-yil; 1917-yil 27-fevral; 1917-yil 2-mart; 1917-yil 12-mart; 1917-yil 14-mart; 1917-yil 31-mart; 1917-yil mart–iyul; 1917-yil 7-aprel; 1917-yil 16-aprel; 1917-yil 23-aprel; 1917-yil iyun; 1917-yil iyul–oktyabr; 1917-yil sentyabr; 1918-yil 26-yanvar; 1918-yil 31-yanvar; 1918-yil 14-fevral; 1918-yil may	Abdul Aziz Davletshin; Abdulvohidqori; Abdurauf Fitrat; Ahmad Zakiy Validiy; Aleksandr Kerenskiy; Alixon Bukeyxonov; Georgiy Lvov; Islom Shoahmedov; Kuropatkin; Mahmudxo'ja Behbudiy; Muhammad Tinishboyev; Mulla Muhiddinxon; Mulla Ulug'xon; Munavvarqori; Nikolay II; Nikolay Shchepkin; Sadri Maqsudiy; T. Norbo'tabekov; Ubaydulla Xo'jayev; Vladimir Nalivkin; Sherali Lapin	«al-Izoh»; «al-Isloh»; bolshevik; Dastur; Dekret; Fevral inqilobi; general-gubernator; grigorian kalendari; ikki (qo'sh) hokimiyatchilik; jadidchilik; menshevik; muxtoriyat; qadimchilar; qurultoy; samoderjaviye; syezd; uch hokimiyatchilik; ziyolilar; shariat qonunlari; shu'ba	Davlat dumasi; Eserlar partiyasi; «Ittifoqi Muslimin»; Ishchi va soldat deputatlari Soveti; Kadetlar partiyasi; Kraymussovet – Milliy Markaz; Muvaqqat komitet; RSFSR (Rossiya Sotsial Federativ Sovet Respublikasi) Xalq Komissarlari Soveti; Turkiston komiteti; «Sho'royi Islomiya»; «Sho'royi Ulamo»

Guruhlar topshiriqni bajarib bo'lishgach, ketma-ketlik asosida har bir guruh o'ziga berilgan topshiriq javobini o'qiydi hamda unga qisqacha izoh beradi. Agar o'ziga berilgan topshiriqni o'qib berish va izohlash jarayonida guruhdagi barcha o'quvchilar faol qatnashsa, ushbu guruhga qo'shimcha rag'bat bali beriladi. Bir guruh javobini ikkinchi bir guruh to'ldirishi, aniqliklar kiritishi mumkin. O'yin nihoyasiga yetgach, guruhlar o'z javoblarining sifati va guruh o'quvchilarining faolligiga qarab baholanadilar.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi guruhlarning o'yindagi ishtirokini xulosalaydi va o'quvchi-

larni keyingi darslarda yanada faolroq bo'lishga undaydi.

2. Dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.
3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. 1917-yil fevral–oktyabrda ro'y bergan voqealarning Turkiston xalqi hayotiga ta'siri bo'yicha taqdimot tayyorlash.

TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI

1917-yil kuzida Turkistonda hokimiyatning Sovetlar qo'liga o'tishi uchun obyektiv shart-sharoitlar yo'q edi. Negaki, bu zamin aholisi bolsheviklar partiyasi dasturida nazarda tutilgan sotsialistik o'zgarishlar orqali hamma narsani umumlashtirish va milliyalashtirishni yoqtirmasdi. Mahalliy xalq o'zining tarixan tarkib topgan, asrlar davomida shakllangan o'ziga xos turmush tarzini, yashash sharoitini, xo'jalik yuritish, idora qilish tartib-qoidalarini bir lahzada tubdan o'zgartirishni xohlamasdi. Bu narsa uning ongi, tafakkuriga, milliy o'zligi va ma'naviy qiyofasiga mos kelmasdi. Ayniqsa, bolsheviklarning ateistik ruhdagi mafkurasi, uning hujumkor yo'nalishi islom qadriyatlarini doimo e'zozlanib kelingan bu yurt odamlarining ruhiyati va dunyoqarashi bilan singisha olmasdi. Bir so'z bilan aytganda, mahalliy tub yerli aholi tabiiy ravishda oktyabr g'oyalarini qabul qilmadi va unga moyillik ko'rsatmadi. Turkistonda asosiy siyosiy kuchlar eserlar va milliy partiyalar edi. Oktyabr to'ntarishi haqidagi xabar 27-oktyabrda Toshkentga yetib kelgan. Bu xabarni Butunrossiya Sovetlarining II qurultoyida Turkiston nomidan vakil bo'lib qatnashgan A.Frolov va D.Dekanov (Samarqand) telegraf orqali yuborgan edi. Bunday xabar F.Kolesov orqali ham o'lkaga uzatilgan edi. Bu xabarning yetib kelishi bilan bolsheviklar va so'l eserlar hokimiyatni zo'ravonlik yo'li bilan egallash uchun kurash boshladilar.

Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan, asosiy tarkibi yevropalik aholi vakillaridan iborat harbiy qismlar, ishchi otryadlari mahalliy bolshevistik tashkilotlar boshchiligida qurolli qo'zg'olon yo'li bilan sovet hokimiyatini qaror toptirishga kirish-

dilar. Bolshevik V.S.Lyapin boshchiligida inqilobiy qo'mita tuzildi va qo'zg'olon boshlandi. 1917-yil 28-oktyabr kuni ertalab Toshkentda yevropalik qurollangan ishchilardan iborat bir necha ming kishi ishtirokida qo'zg'olon boshlangan. To'rt kunlik janglardan so'ng 1-noyabrga kelib Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi ag'darildi. General Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi a'zolari qamoqqa olindi. Toshkentning yangi shahar qismida sovet hokimiyati o'rnatildi. Biroq qurolli to'qnashuvda mahalliy aholi ishtirok etmadi. Hokimiyatning sovetlar tomonidan bosib olinishini taraqqiyparvar kuchlar (Fitrat, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Munavvarqori, Sherali Lapin va b.) keskin qoralashgan. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayoni qonli, fojiali voqealar bilan bog'liq holda kechdi. Jumladan, Farg'ona viloyatida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayonida, Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming begunoh kishilar qirg'in qilindi.

Shu tariqa birin-ketin Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati o'rnatildi. Xususan, 1917-yil 1-noyabrda Termiz va Kattaqo'rg'onda, 8-noyabrda Sirdaryo viloyatida, 25-noyabrda Yangi Buxoro (Kogon) da, 28-noyabrda Samarqandda, 30-noyabrda Jizzaxda, 13-dekabrda Samarqand viloyatida, dekabr oyi davomida Kaspiyorti viloyatida, Farg'ona viloyatida esa dekabr oyi oxiri 1918-yil yanvar oyining boshlarida sovetlar hokimiyati qaror topadi.

«O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida» (2-jild) kitobidan.



YOSH BUXOROLIKLAR FAOLIYATI VA BUXORO AMIRLIGINING TUGATILISHI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Buxoro amirligidagi ahvol va Yosh buxoroliklar faoliyati, Qizil armiyaning Buxoroga hujumi hamda amir hokimiyatining ag'darilishi haqida bilimlar berish;
- Buxoroning qizillar tomonidan mahv etilishi misolida o'zgalar tomonidan qilingan yordam doimo ham beg'araz bo'lmasligi, balki g'arazli maqsadlarni niqoblash vositasi bo'lishi mumkinligini aniq misollar bilan ko'rsatib berish;
- Amir Olimxon islohotlari, uning faoliyatini o'rganish orqali o'quvchilarda tafakkur qilish shakllarini yanada rivojlantirish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (12 daqiqa).

O'quvchilar guruhlariga ajratiladi va har bir guruhga bittadan boshqotirma beriladi. Boshqotirmalarning mavzusi o'tilgan mavzu bo'yicha bo'ladi. Har bir guruh sardori o'zining boshqotirmasini doskaga ilingan vatman qog'oziga yozadi. Yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi.

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (15 daqiqa).

O'qituvchi yangi dars mazmunini «Kichik ma'ruza» shaklida tushuntiradi. Ma'ruza davomida o'quvchilarning diqqat-e'tiborini oshirish maqsadida quyidagi savollar berib boriladi. Javob berish jarayonida o'quvchilarning erkin fikrlashlariga sharoit yaratib beriladi:

1-savol: Nima sababdan Amir Olimxon Buxoro amirligi hududidagi rus manzilgohlarida ham ishchi va soldat de-

putatlari Sovetlari paydo bo'lib, siyosiy beqarorlik va tartibsizliklar kelib chiqishini ko'ra turib, qo'l qovushtirib o'tirgan?

2-savol: Sizningcha, Sayid Olimxonning Buxoroda turli islohotlar o'tkazish to'g'risidagi farmonni imzolashiga nima sabab bo'lgan? Bu farmon amirning shaxsiy tashabbusi bo'lganmi, yoki uni imzolashga nimadir majbur qilganmi?

3-savol: Nega Amir tomonidan 7-aprelda imzolangan farmon 14-aprelga kelib bekor qilingan? Farmonning bor-yo'g'i bir haftagina amalda bo'lishiga nimalar sabab bo'lgan?

4-savol: Tajovuzkorona hujumi sharmandalarcha barbod bo'lgan Fyodor Kolesovning harakatini qanday baholaysiz? Uning Buxoroga hujum qilishiga qanday sabab bahona bo'lgan bo'lishi mumkin?

5-savol: Amir Olimxonni asirga olib, Arkdagi xazinani egallashni maqsad qilgan qizillarning Buxoroni bombardimon qilib, hatto uni kimyoviy snaryadlardan o'qqa tutishi adolatdanmi? Nima uchun?

6-savol: Amir Olimxonning shahar obidalarini va aholini omon saqlash maqsadida poytaxtni tashlab, Sharqiy Buxoroga chekinishi sizda u haqda qanday tasavvur uyg'otdi? Bu voqealarda Yosh buxoroliklarning o'rnini qanday baholaysiz?

7-savol: Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi qanday jarayonlar bilan birga kechdi? Sovet hukumatining uni tobora bo'g'ib borishiga nimalar sabab bo'lgan? Fayzulla Xo'jayevning faoliyatini jasorat deyish mumkinmi? Nega?

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (10 daqiqa).

O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Boshqotirma» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo,

quyida keltirilgan boshqotirma kompyuter va proyektor yordamida ekranga chiqariladi (yoki vatman qog'ozga chizilgan shakli sinf taxtasiga ilib qo'yiladi). O'quvchilarga har bir boshqotirmada o'tgan darsda o'rganilgan mavzuga oid biron-bir tushuncha yashiringanligi, agar har bir boshqotirmada berilgan so'zning birinchi aylanasini to'g'ri topa olishsa, undan o'tkazilgan chiziq orqali harakatlangan holda undagi tushunchalarning nomini bilib olishlari mumkinligi aytiladi. Berilgan boshqotirmadagi barcha tushunchalarni aniqlab, savol matnida (javobda emas) ushbu tushunchalarni qatnashtirgan holda birinchilardan bo'lib yozma ravishda beshta qiziqarli savol tuza olgan besh nafar o'quvchi rag'bat kartochkalari asosida baholanishi ta'kidlanadi. Ushbu besh nafar o'quvchi o'zi bajargan topshiriqni o'qituvchiga tekshirtirib bo'lgach, qolgan o'quvchilar topshiriqni bajarishni to'xtatadilar. Topshiriqni birinchi bo'lib bajargan o'quvchi esa o'zi tuzgan 3 ta savolni o'qiy boshlaydi va qolgan o'quvchilar mazkur savollarga javob beradilar.


Boshqotirmada quyidagi tushunchalar yashiringan: namoyish, Olimxon, jaddidlar, farmon, inqiroz.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi darsga yakun yasaydi hamda o'quvchilarning ishtirokini xulosalaydi, ularni keyingi darslarda yanada faol bo'lishga undaydi.
2. Dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida sinf jurnaliga baholar qo'yadi.
3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Fayzulla Xo'jayev faoliyatiga oid qo'shimcha ma'lumotlar aniqlab, yozib kelish.





AMIR OLIMXON FARMONI

1910-yil 29-dekabrda Arki oliyda yig'ilgan ulamo, umaro, a'yonlar va rus elchixonasining vakillaridan iborat majlisda Mirzo Nizomiddin Urganjiy amir Olimxonning birinchi farmonini yig'ilganlarga o'qib eshittiradi. Farmon «Biz, xalqning osoyish va tinchligini samimona bir suratda istaymiz, raiyaning saodati va yurtning obodligi yo'lga tangri taoloning yordami bilan cholishamiz», jumalari bilan boshlangan bo'lib, unda asosan soliq tizimi va harbiy sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, poraxo'rlikni taqiq-

lashga doir majburiyatlar belgilab qo'yilgan edi. Farmondagi asosiy bandlar quyidagilardan iborat edi:

1. Saroyning tortiq va peshkashlarini man etish.
2. Farsax puli solig'ini tayinlash.
3. Yer solig'ini o'ndan bir hissaga kamaytirish.
4. Harbiylar oylik maoshini oshirish.

*Dilnoza Jamolovaning
«Amir Olimxonning islohot farmonlari»
nomli maqolasidan*

BUXORO AMIRI MANIFESTI

Yosh buxoroliklar Petrograddagi Muvaqqat hukumatga amirlikda demokratik islohotlar o'tkazishni so'rab, 2 marta telegramma yubordi, Fitrat va U. Po'latxo'jayev Petrogradga jo'natildi. Ular Rossiyadan maxsus komissiya kelayotgani sababli Orenburgdan Buxoroga qaytishdi. Rossiyaning Buxorodagi regenti A. Y. Miller Buxoroda U. Po'latxo'jayev, A. Burhonov va boshqalar bilan uchrashib, yosh buxoroliklar talablari bilan tanishdi. Ular yangi usul maktablari ochish, matbuotga erkinlik berish, xalq hukumati tuzish talablarini ilgari surdi. Muhokamalardan so'ng A. Y. Miller va uning yordamchisi Shulga tomonidan amirlikda o'tkaziladigan islohotlar loyihasi ishlab chiqildi. Buxoro amiri Sayid Olimxon bu manifest matnini ayrim tuzatishlar bilan farmoni oliy tarzida 1917-yil 7-aprelda e'lon qildi.

Manifestda quyidagi talablar va'da qilingan:

1. Nufuzli kishilardan iborat Majlis tashkil qilish.
2. Davlat xazinasini ta'sis etish va mamlakat byudjetini belgilash.
3. Poytaxtda bosmaxona ochish.
4. Sanoat va savdoni rivojlantirish.
5. Soliqlarni tartibga solish.
6. Amaldorlar ustidan nazorat o'rnatish.
7. Maorif, tibbiyot, sud tizimlarini yaxshilash.
8. Ma'muriy boshqarish ishlarini takomillashtirish.

XIVA XONLIGINING TUGATILISHI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat va Yosh xivaliklar faoliyati, Qizil armiya tomonidan Xiva xonligining tugatilishi, shuningdek, Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil qilinishi haqida bilimlar berish;
- islohotlar kishilar hayotini yaxshilashga xizmat qilsagina, muayyan mazmun va mohiyat kasb etishini, Asfandiyorxon taqdiri misolida islohotlarni to'g'ri qabul qila olish va o'zgarishlarga xolisona munosabat bildirish zarurligini uqtirish.

I. TASHKILYI ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (12 daqiqa).

O'tgan darsda o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Bilimdonlar dueli» ta'limiy o'yinidan foydalanish mumkin. Avvalo ixtiyoriy ravishda ikki nafar o'quvchi taklif etiladi. So'ngra o'quvchilarga o'yin qoidasi tushuntiriladi. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan 5 ta savolga to'g'ri javob berishlari lozimligi aytiladi. O'qituvchi savolni o'qib bo'lgach, ikkala o'quvchidan qaysi biri birinchi bo'lib qo'l ko'tarsa, o'sha o'quvchi javob berish huquqini qo'lga kiritadi. Savolga javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. Agar birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchi savolga noto'g'ri javob bersa, ikkinchi o'quvchi ham o'z javobini aytishi mumkin. Berilgan 5 ta savolning barchasiga to'g'ri javob bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi va o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Hech bir o'quvchi berilgan barcha savollarga to'g'ri javob berol-

masa, ular o'zlari ko'rsatgan natijalariga muvofiq rag'bat kartochkalari asosida baholanadilar. Birinchi juftlik o'yinni nihoyasiga yetkazgach, uni davom ettirish uchun ketma-ketlik asosida ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi juftliklar taklif etiladi.

O'quvchilarga beriladigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Birinchi juftlik uchun:

1. Buxoro hukmdori Amir Sayid Olimxon necha yil umr kechirgan? (63 yil)
2. Karmanadan Qorako'lgacha bo'lgan qancha masofadagi temiryo'l izlari amir safbozlari tomonidan buzib tashlandi? (170 km)
3. Qachon Buxoroda amir hokimiyati ag'darilib, hokimiyat tepasiga Yosh buxoroliklar kelishdi? (1920-yil 2-sentyabrda)
4. 1920-yili avgustda qaysi manzilda Muvaqqat inqilobiy qo'mita tuziladi? (Chorjo'yda)
5. Nechanchi yilda Fayzulla Xo'jayevning yaqin safdoshlari bo'lgan nozirlar hukumat tarkibidan chiqarildi hamda Buxorodan surgun qilindi? (1923-yilda)

Ikkinchi juftlik uchun:

1. Buxoroda ish olib borgan Rossiya siyosiy agentligi imperiya qulagidan so'ng qanday nom bilan ataladigan bo'ldi? (Rossiya hukumati-ning rezidenti)
2. 1918-yil 17-martda Turkiston Xalq Komissarlari Soveti raisi boshchiligidagi otryad qayerga yetib keldi? (Samarqandga)
3. Katta boylikni o'margani uchun 1920-yilda Moskvaga qaytgach,



qo'lga olingan va bir necha oy uy qamog'ida saqlangan «qizil qo'mondon» kim? (*M. Frunze*)

4. 1924-yil 18–20-sentyabrda Butunbuxoro xalq vakillarining nechanchi qurultoyi bo'lib o'tdi? (*Beshinchi qurultoyi*)
5. Fayzulla Xo'jayev necha yil umr ko'rgan? 42 yil (1896–1938)

Uchinchi juftlik uchun:

1. Buxoro amiri Sayid Olimxon qachon Buxoroda turli islohotlar o'tkazish to'g'risidagi farmonni imzoladi? (1917-yil 7-aprelda)
2. Yosh buxoroliklar mamlakatda qanday ishlarni amalga oshirishni ko'zlashgan edi? (*Ma'orif sohasida amirlik xazinasi hisobidan maktablar va oliy o'quv yurtlari ochish*)
3. Qaysi saroyda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilingan? (*Sitorai Mohi Xosada*)
4. 1922-yili Berlinga nemis banklari va chet el savdo kompaniyalari bilan mustaqil shartnoma tuzishga borgan BXSR rahbari kim edi? (*Fayzulla Xo'jayev*)
5. Qachondan boshlab Eski Buxoro ham havodan, ham yerdan qattiq bombardimon qilingan? (1920-yil 29-avgustdan)

To'rtinchi juftlik uchun:

1. Amirlik hududidagi rus manzilgohlari ishchi va soldat deputatlari Sovetlarining II syezdi qachon bo'lib o'tgan? (1917-yil 2-dekabrda)
2. Sovetlarning 3500 kishidan iborat harbiy kuchlari 1918-yil 1-martda kim boshchiligida Yangi Buxoroga yetib keldi? (*Fyodor Kolesov*)
3. Yosh buxoroliklar mamlakatda qanday ishlarni amalga oshirishni

ko'zlashgan edi? (*Yakka hokimlik (monarxiya)ni yevropacha konstitutsion monarxiyaga almashtirish*)

4. Buxorodagi yangi hukumat – Nozirlar Sho'rosining birinchi raisi sifatida saylangan shaxs kim? (*Fayzulla Xo'jayev*)
5. Nozirlar Sho'rosida Usmonxo'ja Po'latxo'jayev qanday vazifani egallagan? (*Moliya noziri*)

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (12 daqiqa).

O'qituvchi yangi mavzuni og'zaki bayon hamda tasviriy vositalarni qo'llash uslublaridan foydalanib oldindan tayyorlangan taqdimot yordamida tushuntiradi.

O'qituvchi yangi mavzuni quyida berilgan krossvord yordamida o'tishi mumkin. Bunda krossvord printer yordamida A4 formatdagi qog'ozga chop qilinib tarqatiladi. O'quvchilarga krossvordni mustaqil ravishda yechishlari uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. O'quvchilarning krossvord ustida individual ishlashlari, javoblarni bir-birlaridan ko'chirmasliklari o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi. Topshiriqni birinchi bo'lib bajargan 5 nafar o'quvchi rag'bat kartochkalari asosida baholanadi.

SAVOLLAR


ENIGA: 1. 1910–1918-yillarda hukmronlik qilgan Xiva xoni.

2. Qurbon Mamed Sardor mansub bo'lgan urug' nomi.

3. 1917-yil aprelda Xivada xon huzurida tashkil etilgan muassasa.

4. Said Abdulla davrida hukumat boshlig'i lavozimini egallagan shaxs.

BO'YIGA: 1. Xivada 1917-yil 5-aprelda qabul qilingan hujjat.



2. 1923-yilda XSSRda maorif nozirli-gi ixtiyoriga berilgan yerlar nomi.

3. 1919-yil 9-aprelda Xiva xonligi bi-lan sovet hokimiyati vakillari o'rtasida shartnoma imzolangan qishloq.

4. XXSR Nozirlar Sho'rosining birin-chi raisi etib saylangan shaxs familiyasi.

5. Muvaqqat hukumatning Xivadagi vakili bo'lgan general.

6. 1918-yilda Xiva qurolli kuchlari bosh qo'mondoni etib tayinlangan shaxs.

7. Boboovun Salimovning xon saroyi-dagi lavozimi.

8. 1920-yil 1-fevralda sovet qo'shin-lari tomonidan istilo qilingan shahar.

9. Husaynbek Matmurodovning xon saroyidagi mansabi.

10. Petro-Aleksandrovsq shahrining hozirgi nomi.

JAVOBLAR

ENIGA: 1. Asfandiyorxon. 2. Yovmut. 3. Majlis. 4. Davlatmurod.

BO'YIGA: 1. Manifest. 2. Vaqf. 3. Tax-ta. 4. Xiva. 5. Yusupov. 6. Mirbadalov. 7. Junaydxon. 8. Qozikalon. 9. Devonbe-gi. 10. To'rtko'l.



Respublika ta'lim markazi **IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH** (12 daqiqa).

1-usul

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «T-jadval» texnologiyasidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, o'quvchilar «T-jadval» uslubi shartlari bilan tanishtiriladi. So'ngra 5 ta kichik guruh shakllantiriladi. Guruhlar 7 daqiqa davomida jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko'ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradilar, ya'ni jadvalning chap va o'ng tomonlariga Buxoro amirligi va Xiva xonligida monarxiya tuzumining qulashini uning shu davrdagi hukmdorlari faoliyatiga bog'lagan holda bayon etadilar. Guruhlar tomonidan to'ldirilgan jadvallar o'zaro solishtiriladi. Masalaning yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi yoki yagona «T-jadval» shakllantiriladi.

2-usul

O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Bingo» mashqidan foydalanishi mumkin. Bunda har bir guruhga oldindan tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalardagi jadvalda tarixiy sana yozilgan bo'ladi. O'qituvchi shu sanaga taalluqli jumlaning o'qiydi va guruhlar o'qilayotgan jumlagacha tegishli sanani belgilab qo'yadilar.

Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

«__» – 1920-yil	«__» – 1915-yil	«__» – 1918-yil
___???	___???	___???

1. Nurullaboy saroyida Asfandiyorxonning suiqasdi uyushtiradi. (1918)
2. Said Abdullaxon taxtdan voz kechadi. (1920)

3. Asfandiyorxon Junaydxonni turkman qabilalarining sardori etib tayinlagan. (1915)
4. ...
5. ...
6. ...

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida sinf jurnaliga baholar qo'yadi.
2. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Amir Olimxon va Junaydxon haqida qo'shimcha ma'lumotlar aniqlab kelish.

Amir Olimxon		Asfandiyorxon
1.	Monarxiya tuzumi ag'darilishi uchun kim qanday «hissa» qo'shgan?	1.
2.		2.
3.		3.
4.		4.
5.		5.
6.		6.
7.		7.



XIVA XONINING MANIFESTI

1917-yil 5-aprelda Husaynbek Matmurodov boshliq yosh xivaliklar delegatsiyasi Nurulaboy saroyiga keladi. Bu yerda shoshilinch tarzda yosh xivaliklarning talablari manifest loyihasi sifatida yozilib, Xiva xoniga topshiriladi. Manifestni Asfandiyorxon va uchta qozi – domulla Ibrohim oxun alam, qozi-ul-quzot domulla Hikmatulla Xo'ja oxun, qozi-ul-quzot domulla Xudoybergan oxunlar imzoladi.

Manifest 7 moddadan iborat bo'lib, uning mazmuni quyidagicha bo'ldi:

«Hijriy 1335-yil 25-jumad-us-soniy yoki Iso tug'ilishining 1917-yil 5-aprelida, men – Xiva xoni Said Asfandiyor Bahodirxon quyidagi xohishimni e'lon qilaman:

1. Men o'z fuqarolarimga konstitutsiyaviy boshqaruvni shuning uchun berdimki, ular davlatni o'z xohishlari, muqaddas shariat qonunlari va zamon talabi bilan umumxalq kengashi orqali saylangan va davlat ishlarini boshqarishga tayinlangan adolatparvar va loyiq kishilar boshqarsinlar.

2. Mening fuqarolarim davlatni boshqarish ishida muqaddas shariat bilan kelishilgan holda adolatli harakat qilishlari shart.

3. Men fuqarolarimga birlik, tinchlik va ozodlikni shuning uchun berdimki, ular bir-birlari bilan aka-uka bo'lib, tinch yashasinlar.

4. Xiva davlatida vazirlik va amaldorlik vazifalarini aholi tomonidan saylangan va tayinlangan vijdonli va adolatparvar kishilar bajarsinlar. Xalq xohlamagan vazir, amaldor va hokimlar ishdan olinib,

jinoyati isbotlansa, muqaddas shariat qonunlari asosida jazoga tortilsin.

5. Barcha amaldor va vazirlarga, davlat xizmatchilariga vazifalariga yarasha xazinadan maosh ajratilsin.

6. Xiva davlatining moliya ishlari uchun xazinachi joriy qilib, kirim-chiqimlarni nazorat qilish topshirilsin.

7. Vazirlar va amaldorlarni nazorat qilish hamda mening yuqoridagi buyrug'imni bajarish uchun aholi o'z vakillarini saylagunga qadar 30 kishidan iborat vaqtli qo'mita tayinlansin. Xiva fuqarolari tinchlikni saqlab, o'z ishlarini amalga oshirsinlar va boshqa madaniyatli xalqlar qatoridan o'rin olish uchun bor kuchlarini sarflasinlar»...

1920-yil 1-fevralida Said Abdullaxon qizil askarlar va yosh xivaliklar talabi bilan taxtdan voz kechganligi to'g'risidagi manifestni imzoladi. 2-fevralda manifest xalqqa o'qib eshittirildi va majlis chaqirilgunga qadar hokimiyat Muvaqqat inqilobiy hukumat (qo'mita) qo'liga o'tganligi e'lon qilindi. Yangi Muvaqqat hukumat tarkibi quyidagi tarkibda tuzildi:

1. Jumaniyoz Sultonmurodov – Yosh xivaliklar firqasi To'rtko'l qo'mitasining raisi, zavod egasi bo'lgan, Muvaqqat inqilobiy hukumat raisi.

2. Matpanoboy Madrahimov – shahar xalqi va savdogarlar nomidan a'zo, Yosh xivaliklar partiyasi a'zosi.

3. Odamoxun Ortiqov – ulamolar tomonidan a'zo.

4. Mulla Uroz Xo'jamammedov – Qo'shmamedxon Sapiyev (Turkman qabila sardori) tomonidan a'zo.



5. Mulla Navro'z Ro'ziboyev – G'ulom Anixon Bahodir (Turkman qabila sardori) tomonidan a'zo.

Muvaqqat inqilobiy hukumat har haftada kamida ikkitadan majlis chaqirib, eng muhim masalalarni ko'rib, muhokama qilib bordi. Bu qo'mita 2 oy davomida ham qonun chiqaruvchi, ham ijro qiluvchi hokimiyat vazifasini rasmiy ravishda bajardi. 1920-yil 9-aprel kuni muvaqqat inqilobiy hukumat ishini yaxshilash maqsadida uning tarkibida 10 kishidan iborat dastlabki xalq hukumati – Nozirlar Soveti tashkil qilindi.

1920-yil 8-yanvarda Toshkentdagi «Izvestiya» gazetasida «Xiva inqilobchilar partiyasining yaqin vazifalari» nomi bilan yosh xivaliklarning 1918-yil iyul oyida ishlab chiqilgan dasturi nashr etildi. Bunda ular o'zlarini Xiva inqilobiy partiyasi deb ataganlar.

«Manifest» tarzidagi bu dastur 12 moddadan iborat edi:

1. Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatdagi yakka boshqaruvni butunlay tugatish.
2. Xiva xoni, to'ralar, beklar va vazirlarning boyligi, har xil ko'rinishdagi mol-mulklarini xalq boyligi deb e'lon qilish.
3. Yirik yer egalari mulklaridan kambag'allar hayotini yaxshilashda foydalanish.

4. Shariat hukmi bilan vaqflarning barcha daromadini faqat xalq maorifi uchun sarflash.
5. Xivadagi yangi yerlarni o'zlashtirish uchun Amudaryodan ariqlar chiqarish.
6. Bolalarni bepul o'qitish uchun Xivada maktablar ochish.
7. Xivadagi shahar va qishloqlarda bepul davolovchi kasalxona va davolash muassasalarini ochish.
8. Xiva xoni tomonidan kambag'al aholidan majburan tortib olingan yer va boshqa boyliklarni o'z egalari qaytarish.
9. Asfandiyorxon hukmronligi davrida xazinaga tushgan xalq boyligining nimaga sarflanganligini aniqlashtirish.
10. Ko'priklar va aloqa yo'llarini yaxshilashga kirishish.
11. Beklar tomonidan kambag'al aholidan majburan tortib olingan yer va mulklarni o'z egalari qaytarish.
12. Majburiy tekin mehnat (begor)ni butunlay tugatish va boshqa vazifalar belgilangan.

O. Qo'shjonov, N. Polvonovlarning «Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr birinchi choragi)» kitobidan.



TURKISTON MUXTORIYATI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Turkiston Muxtoriyati hukumatining tashkil topishi va faoliyati, Turkiston xalqlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, qizil gvardiyachilar tomonidan tor-mor qilinishi haqida bilimlar berish;
- Turkiston Muxtoriyati hukumati a'zolari faoliyatlariga muxtasar to'xtalish orqali siyosiy faoliyatlaridagi murakabliklar, maqsad muddaosi yo'lida taslim bo'lmaslik tuyg'ularini o'quvchilarga ko'rsatib berish;
- o'quvchilar Qo'qon fojiasi haqida bilib oladilar.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (11 daqiqa).

O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Juftlikdagi bellashuv» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, sinfdagi o'quvchilar soniga teng bo'lgan raqamlar yozilgan kartochkalar tayyorlanadi va qutichaga solib qo'yiladi (masalan, sinfda 30 nafar o'quvchi bo'lsa, har birida 1 dan 30 gacha bo'lgan raqamlardan biri yozilgan 30 ta kartochka tayyorlanadi). So'ngra o'quvchilarga 1 daqiqa davomida darslikdan foydalangan holda o'tgan darsda o'rganilgan mavzuga oid bitta asosiy va bitta zaxira savol yozish vazifasi beriladi. Berilgan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi o'ziga ko'makchi sifatida bilimdon o'quvchini aniqlab olish uchun sinfdagi barcha o'quvchilarga bitta savol beradi. Qaysi o'quvchi ushbu savolga birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa, o'sha o'quvchi o'yin davomida bilimdon o'quvchi vazi-

fasini bajaradi. O'qituvchining savoli quyidagicha bo'lishi mumkin:

Rossiyadagi Oktyabr to'ntarishi nihoyasiga yetgan kundan necha kun o'tib, to'ntarish haqidagi xabar Toshkentga yetib kelgan? J: 2 kun.

Bilimdon o'quvchi aniqlangach, u sinf taxtasiga taklif etiladi hamda dars boshida tayyorlab qo'yilgan qutichadan tasodifiy tarzda ikkita kartochkani tanlaydi va undagi raqamlarni aytadi. O'qituvchi esa sinf jurnalida qaysi o'quvchilar ushbu raqamlar ostida qayd etilganliklarini aniqlab beradi. So'ngra mazkur ikki nafar o'quvchi (juftlik) o'z o'rinlaridan turgan holda bir-birlariga o'zlari tayyorlagan asosiy savolni beradilar. O'quvchilarning savol berish va unga javob berish oraligi 10 soniyadan oshmasligi lozim. O'yin shu tariqa qutichada kartochkalar qolmaguniga qadar tezkorlik bilan davom ettiriladi. O'quvchilar bir marta berilgan asosiy savolni ikkinchi marta takrorlamasliklari, shunday vaziyat yuz berganda zaxiradagi savoldan foydalanishlari lozim. Savolga to'g'ri javob berganlar rag'bat kartochkalari asosida baholab boriladi.

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (10 daqiqa).

O'qituvchi yangi dars mazmunini oldindan tayyorlangan taqdimot yordamida tushuntiradi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (14 daqiqa).

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Tezkor xotira» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda avvalo sinfdagi barcha o'quvchilar 4 ta guruhga ajratiladi. Guruhlarga ajratish jarayonida o'quvchilarning tasodifiy tarki-



ini tuzishga harakat qilish lozim. O'yin davrida o'qituvchi Turkiston Muxtoriyati hukumati a'zolari faoliyati haqidagi kichik matnlar yozilgan 4 ta varaqani tayyorlab qo'yadi. Har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi chiqib, teskari qilib qo'yilgan varaqalardan birini tanlaydi va o'z guruhi bilan birgalikda 7 daqiqa davomida varaqada yozilgan qo'shimcha ma'lumotlarni o'zlashtirishga harakat qiladi. Berilgan daqiqalar nihoyasiga yetgach, o'qituvchi barcha guruhlardan varaqalarni yig'ib oladi va dastlab birinchi guruh o'quvchilariga yuzlanadi. Guruhdagi har bir o'quvchi o'zlariga berilgan varaqada yozilgan shaxs haqidagi bittadan ma'lumotni ketma-ketlik asosida ayta boshlaydilar. Birinchi guruhdan so'ng navbat ikkinchi guruhga beriladi. O'qituvchi guruhdagi o'quvchilar tomonidan yoddan aytilgan ma'lumotlar miqdorini sinf taxtasiga yozib boradi. Shu taxlit barcha guruhlar o'z ma'lumotlarini aytib bo'lishgach, varaqada qayd etilgan ma'lumotlarni tezkorlik bilan xotiraga joylab, eng ko'p ma'lumot ayta olgan, o'quvchilari faol ishtirok etgan guruhlar baholanadi.

Varaqalardagi matnlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Muhammadjon Tinishboyev (1879-yil 12-may, Yettisuv viloyati – 1938-yil 20-aprel) – davlat va jamoat arbobi, tarixchi olim. Turkiston Muxtoriyati hukumatining birinchi bosh vaziri (1917-yil noyabr–dekabr) va ichki ishlar vaziri (1917-yil noyabr – 1918-yil fevral). Alash O'rdada hukumatining ichki ishlar vaziri (1917-yil dekabr – 1920-yil mart). Peterburg temiryo'l transporti muhandislari institutini tugatgan (1906). 2-Davlat dumasi deputati (1907-yildan). Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti a'zosi (1917). Turkiston Respublikasi suv xo'jaligi boshlig'i (1922), Yer sug'orish bo'limi boshlig'i (1924). Toshkentdagi qozoq xalq maorif institutida turkiy xalqlar tarixi, ma-

tematika, kimyo va fizikadan dars bergan (1920–1925). Yettisuv guberniyasi ijroiya komiteti temiryo'l bo'limi boshlig'i (1926). Turkiston–Sibir (Turksib) magistralida turli lavozimlarda ishlagan (1927–1930). 1930-yil 3-avgustda sovet rejimi tomonidan qamoqqa olingan, 3 yilga surgun qilingan (1932–1935). Gurev–Kandigach temiryo'lida ishlagan (1935–1937). Toshkentda qayta qamoqqa olinib, otib tashlangan. 1959-yilda o'limidan so'ng oqlangan. Tinishboyev turkiy xalqlar tarixiga oid ko'plab asarlar, jumladan, «Qirg'iz – qozoq xalqi tarixiga oid materiallar» (rus tilida, Toshkent, 1925), «Turk-mo'g'ul tarixi» (1923) va boshqalar muallifi.

Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (ayrim manbalarda Ubaydulla Xo'jayev) (1878, Toshkent – 1937) – jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yirik vakili, o'zbek matbuotining ilk tashkilotchilaridan biri. Toshkentdagi rus-tuzem maktabini bitirgach, mahkamalardan birida tilmoch bo'lib ishladi (1897). Rossiyaning Saratov shahridagi huquqshunoslik institutida o'qidi (1908–1912). Talabalik yillaridayoq davr muammolarini yechishni o'yladi, rus yozuvchisi L.N.Tolstoy bilan yozishmalar qildi (1909). O'qishni tugatgach, dastlab Saratov, 1913-yilda Toshkent okrug sudida xususiy advokat bo'lib ishladi. Chor hukumati ma'murlarining poraxo'rliigi va zolimligini fosh etib, ayrimlarini davlat ishidan chetlatishga erishdi. Jadidchilik harakatiga qo'shilib, tez orada uning yirik vakillaridan biriga aylandi. U mustaqil firqa tashkil qilish niyatida Toshkentda «Sadoi Turkiston» gazetasini tashkil etib (1914-yil 4-aprel), unga muharrirlik qildi. Turkistonga tarqalib, umummilliy matbuot nashriga aylanayotgan «Sadoi Turkiston» 1915-yil aprelda yopib qo'yilgan bo'lsa-da, u o'lka ziyolilarining «Taraqqiyparvarlar» firqasiga zamin tayyorladi. Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev Toshkentda tuzilib, mar-

dikorlikka olish ishi bilan shug'ullangan «Turkiston mardikorlikka olish qo'mitasi»ning raisi (1916). Qo'mita chor amaldorlarining o'zboshimchaliklarini ochib tashladi. Mardikorlikka jo'natish haqidagi 1916-yil 25-iyunda qabul qilingan oq podsho farmonini bekor qildirish uchun Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev mahalliy millatparvar boy Mirkomil Mirmo'minboyev bilan birga Peterburgga bordi. Davlat dumasining 1916-yil dekabrda majlisida farmon Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilingani isbotlab berildi. Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev 1917-yil Turkistondagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashdi. «Sho'royi islom» jamiyati raisi. Muxtoriyatchilik harakati tashabbuskorlaridan. Turkiston muxtoriyati hukumati harbiy ishlar vaziri (1917-yil noyabr – 1918-yil fevral). Hukumat topshirig'i bilan Kavkazga bordi va Turkistonga g'alla keltirish masalasini hal qildi. Istiqloqlilik harakatiga xayrixohlik bilan qaragani, mustamlakachilikka qarshi kurashgani uchun «millatchilik»da ayblanib qatag'onga uchragan. Bir necha marta qamalib, turmada halok bo'ldi.

Mahmudov Obidjon Abduxoliqovich, Obid chatoq (1871, Marg'ilon – 1936-yil 21-noyabr) – Turkistondagi jadidchilik harakati vakili, yirik sarmoyador, noshir va jamoat arbobi. Obidjon Mahmudov Qo'qonga ko'chib kelib, Madrasa ta'limini oldi. Taxminan 1898-yilda Cheleken yarimoroli (Kaspiy dengizi)ga borib, turli ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Sherikchilikka olgan yeridan neft chiqib, boyib ketadi. Sankt-Peterburg universitetining tog'-kon muhandisligi fakultetini tugatgan. Qo'qonga qaytgach, tog'-kon sanoati bilan shug'ullanib, Farg'ona vodiysida bir necha neft konlarini ochishda ishtirok etgan. Sho'rsuvdagi oltingugurt konini sotib olgan. Farg'ona vodiysidagi jadidchilik harakatida qatnashgan va

ularni moddiy jihatdan ta'minlab turgan. Qo'qonda bosmaxona tashkil qilgan (1914). «Sadoyi Farg'ona» (1914), «Tirik so'z» (1917) va rus tilida chiqqan «Ferganskoye exo» (1914) gazetalarining muharriri va noshiri. Obidjon Mahmudov matbuotda dolzarb maqolalar bilan chiqib, Turkiston xalqini ma'rifatli bo'lishga chaqirgan, uni ozodlik uchun kurashga da'vat etgan. Qo'qon shahar Dumasi raisi o'rinbosari (1917). Turkiston Muxtoriyati hukumati oziq-ovqat vaziri (1917–1918). Muxtoriyat tugatilgach, Moskvaga borib, RSFSR Millatlar ishlari xalq komissarligi qoshidagi Turkiston vakolatxonasida matbuot bo'limi mudiri va boshqa lavozimlarda ishlagan (1919–1921). Toshkentga qaytgandan so'ng, dastlab Turkiston MIQ da ishlagan (1921), so'ng Farg'ona vodiysiga borib, «Milliy ittihad» tashkilotining bo'limini tuzgan va sovetlarga qarshi faoliyat olib borgan. Sovet rejimi tomonidan bir necha marta qamoqqa olingan. Og'ir xastalikdan vafot etgan.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi «Tezkor xotira» o'yiniga yakun yasaydi hamda guruhlarning ushbu o'yindagi ishtirokini xulosalaydi.
2. Dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.
3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Uyga vazifa uchun Turkiston Muxtoriyati haqida jadval tuzib, uning vakillari, ularning faoliyati haqida yozib kelish.



QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

TURKISTON MUXTORIYATI

Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari Sovetlarining III qurultoyi qarorlari asosida nomilliy mustamlakachi hukumatning tuzilishi nafaqat musulmonlar o'rtasida, balki boshqa nomusulmon aholi orasida ham jiddiy norozilikka sabab bo'ldi. Natijada tub yerli musulmon aholi vakillari Turkiston taraqqiyparvarlari boshchiligida Turkistondagi bolsheviklarning shovinistik siyosatiga javoban milliy istiqlol muammosi – muxtoriyat masalasini hal qilishga kirishdilar. Bunda Sovet Rossiyasidagi markaziy hokimiyat rahbari V. I. Lenin e'lon qilgan «Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi» (1917-yil 2-noyabr), «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» murojaatnomasi (1917-yil 20-noyabr) kabi rasmiy hujjatlarida bayon qilingan fikrlar muxtoriyatning tuzilishiga qo'shimcha asos bo'ldi.

Syezdda uch kunlik munozaradan so'ng vakillar Turkistonning bo'lg'usi siyosiy tuzumi to'g'risida qat'iy bir fikrga keldilar. 27-noyabr kuni kechasi soat 12 da 2 kishi qarshi bo'lib qabul qilingan qarorda, jumladan, shunday deyiladi: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi». Shundan keyin syezd «Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qiladi». 28-noyabrda tashkil topayotgan mazkur davlatning nomi «Turkiston Muxtoriyati» deb ataladigan bo'ldi. Hokimiyatni esa Ta'sis syezdi chaqirilgunga qadar Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston

Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi chaqirildi. Qurultoy 1917-yil 26–28-noyabr (9–11-dekabr)da Qo'qon shahrida faoliyat olib bordi. Unda Turkistonning barcha viloyatlari va Buxoro amirligidan kelgan 250 delegat qatnashdi. Uning kun tartibiga quyidagi masalalar qo'yildi: 1. O'lkani boshqarish shakli; 2. Turkistonning «Kazak askarlari, Kazak tog'liklari va erkin cho'l odamlarining Janubiy-Sharqiy Ittifoqi (YuVS)»ga kirish masalasi; 3. Ijroiya qo'mitani saylash, unga beriladigan topshiriq (nakaz)lar; 4. Turkiston Markaziy musulmonlar sovetini qayta saylash; 5. Bugungi ahvol; 6. Turkiston ta'sis majlisi; 7. Militsiya; 8. Moliya va boshqa masalalar.

R. Shamsutdinovning «O'zbekiston tarixi» o'quv qo'llanmasidan.

Xalq (Milliy) Majlisi qo'lida bo'lishi ta'kidlandi. Shuningdek, syezdda Muvaqqat Kengash tarkibiga 12 kishidan iborat a'zolar saylash taklif etildi. Xalq majlisi tarkibiga saylanadigan 54 o'rindan 18 o'rin o'lkadagi turli yevropalik aholi tashkilotlarining vakillari uchun ajratildi. Bu esa uchdan bir o'rin yevropalik aholi vakillariga tegishini bildirar edi.

Turkiston Muxtoriyati tashkil bo'lganidan keyin, 1917-yil 5-dekabrda Orenburgda qozoq taraqqiyparvarlarining II Umumqozoq syezdi bo'lib, unda «Alash-O'rda» avtonom respublikasi tuzilganligi e'lon qilinadi va yangi hukumat tarkibiga Muhammadjon Tinishboyev saylanadi. M. Tinishboyev «Alash-O'rda» hukumati ishini yo'lga qo'yish maqsadida Semipalatinskka (yangi hukumat Semipalatinskni poytaxt deb e'lon qilgan edi) ko'chib ketadi. «Alash-O'rda» avtonom respublikasi 1920-yil mart oyida sovet hukumati tomonidan tugatildi.

Bu ulkan ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy voqeani «Ulug' Turkiston» gazetasi shunday sharhlaydi: «Bolsheviklar hukumatining boshlig'i Lenin ham so'nggi farmonida Rossiyada yashagan millatlarga va shu jumladan, qozoqlar ila Turkiston musulmonlariga muxtoriyat e'lon qilib, o'z ishlarini qo'llariga olurg'a mumkin bo'lg'anlig'ini bayon etdi. Shunlikdan bukun Turkiston syezdining Turkiston Muxtoriyatini e'lon qilishi ham xalq, ham markaz hukumatining tilagig'a xilof tuguldir. Zotan, so'nggi vaqtda mayda millatlar hammasi muxtoriyat e'lon qilib yotarlar. Nufuzlari boshqalarg'a qarag'anda yuzdan yetmish besh bo'lg'oy (75 foiz) millatlar yerlik muxtoriyat e'lon qilurg'a haqli edilar. So'nggi qoidalarg'a ko'ra yuzdan oltmish tashkil qilg'an (60 foiz) millatlarda muxtoriyat e'lon qiluvg'a haqlik sanala boshladilar. Hol shu ila yuzg'a tashkil qilgan (95 foiz) Turkiston musulmonlarining muxtoriyat e'lon qilishig'a haqlari borlig'in hech kim inkor qila olmasa kerak. Bizdan vakil chiqarilg'an edi va yoxud biz bu ishni ertaroq ko'ramiz deb ko'rishurda o'rinsiz, ham musulmon manfaatig'a xilofdur. Sakkiz oydan beri yerli Turkistonning muxtoriyati haqinda so'ylab kelib, klubda bugun muxtoriyatga qarshi chig'arlar va yoxud tasdiq etmasdan mone' bo'luvg'a ekan, bu ish musulmonlarning butun orig'a va iymon va e'tiqodlariga qarshi bolta chopadigan so'z bo'lajakdur. Musulmonlar bukun muxtoriyat e'lon qilar ekan, buning ila hech kimning huquqig'a tegmaslar, bu bilan Tur-

kiston Rusiyadan aslo ayrilmay, balki uning bir mustaqil a'zosi bo'lib qoladi. Turkistonda yashagan rus, yahudiy, armani va boshqa har millatga o'zining haqi berilar. Ular ham Turkiston Muxtoriyatining teng huquqli bir a'zosi bo'lib yashayajaklar».

...Hukumatni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash maqsadida muxtor hukumat shoshilinch ravishda 30 million so'mlik zayom chiqaradi. Turkiston Muxtoriyati milliy qo'shinni tashkil qilishga ham kirishildi. Avval boshda hukumat ixtiyorida 60 yollanma askar bo'lgan bo'lsa, 1918-yil boshida ularning soni 2000 askarga yetdi. Milliy armiyada xorijdan chaqirilgan harbiy kishilar, aksariyat holda turk zobitlari yo'riqchilik ishlarini olib bordilar. Ayni vaqtda militsiya qismlarini tuzishga ham kirishildi. Bu borada Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev bosh bo'lgan ichki ishlar vazirligi xalq militsiyasining tashkil bo'lishi katta voqea bo'ldi. 1917-yil 26-dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Milliy bayrog'i qabul qilindi. Turkiston Muxtoriyati hukumati mustaqil ichki siyosat yuritish bilan bir qatorda tashqi siyosatda qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilishga intilgan. Xususan, Qozog'istonda faoliyat ko'rsatgan Alash O'rda muxtor hukumati (u 1917-yilda tashkil topgan) bilan Turkiston muxtoriyati o'rtasida aloqalar mavjud bo'lgan.

*«O'zbekistonning yangi tarixi.
O'zbekiston sovet mustamlakachiligi
davrida» (2-jild) kitobidan.*

TURKISTON MUXTORIYATI

Tunov kuni 30-noyabrda Qo'qon syezdiga borgan Samarqand vakillari kelib ushbuni bizga keltirdilar.

27-noyabr oqshom soat 12 da syezd tarafidan Turkistonda yerlik muxtoriyat e'lon qilindi. Hozirgi Turkistonning muvaqqat millat majlisi ochildi. Turkiston millat majlisi 54 nafar a'zodan iborat bo'lib, 36 nafari musulmonlar va 18 nafari g'ayr musulmonlardan saylanur. 36 musulmon vakillari Turkistonning 5 viloyatidan saylanur:

Farg'onadan – 10 nafar;
Samarqanddan – 5 nafar;
Sirdaryodan – 9 nafar;
Yettisuvdan – 6 nafar;
Zakaspiydan – 2 nafar.
4 nafar esa butun Turkiston shahar dumalari tarafidan tayin bo'lurlar.

Yashasin Turkiston muxtoriyati!

*«Hurriyat»,
1917-yil 1-dekabr sonidan.*



	Vazirning ismi va sharifi	Turkiston Muxtoriyati hukumatida egallagan lavozimi	Tug'ilgan hamda vafot etgan vaqti va joyi
<i>Birinchi tarkibda (1917-yil noyabr – dekabr)</i>			
1	Muhammadjon Tinishboyev [Muxamedjan Tinishpayev]	Bosh vazir va ichki ishlar vaziri	
2	Islom Sulton Shoahmedov [Shoxislom Shagisultonovich Shagioxmetov]	Bosh vazir o'rinbosari	
3	Ubaydulla Xo'jayev [Ubaydulla- xo'ja Asadullaxo'jayev]	Harbiy vazir	
4	Xidoyatbek Yurali Agayev [Xidoyatbek Yurguli Aga]	Yer va suv vaziri	
5	Obidjon Mahmudov	Oziq-ovqat vaziri	
6	Abdurahmonbek O'razayev	Ichki ishlar vaziri o'rinbosari	
7	Solomon Abramovich Gertsfeld	Moliya vaziri	
<i>Ikkinchi tarkibda (1917-yil noyabr – dekabr)</i>			
1	Islom Sulton Shoahmedov	Bosh vazir o'rinbosari hamda Moliya vaziri	
2	Ubaydulla Xo'jayev	Xalq militsiya rahbari va Jamoat xavfsizligi vaziri	
3	Obidjon Mahmudov	Yustitsiya vaziri	
4	Xidoyatbek Yurali Agayev	Yer va suv boyliklari vaziri	
5	Abdurahmonbek O'razayev	Ichki ishlar vaziri	
6	Saidnosir Mirjalilov	Hukumat g'aznachisi	
7	Nosirxon To'pa [Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayev]	Maorif vaziri	
8	Rafael ben Shlomo Potelyaxov	Oziq-ovqat vaziri	1868, Buxoro – 1936, London
9	Mirodil Mirzaahmedov	Vazir	
10	Yakub Xaimovich Vadyayev	Vazir	1868, Buxoro – 1936, London
11	Sion Xaimovich Vadyayev	Vazir	1878, Qo'qon – 1943, Parij
<i>Muxtoriyat hukumatining so'nggi kunlarida (1918-yil fevralning oxiri)</i>			
1	Kichik Ergash qo'rboshi	Turkiston Muxtoriyati hukumati raisi hamda Bosh qo'mondon	1885 – Qo'qon – 1918
2	Magdi Chapayev	Harbiy kengash raisi	? – Qo'qon, 1918

TURKISTON O'LKASIDA SOVET HOKIMIYATI BOSHQARUV TIZIMINING O'RNATILISHI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga bolsheviklarning o'lka-da yuritgan siyosati hamda Turkiston ASSR va Turkiston Kompartiyasining tashkil topishi, Turkistondagi ocharchilik va uning oqibatlarini, yersuv islohoti birinchi bosqichi haqida bilimlar berish;
- mamlakatni inqiroz va tanglikdan qutqarishda milliy kuchlarning ahamiyati beqiyos ekanligini, agar davlat boshqaruvida milliy kuchlar emas, balki chetdan kelganlar hukmi ustun bo'lsa, vaziyat izdan chiqishi muqarrarligini uqtirish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (13 daqiqa).

O'qituvchi o'tilgan mavzular yuzasidan «Marra tomon olg'a» usulidan foydalanib, savollardan tashkil topgan o'yinlarni amalga oshiradi.

Bilim cho'qilarini zabt etish uchun marra sari olg'a!

Izoh: Aylana, yoki to'rtburchak, uchburchak ichiga savol yoziladi, guruhlardan chiqqan o'quvchilar birin-ketin

savolga javob beradi, javob berolmagan yo'lda qoladi, javob beradigan o'quvchi marra tomon ketaveradi.


III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (12 daqiqa).

O'qituvchi yangi mavzusini og'zaki bayon hamda tasviriy vositalarni qo'llash uslublaridan foydalanib oldindan tayyorlangan taqdimot yordamida tushuntiradi.

Shuningdek, o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi va ularga topshiriqlar beriladi. Har bir guruhga mavzuga doir alohida-alohida matn beriladi. O'rganilgan matn bo'yicha guruhlar o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

1-guruhga:

...1918-yil 30-aprelda «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqidagi Nizom» qabul qilindi. Ushbu nizom RSFSR tarkibida Turkistonda avtonom respublika – Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. Syezdda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti tuzildi va Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining yangi tarkibi tasdiqlandi. Unda Turkistonda davlat qurilishi asoslari, uning hududi, oliy qonunchilik va ijroiya idoralari, mahalliy idoralar tuzilishi, vazifalari va ularning RSFSR





Respublikaning o'zaro munosabatlari belgilab berilgan. Nizomga muvofiq, Buxoro va Xivadan ta'lim markazi

tashqari, Turkiston o'lkasining geografik chegaralaridagi butun hudud Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi. Nizomda «Turkiston Respublikasi avtonom ravishda boshqarilib, o'z xatti-harakatlarini Rossiya Sovet Federatsiyasi markaziy hukumati bilan muvofiqlashtiradi» deb qayd etildi...

2-guruhga:

...«Harbiy kommunizm» siyosati natijasida tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelgan jamiyatlar tarqatib yuborildi. Yirik va o'rta sanoat korxonalarini bilan birgalikda banklar, temiryo'l transporti, bosmaxonalar davlat hisobiga o'tkazildi. Xususiy mulk egalari tekinxo'rlar deb e'lon qilinib, fuqarolik huquqlaridan mahrum etildi. Bozor munosabatlari rad etildi.

1921-yil ko'klamiga kelib mamlakatning iqtisodiy munosabatlarida keskin o'zgarishlar yuzaga keldi. Sovet hokimiyati tomonidan xususiy mulkni tugatish maqsadida O'rta Osiyoda yer-suv islohoti amalga oshirildi. Yer-suv islohoti boy quloq xo'jaliklarini tugatish va ko'chmanchi aholini o'troq holatga o'tkazish, katta yer egaligini yo'qotib, yerlarni yersiz va kam yerli dehqonlar, batraklar, chorikorlar o'rtasida mehnat normalari bo'yicha taqsimlashga... qaratilgan. Vaqf yerlari ham islohot jarayonida tortib olina boshlandi. Islohotning dastlabki natijasiga ko'ra yer tuzish jamg'armasiga 1 722 626 desyatina yer qo'shildi. Biroq, sovet hokimiyati tomonidan ana shu resurslardan mahalliy aholiga faqat 600 000 desyatina yer ekin ekish va yaylovlar uchun ajratildi...

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (10 daqiqa).

O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Chunki, nima uchun?» ta'limiy

o'yinidan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh «Nima uchun?» guruhi va ikkinchi guruh «Chunki» guruhi deb nomlanadi. O'yin davomida «Nima uchun?» guruhi «Chunki» guruhiga o'z guruhining nomi bilan boshlangan, o'rganilgan mavzuga oid savol beradilar, «Chunki» guruhi esa berilgan savolning javobini *chunki* so'zi bilan boshlagan holda javob berishga harakat qiladilar. Ta'limiy o'yin guruhlardan biri yengilmaguncha davom ettiriladi. O'yin davomida o'qituvchi guruhlarining faolligini oshirish maqsadida ularga ko'maklashishi lozim. Faol ishtirok etib, yaxshi savol tuza olgan, yoki to'g'ri javob bera olgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari asosida baholanadi.

1-guruh: Nima uchun ...

2-guruh: Chunki ...

Ta'limiy o'yin shu tariqa davom ettiriladi. Bu o'yin orqali o'quvchilar voqealarning qanday sabab asnosida yuzaga kelganligini tushuna boshlaydilar.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi guruhlar ishiga baho beradi, g'olib guruhni rag'batlantiradi.
2. Dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.
3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Mavzuga oid atamalar va ularning izohini daftarga yozish.

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

TURKISTON SHAHARLARIDA OZIQ BAHOSI

So'nggi voqealarda Turkistonning har yerida deyarli yangi oziq yetishuv sababli bozor baholari kundan-kunga tusha boradi.

Hozir Ashxabodda bug'doyning pudi – 20–25 so'm, olma – 25–30 tiyin.

Skoblevda bug'doyning bahosi 80 so'm, bug'doy uni – 100 so'm, arpa 40 so'm, arpa uni 60 so'm.

Andijonda bug'doy 50–60 so'm, mol go'shti pudi 68–80 so'm, qo'y go'shti – 140–160 so'm.

Ho'qandda bo'g'doy 70 so'm, un – 90 so'm, juxori – 65 so'm, arpa – 40 so'm, mol go'shti – 88 so'm, qo'y go'shti – 150 so'm.

Marida bug'doy – 85 so'm, un – 110 so'm, mol go'shti – 30 so'm, qo'y go'shti – 48 so'm.

*«Ulug' Turkiston»,
1918-yil 19-iyul. №116.*

1910-yili jahon bozori tarozusida 1 pud (20–24 kg atrofida) Turkiston paxtasining narxi 4 so'm 75 tiyin bo'lgan bo'lsa, 1 pud bug'doyning narxi 1 so'm 65 tiyin baholangan. Inqilob arafasida, 1916-yil 1 pud paxta narxi 8 so'm 50 tiyin bo'lsa, 1 pud bug'doyning narxi 3 so'mga to'g'ri keladi. 1917-yilga kelib 1 pud paxta 33 so'mga, 1 pud bug'doy esa 47 so'mga ko'tarilib ketdi. Bug'doy narxining ko'tarilishi 20-yillarning oxirigacha bo'lgan davrda kuzatildi.

1917-yil Turkiston bo'yicha 52,5 million puddan ortiq non mahsuloti hosili yetishtirildi. Xuddi shu yili Turkiston aholisi faqatgina jon saqlash uchun 110 million puddan ortiq bug'doy iste'mol qilishi lozim edi.

I. Sevastyanning «Turkistonda paxta sanoati va paxtachilik» kitobidan.





TURKISTON ASSR, BXSR VA XXSRda SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI QUROLI HARAKATLAR

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi, mohiyati, maqsadlari va ijtimoiy tarkibi, shuningdek, qo'rboshilar faoliyati hamda qo'rboshilar qurultoylari haqida bilimlar berish;
- qo'rboshilar faoliyatini xolisona tahlil qilish orqali, ular erishgan yutuqlar va yo'l qo'ygan taktik xatolar vositasida o'quvchilarning to'g'ri saboq chiqarishlarini, muayyan maqsadga erishish yo'lida to'g'ri harakat qilish lozimligini anglatish;
- o'quvchilarga BXSR va XXSR hududida Qizil armiyaga qarshi kurash va xalq qo'zg'olonlarining boshlanishi, istiqloqlilik harakatining mag'lubiyatga uchrash sabablari va kurash saboqlari haqida bilimlar berish;
- o'quvchilardagi jamoa bo'lib harakat qilish, maqsadlar mushtarakligiga erishish, nizoli vaziyatlarda doimo muammoni murosa yo'li bilan hal qilishga harakat qilish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (13 daqiqa).

O'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Chunki, nima uchun?» ta'limiy o'yini-dan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh «Nima uchun?» guruhi va ikkinchi guruh «Chunki» guruhi deb nomlanadi. O'yin davomida «Nima uchun?» guruhi «Chunki» guruhiga o'z guruhining nomi

bilan boshlangan, o'rganilgan mavzuga oid savol beradilar, «Chunki» guruhi esa berilgan savolning javobini *chunki* so'zi bilan boshlagan holda javob berishga harakat qiladilar. Ta'limiy o'yin guruhlardan biri yengilmaguniga qadar davom ettiriladi. O'yin davomida o'qituvchi guruhlarning faolligini oshirish maqsadida ularga ko'maklashishi lozim. Faol ishtirok etib, yaxshi savol tuza olgan yoki to'g'ri javob bera olgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari asosida baholanadi.


1-guruh: Nima uchun ...

2-guruh: Chunki ...

Ta'limiy o'yin shu tariqa davom ettiriladi. Bu o'yin orqali o'quvchilar voqealarning qanday sabab asnosida yuzaga kelganligini tushuna boshlaydilar.

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (12 daqiqa).

Yangi dars mazmunini tushuntirish uchun «Har kim har kimga o'rgatadi» uslubidan foydalaniladi. Avvalo, o'quvchilarga ta'limiy o'yin qoidalari tushuntiriladi. Har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi chiqqan holda o'qituvchi stolidagi mavzu nomi yozilgan kartochkalardan birini tanlab oladi. Kartochkalardagi mavzular nomi quyidagicha bo'lishi mumkin:



- Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi.
- Harakatning mohiyati, maqsadlari va ijtimoiy tarkibi.
- Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi istiqloq janglari.
- Qo'rboshilar faoliyati hamda qo'rboshilar qurultoylari.
- Madaminbek va Shermuhammadbek faoliyatidagi o'ziga xosliklar.

Mavzular kartochkasini olgandan so'ng har bir guruhdagi o'quvchilar guruh a'zolari bilan birgalikda ma'lum vaqt (*2-3 daqiqa*) davomida o'zlariga berilgan mavzu bilan tanishib chiqishi, kartochkadagi bilimlarni egallab olishlari lozim. Shundan so'ng har bir guruhdan 1 nafardan notiq o'quvchilar tanlanadi, ular ketma-ketlik asosida o'z guruhlaridan boshqa barcha guruhlariga o'z guruhi bilan o'rgangan mavzu mohiyatini yetkazishi, ushbu mavzuni qisqa va lo'nda usulda so'zlab bergan holda, boshqa guruhlariga berilgan mavzularni ham tinglashi va eslab qolishi, ya'ni o'z bilimlarini qo'shni guruhlariga «o'rgatishi» va boshqa guruhlardan yangi bilimlarni «o'rganishi» lozimligi aytiladi. Bu uslubdan foydalanish jarayonida o'quvchi axborot olish va tarqatish bosqichlaridan biri sifatida izlanishning muhim ekanligini anglab yetadi, fikrini bayon etishni, diqqat bilan eshitish va eslab qolishni o'rganadi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (*10 daqiqa*).


1-usul

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlashda «Fikrlarning yalpi hujumi» uslubidan foydalanadi. Bunda, avvalo, o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh – qo'llovchilar, ikkinchi guruh esa, tanqidchilar nomi bilan ataladi. So'ngra sinf taxtasi ikki qismga ajratiladi. Birinchi tomonga qo'llovchilar, ikkinchi tomonga esa tanqidchilar nomi yoziladi. Sinfda-

gi guruhlar yozma bahslarga kirishadilar: qo'llovchilar – qo'rboshilar faoliyatining ijobiy jihatlari, tanqidchilar esa qo'rboshilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni xolisona nazardan o'tkazishga harakat qiladilar. Buning uchun guruhlardagi o'quvchilar ketma-ketlik asosida bittadan chiqqan holda sinf taxtasidagi o'zlariga ajratilgan joyga guruhlariga berilgan vazifani o'zida aks ettirgan javoblarni bir necha so'z bilan ifodalab, qisqa tarzda yozishlari lozim. Guruhlarga 4 daqiqa vaqt beriladi. Vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlarning yozgan ishlari muhokama qilinadi va qaysi guruh ko'proq hamda yaxshiroq fikrlar bildirgan bo'lsa, o'sha guruh o'quvchilari rag'bat kartochkalari asosida baholanadi.

2-usul

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Estafeta» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda o'qituvchi estafeta atributi sifatida 10-sinf «O'zbekiston tarixi» darsligini qo'lga oladi va kitobni ochmagan holda bugungi darsda o'rganilgan mavzuga oid birorta tarixiy ma'lumotni aytadi va darslikni birinchi qatorning birinchi partasida o'tirgan o'quvchiga berib, estafetani davom ettirishni so'raydi. O'yin davomida har bir o'quvchi atributni qo'lga olgan holda bittadan bugungi mavzuga oid yodlarida qolgan ma'lumotlarni ketma-ketlik asosida aytib boradilar. Bir o'quvchi aytgan ma'lumotni ikkinchi o'quvchi takrorlamasligiga e'tibor qaratiladi. Buning uchun o'quvchilar o'zlaridan oldingi «estafetachi»lar aytgan ma'lumotlarni diqqat bilan eshitishlari va yodda saqlab qolishlari kerakligi uqtiriladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning darsga bo'lgan diqqat-e'tibori yanada oshishiga xizmat qiladi. Ammo, shunga qaramay, biror o'quvchi ma'lumotni takror aytgan taqdirda, o'qituvchi beshgacha sanashni boshlaydi, shu soniyalar ichida boshqa ma'lumotni ayta olsa, estafeta da-



vom ettiriladi. Aks holda, mazkur o'quvchi estafetani tark etadi. O'quvchilar o'zlari aytgan ma'lumotlarga qarab o'qituvchi tomonidan rag'bat kartochkalarini asosida baholab boriladi.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi «Estafeta» o'yiniga yakun yasaydi hamda o'quvchilarning ushbu o'yindagi ishtirokini xulosalaydi.
2. Dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.
3. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi (fikir almashinuvi asosida).

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Buxoro va Xorazmda Qizil armiyaga qarshi istiqbolchilik harakati asosiy sabab va oqibatlarini haqida kichik matn tuzish.

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

BUXORO QO'RBOSHLARI

MULLA ABDULQAHHOR. Buxoroda Qizil armiyaga qarshi harakat qilgan qo'rboshi, yirik ulamo. 1884-yil G'ijduvon tumanidagi Saidkent qishlog'ida tug'ilgan. U Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan. Buxoro bosqinidan keyin, sobiq hukmdor Amir Sayid Olimxon farmoni bilan G'arbiy Buxorodagi 15000 askarga Bosh qo'mondon qilib tayinlandi (1920-yil kuzi). Uning rahbarligida Buxoro, Karmana va Nurotadagi 20 dan ortiq qo'rboshi guruhlari birlashtirildi. 1921-yil Mulla Abdulqahhor G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitanda o'z hokimiyatini o'rnatgach, Nurota viloyatiga yurish qildi. O'z qarorgohini Nurotada joylashtirgach, bu yerdan atrof tu-

manlarga vakillarini jo'natib, aholini Qizil armiyaga qarshi ko'tardi. Sayid Olimxonning yozishicha, bu paytda uning qo'l ostida 25000 yigit to'plangan. Mulla Abdulqahhor Buxoroga yurish qilib, uning bir qismini egaladi, Bahouddin Naqshband ziyoratgohini Qizil armiyadan ozod qildi (1922-yil mart). Biroq Turkiston fronti jangchilari, Kaspiyortidan yetib kelgan S.Budyonniyning otliq askarlari Mulla Abdulqahhor qo'shinini Buxorodan siqib chiqardi. Bu mag'lubiyatdan so'ng u 1923–1934-yillarda o'z harakatini Karmana va Nurota viloyatlarida yana faollashtirdi.

...Qizil askarlar bilan to'qnashuvlarning birida (1924-yil 21-iyun) u og'ir yarador

bo'ldi va mag'lubiyatga uchradi. Qizilqumda bo'lgan janglarning birida u halok bo'ldi.

HAYIT AMIN. Shofirkon qo'rboshilarining yetakchisi. Buxoro yaqinidagi Savrak qishlog'ida (Shofirkon tumanida) 1863-yil savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi yoshligida vafot etganidan so'ng o'gay otasi Quljon oqsoqol qo'lida tarbiyalangan. Keyinchalik uning o'rniga Savrak qishlog'i oqsoqoli (amini) bo'lgan hamda yurtga Hayit Amin sifatida tanilgan. Buxoroga Qizil armiya bosqini natijasida amirlik tuzumi ag'darilgach, 1920-yil sentyabrdan boshlangan milliy ozodlik kurashida Hayit Amin faol qatnashdi. 1920–1922-yillarda Qizil armiyaning Shofirkon tumaniga kirishiga qarshi munosib kurash olib borgan. Keyinchalik qizil askarlar Hayit Aminning oila a'zolari (xotinlari, kelinlari, yosh bolalarni)ni garovga olib, Buxoro shahridagi maxsus qamoqxonada ushlab turishgan. Bu paytda Hayit Amin Buxoro qo'rboshilarining yetakchisi Mulla Abdulqahhorning Shofirkondagi asosiy o'rinbosarlaridan biri bo'lgan. Qizil askarlar qo'mondonligi 1922-yil kuzida hiyla yo'li bilan Hayit Aminni qo'lga oladi va o'ldiradi. Hayit Amin o'limidan keyin Qizil armiyaning 61-otliqlar polki Savrak qishlog'ida joylashtiriladi.

O'RMON POLVON. Buxoro yaqinidagi Denov kentida (Shofirkon tumani) 1876-yil tug'ilgan. U XX asr boshlarida Shofirkon tumanidagi Denov kenti amlok-dori (oqsoqoli) bo'lgan. 1920–1924-yillarda u o'z yigitlari bilan G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Nurota, Konimex va boshqa tumanlarda Qizil armiyaga qar-

shi kurashgan. O'rmon Polvon to'rt yillik janglardan keyin 1924-yil 10-yanvarda o'zining 17 nafar yigiti bilan Xoja Orifda qizil askarlarga taslim bo'lgan va shu yili otib tashlangan.

HAMRO POLVON. Hamro Polvon Shodiyev Buxoro amirligi bosh polvoni (1911–1920) bo'lgan. Buxoro yaqinidagi Rabotalak qishlog'ida (Romitan tumani-da) 1892-yilda tug'ilgan. Sadridin Ayniyning yozishicha, u Buxoroda o'tkazilgan Guli surx sayli – Navro'z bayramida barcha raqiblari kuragini yerga tekkizib, Buxoro amirligining bosh polvoni deb topilgan (1911-y. mart). Hamro Polvon kurash tushganda qo'llagan usullar hozirgacha Buxoro polvonlari o'rtasida naql qilinadi. U keyinchalik yuzboshi unvoniga sazovor bo'lib, Amir Sayid Olimxon saroyida xizmat qilgan. 1920-1923-yillarda Buxoro hududida turgan Qizil armiyaga qarshi janglarda faol qatnashgan Hamro Polvon, keyinchalik, kurashni to'xtatib, Shofirkon tumanidagi Jilvon qishlog'ini o'zlashtirgan va yangi qishloqqa (hozirgi Polvonobod qishlog'i) asos solgan. Sovet rejimi tomonidan bir necha marta qamoqqa olingan Hamro Polvon 1942-yil Buxoroning G'oziyon madrasasidagi maxsus qamoqxonada ochlikdan vafot etgan. Hamro Polvonning xoki Shofirkon tumanidagi Oqmozor qabristoniga qayta dafn qilingan (2004) va qabri ustiga xotira lavhasi o'rnatilgan (2011).

*Q. Rajabov va S. Inoyatovlarning
«Buxoro tarixi» kitobidan.*

JUNAYDXON

Qurbon Mamed (Muhammad) sardor 1857-yil Turkmanistonning hozirgi Taxta tumanida tug'ilgan. 1938-yil Afg'onistonda Hirot atrofida vafot etgan. Mustamlakachi chor Rossiyasi hamda sho'ro qo'shinlariga qarshi kurashgan. Yovmut

qabilasi bayramali urug'ining junayd tarmog'iga mansub. Nizoli masalalarni adolatli hal qilganligi va jasurligi uchun turkmanlar orasida uning shuhrati keng yoyilgan. U uzoq yillar mobaynida o'z urug'ining mirobi, qozisi, oqsoqoli, harbiy



boshlig'i bo'lgan. Chorizmning Xivaga yurishlari paytida yosh Qurbon Mamed turkman yovmut yigitlari qatorida bosqinchilarga qarshi janglarda qatnashgan. 1915-yilda Asfandiyorxon Junaydxonni turkman qabilalarining sardori etib tayinlagan. Turkman oqsoqollari uni Junaydxon deb e'lon qilishgan. Turkman davlatini tuzish maqsadida Junaydxon Xivaga yurish qiladi (1916) va Xivani egallagan Junaydxon qo'shini xondan katta miqdorda tovon puli olgach, poytaxtni tark etadi. Turkiston harbiy gubernatori zudlik bilan Xivaga Toshkentdan general Galinning jazo otryadini yuboradi. 16-martda G'azovotda Junaydxon qo'shini ruslardan yengilgach, Qoraqumga chekingan, so'ngra Eron va Afg'onistonga o'tib ketgan. U 1917-yilning yozida Xorazmga qaytib kelib, siyosiy hokimiyat uchun kurashni davom ettirgan. 1918-yil yanvarda Asfandiyorxon Junaydxonni Xivaga taklif qilib, xonlik qo'shinlarining bosh qo'mondoni qilib tayinlashga majbur bo'lgan. Junaydxon 1918-yil oktyabrda Asfandiyorxonga suiqasd uyushtirib, uni o'ldirgan va xonning akasi Sayid Abdullaxonni Xiva taxtiga o'tqazgan, amalda o'zi xonlikning mutlaq hukmdoriga aylangan. Junaydxon 1918-yil o'rtalaridan 1920-yilning yanvarigacha Qizil armiya qo'shinlariga qarshi keskin kurash olib borgan, biroq mag'lubiyatga uchrab cho'lga chekingan. Xivada xonlik tuzumi ag'darilib Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilgan. Junaydxon turkman, o'zbek, qoraqalpoq, qozoqlardan iborat 30 ming kishilik qo'shin tuzib, kurashni davom ettirgan. Sho'ro hukumati unga qarshi kurashga boshqa turkman sardorlari – Qo'shmamadxon va G'ulomalixonlarni jalb qilgan. Natijada 1920-yilning avgustida ular Junaydxon qo'shiniga zarba berishgan. Junaydxon Turkistondagi istiqloqlilik harakati kuchlarini yagona qo'mondonlik ostiga

birlashtirish maqsadida 1922-yil boshida Anvar posho va Farg'onadagi qo'rboshilar bilan aloqa o'rnatgan. U o'z qo'shinida qattiq tartib-intizom o'rnatdi va xorijdan zamonaviy qurollar sotib oldi. Junaydxon 1922-yil aprelda Porsu qal'asini qizillardan ozod qilgan. 1923-yil dekabrda Pitnak, Hazorasp, Bog'ot, Xonqa tumanlarida sho'ro tuzumiga qarshi dehqonlarning ommaviy qo'zg'olonlari boshlangan. Junaydxon qo'zg'olonchilarga madad berish uchun 15 ming kishilik qo'shini bilan Xivani g'arbdan qurshovga olgan (1924-yil 10-yanvar). Sho'ro hukumati unga qarshi butun vositalarini ishga solib fevral boshlarida Xivaga Toshkent, To'rtko'l, Aktyubinsk (Oqto'ba)dan qo'shimcha kuch tashlagan. Shundan keyin Junaydxon Afg'onistonga chekinishga (1924-yil) majbur bo'lgan. Biroq shu yilning kuzida Xorazm vohasiga qaytib kurashni davom ettirgan. Turkmaniston SSR Sovetlarining 1-syezdi yangi hukumat boshlig'i Qayg'isiz Otaboyevning qat'iy talabi bilan Junaydxon va uning safdoshlarini afv etgan (1925-yil fevral). Biroq Junaydxon 1927-yil sentyabrda Toshhovuz okrugidagi Oqtepada sho'ro hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Turkmaniston XKS va MIK darhol Junaydxonni qonundan tashqari deb e'lon qilgan. Junaydxon lashkari Toshhovuz okrugi Taxta va Ko'hna Urganch tumanlaridagi ko'plab ovullarda sho'ro hokimiyatini tugatishgan. Tengsiz janglarda Junaydxon mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, S. M. Budyonniyning saralangan maxsus otliq qo'shini uni qo'lga tushira olmagan. Junaydxon Xorazm vohasida ayrim tanaffuslar bilan 1931-yilgacha kurash olib borib, nihoyat Eron orqali Afg'onistonga o'tib ketgan.

Polvoniyoz Yusupovning «Yosh xivaliklar tarixi (xotiralar)» hamda Ahmad Zaki Validiyning «Bo'linganni bo'ri yer (xotiralar)» kitoblaridan.

FARG'ONA VODIYSIDA ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI

Farg'ona vodiysidagi bu harakat boshidan oxirigacha yagona markazga to'liq birlasha olmadi. O'z vaqtida Kichik Ergash va Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Pahlavon, Yormat Maxsum, Xolxo'ja eshon, Muhiiddinbek kabi qo'rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirish uchun birin-ketin rahbarlikni o'z qo'llariga oldilar.

KICHIK ERGASH (uning bo'yi past bo'lganligi uchun shunday atashgan) 1917-yilgacha 7 yil davomida Qo'qon atrofida erkin harakat qilgan va o'lkadagi Rossiya imperiyasi hokimiyatini tan olmagan. U va atrofidagi 30 yigit ruslarga qarshi o'zlaricha kurash olib borishgan. Kichik Ergash haqiqatgo'y va adolatsiz musulmon bo'lgan, dehqonlarga hech qachon zarar keltirmagan. 1913-yil u qo'lga olingan va 20 yil qamoqqa hukm qilingan. Ergash 1915-yil qamoqdan qochadi va 1916-yilgi qo'zg'olonda faol ishtirok etadi. 1917-yil o'zi tug'ilib o'sgan Qo'qondagi Bachqir qishlog'iga keladi va erkin kishi sifatida yashay boshlaydi. Qo'qon shahar Sho'rosi 1917-yilda Kichik Ergashga shahar mirshablarini boshqarishni taklif etgan. 1917-yilning dekabr oyida u Turkiston Muxtoriyati hukumati tomonidan qo'rboshi unvoniga ega bo'ladi. Kichik Ergash 1918-yil 10-yanvardan Qizil armiyaga qarshi kurash olib bordi. Muxtoriyat hukumati so'nggi kunlarida Qo'qon shahrida bo'lgan janglardan so'ng Kichik Ergash qo'rboshi qo'l ostidagi 2000 kishidan tirik qolgan 200 nafarcha yigitlari bilan Bachqir qishlog'iga chekinadi. Bachqir atrofida bo'lgan janglarda Kichik Ergash 1918-yil 27-fevralda halok bo'ladi.

KATTA ERGASH (uning bo'yi baland bo'lganligi uchun shunday atashgan) ham Bachqir qishlog'idan bo'lib, Qo'qonning eng mashhur mullalaridan bo'lgan. Mulla Ergash (uni shunday ham nomlashgan) Rossiyaning Turkistonga bosqinini hech qachon kechirmas, e'tiqodli musulmon bo'lganligidan diniy kamsitish va xo'rlashlarga chiday olmas

edi. U Qo'qon fojialari (*Muxtoriyatning tor-mor etilishi*)dan avval ham Muxtoriyatning faol tarafdori va himoyachilaridan bo'lgan. Muxtoriyat hukumati so'nggi kunlarida – 1918-yil 20-fevralda Qo'qondagi muxtoriyatchilar huzuriga 2 rus ofitseri kelib, sulh muzokaralarini olib borish uchun jang harakatlarini 4 soat to'xtatishni so'raydilar. Shunda ulamolar va ko'pgina boshqa mullalar bu fikrga rozi bo'lishganida, ularga qarata Mulla Ergash shunday degan: «Dushman hozir halokat yoqasida turibdi. Agar biz hozir ularga hujum qilsak, zafar biz tomonda bo'ladi. Bordi-yu ularga 4 soatlik muhlat bersak, qal'adan hamma qurollarini olib kelishadi va bizni yanchib tashlashadi. Siz – mullalar xalqning behuda qoni to'kilishiga sababchi bo'lasiz...» 2 soat davomida o't ochish to'xtatilgandan so'ng, ustunlikni o'z tomoniga burgan bolsheviklar xunrezliklarni boshlaydi. Qo'qon shahridagi mag'lubiyatdan so'ng u ham Kichik Ergash bilan Bachqir qishlog'iga qaytadi. Kichik Ergash halok bo'lgach, Mulla Ergash qo'mondonlikni o'z zimmasiga oladi. ...Istiqlolchilik harakatini yagona qo'mondonlikka bo'ysundirish maqsadida «Sho'royi Islom» va «Sho'royi Ulamo» a'zolarining tashabbusi bilan 1918-yil mart oyida Bachqir qishlog'ida Farg'onadagi butun qo'rboshilarining birinchi qurultoyi chaqirildi. Unda 40 dan ortiq yirik qo'rboshilar qatnashdi (Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Pahlavon, Xolxo'ja eshon va boshq.). Farg'ona vodiysidagi istiqolchilik harakatining boshlig'i qilib endi halok bo'lgan Kichik Ergash o'rniga Mulla Ergash tan olindi va unga butun musulmonlarning oliy bosh qo'mondoni – «Amir al-muslimin» unvoni berildi. Katta Ergashning o'rinbosarlari qilib Madaminbek va Shermuhammadbeklar tayinlandi. ...1918-yil o'rtalariga kelib kurash maydoniga Madaminbek chiqqach, ba'zi qo'rboshilar umumiy rahbarlikni Katta Ergashdan olib, Madaminbekka berish kerakligi to'g'risida fikr yuritadi. Mada-



Respublika
ta'lim markazi

aminbek dastlab o'z qo'shinlari bilan Katta Ergashga qo'shilsa-da, keyin mustaqil harakat qila boshlaydi. Umumiy rahbarlik Madaminbek qo'liga o'tgach, u Katta Ergashga bo'ysunmaydi. Hamkorlikning dastlabki kunlaridanoq Madaminbek va Katta Ergash o'rtasida kelishmovchilik boshlanadi... Keyinchalik Katta Ergash qator janglarda mag'lubiyatga uchrab, 1920-yilning bahoridan boshlab yirik qo'rboshilik mavqeyidan ajraladi. Katta Ergash 1921-yil dekabrda Qizil armiya-ni Xonobodga qilgan hujumi paytida o'ldirilgan.

MADAMINBEK (asli ismi Muhammad Aminbek) 1892-yil Marg'ilon atrofidagi So'kchilik qishlog'ida (hozirgi Toshloq tumani) o'rtahol Ahmadbek oilasida tug'ilgan. Ahmadbek mohir hunarmand va do'kondor edi. U yog'och qoshiq va cho'michlar yasab sotar edi. ...Madaminbek Rossiya imperiyasiga qarshi harakat qilganligi uchun qamoqqa olinib, 1914–1917-yillarda Sibirga katorgaga jo'natilgan. 1917-yildagi Fevral inqilobidan keyin siyosiy mahbus sifatida ozod qilingan va Marg'ilonga qaytib kelgan. Shunda «Sho'royi Ulamo» jamiyatining rahbarlari Madaminbekni shahar mirshablari boshlig'i – qo'rboshisi lavozimiga tavsiya etishadi. U 1918-yilning yanvar oyigacha shu lavozimda ishlagan. 1918-yil bahorida istiqloqlar safiga uzil-kesil kesil o'tgan Madaminbekning dastlab 1000–1500 yigiti bor edi. 1919-yil o'rtalarida Madaminbek qo'l ostiga 25000 yigitni yig'ilgan. ...Madaminbek 1918-yil oxiridayoq mustaqil harakat qilishga urinayotgan yirik qo'rboshilarning harakatlarini boshqarishga muvaffaq bo'ldi. Shermuhammadbek, Nurmuhammadbek, Xolxo'ja eshon, Mahkam Hoji, Rahmonqul, Omon Polvon va qirg'iz mujohidlarining boshlig'i Muhiddinbek singari qo'rboshilar uning atrofida birlashdi. Shunday bo'lsa-da, Xolxo'ja eshonning shuhratparastligi, Katta Ergash bilan Madaminbek o'rtasida tez-tez kelishmovchiliklar chiqishi natijasida ular o'zaro to'qnashib ham turdilar. Bu holatlar istiqloqlilik harakatlarining keng quloq yo-

yishiga to'sqinlik qilgan. ...Madaminbek mohir sarkardaligi bilan bir qatorda kuchli diplomat ham edi. U Jalolobod va O'sh shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan rus krestyanlar (dehqonlar) armiyasi bilan muzokaralar olib borib, sovetlarga qarshi birgalikda kurashish uchun 1919-yil 2-sentyabrda K.Monstrov bilan shartnoma tuzadi. Bu orada 1919-yil 22-oktyabrda Pomirdagi Ergashtom ovulida islom qo'shinlarining qurultoyi bo'lib, unda Madaminbek boshchiligida Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuziladi.

SHERMUHAMMADBEK 1920-yil 3-mayda Oltiariq tumanida o'tkazilgan Farg'ona qo'rboshilari qurultoyida islom qo'shinlarining bosh qo'mondoni qilib saylanadi. Ushbu qurultoyda Shermuhammadbek boshchiligida Turkiston Muvaqqat hukumati ham tuziladi. Islom qo'shinlarining to'rtinchi bosh qo'mondoni Shermuhammadbek (*birinchisi Kichik Ergash, ikkinchisi Katta Ergash, uchinchisi Madaminbek*) 1923-yilgacha Farg'ona qo'rboshilari faoliyatini boshqarib turdi. Shermuhammadbek (arxiv hujjatlari va sovet adabiyotlarida «Ko'rshermat» yoki Shermat qo'rboshi, uning o'ng ko'zi ojiz bo'lgan) Farg'onada, hozirgi Toshloq tumanida Qo'shoqvoy hoji xonadonida 1893-yilda tug'ilgan. U ko'p o'qigan, mustamlakachilarga nafrat ruhi-da tarbiyalangan. Shermuhammadbek 1916-yil Rossiya imperiyasi tomonidan mardikorlikka olingan va front chizig'ida ishlash uchun safarbar qilingan kishilar qatorida Polsha frontiga tashlangan. ...Farg'ona vodiysidagi tinimsiz besh yillik kurashdan so'ng aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbeklar 1923-yilning boshida Afg'onistonga o'tib ketadi. Shermuhammadbekning akalari Toshmuhammadbek, Tojmuhammadbek va Ro'zimuhammadbek ham o'z ukasining qo'shini safida istiqloqlar janglarida qatnashadilar. Ular 1923-yilning oxirida qizil askarlar tomonidan qo'lga olinib, so'ngra otib tashlanadi.

Q. Rajabovning «Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari» kitobidan.

O'RTA OSIYODA O'TKAZILGAN MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Turkiston mintaqa xalqlarining yagona makoni va umumiy Vatani ekanligi, 1924-yilda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish va uning yakunlari, Markaziy revkom faoliyati haqida bilimlar berish;
- Muxtoriyat uchun kurash, milliy-hududiy chegaralanish oqibatida yuz bergan holatlardan to'g'ri xulosa chiqarib, tarix saboqlarini doimo yodda tutish va yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikka harakat qilishga o'rganish lozimligini tushuntirish;
- biror muhim qaror qabul qilishdan oldin qabul qilinajak qarorning oqibatlari haqida chuqur o'ylab ko'rib, ushbu qaror nafaqat kishining o'ziga, balki atrofda-gilarga ham ta'sir qilishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozimligini uqtirish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKROR-LASH (12 daqiqa).

Oldingi darsda o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Tarix charxpalagi» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, kompyuter va proyektor yordamida ekranga o'yin chizmasi chiqariladi (yoki vatman qog'ozga oldindan chizilgan holda sinf taxtasiga ilib qo'yiladi). So'ngra ixtiyoriy ravishda bir nafar o'quvchi taklif etiladi. Taklif etilgan o'quvchi o'yin chizmasida berilgan «Tarix charxpalagi»dagi 1 dan 8 gacha bo'lgan raqamlardan istalgan raqamni tanlaydi va shu raqam ostida yashiringan savolga javob beradi. Javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. O'yin interfaol usulda amalga

oshiriladi. Ishtirokchi o'quvchi o'z javobini aytib bo'lgach, o'yinni davom ettirish uchun keyingi o'quvchini taklif qiladi. Buning uchun sinfda necha nafar o'quvchi bo'lsa, sinf taxtasidagi o'quvchi 1 dan boshlab sinfdagi o'quvchilarning umumiy sonigacha bo'lgan raqamlar orasidan (masalan, sinfda 30 nafar o'quvchi bo'lsa, 1 dan 30 gacha bo'lgan raqamlar orasidan) birini aytadi va sinf jurnalida shu raqam ostida qayd etilgan o'quvchi o'yinni davom ettiradi. «Tarix charxpalagi»dan sirli raqamlarni tanlashda, shuningdek, o'quvchilarni ishtirokchi sifatida taklif qilishda bir marotaba aytilgan raqam ikkinchi marotaba takrorlanmasligi lozim.

Shu taxlit 8 nafar o'quvchi birin-ketin 8 ta savolga javob beradi. O'quvchilarning javoblari rag'bat kartochkalari asosida baholab boriladi.





1. 1921-yilning bahorida Buxoroning qaysi qismida Qizil armiyaga qarshi ommaviy xalq qo'zg'olonlari ko'tarildi? **(Sharqiy Buxoroda)**

2. 1924-yilning oxirida Qizilqumda qizil askarlarga qarshi bo'lgan janglarning birida halok bo'lgan qo'rboshi kim? **(Mulla Abdulqahhor)**

3. Anvar Posho 1922-yil avgustda Sharqiy Buxoroning Baljuvon atrofida qaysi qishloqda qizillarga qarshi jangda halok bo'ldi? **(Obidara)**

4. «Ochilbek 1921-yildan boshlab «Turkiston milliy birligi» tashkiloti ko'rsatmalari asosida faoliyat yuritgan. Kitob atrofida 1923-yil 10-mayda qizil askarlar bilan bo'lgan janglarning birida Ochilbek (u xalq o'rtasida jasurligi uchun Ochildov sifatida mashhur bo'lgan) mardlarcha halok bo'lgan», – deb qaysi alloma aytgan? **(A.Z.Validiy)**

5. Madaminbek bilan 2-Turkiston o'qchi diviziyasining boshlig'i N.Veryovkin-Roxalskiy o'rtasida qachon Skobelev shahrida yarash bitimi imzolandi? **(1920-yil 6-martda)**

6. Mulla Abdulqahhor bilan qizil askarlar o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tgan G'isht va Kattag'amxo'r qishloqlari qaysi tumanga qarashli? **(G'ijduvon)**

7. Amir Olimxon qachon Afg'oniston davlati hududiga o'tib ketishga majbur bo'ladi? **(1921-yilning martida)**

8. «...Turkiston marvaridi bo'lgan Farg'ona ikki yildan ortiqroq vaqtdan beri qonli urush maydoni holatidir...», – deya ta'kidlagan shaxs kim edi? **(M.Frunze)**

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (13 daqiqa).

O'qituvchi yangi dars mazmunini «Kichik ma'ruza» shaklida tushuntiradi. Ma'ruza davomida o'quvchilarning diqqat-e'tiborini oshirish maqsadida quyidagi savollar berib boriladi. Javob berish

jarayonida o'quvchilarning erkin fikrlashlariga sharoit yaratib beriladi:

1-savol: Turli tashkilotlarning milliy chegaralanish masalasi yuzasidan zo'r berib ish olib borishiga sabab nima edi? Bu holat Qadimgi Rim imperiyasining «Bo'lib tashla va hukmronlik qil!» qabildagi harakatini yodingizga solmayaptimi?


2-savol: Hududiy masaladagi munozaralar tobora qizib borayotgan bir paytda o'rta tashlangan takliflarni qanday baholaysiz? Ulardan qaysi biri sizga ma'quldek tuyuldi. Nima uchun? Xorazmning taqdiriga munosabatingiz qanday?

3-savol: Milliy-hududiy chegaralanishni amalga oshirishga kirishganlarning asl maqsadi mintaqada yashovchi xalqlarni bir-biridan ajratib qo'yishmaydi yoki bundan boshqa ezgu maqsadlar ko'zlanganmidi?

4-savol: O'rta Osiyo hududida tashkil etilgan milliy davlat birlashmalarini tuzishda qanday tamoyillarga asoslanilgan deb o'ylaysiz? Milliy-hududiy chegaralanish jarayonida siyosiy xatolarga yo'l qo'yilganmi yoki yo'qmi?

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (10 daqiqa).

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Klaster» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda, 5 ta kichik guruh shakllantiriladi. So'ngra har bir guruhga quyida keltirilgan chizmalardan biri A4 formatdagi qog'ozga chop etilgan holda tarqatiladi. Guruhlar o'ziga berilgan topshiriqni bajarishlari, ya'ni muayyan mavzu doirasidagi eng asosiy tushuncha va ma'lumotlarni hamkorlikda bo'sh doirachalarga yozib chiqishlari uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Berilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi o'z guruhi bilan birga bajargan topshiriqni taqdimot shaklida tushuntirib, izohlab beradi. Ta'limiy o'yin



yakunida guruhlar o'zlariga berilgan topshiriqni qay darajada bajar-ganliklari, shuningdek, uni bajarish chog'ida guruhdagi barcha o'quvchi-larning faolliklarini hisobga olgan holda o'qituvchi tomonidan rag'bat kartochkalari asosida baholanadi.

V. DARS YAKUNLARINI CHI-QARISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida sinf jurnaliga baho qo'yadi.
2. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Mavzudagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rniga tashkil etilgan 6 ta milliy davlat birlashmalari bo'yicha taqdimot tayyorlash.





O'ZBEKISTON SSRning TASHKIL TOPISHI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga O'zbekiston SSRning tuzilishi, uning hududi va aholisi, O'zbekiston Kommunistik partiyasining tashkil topishi, O'zbekiston SSRning Ittifoq tarkibiga qo'shilishi va undagi hududiy o'zgarishlar haqida bilimlar berish;
- o'quvchilarga muayyan voqea-hodisalar bo'yicha o'z shaxsiy fikrlariga ega bo'lishlarini, o'z fikrlarini erkin bayon eta olishlarini, tarixiy voqelikka munosabat bildirishda xolislik tamoyiliga asoslanish shart ekanligini uqtirish;
- bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lib, muayyan muammoga yechim topishda o'z fikrlarini erkin bildira olishlari, qiyin vaziyatlarda bir-birlariga do'stona ko'mak berishlari kabi umuminsoniy ko'nikmalarni rivojlantirish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (10 daqiqa).

O'qituvchi avval o'tilgan mavzuni yana bir bor takrorlash va yodga olish uchun «Sirli quticha» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda o'quvchilarga 1 ta savol yozish uchun yetadigan hajmdagi kichik qog'ozchalar tarqatiladi hamda har bir o'quvchi o'ziga berilgan qog'ozchaga o'tgan darsda o'rganilgan mavzuga oid bitta savol yozishi kerakligi aytiladi. O'quvchilarga savol tuzish uchun darslikdan foydalanishga ruxsat beriladi. Eng yaxshi savol mualliflari rag'batlantirilishi eslatiladi. Qog'ozchalarga savollarning javoblari yozmaslik so'raladi va ularni yozish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. O'quvchilar o'z savollarini yozib bo'lishgach, o'qituvchi ularni yig'ib oladi hamda o'rtacha hajmdagi qutichaga solib, barcha savol-

larni aralashtiradi. So'ngra birinchi qatorning birinchi partasidan boshlab har bir o'quvchi bittadan savolni olishi va unga tezkorlik bilan 10 soniya ichida javob berishi kerakligi aytiladi. Qutichadan savol tanlagan o'quvchi o'z javobini aytgach, ushbu savolni «sirli quticha»ga tashlagan o'quvchi o'z savolining javobiga izoh beradi. Shu tariqa «sirli quticha»dan foydalangan holda barcha o'quvchilar tezkor savol-javoblar orqali sinab ko'riladi va tuzilgan savollarning saviyasi va ularga berilgan javoblarga qarab rag'bat kartochkalari asosida baholab boriladi.

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (12 daqiqa).

O'qituvchi yangi dars mazmunini oldindan tayyorlangan taqdimot yordamida tushuntiradi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (13 daqiqa).

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlashda «Aqliy hujum» uslubidan foydalanadi. Bunda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruh «Tarafdorlar» guruhi, ikkinchi guruh «Qarshilar» guruhi, uchinchi guruh esa, «Betaraflar» guruhi deb nomlanadi. O'qituvchi o'rganilgan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda 5 ta muammoli vaziyatni kompyuter va proyektor yordamida ekranga chiqaradi (yoki sinf taxtasiga yozib qo'yadi). «Tarafdorlar» va «Qarshilar» guruhlariga ushbu ma'lumotlarni o'rganib, o'z guruh a'zolari bilan mustaqil fikr yuritishlari uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunga qadar «Betaraflar» guruhi ham mazkur ma'lumotlar bo'yicha o'z mustaqil fikrlarini tayyorlaydilar. Berilgan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi birinchi ma'lumotni o'qiydi. Shundan so'ng «Ta-

rafidorlar» guruhi a'zolari o'z fikrlari bilan ushbu muammoli vaziyatning ijobiy tomonlarini faktlar bilan isbotlashga harakat qiladilar, o'z nuqtayi nazarlarini erkin bayon etib, «Qarshilar» guruhiga qarshi «aqliy hujum»ga kirishadilar. «Qarshilar» guruhi «Tarafdorlar»ning fikrlarini tinglagach, o'zlarining tanqidiy mulohazalarini, muammoli vaziyatning salbiy tomonlarini bayon etadilar. «Betaraflar» guruhi esa o'qituvchi bilan hamkorlikda ushbu vaziyat bo'yicha ikkala guruhning fikrlarini tinglagan holda qaysi guruhning «aqliy hujumi» asosli ekanligini xulosalaydi. Shu tariqa har bir muammoli vaziyat «aqliy hujum» yordamida o'z xulosaviy yechimini topadi. O'yin yakunida o'quvchilar o'z ishtiroklariga qarab rag'bat kartochkalari asosida baholanadilar.

Guruhlarga beriladigan vaziyatlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. O'zbekiston SSR poytaxtlarining besh yil ichida uch marotaba o'zgartirishi.

2. O'zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasining tashkil etilishi.

3. O'zbekiston SSRning Sovet Ittifoqi tarkibiga qabul qilinishi.

4. O'zbekiston SSR birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

5. O'zbekiston komsomoliga asos solinishi va uning faoliyati.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi «Aqliy hujum» o'yinini yakunlaydi.

2. Dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.

3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.

2. O'rganilgan mavzuga oid, qiziqarli va o'ziga xos beshta savol yozilgan bitta savollar kartochkasi tayyorlab kelish.





SOVET HOKIMIYATI AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLARNING MOHIYATI. INDUSTRIALASH-TIRISH SIYOSATI VA UNING NATIJALARI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga mamlakatda industrilashtirish siyosatiga o'tilishi va besh yillik rejalarining ishlab chiqilishi, O'zbekistonda yangi sanoat korxonalarini qurilishi, mahalliyashtirish yoki o'zbeklashtirish siyosati haqida bilimlar berish;
- O'zbekistonning butun sovet davri tarixida muttasil ravishda malakali ishchilarning faqat chetdan olib kelinganligi qanday oqibatlarga sabab bo'lganligini tushuntirish, o'quvchilarni kelajakda malakali mutaxassis bo'lib yetishishga undash;
- o'quvchilardagi iqtisodiy bilimlarni oshirib borish, bozor iqtisodiyoti sharoitida unga munosib tarzda ish yuritish, iqtisodiy islohotlarni anglab yetish va unga munosib hissa qo'shish ruhida tarbiyalash.

I. TASHKILYI ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (10 daqiqa).

O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Bingo» mashqidan foydalanishi mumkin. Bunda har bir guruhga oldindan tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalardagi jadvalda tarixiy sanalar yozilgan bo'ladi. O'qituvchi shu sanaga taalluqli jumlaning o'qiydi va guruhlar o'qiyotgan jumlagacha tegishli sanani belgilab qo'yadilar.

Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

«__» – 1925-yil	«__» – 1929-yil	«__» – 1933-yil
«__» – 1926-yil	«__» – 1930-yil	«__» – 1935-yil
«__» – 1927-yil	«__» – 1931-yil	«__» – 1939-yil
«__» – 1928-yil	«__» – 1932-yil	«__» – 1942-yil

1. O'zbekistonda o'rtahol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosati deyarli tugallangan sana. (1935)
 2. O'zbekistonda yer-suv islohoti ikkinchi bosqichi boshlangan sana. (1925)
 3. Sovet jamiyatida bozor munosabatlari muhiti barham topgan sana. (1929)
 4. Yalpi jamoalashtiriladigan tumanlar qaytadan tuzilgan sana. (1931)
 5. Yakka dehqon xo'jaliklariga butkul barham berilgan sana. (1939)
 6. Yer-suv islohoti ikkinchi bosqichining birinchi davri tugagan sana. (1926)
 7. O'rta Zarafshon okrugida yer-suv islohoti o'tkazilgan sana. (1927)
 8. Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish rasman tugallangan sana. (1932)
 9. Yer-suv islohoti ikkinchi bosqichi uchinchi davri boshlangan sana. (1928)
 10. Surgun qilingan quloq xo'jaliklari soni 5500 tagacha yetgan sana. (1933)
 11. O'zbekistonda yalpi kollektivlashtirish boshlangan sana. (1930)
 12. Surgunda bo'lgan 1152 o'zbekistonliklar frontga jo'natilgan sana. (1942)
- Kartochkani birinchi bo'lib to'ldirgan guruh «Bingo» – deb bildirib qo'yadi.


III. YANGI DARS MAZMUNINI**TUSHUNTIRISH (12 daqiqa).**

O'qituvchi yangi dars mazmunini hikoya-suhbat uslubida tushuntiradi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI**MUSTAHKAMLASH (12 daqiqa).**

O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Marra sari olg'a!» uslubidan foydalaniladi. Bunda, avvalo, AKT yordamida o'yin chizmasi ekranga chiqariladi (yoki vatman qog'ozga chizilib, sinf taxtasiga ilib qo'yiladi) hamda ixtiyoriy ravishda ikki nafar o'quvchi taklif etiladi.

Ularga yordamchi minoralarga ko'tarilgan holda asosiy minoraning bayrog'ini o'zgartirish vazifasi beriladi. Minora tepasiga chiqish uchun o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan 4 ta savolga to'g'ri javob berishlari lozimligi aytiladi. O'qituvchi savolni o'qib bo'lgach, birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchi javob berish huquqini qo'lga kiritadi. Savolga javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. Agar birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchi savolga noto'g'ri javob bersa, ikkinchi o'quvchi ham o'z javobini aytishi mumkin. Berilgan 4 ta savolning barchasiga to'g'ri javob berib, marraga birinchi bo'lib yetib kelgan o'quvchi g'olib hisoblanadi va o'qituvchi tomonidan ramziy bayroqcha bilan taqdirlanadi. Hech bir o'quvchi marraga yetib kelolmasa (ya'ni berilgan barcha savollarga to'g'ri javob berolmasa), ularga ramziy bayroqcha berilmaydi, ular o'zlari ko'rsatgan natijalariga muvo-



fiq rag'bat kartochkalari asosida baholalanadilar. Birinchi juftlik o'yinni nihoyasiga yetkazgach, uni davom ettirish uchun ketma-ketlik asosida ikkinchi va uchinchi juftliklar taklif etiladi.

O'quvchilarga beriladigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Birinchi juftlik uchun:

1. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgandan so'ng qaysi davrda yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi amalga oshirildi? (1925–1929-yillarda)

2. Yangi iqtisodiy siyosat tufayli o'z xo'jaligini tiklab olgan xo'jaliklarning quloq qilinishi natijasida qanday hujjat qabul qilindi? («Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida»gi qaror)

3. 1930-yillarda Respublikadagi dehqon xo'jaliklarining qancha qismi umumiy lashtirilgan sektorga, ya'ni kolxoz va sovxozlarga birlashdi? (75 foizi)

4. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi kim bo'lgan? (Fayzulla Xo'jayev)

Ikkinchi juftlik uchun:

1. Qaysi yilda «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida»gi qaror qabul qilindi? (1930-yil)

2. Mamlakatda qishloq xo'jaligini zo'ravonlik bilan kollektivlashtirish jarayonida 1928-yili yana qanday jarayon amalga oshirildi? (sanoatni industrlashtirish)

3. XX asr 30-yillarida Respublikadagi qaysi GESlarning kaskadi barpo etildi. (Chirchiq-Bo'zsuv)

4. 1927-yil 8-yanvarda O'zbekiston SSR MIK huzuridagi «Davlat apparatini mahalliy lashtirish Markaziy komissiyasi»ning nomi qanday deb o'zgartirildi? («Davlat apparati va sanoatni o'zbeklashtirish Markaziy komissiyasi»)



Respublika Uchinchi juftlik uchun:

ta'lim markazi

1. Nechanchi yilda oziq-ovqat va sanoat tovarlariga kartochka tizimi joriy qilingan? (1947-yil)

2. Qaysi davrga kelib O'zSSR xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining salmog'i 62,6%, sanoatning salmog'i 37,4% ni tashkil etar, shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining 90 foizi qishloq xo'jalik xo-mashyosini qayta ishlashga asoslangan edi? (1927-yilda)

3. Qaysi yili SSSR MIKning «O'zSSR apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi? (1931-yilda)

4. O'zbekiston qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish rasman qachon tugallandi? (1932-yil)

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi «Marra sari olg'a»ga yakun yasaydi.
2. Dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini

yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.

3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Yer-suv islohoti o'tkazilishiga oid jadvalni to'ldirish.

Bosqichi	Birinchi bosqich	Ikkinchi bosqich	Uchinchi bosqich
Hududi			
Davri			
Jarayon-lari			
O'ziga xosligi			
Oqibatlari			

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

O'ZSSRda ISHCHILAR AHVOLI

OGPUning O'rta Osiyo temiryo'llari bo'limi rahbari V.V.Demidov tomonidan tayyorlangan 1926-yil aprel oyiga oid o'nkunlik ma'lumotlarda haqiqiy ahvol achinarli ekanligi ta'kidlanadi. Bu haqda hisobotda shunday deyilgan: «Ko'kyong'oq stansiyasidagi qurilish ishchilari o'zlariga berilgan kvartiralar qashshoq jihozlanganidan norozilar.

Kvartiralarining poli va oynasi umuman yo'q. Bo'ydoqlar uchun baraklarda so'rilar yetishmaydi. Ishchilar yerda uxlashga majbur.

Kvartiralar zax. Issiq suv va hammom haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Bunday sharoitda ishchilar tez-tez kasalga chalinadilar».

«Biz 1927-yili oyiga 19-20 rubl olib, hozirgidan yaxshi yashar edik. Bir kunda atigi 80 tiyinga butun oila to'q bo'lar-di. Endi esa nonga ham pul yetmaydi». «Partiya besh yillik rejani to'rt yilda bajarish shiori bilan chiqmoqda. Bir burda qora non va bir bo'lak go'sht bilan kuch yig'ib bo'larmidi? Agar shiorni hayotga tatbiq qilmoqchi bo'lsak ishchilarni to'yg'azish kerak. Ivanovo-Voznesensk ishchilariga o'xshab majlislarda qora nonni oq nonga almashtirish talabi bilan chiqish kerak».

O'zSSRda ishsizlik ortib bordi. 1926-yil 1-yanvarda 9914 nafar ishsiz bo'lgan bo'lsa, 1926-yil 1-aprelda ularning soni 25071 nafarga oshgan, ya'ni ishsizlar 15157 nafar yoki 153%ga ko'paygan. Bunga asosiy turtki Markaziy Rossiya-dan ishsizlarning oqib kelishi bo'lgan.

1926-yil 28-sentyabrdagi rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, Toshkent va Andijondagi kichik va tor yotoqxonalar ishsizlar bilan doimo liq to'la bo'lgan.

Yotoqxonalarda turli hasharotlar urchib ketgan. Og'ir iqtisodiy ahvol va maishiy turmush ishsizlar o'rtasida ichkilikbozlik, nashavandlik, o'g'rilik, qimorbozlikning tarqalishiga olib kelgan.

M.Haydarovning «O'zbekistonda sovet davlati boshqaruv tizimi: shakllanishi, bosqichlari va mohiyati (1917–1941-yillar)» kitobidan.

KOLLEKTIVLASHTIRISH VA QULOQLAR HOLATI

Kollektivlashirish boshlangan davrda kimlar «quloq» ekanligi haqida yakuniy xulosa yo'q edi. Mana shu jarayonda butunittifoq miqyosida kimlar aslida «quloq» va kimlarning mol-mulki musodara qilinishi kerak degan masala yuzasidan muhokamalar, tortishuvlar bo'lib o'tgan...

O'zbekiston Ijtimoiy Jumhuriyati amaldagi qonunlari muntazam to'plamining 240-moddasida ilk bor yirik mushtumzo'r (quloq) atamasi qo'llanilib, u pomeschchik tipidagi xo'jalikka tenglashtirilgan. Yani, dehqon xo'jaligining qancha yerga egalik qilishi yirik mushtumzo'r xo'jaligi sifatida tugatishning asosiy sharti hisoblangan.

1929-yilda I.Stalinning «Buyuk buri-lish yili» maqolasidan so'ng boshlangan yoppasiga kollektivlashtirishning tarkibiy qismi bo'lgan «quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosati» va amaliyoti uchun zarur talablarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jihatlarini huquqiy asosda ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ladi.

1930-yil 6-aprelda SSSR MIQning 1929-yil 20-maydagi «Mehnat qonunlari majmuasini mushtumzo'r xo'jaliklarga tatbiq qilish to'g'risida»gi qarori asosida O'zbekiston XKSning qarori qabul qilindi. Keyinchalik yuqoridagi hujjat takomillashtirilib, kimni mushtumzo'r deb atash borasidagi bahsli holatlarga aniqlik kiritil-

di. 1932-yil dindorlar va ruhoniylar, sobiq mirshablar ham mushtumzo'rlar toifasiga kiritildi.

...1929-yilga qadar Sovet Ittifoqi bo'yicha quloq xo'jaliklarini belgilash bo'yicha yagona huquqiy hujjat bo'lmagan. Har bir komissarlik va muassasalar o'z idoraviy mezonlaridan kelib chiqib quloq xo'jaliklarini belgilaganlar.

...XX asrning 20–30-yillarida «mush-tumzo'r», «quloq» nomlari ostida qishloq aholisining katta bir ijtimoiy qatlami turli cheklashlar, siquv va siyosiy qatag'on-larga duchor etildi. «Mushtumzo'r», «kulak», «quloq» haqoratomuz atamalari qishloq aholisining yollanma mehnatdan foydalanuvchi o'ziga to'q, ishbilarmon qismiga va dindorlarga nisbatan tatbiq qilindi. Amaliyotda esa, bolsheviklarning majburiy kollektivlashtirish siyosatidan norozi bo'lgan kambag'al va o'rtahol dehqonlar ham «quloq», «quloqning dumi», «yot unsur», «aksilinqilobchi» tamg'alari ostida siyosiy qatag'onlarga uchragan.





QULOQLAR POSYOLKALARI

Butun Ittifoq bo'yicha «quloq posyolkalari» 1930-yil boshlaridan tashkil etildi va dastlab mahalliy ijroiya qo'mitalarining tasarrufida bo'ldi. OGPU (Obyedinyonnoye Gosudarstvennoye politicheskoye upravleniye – Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) O'rta Osiyo muxtor vokatxonasining ma'lumotlarida O'zbekiston hududidagi birinchi «quloq posyolkalari»ni har tomonlama o'rganishga kirishdi. Surgun qilinganlar ustidan nazorat kuchaytirildi. «Quloqlar surguni»dagilar 1931-yildan maxsus ko'chirilgan, 1934–1944-yillarda mehnat ko'chkindilari, 1944-yil martdan yana maxsus ko'chirilganlar, 1949-yildan maxsus ko'chkindilar deb nomlangan.

...OGPU ma'lumotlarida 1931-yil 1-iyuligacha O'rta Osiyo bo'yicha jami 19 ta «quloq posyolkasi» bo'lib, shundan 17 tasi O'zbekiston hududida tashkil etilganligi qayd etiladi. 1931-yil iyulida 17 ta «quloqlar posyolkasi»da uncha to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra 2263 kishidan iborat 678 xo'jalik surgun o'tagan. Posyolkalar soni va ulardagi aholi miqdori muntazam o'zgarib turgan.

...«Quloqlar posyolkasi» surgunidagilarning oziq-ovqat ta'minoti juda og'ir ahvolda edi. Mahalliy sovet organlari va Savdo xalq komissarligi bu masalani hal qilishni turli bahonalar bilan paysalga solib kelgan. Posyolkalarda hosil yig'im-terimigacha bo'lgan muddatgacha yashash uchun oziq-ovqat zaxirasi bo'lmagan. 1931-yilning iyuliga qadar hech bir posyolka non mahsulotlari va sanoat mollari bilan mutlaqo ta'minlanmagan. Surgundagilar biror yegulik topish maqsadida

navbat bilan qarindoshlarinikiga qatnaganlar. Ayrim quloq xo'jaliklari bozorda o'tin sotib kun ko'rganlar. Oziq-ovqatning yo'qligi bois ayollar posyolka komendantlariga muntazam murojaat qilishib, oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni yoki qishloqqa borib yegulik olib kelishga ruxsat berilishini talab qilganlar.

...Mehnat ko'chkindilarining xususiy mulkchilikka bo'lgan har qanday intilishlarini so'ndirish maqsadida ularning maishiy turmushi maksimal darajada umumiyashtirilgan. Ovqatlanish umumiy oshxonalarda tashkil etilib, belgilangan me'yorda umumiy qozondan tarqatilgan. Umumiy hammom, kir yuvish xonalari, klub, tibbiyot punkti va kasalxona faoliyat ko'rsatgan. Maktabda barcha bolalarning o'qishi va kattalarning savodsizlik va chalasavodligini tugatishi majburiy qilib belgilangan. Mehnatga layoqatli barcha ko'chkindilar albatta ishlagan. Mehnat majburiy ekanligi uqtirilgan. Ish qidirish, uning xarakteri, miqyosi, bajarish muddati va ish haqi miqdorini belgilash davlat ma'muriyatining huquqi va majburiyatiga kirgan. Maxsus posyolkalardagi ichki tartib-qoidalarini buzganlar ma'muriyat tomonidan intizomiy javobgarlikka tortilgan. Jinoyat qilganlar umumiy sudlar oldida, siyosiy jinoyatlar, qochish, mug'ombirlik, ishga chiqmaslik, bo'ysunmaslikka chaqiriq va boshqa ayblar uchun OGPU tomonidan javobgarlikka tortilgan.

B.Rasulovning «O'zbekistonda kollektivlashtirish jarayonidagi siyosiy qatag'onlar va surgun qilingan dehqonlar ahvoli» kitobidan.

O'ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATI YURITGAN MADANIY SIYOSAT

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga Sovet hokimiyatining ta'lim va fan sohasidagi ishlari, xalq maorifi va savodsizlikka qarshi kurashish, alifboning o'zgartirilishi hamda yangi turdagi o'zbek adabiyoti va milliy san'atining taraqqiyoti haqida bilimlar berish;
- mavzudagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish natijasida ta'lim va madaniyat turli g'oyalarni majburan singdirishni ko'zlagan siyosat quroli bo'lsa, undan ma'naviy ozuqa olish ikkilamchi ahamiyat kasb etib qolishini ko'rsatib berish;
- o'quvchilarda ta'lim olishga, shuningdek, san'atga bo'lgan mehrni oshirish orqali ularning ma'naviyatli insonlar bo'lib yetishishlariga munosib hissa qo'shish, ummummadaniy merosni qadrlash ko'nikmasini rivojlantirish.
- xotin-qizlar mehnatining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, o'zbek ayollarining yangi jamiyatda tutgan mavqeyi hamda ziddiyatli jihatlari haqida bilimlar berish;

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (12 daqiqa).

O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Tarix charxpalagi» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, kompyuter va proyektor yordamida ekranga o'yin chizmasi chiqariladi (yoki vatman qog'ozga oldindan chizilgan holda sinf taxtasiga ilib qo'yiladi). So'ngra ixtiyoriy ravishda bir nafar o'quvchi taklif etiladi.

Taklif etilgan o'quvchi o'yin chizmasida berilgan «Tarix charxpalagi»dagi sirli raqamlardan birortasini tanlashi lozimligi aytiladi. 1 dan 8 gacha bo'lgan raqamlar orasidan istalgan raqamni tanlaydi va shu raqam ostida yashiringan savolga javob beradi. Javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. O'yin interfaol usulda amalga oshiriladi. Ishtirokchi o'quvchi o'z javobini aytib bo'lgach, o'yinni davom ettirish uchun keyingi o'quvchini taklif qiladi. Buning uchun sinfda necha nafar o'quvchi bo'lsa, sinf taxtasidagi o'quvchi 1 dan boshlab sinfdagi o'quvchilarning umumiy sonigacha bo'lgan raqamlar orasidan (masalan, sinfda 30 nafar o'quvchi bo'lsa, 1 dan 30 gacha bo'lgan raqamlar orasidan) birini aytadi va sinf jurnalida shu raqam ostida qayd etilgan o'quvchi





Respublikamizni davom ettiradi. «Tarix charxpalatidan sirli raqamlarni tanlashda, shuningdek, o'quvchilarni ishtirokchi sifatida taklif qilishda bir marotaba aytilgan raqam ikkinchi marotaba takrorlanmasligi lozim. Shu taxlit 8 nafar o'quvchi birin-ketin 8 ta savolga javob beradi. O'quvchilarning javoblari rag'bat kartochkalari asosida baholab boriladi.

Savollar namunalari:

1. 1925-yil 6–12-fevralda O'zbekiston Kommunistik partiyasining I ta'sis syezdi qayerda bo'lib o'tdi? (*Buxoro shahrida*)
2. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti mas'ul sekretarlari qilib dastlab kimlar saylangan edi? (*Vladimir Ivanov va Akmal Ikromov*)
3. O'zbekiston SSR Butunittifoq Sovetlarining nechanchi syezdida SSSR tarkibiga qabul qilindi? (*Uchinchi syezdida*)
4. SSSR 1922-yil 30-dekabrda nechta ittifoqdosh sovet respublikasi asosida tashkil topgan edi? (*To'rtta*)
5. O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi qachon qabul qilindi? (*1927-yil 30-martda*)
6. O'zbekiston komsomoliga qaysi shaharda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solingan? (*Samarqand shahrida*)
7. O'zbekistondagi dehqonlarni g'oyaviy jihatdan birlashtirib turgan tashkilotlardan biri qaysi edi? (*«Qo'shchi» ittifoqi*)
8. Butunittifoq kommunistlar (bolsheviklar) partiyasi degan nom Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasining nechanchi yillardagi nomi hisoblanadi? (*1925–1952*)


III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (13 daqiqa).

O'qituvchi yangi mavzuni og'zaki bayon hamda tasviriy vositalarni qo'llash uslublaridan foydalanib oldindan tayyorlangan taqdimot yordamida tushuntiradi. Shuningdek, o'qituvchi yangi dars mazmunini tushuntirish uchun «Muammoli ma'ruza» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda asosiy e'tibor mavzu matnidagi muammoli va qaltis vaziyatlarda o'quvchilar qanday yo'l tutishlari bilan qiziqishga qaratiladi. «*Shunday vaziyatda Siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?*» degan savol o'rtaga tashlanib, o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin bildirishlariga imkoniyat va sharoit yaratib beriladi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (10 daqiqa).

Yangi dars mazmunini tushuntirish uchun «*Har kim har kimga o'rgatadi*» uslubidan foydalaniladi. Avvalo, o'quvchilarga ta'limiy o'yin qoidalari tushuntiriladi. Har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi chiqqan holda o'qituvchi stolidan tasodifiy tanlab olish yo'li bilan bitta mavzu nomi yozilgan mavzular kartochkasini oladi. Kartochkalardagi mavzular nomi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- O'zbekistonda xotin-qizlarning yirik sanoat korxonalariga jalb qilinishi haqida;



- Sovet hukumati «Hujum» kompaniyasini o'tkazishdan ko'zlagan maqsadlari;
- 1930-yillarda Respublika ijodkorlari, ziyolilari faoliyati;
- Respublikada ta'lim tizimi haqida;
- Eski maktablar va vaqf maktablarning tugatilishi.

Mavzular kartochkasini olgandan so'ng har bir guruhdagi o'quvchilar guruh a'zolari bilan birgalikda ma'lum vaqt (2–3 daqiqa) davomida o'zlariga berilgan mavzu bilan tanishib chiqishi, kartochkadagi bilimlarni egallab olishlari lozim. Shundan so'ng har bir guruhdan 1 nafardan notiq o'quvchilar tanlanadi, ular ketma-ketlik asosida boshqa barcha guruhlariga o'z guruhi bilan o'rgangan mavzu mohiyatini yetkazishi, ushbu mavzuni qisqa va lo'nda usulda so'zlab bergan holda, boshqa guruhlariga berilgan mavzularni ham tinglashi va eslab qolishi, ya'ni o'z bilimlarini qo'shni guruhlariga «o'rgatishi» va boshqa guruhlardan yangi bilimlarni «o'rganishi» lozimligi aytiladi.

Bu uslubdan foydalanish jarayonida o'quvchi axborot olish va tarqatish bosqichlaridan biri sifatida izlanishning muhim ekanligini anglab yetadi, o'z fikrini lo'nda bayon etishni, axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolishni o'rganadi.

Har bir sohada amalga oshirilgan tadbirlarning o'z davri va bugungi kun uchun salbiy va ijobiy tomonlarini ajratish maqsadida quyidagi jadval to'ldiriladi.

Yo'nalish	Ijobiy	Salbiy
Ta'lim tizimi		
Xotin-qizlari faoliyati		
Savodsizlikka qarshi kurash		

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi o'quvchilarning «Har kim har kimga o'rgatadi» o'yinidagi ishtirokini xulosalaydi. O'quvchilarni sinf jurnaliga baholaydi. Berilgan savollarga javob beradi.
2. Rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.
3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Mavzuga oid atamalar va ularning izohini daftarga yozish.

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

ARAB – LOTIN – KIRILL...

Kompartiyaning madaniy merosni inkor etish siyosati arab yozuvini lotin grafikasiga almashtirish haqidagi qarorda ham o'z aksini topdi. SSSR MIQ va XKKning ushbu qarori 1929-yil 7-avgustda qabul qilindi. Aslida o'zbek yozuvini lotinlashtirish g'oyasi 1921-yilda o'zbek tili va uning imlosiga bag'ishlangan

1-O'lka qurultoyida o'rtaga tashlangan bo'lib, ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan edi. Kengash ishtirokchisi Abdurauf Fitrat o'z nutqida arab grafikasini bosmalashda va qo'llashda bir qator qiyinchiliklar borligini ko'rsatib o'tish bilan birga, uni soddalashtirish zarurligini taklif qilgan holda arab grafikasini saqlab qo-



sh lozimligini ta'kidlaydi. Lekin keyinchalik, A.Fitrat o'z fikrini o'zgartirib, o'zbek yozuvini lotinlashtirish tarafdori bo'lgan. 1922-yilning oxiriga kelib alfavitni o'zgartirish masalasida munozaralar yanada kuchaydi. Maorif va madaniyat xodimlarining syezdida bu masalada juda keskin tortishuvlar bo'ldi. Asosiy ma'ruzachi O'rta Osiyo xalqlari tillari bilimdoni mashhur olim, professor Y.D.Polivanov, O'rta Osiyo xalqlari uchun arab imlosidan voz kechish og'ir ekanligini aytsa-da, lekin arab yozuvini almashtirish g'oyasining tashabbuskori bo'lib chiqdi. Shu bilan birga, u o'z ma'ruzasida «an'anaviy arabcha yozuv faqatgina diniy musulmon an'analari nuqtayi nazaridagina qimmatlidir», deb arab yozuvining mavqeyini pasaytirishga harakat qildi. Keskin munozara va bahslardan so'ng Turkiston Avtonom Respublikasi Xalq maorifi komissariati qoshidagi Davlat Ilmiy Kengashi tomonidan qo'llab-quvvatlangan arab yozuvini yengillashtirish tarafdorlari g'alaba qildilar. Syezda qabul qilgan 6 banddan iborat qarorda o'zbek yozuvini arab imlosi asosida saqlab qolish, biroq o'qish hamda yozuvni yengillashtirish maqsadida uni biroz soddalashtirish zarurligi ta'kidlandi.

1926-yil martda Boku shahrida bo'lib o'tgan I Umumittifoq turkshunoslar syezdida ham bu muammo qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. 1921-yilda til va imloga bag'ishlangan I Umumo'zbek syezdida arab yozuvini bir shaklga keltirish va o'zbek tilining so'z boyligi, lug'at tarkibi (leksikasi) haqida qimmatli takliflar bilan chiqqan Ashurali Zohiriy bu kurashga ko'p kuch sarfladi. Biroq yozuv masalasi atrofidagi barcha shov-shuvlardan tortib to hukumat, oddiy tashkilotlar, islohotni tashkil etuvchilar mehnati, g'oyaviy targ'ibot ishlarining bari 30-yil-

lar oxiriga kelib mutlaqo keraksiz bo'lib qoldi. Yozuvni lotinlashtirish uchun ishlatilgan katta mablag'lar esa bekor ketdi. Chunki bu davrga kelib, hech qanday tashviqotsiz, buyruq tarzida yozuvning navbatdagi yangi islohoti – kirillitsaga o'tish haqida qaror qabul qilindi. 1940-yil may oyida O'zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida T.N.Qoriniyozovning ma'ruzasi bo'yicha yozuvning rus grafikasiga o'tkazish haqida ko'rsatma berildi. Qarorda «o'zbek xalqi keng ommasining tashabbusi, xalqning xohish-istagi», deb alohida ta'kidlandi. Shuningdek, kirillitsaga o'tish «xalqlar do'stligini mustahkamlash» vositasi deb talqin qilindi. Yangi islohot lotin imlosiga o'tishda nazarda tutilmagan siyosiy sabablarga ham ega edi. Ma'lumki, 20-yillar oxirida Turkiya lotin imlosiga o'tgan bo'lib, markaziy hukumat SSSR tarkibidagi O'rta Osiyo respublikalarini burjua mamlakati bo'lgan Turkiya va boshqa kapitalistik dunyo mamlakatlari yozuvidan foydalanishiga yo'l qo'ya olmas edi. Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan o'zbek tili xususiyatlarini hisobga olib bir necha islohot loyihasi ishlab chiqildi va ulardan turli xil tillar guruhiga kiruvchi, bir-biridan farq etuvchi o'zbek va rus tillarini «yaqinlashtiradigan», umumlashtiradigan varianti tanlab olindi. Professor T.N.Qoriniyozovni asosiy ma'ruzachi sifatida tanlab olishdan maqsad imloni o'zgartirishga nisbatan bo'lishi mumkin qarshilikning ta'sirini kamaytirish bo'lgan. Ammo O'zbekiston ziyolilarining eng ilg'or vakillari bu davrda qatag'on etilgan bo'lib, qarshilik ko'rsatish haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi.

*«O'zbekistonning yangi tarixi.
O'zbekiston sovet mustamlakachiligi
davrida (2-jild)» kitobidan.*

XOTIN-QIZLAR MASALASI

1919-yilning sentyabrida VKP(b) Markaziy Qo'mitasida xotin-qizlar bilan ishlash, ularni mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotiga jalb etish bo'yicha maxsus xotin-qizlar bo'limi tashkil etildi. O'rta Osiyo sharoitida ular musulmon ayollarni ijtimoiy hayotga jalb qilish borasida yangi imkoniyatlarni yaratishi lozim edi.

Sovet hokimiyatining ayollar ahvoli-ni o'zgartirishga qaratilgan choralari qatorida 1921-yildan boshlab diniy to'ylar, qalin va ko'p xotinlilikning taqiqlanishini qayd etish mumkin. Nikohga kirish yoshi

qizlar uchun 9 yosh o'rniga 16, o'g'il bolalar uchun 16 yosh o'rniga 18 yosh deb belgilangan.

Birinchi xotin-qizlar maktabi Toshkentning Beshyog'och dahasida Bashorat Jalilova tomonidan 1917-yilning dekabrda tashkil etildi. Unda 42 nafar o'zbek qizi ta'lim oldi. 1918-yilda Toshkentda 4 ta xotin-qizlar maktabi faoliyat ko'rsata boshladi.

Faniya Ahmedshina, Olga Shnirova, Igor Shkolnikovlarning «Sovet davrida «xotin-qizlar» masalasini hal qilish tajribasi» kitobidan.

«HUJUM» HARAKATI

«Hujum»ning mohiyatini tushunib yetmagan ba'zi partiya xodimlari o'zlarini bilmagan holda unga zid harakatlar qilganlar. Masalan, MIQ a'zosi Karimov «Toshtram» ishchisi o'z xotiniga paranjisini tashlashga ruxsat bergani uchun uni qamoqqa olgan. Toshkent viloyati Yallama qishlog'ida esa mas'ul xodimlar batraklar xotinlariga paranji tashlashni man etganlar. Paranji tashlashda ixtiyoriylik va ehtiyotkorlik, milliy urf-odatlarini hurmat qilish o'rniga, zo'ravonlik, majburlash, qo'rqitish va jazolash usullari ustuvorlik qildi. Targ'ibot-tashviqot ishlari faqat ayollar o'rtasida olib borildi. Ayrim mas'ul xodimlarning tushuntirish ishlarini avvalo erkaklar o'rtasida olib borish lozimligi haqidagi fikrlari esa inobatga olinmadi. «Hujum» shu qadar shiddatli tus oldirildiki, hatto xotin-qizlar yuzini ochish bo'yicha O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari o'rtasida «sotsialistik musobaqa» ham tashkil qilindi. U tarixga «millionlar shartnomasi» nomi bilan kirgan. Musobaqaga respublika-

larning sovet sud organlari ham qo'shildilar. Ular chiqargan qarorlarning birida: «Ajrashish ishlari bir haftadan kechiktirmay ko'rib chiqilsin», – degan band mavjud edi. Gap shundaki, «Hujum» boshlanishi bilan ayollar nomidan sudlarga ajralish xususida ko'plab arizalar tushgan bo'lib, ular sovet hukumatining balog'atga yetmaganlarni erga uzatish, qalin berish, qizlarning ruxsatisiz nikoh o'qitishni taqiqlash haqidagi yangi qonunlariga tayanib o'zlarining mutaassib yoki keksa erlaridan ajratishni istagan ayollarning murojaati edi. «Odil» sovet sudi xuddi ana shularni dastak qilib, yuqoridagi mantiqsiz qarorni chiqargan edi. Bu qaror natijasida O'zbekistonda minglab oilalar buzildi, bolalar esa ota-onalar o'rtasida sarson-sargardon bo'ldi. Shoshma-shosharlik bilan qo'yilgan qadam ana shunday mudhish oqibatlariga olib keldi. Sudga ajralish haqida ariza bergan bir qator ayollar o'sha davrda musulmon odatiga ko'ra erlari yoki aka-ukalari tomonidan jazolandilar.



Lekin, shunday bo'lsa-da, «Hujum» dastlab katta muvaffaqiyatlarga erishdi. 1927-yil bahoriga kelib 100 ming ayol paranjisini tashladi, 5 ming ayol savodsizlikni tugatish kurslarida tahsil oldi, 5202 nafar ayol viloyat, shahar, tuman sudlariga xalq maslahatchilari qilib saylandilar. Biroq bu yutuqlar faqat «Hujum»ning ta'sir kuchi bilan bog'liq emasdi, yoki ba'zi bir moskvalik sharqshunos olimlar ta'kidlaganlaridek, ayollarimizning faolligi faqat yopinchiq ichida o'tayotgan umrga nisbatan norozilik tufayli ham emasdi. Buning o'ziga xos sababi O'zbekiston ayollari tabiatida adolatsizlikka qarshi kurash tuyg'usining mavjudligi edi.

Sovetlarning xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish borasida shoshma-shosharlik va zo'rvonlik usulida amalga oshirgan siyosati ayollarning begunoh qurbon bo'lishiga sabab bo'ldi. Manbalarning guvohlik berishicha, 1927-yil 27-iyunda Qo'qon viloyati Buvayda tumanining Polosoy qishlog'ida dehqon Abduqodir Xojimatov o'z ayolini paranji tashlab faollik ko'rsatgani uchun osib o'ldirgan. Shu oyda Beshariq tumanining Yangiqo'rg'on qishlog'ida ham shunday voqea sodir bo'ldi. Andijon viloyatining Nazar Mahram qishlog'ida esa xotin-qizlar orasida

ish yurituvchi faollardan Xadicha Eshboeva va uning turmush o'rtog'ini o'ldirdilar. Toshkentda Ko'kaldosh madrasasi minorasidan reaksiya dindorlar ayolni qopga solgan holatda yerga tashladilar.

Umuman, rasmiy hujjatlarda ko'rsatilishicha, «Hujum» kampaniyasi (1927–1928) yillarida O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar, qishloq, tuman kengashlarining a'zolari, xotin-qizlar klublari va kutubxonalar mudirlari o'ldirilgan. Albatta, bu raqamlar sovet statistik ma'lumotlarida ataylab kamaytirib ko'rsatilganligi hozirgi kunda hammaga ma'lum. Xotin-qizlar bunday qiynoqlarga, tazyiq va terrorga qarshi norozilik bildirdilar. Aksariyat viloyatlarda xotin-qizlarning terrorga qarshi namoyishlari bo'lib o'tdi. Shundan so'ng hukumat xotin-qizlarni huquqiy jihatdan himoyalash ishlari kuchaytirishga majbur bo'ldi. Birgina 1928-yilning o'zida ayollarga nisbatan noqonuniy ish tutganligi uchun 671 kishi qamoqqa olinib, har xil muddatga ozodlikdan mahrum qilindi, shulardan 7 kishi otuvga hukm etildi.

X. Shukurovaning «O'zbekiston ayollari va sotsializm» kitobidan.

SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDAGI QATAG'ON SIYOSATI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga O'zbekistonda dastlabki qatag'onlarning boshlanishi, huquq va maorif tizimida qatag'onlikning avj oldirilishi, «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi hamda «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi haqida bilimlar berish;
- Sovet hokimiyati tomonidan sodir etilgan eng mudhish razilliklardan biri qatag'onlik siyosatining mohiyatini ochib berish orqali o'quvchilardagi bag'rikenglik, adolatsizlikka qarshi keskin kurash tuyg'ularini rivojlantirish;
- 1937–1938-yillarda davlat arboblari, ziyolilar, ulamolar va harbiylarning qatag'on qilinishi haqida;
- o'quvchilardagi o'tganlar xotirasiga hurmat hissini yanada ravnaq toptirish, ularning bu dunyodan besamar va beiz o'tmaganliklarini tushuntirish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKROR-LASH (13 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilarning o'tgan darsda olgan bilimlarini «Tezkor test» uslubidan foydalangan holda sinab ko'rishni mumkin. Bunda avvalo har bir o'quvchiga 10 ta javobi tanlanadigan test topshiriqlari yozilgan varaqalar tarqatiladi. O'quvchilar 10 daqiqa davomida test topshiriqlarini yechishga kirishadilar. Topshiriqni birinchi bo'lib yechishga muvaffaq bo'lgan 5 nafar o'quvchi o'z javoblarini o'qituvchiga taqdim etadi. O'qituvchi 5 nafar o'quvchining javoblarini tekshirib, ularni baholaydi. Sinfdagi barcha o'quvchilar test topshiriqlarini ba-

jarib bo'lishgach, o'qituvchi rahbarligida test tahlili o'tkaziladi. O'qituvchi istalgan raqamdagi test savolini o'qiydi va ixtiyoriy o'quvchiga yuzlangan holda undan to'g'ri javob qaysi ekanligini hamda nima uchun aynan shu javobni tanlanganligi so'raydi. Shu taxlit barcha savollar tezkorlik bilan tahlil qilinadi hamda o'quvchilarning o'tgan darsda o'tilgan mavzuni qanchalik darajada o'zlashtirganliklari xulosalanadi.

Varaqadagi test savollari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. «*Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir*» so'zlari muallifi bo'lgan allomani aniqlang.

*A) A. Avloniy; B) M. Behbudiy;
D) A. Fitrat; E) Cho'lpon.

2. *O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumining O'zbekiston ilmiy tekshirish muassasalariga rahbarlik qiluvchi O'zbekiston SSR Fanlar komiteti qachon tuzilgan?*

A) 1932-yil 4-oktyabrda;
B) 1932-yil 10-oktyabrda;
*D) 1932-yil 14-oktyabrda;
E) 1932-yil 20-oktyabrda.

3. *O'zbekiston SSR Sovetlarining nechanchi qurultoyi O'zSSR Xalq Komissarlari Sovetiga 8 yoshdan to 15 yoshgacha bo'lgan hamma bolalarni majburiy yetti yillik ta'limga tortishni taklif qildi?*

A) to'rtinchi; *B) beshinchi;
D) oltinchi; E) yettinchi.

4. *Bu davrda Respublika maktablari-da o'qish necha tilda olib borilgan?*

A) o'n to'rt tilda; B) o'n olti tilda;
*D) o'n sakkiz tilda; E) o'n ikki tilda.

5. *Sovet hokimiyatining dastlabki o'n yilliklarida O'zbekistonda imlo necha marta o'zgartirildi?*



Respublika ta'lim markazi

- A) bir marta; B) ikki marta;
*D) uch marta; E) to'rt marta.

6. 1929-yil may oyida qaysi shaharda o'tgan O'zbekiston adiblari, imlochilari va yetakchi ziyolilari konferensiyasida o'zbek yozuvini arab grafikasidan lotin grafikasiga o'tkazish haqida qaror qabul qilindi?

- A) Toshkentda; *B) Samarqandda;
D) Buxoroda; E) Qo'qonda.

7. O'zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida qaysi soha olimining ma'ruzasi bo'yicha lotin yozuvidan kirill asosidagi o'zbek yozuviga o'tish to'g'risida qaror qabul qilindi?

- A) kimyo; B) fizika;
D) geologiya; *E) matematika.

8. Arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvi tugatilib, undan lotin grafikasiga o'tilganidan necha yil o'tib, kirill alifbosi negiziga qurilgan yozuvga o'tildi?

- A) sakkiz yil; B) to'qqiz yil;
D) o'n yil; *E) o'n bir yil.

9. XX asr 30-yillari boshlariga kelib adabiyot maydoniga kirib kelgan shoir nomi noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) Amin Umariy;
*B) Oydin Hojiyeva;
D) Uyg'un;
E) Oydin Sobirova.

10. Quyidagilar orasidan o'zbek milliy musiqasini rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan o'zbek kompozitorlarini aniqlang.

1) To'xtasin Jalilov; 2) Muhiddin Qori Yoqubov; 3) Yunus Rajabiy; 4) Karim Zokirov; 5) Muxtor Ashrafiy; 6) Komil Yormatov; 7) Mutavakkil Burhonov.

- *A) 1, 3, 5, 7; B) 1, 2, 5, 7;
D) 2, 4, 6, 7; E) 2, 4, 5, 7.


III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (12 daqiqa).

O'qituvchi yangi dars mazmunini oldindan tayyorlangan taqdimot yordamida tushuntiradi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (10 daqiqa).

1-usul

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Klaster» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, 5 ta kichik guruh shakllantiriladi. So'ngra har bir guruhga quyida keltirilgan chizmalardan biri A4 formatdagi qog'ozga chop etilgan holda tarqatiladi. Guruhlar o'ziga berilgan topshiriqni bajarishlari, ya'ni muayyan mavzu doirasidagi eng asosiy tushuncha va ma'lumotlarni hamkorlikda bo'sh doirachalarga yozib chiqishlari uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Berilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi o'z guruhi bilan birga bajargan topshiriqni taqdimot shaklida tushuntirib, izohlab beradilar. Ta'limiy o'yin yakunida guruhlar o'zlariga berilgan topshiriqni qay darajada bajarganliklari, shuningdek, uni bajarish chog'ida guruhdagi barcha o'quvchilarning qanchalik darajada faol bo'lganliklariga qarab o'qituvchi tomonidan rag'bat kartochkalari asosida baholanadi.



2-usul

«Guruhlar ishi». Bunda o'quvchilar besh guruhga bo'linadi va har bir guruhga ma'lumot to'plash uchun alohida-alohida jadval beriladi. Jadvalni to'ldirishda darslik asosiy yo'rdamchi vosita bo'lishi mumkin.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillari boshida O'zbekiston SSRda quyidagi siyosiy ishlar to'qilishi natijasida o'zbek xalqining ko'plab yetuk farzandlari qatag'on qilindi.

1-guruhga:

O'n sakkizlar guruhi	Abdurahim Hojiboyev, Inomjon Xidraliyev, Muxtorjon Saidjonov va b.	Natijasi nima bo'ldi

2-guruhga:

Inog'omovchilik	O'zSSR Maorif xalq komissari Rahim Inog'omov va b.	Natijasi nima bo'ldi

3-guruhga:

«Milliy ittihadchilar» va «Milliy istiqloqlolchilar»	Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 87 nafar kishi	Natijasi nima bo'ldi

4-guruhga:

Qosimovchilik	O'zSSR Oliy sudi raisi Sa'dulla Qosimov va b.	Natijasi nima bo'ldi

5-guruhga:

Badriddinovchilik	O'zSSR Oliy sudining prokurori Shamsuddin Badriddinov va b.	Natijasi nima bo'ldi

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. Dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.
2. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Mustaqillik yillarida qatag'on qurbonlari bo'lgan milliy fidoyilarning nomlarini tiklash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida taqdimot tayyorlash.

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

«18 lar guruhi». 1925-yil 19-noyabrda Samarqandda chaqirilgan O'zbekiston KP(b) MQning plenumi yig'ilishi bir kun emas, to'rt kun davom etadi. Buning asosiy sababi, respublikadagi yuqori mas'uliyatli vazifalarni egallab turgan 18 shaxsning o'z lavozimlaridan ketishi haqidagi arizasi bo'ldi. Ular o'z iste'folari sababini xususiy mulkni yo'qotish hisobiga o'tka-

zilgan yer-suv islohoti usullariga norozilik sifatida izohlashadi. Shuningdek, bu guruhni eski xodimlarga noto'g'ri munosabatda bo'linayotgani, rahbarlarni tanlash faqat sinfiy nuqtayi nazardan amalga oshirilayotgani qoniqtirmaydi. Ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi



chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilganlar. «18 lar guruhi»ga Muxtor Saidjonov (Zarafshon viloyat ijroiya qo'mitasi kotibi), Rahmat Rafiqov (O'zbekiston ichki ishlar xalq komissari), Inomjon Xidiraliyev (O'zbekiston yer-suv ishlari xalq komissari), M.O'rinxo'jayev, U.Ashurov, R.Rahimboboyev, Eshonov, Muzaffarov, Maxsumov va O'zbekiston SSRning boshqa 18 ta taniqli milliy rahbar xodimlari kirgan. Ularga «yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy – quloq va yer egalarning manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik g'oyalarini ilgari surgan» degan soxta aybnoma qo'yildi. Shu bois, rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralandi va egallab turgan lavozimlaridan chetlashtirildi.

Yer-suv islohotini o'tkazish davrida (1925–1929) «18 lar guruhi» ushbu jarayon va MQ ga qarshi faoliyat yuritishda ayblanishgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tgach esa, O'rta Osiyo byurosining plenumida (1927-yil oktyabr) ularga boy – quloqlarning manfaatini himoya qilgan, yer-suv islohoti hamda ayollarning ozodlikka chiqishiga qarshi bo'lgan, savdogar va hunarmandlardan olinadigan soliqlarni kamaytirish va davlat apparatini milliy lashtirish tarafdori bo'lgan, degan soxta aybnomalar qo'yiladi.

«Inog'omovchilik» – Sovet davlatining jazo organlari tomonidan ataylab to'qib chiqarilgan va 1926–1931-yillarda bir qator milliy rahbar kadrlar va ziyolilarni aybsiz qatag'on qilinishiga sabab bo'lgan bolsheviklar rejimining bo'htonidir. «Inog'omovchilik»ning sababchisi O'z KP(b) MQ Ijroiya byurosi a'zolidigina nomzod, O'z KP(b) MQ Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif xalq komis-

sari Inog'omov Rahim Oxunjonovich (1902-yilda tug'ilgan) edi.

R.Inog'omov 1926-yil oxirida «O'zbekiston ziyolilari» risolasini matbuotda e'lon qiladi. Unda: «Oktyabrdagi o'zgarish o'zbek xalqi uchun kutilmagan voqea bo'ldi va unga o'zbek mehnatkashlari tayyor emas edi» va oktyabrgacha bo'lgan davrda «...rus istibdodiga qarshi mustaqillik harakatida tarixiy rolni ziyolilar o'ynagan», – degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, R.Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston kompartiyasini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashmayotganlikda, Markazning Sredazbyuro, SredazEKOSO kabi «nazoratchi» organlarini zo'rvonlikda ayblaydi. Respublikaning bir qator mas'ul xodimlaridan N.Mavlonbekov, I.Isamhammedov, M.Aliyev, Bobonazarov singari hammaslklar Inog'omov qarashlarini qo'llab-quvvatlab chiqqandilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu bois O'zbekiston Kompartiyasining III syezdi (1927-yil noyabr) R.Inog'omovni «g'oyaviy jihatdan» tor-mor qilindi deb hisoblab, uni Qashqadaryo okrugining eng chekka qishlog'iga ishlash uchun jo'natdi. 1930-yil 30-mayda «Pravda Vostoka» gazetasida Inog'omovning «ochiq xati» uyushtirilib, u tavba-tazarru qildirildi.

R.Inog'omov 1937-yil 25-avgustda qamoqqa olindi va sovet rejimi tomonidan 1938-yil 5-oktyabrda Toshkentda otib tashlandi.

«Qosimovchilik» – 1929–1930-yillarda sovetlar rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish maqsadida ataylab uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. 1929-yilning ikkinchi yarmida O'zSSR Oliy sudining raisi Qosimov

Sa'dulla Rashidovich (1901–1930) qamaladi. Bolsheviklar hukumatining jazo organlari tomonidan «to'qib chiqarilgan» ayblov asosida bu ishga ataylab siyosiy tus beriladi. S.Qosimov bilan birga tarix o'qituvchisi Olimov, sud idorasi xodimlari Musaboyev va Spiridonov ham qamaladi.

Samarqand (1930-yil mart–iyun)da bo'lib o'tgan sud jarayonida (sud raisi M.I.Vasilyev – Yujin, qoralovchi R.P.Katanyan) S.Qosimov va uning tarafdorlari (7 kishi) «burjua millatchilari» sifatida, «bosmachilar»ni qo'llab-quvvatlaganlikda ayblangan. Ularga «qosimovchilik» tamg'asi bosilgan. Bolsheviklar rejimining «odil sudi» soxta ayblov va soxta guvohlar bergan ko'rsatmaga asoslanib S.Qosimov, Sharipov, Olimov, Musabekov va Spiridonovlarni otishga, qolganlarini esa 10 yildan qamoq jazosiga hukm qiladi.

Oradan ko'p o'tmay navbatdagi ish – «**badriddinovchilik**» o'ylab topildi. 1932-yil 5-may–15-iyunda Toshkent shahrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi Shamsutdin Badriddinov va uning 5 tarafdori ustidan sud jarayonini o'tkazdi. Sh.Badriddinov 1929-yilda Farg'ona okrugi prokurori, keyinchalik O'zbekiston SSR Oliy sudining prokurori lavozimlarida ishlagan bo'lib, u va tarafdorlari 1931-yilda qamoqqa olingan edi. Sh.Badriddinova «Milliy Ittihad» tashkiloti a'zolari va «bosmachilar» bilan aloqa bog'lagan, Munavvarqori Abdurashidxonov va S.Qosimovning yaqin do'sti va hamfikri bo'lgan, degan ayblar qo'yildi. Bu sud jarayonida ham prokuror R.Katanyan edi. Sh.Badriddinov avval otishga hukm qilinib, so'ngra o'lim hukmi 10 yil qamoq muddati bilan almashtiriladi. Uning

M.Xo'jayev, A.Rahmonov, M.Ahmadjonov, M.Sadixonov, I.Musaxonovlardan iborat 5 ta tarafdori ham uzoq muddat qamoq jazosiga hukm qilinadi.

Sovet rejimi sud organlaridagi milliy rahbar xodimlarni qatag'on qilish bilan birgalikda jazo qilichini maorif jabhasidagi ziyolilarga ham qarshi ko'targan edi. 1929-yil 5-noyabrda Toshkentda atoqli jadidchi ma'rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 38 kishi qamoqqa olinadi. Oradan ko'p o'tmay qamoqqa olinganlarning miqdori 87 kishiga yetdi. Ularga «Milliy Ittihad» va «Milliy Istiqlol» tashkilotlarining a'zosi degan ayb qo'yildi. Tergov jarayoni keyinchalik Moskvaga ko'chirildi. Bu holat sovet rejimining o'zbek ziyolilarining «millatchiligi»ni fosh qilishga jon-jahdi bilan kirishganligidan dalolat beradi.

1931-yil aprelda Moskvada bo'lib o'tgan sud majlisida Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa 15 millat fidoyisi – «Milliy Istiqlol» a'zolari otishga, qolgan 72 kishi esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi. Lekin qamoqdan deyarli hech kim qaytib kelmagan. 1930-yil avgust oyida O'zbekiston xalq maorif komissarligidagi bir guruh rahbar xodimlar hibsga olinadi. Ular ichida maorif komissari Mannon Ramziy (Abdullayev, 1896–1938), uning o'rinbosari Botu-Mahmud Hodiyev (1904–1938), shuningdek, Oltoy-Bois Qoriyev (1903–1976), Nosir Saidiy va boshqalar bor edi. Ular maorif tizimini «millatchilik og'usi» bilan zaharlaganlikda ayblanib, bu holat «maorif frontida qosimovchilikning namoyon bo'lishi» deb qoralandi. Botu va uning tarafdorlari 10 yil qamoq jazosiga hukm qilinadi.

R.Shamsutdinovning «Istiqlol yo'lida shahid ketganlar» kitobidan.



O'ZBEKISTON IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga SSSRda totalitar tuzumning qaror topishi va uning mohiyati; urushning boshlanishi, sabablari va xarakteri, Germaniyaning SSSRga hujumi hamda O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi, O'zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining urushga safarbar etilishi haqida bilimlar berish;
- Ikkinchi jahon urushining boshlanishi misolida o'quvchilarga urushlarning naqadar mislsiz kulfatlar keltirishi, ularning xalq boshiga og'ir kunlarni solishi, shuning uchun ham urushlar insoniyatning birinchi dushmani ekanligini uqtirish;
- o'zbek xalqining mamlakat boshiga mushkul kulfatlar tushgan pallada ko'rsatgan mardonavor harakatlarini, bag'rikengligi, o'z ona yurtini himoya qilish uchun bor-budini frontga safarbar etganligini aniq misollar bilan ko'rsatib berish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (11 daqiqa).


O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Juftlikdagi bellashuv» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, sinfdagi o'quvchilar soniga teng bo'lgan raqamlar yozilgan kartochkalar tayyorlanadi va qutichaga solib qo'yiladi (masalan, sinfda 30 nafar o'quvchi bo'lsa, 1 dan 30 gacha raqamlar yozilgan

30 ta kartochka tayyorlanadi). So'ngra o'quvchilarga 1 daqiqa davomida darslikdan foydalangan holda o'tgan darsda o'rganilgan mavzuga oid bitta asosiy va bitta zaxira savol yozish vazifasi beriladi. Berilgan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi o'ziga ko'makchi sifatida bilimdon o'quvchini aniqlab olish uchun sinfdagi barcha o'quvchilarga bitta savol beradi. Qaysi o'quvchi ushbu savolga birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa, o'sha o'quvchi o'yin davomida bilimdon o'quvchi vazifasini bajaradi. O'qituvchining savoli quyidagicha bo'lishi mumkin: *Qaysi atama arab tilida «guruh, to'da» ma'nolarini anglatadi?* **J: firqa**

Bilimdon o'quvchi aniqlangach, u sinf taxtasiga taklif etiladi hamda dars boshida tayyorlab qo'yilgan qutichadan tasodifiy tarzda ikkita kartochkani tanlaydi va undagi raqamlarni aytadi. O'qituvchi esa sinf jurnalida qaysi o'quvchilar ushbu raqamlar ostida qayd etilganliklarini aniqlab beradi. So'ngra mazkur ikki nafar o'quvchi (juftlik) o'z o'rinlaridan turgan holda bir-birlariga o'zlari tayyorlagan asosiy savolni beradilar. O'quvchilarning savol berish va unga javob berish oralig'i 10 soniyadan oshmasligi lozim. O'yin shu tariqa qutichada kartochkalar qolmaguniga qadar tezkorlik bilan davom ettiriladi. O'quvchilar bir marta berilgan asosiy savolni ikkinchi marta takrorlamasliklari, shunday vaziyat yuz berganda zaxiradagi savoldan foydalanishlari lozim. Savolga to'g'ri javob berganlar baholab boriladi.

III. YANGI DARS MAZMUNINI**TUSHUNTIRISH (14 daqiqa).**

Yangi dars mazmunini tushuntirish uchun «Har kim har kimga o'rgatadi» uslubidan foydalaniladi. Avvalo, o'quvchilarga ta'limiy o'yin qoidalari tushuntiriladi. Har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi chiqqan holda o'qituvchi stolidan tasodifiy tanlab olish yo'li bilan bitta mavzu nomi yozilgan mavzular kartochkasini oladi.



Kartochkalardagi mavzular nomi quyidagicha bo'lishi mumkin:


- Urushning boshlanishi, sabablari va xarakteri.
- Sovet-fin urushida o'zbekistonliklarning qatnashuvi.
- Fashistik Germaniyaning SSSR-ga hujumi.
- O'zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining urushga safarbar etilishi.
- «Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!»

Mavzular kartochkasini olgandan so'ng har bir guruhdagi o'quvchilar guruh a'zolari bilan birgalikda ma'lum vaqt (2–3 daqiqa) davomida o'zlariga berilgan mavzu bilan tanishib chiqishi, kartochkadagi bilimlarni egallab olishlari lozim. Shundan so'ng har bir guruhdan 1 nafardan notiq o'quvchilar tanlanadi, ular ketma-ketlik

asosida boshqa barcha guruhlariga o'z guruhi bilan o'rgangan mavzu mohiyatini yetkazishi, ushbu mavzuni qisqa va lo'nda usulda so'zlab bergan holda, boshqa guruhlariga berilgan mavzularni ham tinglashi va eslab qolishi, ya'ni o'z bilimlarini qo'shni guruhlariga «o'rgatishi» va boshqa guruhlardan yangi bilimlarni «o'rganishi» lozimligi aytiladi. Bu uslubdan foydalanish jarayonida o'quvchi axborot olish va tarqatish bosqichlaridan biri sifatida izlanishning muhim ekanligini anglab yetadi, fikrini bayon etishni, diqqat bilan eshitish va eslab qolishni o'rganadi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI**MUSTAHKAMLASH (10 daqiqa).****1-usul**

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Estafeta» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda o'qituvchi estafeta atributi sifatida 10-sinf «O'zbekiston tarixi» darsligini qo'liga oladi va kitobni ochmagan holda bugungi darsda o'rganilgan mavzuga oid birorta tarixiy ma'lumotni aytadi va darslikni birinchi guruhning birinchi o'quvchisiga berib, estafetani davom ettirishni so'raydi. O'yin davomida har bir o'quvchi atributni qo'liga olgan holda o'z guruhiga berilmagan mavzuga oid bittadan yodlarida qolgan ma'lumotlarni ketma-ketlik asosida aytib boradilar. Bir o'quvchi aytgan ma'lumotni ikkinchi o'quvchi takrorlamasligiga e'tibor qaratiladi. Buning uchun o'quvchilar o'zlaridan oldingi «estafetachi»lar aytgan ma'lumotlarni diqqat bilan eshitishlari va yodda saqlab qolishlari kerakligi uqtiriladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning darsga bo'lgan diqqat-e'tibori yanada oshishiga xizmat qiladi. Ammo, shunga qaramay, biror o'quvchi ma'lumotni takror aytgan taqdirda, o'qituvchi o'ngacha



sanashni boshlaydi, shu soniyalar ichida boshqa ma'lumotni ayta olsa, estafeta davom ettiriladi. Aks holda, mazkur o'quvchi estafetani tark etadi. O'quvchilar o'zlari aytgan ma'lumotlarga qarab o'qituvchi tomonidan rag'bat kartochkalarida baholab boriladi.

2-usul

O'qituvchi o'quvchilarning o'tgan darsda olgan bilimlarini «Zinama-zina» uslubidan foydalangan holda sinab ko'rishni mumkin. Bunda o'qituvchi proyektor yordamida ekranga quyida keltirilgan «Zinama-zina» o'yinining chizmasini chiqaradi (yoki vatman qog'ozga chizilgan shaklini sinf taxtasiga ilib qo'yadi) hamda ixtiyoriy ravishda 5 nafar o'quvchi taklif etiladi. O'quvchilarga o'yin qoidalari tushuntiriladi: har bir o'quvchiga ketma-ketlik asosida bittadan, jami beshta tezkor

savollar berib boriladi. O'quvchilarning javob berish muddati 10 soniyadan oshmasligi lozim. Har bir to'g'ri javob o'quvchining zinlardan bir qadam oldinga siljishiga yordam beradi. Berilgan savolga noto'g'ri javob bergan o'quvchi o'zi egallab turgan zinada qoladi.

1. Qachon SSSR Boltiqbo'yi davlatlariga qo'shimcha Qizil armiya qo'shinlarini kiritib, sovet respublikalarini tashkil etdi? (1940-yil yozda)

2. Ikkinchi jahon urushi qancha vaqt davom etgan? (1939-yil 1-sentyabrdan 1945-yil 2-sentyabrga qadar)

3. Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan davlatlardagi umumiy aholi soni qancha insonni tashkil etgan? (1,7 milliard)

4. Ikkinchi jahon urushida nechta mamlakatning fuqarolari qatnashgan? (57 mamlakat)

5. SSSR qachon agressiyachi mamlakat sifatida Millatlar ligasidan chiqarildi? (1939-yil 14-dekabrda)

6. 1944-yili 18 yoshida o'rta maktabni tamomlab, ko'ngillilar qatorida Ikkinchi jahon urushiga ketgan. Gap kim haqida ketmoqda? (Odil Yoqubov)

7. 1941-yilning qaysi sanasida giterchilar Germaniyasining SSSRga hujum qilishi Sovet Ittifoqi deb atalmish hududga birlashtirilgan xalqlar uchun og'ir sinovlardan iborat urushni boshladi? (22-iyun kuni)

8. Qachon Davlat mudofaa komiteti tuzildi? (1941-yil 30-iyunda)

9. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistondan qancha kishi safarbar etildi? (1 million 951 ming kishi)

10. Front va front oldi hududlaridan O'zbekistonga nechta zavod va fabrika evakuatsiya qilindi? (170 ga yaqin)

...

...
...

25. SAVOL VA JAVOB.

Ta'limiy o'yin nihoyasiga yetgach, o'quvchilar o'zlari ko'rsatgan natijalari-ga muvofiq rag'bat kartochkalari asosida baholanadilar.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi o'quvchilarning ushbu o'yindagi ishtirokini xulosalaydi.

2. Rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.

3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.

2. Uyga vazifa uchun berilgan jadval-ni to'ldirib kelish.

3. Sobir Rahimovning jasorati haqida kichik esse yozish va uni nomlash.

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

IKKINCHI JAHON URUSHIGA SSSRning TORTILISHI

Sovet ekspansiyasining birinchi ha-rakati 1939-yil 17-sentyabrda Polsha-ga qo'shin kiritish bilan boshlandi. Ko'p o'tmay Brestda mashhur nemis qo'mon-doni G.Guderian va sovet generali S.M.Krivoshein qo'mondonligida Polsha-ning bo'linishi munosabati bilan qo'shma sovet-fashist paradi o'tkazildi. So'ngra Qizil armiya qismlari G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiya hududini bosib oldi. Oradan ko'p o'tmay ular rasmiy ravishda SSSRga qo'shib olindi. Birinchi ekspansiya «yutuqlaridan» ilhomlangan SSSR davlati navbatdagi xurujini Finlyandiyaga qaratdi. Bundan ko'zlangan maqsad Le-ningradning xavfsizligini ta'minlash edi. Chunki SSSRning shimoliy davlat che-garalari «dohiy» nomidagi shahardan 32 km masofadan o'tgan edi. 1939-yil oxiri–1940-yil boshlarida bo'lgan so-vet-fin urushi oqibatida Finlyandiya dav-lati Leningrad va Murmansk oralig'idagi o'z hududini SSSRga berishga majbur bo'ldi. Natijada Sovet davlati Leningrad shahri yaqinidan o'tgan shimoliy chega-

rasini uzoqlashtirishga va mustahkamlab olishga erishdi. 1940-yilning yozida So-vet Ittifoqining chegaralarini yangidan o'zgartirish yuz berdi. Sovet hukumati-ning rasmiy talabi bilan Ruminiya Bessa-rabiya va Shimoliy Bukovinani SSSRga berdi. 1940-yil iyunda «sovetlarga qarshi avj olib ketgan faoliyatdan himoya qilish» bahonasida Estoniya, Latviya va Litva ham sovet qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Avgustda barcha uchta Boltiqbo'yi respublikalari rasman SSSR tarkibiga ki-ritildi.

X.Babadjanovning «Ikkinchi jahon urushida o'zbekistonliklarning ishtiroki» maqolasidan.





O'ZBEKISTONLIK LARNING FRONTDAGI JASORATI VA QAHRAMONLIK LARI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga urush yillarida O'zbekiston sanoati, O'zbekistonning qurol-yarog' aslahaxonasiga aylantirilishi, qishloq xo'jaligidagi ahvol, baynalmilal yordami haqida bilimlar berish;
- sanoat va qishloq xo'jaligida yuz bergan o'zgarishlar vositasida har qanday qiyin vaziyatda ham ushbu vaziyatdan chiqib ketishning munosib yo'lini topish, barcha mashaqqatlarni yengib o'tish lozimligini uqtirish;
- o'zbek xalqi bag'rikengligining yorqin namunasi bo'lgan yetim bolalarni asrab olish va ko'chirib keltirilganlarga ko'mak berish kabi misollar orqali bag'rikenglikning naqadar yuksak fazilat ekanligini tushuntirish;
- ota-bobolarimiz ko'rsatgan mislsiz jasorat va qahramonliklar vositasida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ulardagi Vatanni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash tuyg'usini yanada rivojlantirish;
- o'quvchilardagi o'tganlarni xotirlash va hozirgi kunda hayot bo'lgan keksa avlod vakillarini qadrlash tuyg'usini ravnaq toptirish, ularning boy hayotiy tajribalaridan tegishli saboq chiqarish lozimligini uqtirish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).
1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (13 daqiqa).

O'tgan dars mavzusini takrorlash uchun «Bilimdonlar bahsi» ta'limiy o'yinidan foydalanish mumkin. Avvalo ixtiyoriy

ravishda ikki nafar o'quvchi taklif etiladi. So'ngra o'quvchilarga o'yin qoidasi tushuntiriladi. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan 5 ta savolga to'g'ri javob berishlari lozimligi aytiladi. O'qituvchi savolni o'qib bo'lgach, ikkala o'quvchidan birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchi javob berish huquqini qo'lga kiritadi. Savolga javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. Agar birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchi savolga noto'g'ri javob bersa, ikkinchi o'quvchi ham o'z javobini aytishi mumkin. Berilgan 5 ta savolning barchasiga to'g'ri javob bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi va o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Hech bir o'quvchi berilgan barcha savollarga to'g'ri javob berolmasa, ular o'zlari ko'rsatgan natijalariga muvofiq rag'bat kartochkalari asosida baholanadilar. Birinchi juftlik o'yinni nihoyasiga yetkazgach, uni davom ettirish uchun ketma-ketlik asosida ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi juftliklar taklif etiladi.

O'quvchilarga beriladigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Birinchi juftlik uchun:

1. 1941-yil dekabrda kelib respublika hududidagi nechta sanoat korxonalari mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi? (230 ta)

2. 1943-yilda sanoatning respublika xalq xo'jaligidagi salmog'i necha foizgacha ortdi? (75 foizgacha)

3. O'zbekistonda 1941-yili davlatga qancha paxta topshirildi? (1,6 mln tonnadan ziyod)

4. Urush yillarida O'zbekistonga qancha bola evakuatsiya qilingan? (200 ming)

5. O'zbekistonga qancha harbiy gospital joylashtirildi? (30 dan ortiq)

Ikkinchi juftlik uchun:

1. Qachondan boshlab harbiy korxonalar xodimlari urushga safarbar qilinganlar qatoriga qo'shildi? (1941-yil 14-dekabr)dan)
2. 1944-yil martda qayerda O'zbekiston metallurgiya zavodining birinchi navbati ishga tushirildi? (Bekobodda)
3. Kolxozlarda necha yoshdan oshgan bolalar uchun majburiy ish kuni normasi 1,5 marta oshirilgan? (12 yoshdan)
4. Turli millatga mansub o'n nafar bolani tarbiyalagan samarqandlik kolxozchi ayol kim edi? (Fotima Qosimova)
5. Tibbiy xizmat ko'rsatish xodimlari va uskunalari bilan ta'minlangan poyezd qanday nomlanadi? (sanitar poyezdi)

Uchinchi juftlik uchun:

1. O'zboshimchalik bilan korxonadan ketib qolganlarga qancha muddatlik qamoq jazosi belgilandi? (5 yildan 8 yilgacha)
2. O'zbekiston Ittifoqning asosiy jangovar aslahaxonalaridan biri sifatida frontga qancha samolyot yetkazib berdi? (2 000 dan ortiq)
3. Urush yillarida O'zbekiston butun mamlakatda ishlab chiqariladigan qandning qancha qismini berar edi? (chorak qismini)
4. Kattaqo'rg'onlik urush nogironi Hamid Samadov necha nafar bolani olib tarbiyalagan? (13 nafar bolani)
5. Mina otadigan, irg'itadigan qurol nomi nima? (minomyot)

To'rtinchi juftlik uchun:

1. O'zbekistonda 1942-yili yangi sanoat mahsulotini ishlab chiqarish necha baravar ko'paydi? (2 baravar)
2. Urush davrida O'zbekistonda nechta yirik gidroelektrostansiya qurildi? (7 ta)
3. Qaysi viloyatlarda qand lavlagi ekish uchun unumli yerlar ajratil-

di? (Samarqand, Farg'ona, Toshkent)

4. Toshkentlik oddiy temirchi Shoahmad Shomahmudovlar oilasi necha nafar bolani o'z qaramog'iga olgan edi? (14 nafar)
5. Tik yoki qaytarma yoqali, ustidan kamar bog'lanadigan rasmiy harbiy ust ko'ylak qanday ataladi? (gimnastyorka)


III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (12 daqiq).

O'qituvchi yangi mavzusini og'zaki bayon hamda tasviriy vositalarni qo'llash uslublaridan foydalanib oldindan tayyorlangan taqdimot yordamida tushuntiradi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (10 daqiq).

1-usul

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlashda «Fikrlarning yalpi hujumi» uslubidan foydalanadi. Bunda, avvalo, o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh – qo'llovchilar, ikkinchi guruh esa tanqidchilar deb ataladi. So'ngra sinf taxtasi ikki qismga ajratiladi. Birinchi tomonga qo'llovchilar, ikkinchi tomonga esa, tanqidchilar nomi yoziladi. Sinfdagi guruhlar yozma bahslarga kirishadilar: qo'llovchilar – sanoat korxonalarini ko'chirib keltirilishining ijobiy tomonlarini, tanqidchilar esa, sanoat korxonalarini ko'chirib keltirilishining salbiy tomonlarini xolisona nazardan o'tkazishga harakat qiladilar. Buning uchun guruhlardagi o'quvchilar ketma-ketlik asosida bittadan chiqqan holda sinf taxtasidagi o'zlariga ajratilgan joyga guruhlariga berilgan vazifani o'zida aks ettirgan javoblarni bir necha so'z bilan qisqa va ixcham tarzda yozishlari lozim. Guruhlarga 5 daqiq vaqt beriladi. Vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlarning yozgan ishlari muhokama qilinadi va qaysi guruh ko'proq hamda yaxshiroq fikrlar bildirgan bo'lsa, shu guruh o'quvchilari rag'bat kartochkalari asosida baholanadi.



2-usul

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Tezkor xotira» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda avvalo guruhdagi barcha o'quvchilar 4 ta guruhga ajratiladi. Guruhlarga ajratish jarayonida o'quvchilarning tasodifiy tarkibini tuzishga harakat qilish lozim. O'yin avvalida o'qituvchi Ikkinchi jahon urushida qahramonlik va jasorat ko'rsatgan shaxslar faoliyati haqidagi kichik matnlar yozilgan 4 ta varaqni tayyorlab qo'yadi. Har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi chiqib, teskari qilib qo'yilgan varaqlardan birini tanlaydi va o'z guruhi bilan birgalikda 5 daqiqa davomida varaqda yozilgan qo'shimcha ma'lumotlarni o'zlashtirishga harakat qiladi. Berilgan daqiqalar nihoyasiga yetgach, o'qituvchi barcha guruhlardan varaqalarni yig'ib oladi va dastlab birinchi guruh o'quvchilariga yuzlanadi. Guruhdagi har bir o'quvchi o'zlariga berilgan varaqda yozilgan shaxs haqidagi bittadan ma'lumotni ketma-ketlik asosida ayta boshlaydilar. Birinchi guruhdan so'ng navbat ikkinchi guruhga beriladi. O'qituvchi guruhdagi o'quvchilar tomonidan yoddan aytilgan ma'lumotlar miqdorini sinf taxtasiga yozib boradi. Shu taxlit barcha guruhlar o'z ma'lumotlarini aytib bo'lishgach, varaqda qayd etilgan ma'lu-

motlarni tezkorlik bilan xotiraga joylab, eng ko'p ma'lumot ayta olgan, o'quvchilari faol ishtirok etgan guruhlar baholanadi.

Varaqlardagi matnlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1-VARAQ: Sobir Rahimov [1902-yil 25-yanvar, Toshkent – 1945-yil 26-mart, Dansig (hozirgi Gdansk, Polsha)] – harbiy arbob, general-mayor (1943). 1925-yilda Bokuda Birlashgan harbiy maktabni va 1930-yilda komandirlar tarkibi malakasini oshirish kursini tugatgan. 1932–1938-yillarda va 1940-yildan armiyada, 1941-yildan frontda. Bosh shtab harbiy akademiya-sining jadallashtirilgan kursini tugatgan (1943). Ikkinchi jahon urushida Janubiy frontdagi motorlashtirilgan polk komandiri, Zakavkazye frontida o'qchi diviziya komandiri. 1-Belorussiya fronti qo'shinlari tarkibida Baranovichi, Slonim, Belostok, Graudens va boshqa shaharlarni, Belorussiya va Polshani ozod qilishda qatnashgan. Sobir Rahimov komandirligidagi 37-gvardiyachi o'qchi diviziya (2-Belorussiya frontining 65-armiyasi) 1945-yil Sharqiy Pomeraniya operatsiyasida o'rnak ko'rsatgan: diviziya o'sha yilning mart oyi oxirida Gdinya va Dansig shaharlarida dushmanning yirik guruhlarini tor-mor etishda qatnashgan. Diviziya 1-eshelonda hujum qilib, armiyada birinchi bo'lib Boltiq dengizi sohiliga chiqqan va Dansig ko'chalarida jangni boshlab yuborgan. Sobir Rahimov og'ir yarador bo'lib halok bo'lgan. 1965-yilda Qahramon unvoni berilgan. Urushdan keyin Sobir Rahimovning hoki Toshkentdagi qabristonga qo'yilgan. Sobir Rahimov haqida «General Rahimov» badiiy filmi yaratilgan (1967).

Sulton Jo'ra (taxallusi; asl ism-sharifi Sulton Jo'rayev) (1910-yil 15-yanvar, Shofirkon tumani – 1943-yil 10-noyabr, Gomel shahri) – shoir. Buxorodagi erlar bilim yurtida o'qigan, so'ng maktab va bilim yurtida o'qituvchilik qilgan (1930–1936). 1936–1939-yillarda Andijon pedagogika institutida o'qigan va shu yer-

da dars bergan; Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi; urushda halok bo'lgan. Sulton Jo'raning «Fidokor» (1939), «Shodligim», «Ochiq chehralar» (1939), «Moskva» (1941) she'riy to'plamlari e'lon qilingan. Shoirning mashhur italyan astronomiga bag'ishlangan «Bruno» dostoni (1938) 30-yillarda yaratilgan o'zbek dostonlarining eng yaxshi namunalaridan hisoblanadi. Badiiy soddalik, samimiylik, xalq og'zaki ijodiga yaqinlik Sulton Jo'ra she'riyatining eng yaxshi xususiyatlaridir. Shoir Gomel shahri Loev tumani Kozero-gi qishlog'ida dafn etilgan.

2-VARAQ: Sharif Ergashev (1916-yil 1-dekabr hozirgi Buxoro viloyati Peshku tumani Denov qishlog'i – 1978-yil 15-dekabr) – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, oddiy askar. Urushgacha kolxozda yashagan. 1943-yildan frontda. 883-o'qchi polki (Markaziy front, 65-armiyaning 193-o'qchi diviziyasi) o'qchisi. 1943-yilda Dnepr daryosi yaqinidagi jangda jasorat ko'rsatgani uchun Qahramon unvoniga sazovor bo'lgan (1943). Urushdan so'ng, Yangibozor jamoa xo'jaligi kengashining raisi bo'lib ishlagan. Yangibozordagi ko'cha va maktab, Buxoro shahridagi ko'cha, Peshku tumanidagi jamoa xo'jaligiga uning nomi berilgan.

Xalloq Aminov (1915, Buxoro viloyati, Shofirkon tumani – 1994) – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Xalloq Aminov Chernigov gvardiyachi diviziyasi 60-otliq polkining bo'linma komandiri bo'lib, Dnepr bo'ylaridagi janglarda katta jasorat ko'rsatdi. Dneprdan birinchilar qatori kechib o'tdi. Janglarda ko'rsatgan mardliklari uchun 1944-yil 15-yanvarda unga Qahramon unvoni berildi. Urush tugagach maxsus ta'lim olib Vobkent tumanidagi jamoa xo'jaliklaridan birida avval agronom, so'ng rais bo'lib ishlagan.

3-VARAQ: Botir Boboyev (1914-yil 15-may – Toshkent – 1984-yil 4-noyabr)

– Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, polkovnik. Rostov iqtisod institutini, Xarkov artilleriyachilar bilim yurtini bitirgan. 1942-yildan frontda. 118-gvardiyachi artilleriya polki batareya komandiri. Botir Boboyev 1945-yil yanvarda Oborniki qishlog'ida dushmanning qarshi hujumini qaytarib, o'z batareyasini dushman ro'parasiga olib chiqib jang qilgan. Ko'rsatgan jasorati uchun Qahramon unvoniga sazovor bo'lgan (1945). Botir Bobobey urushdan keyin Germaniyadagi sovet harbiy ma'muriyatida xizmatni davom ettirdi (1945–1947). Toshkent shahri Shayxon-tohur tumani harbiy komissari (1952–1972). Respublika urush va mehnat faxriylari kengashi Toshkent seksiyasining raisi (1972-yildan) lavozimlarida ishlagan.

Solih Umarov (1921-yil 2-may – Toshkent – 1995-yil 23-dekabr) – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Toshkent pedagogika bilim yurtini (1938), kichik leytenantlar kursini (1941) tugatgan. O'qituvchilik qilgan va 1940-yildan armiya safida. 1-Belorusiya fronti, 47-armiyaning 76-o'qchi diviziyasi, 80-artilleriya polki batareya komandiri. Germaniyada Vilgelshtadt aholi punktidagi (1945-yil 2-3-may) ko'rsatgan jasorati uchun Qahramon unvoni berilgan (1945-yil 31-may). Kapitan Umarov Minsk shahrining faxriy fuqarosi. Urushdan so'ng sanoat va xo'jalikning turli sohalarida ishlagan. Toshkent shahridagi ko'chalardan biri uning nomi bilan ataladi.

4-VARAQ: Qo'chqor Turdiyev (1917-yil 1-fevral, Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani Dardoq qishlog'i – 1992-yil 4-avgust) – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. 1941-yildan frontda. Janubi-G'arbiy front 38-armiyaning 47-tog'o'qchi diviziyasida xizmat qilgan. Qo'chqor Turdiyev 1941-yil 15-oktyabrda Xarkov viloyatining Krasnokutsk rayoni Trudolyubovka qishlog'idagi jangda dushman dzotini portlatib yuborgan. 1942-yil 27-martda Qahramon unvo-



Respublika ta'lim markazi berilgan. 1942-yil kichik leytenantlar kursini, 1943-yil Gomel harbiy piyodalar bilim yurtini tugatgan, vzvod va rotaga komandirlik qilgan. Urushdan keyin Andijon viloyatining «Oyim» jamoa xo'jaligida sabzavotchilik, keyin sholichilik brigadasining boshlig'i bo'lib ishlagan.

Tojiali Boboyev (1908-yil 10-mart – Marg'ilon – 1984-yil 26-may) – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, kichik serjant. 1943-yildan frontda. 1 006-o'qchi polki pulemyotchisi. 1945-yil 19-aprelda Germaniyaning Ringenvald rayonida dushman bilan jang qilib, boshqa qismlarning oldinga siljishiga yordam berdi. Berlin bo'sag'alarida bo'lgan janglarda jasorat ko'rsatdi. Tojiali Boboyev Sileziya vokzaliga birinchi bo'lib kirdi va uning tomiga bayroq tikdi. Qahramon unvoniga sazovor bo'lgan (1945). Urushdan keyin Marg'ilonda yashagan.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi «Tezkor xotira» o'yiniga yakun yasaydi hamda guruhlarning ushbu o'yindagi ishtirokini xulosalaydi.
2. Rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.
3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Uyga vazifa sifatida «Matonat madhiyasi» haqida kichik matn tuzib kelish.

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT O'ZBEK XALQINING BAG'RIKENGLIGI

Yuzlab o'zbek oilalari ko'chirib keltirilgan, urush tufayli ota-onalaridan ajralgan bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Ayniqsa, keltirilgan bolalarga jamoatchilikning yordam ko'rsatishidan iborat vatanparvarlik harakati 1942-yil 2-yanvarda Toshkentda shahar xotin-qizlarining yig'ilishi bo'lib o'tgandan keyin respublikada keng quloq yoydi, bu yig'ilish O'zbekiston xotin-qizlarini ota-onasiz bolalarga onalari o'rnida onalik qilishga chaqirgan edi. Ko'pgina oilalar ikkita va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o'rtog'i Bahri opa Akromovanning nomlari ko'pchilikka tanishdir, ular turli millat farzandlaridan 14 bolani o'z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 13 bolani asrab oldi. Yangiyo'lda 9 ta kolxoz jamoasi ko'chi-

rib keltirilgan 169 bolani o'z tarbiyalariga olishdi. Buxorolik Muazzam Jo'rayeva va Ashurxo'jayevalar o'z bag'irlariga 8 nafardan bola oldilar. 1943-yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa, 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. Respublikada asta-sekin bolalar uylari, maktab-internatlar, bolalar bog'chalari va yaslilari tarmog'i kengaytirildi, ular birinchi navbatda ko'chirib keltirilgan bolalarni va frontga ketganlarning bolalarini qabul qildilar. 1945-yilda O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 268 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 31 300 bolani tashkil etdi, holbuki, urush arafasida respublikada faqat 106 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda 12 ming bola tarbiyalanardi.

O'zR MDA, 15-fond, 25-ro'yxat, 4364-yig'ma jild, 129-varaq.

SHAVKATLI JANGCHILAR! NEMISLARGA ZARBAMIZNI KUCHAYTIRAYLIK!

Armiya muqaddas yerimiz va peshonadan ter oqizib qo'lga kiritgan boyligimizni himoya qilishga o'tdi. Ana o'sha vaqtda podpolkovnik o'rtoq Sobirjon Rahimov ham o'z qismi bilan frontning mas'uliyatli uchastkalaridan biriga keldi.

Otadan besh yoshida ajralib yetim qolgan Sobirjon issiq-sovuqni boshdan kechirib voyaga yetdi. U 1922-yilda armiya safiga ko'ngilli bo'lib xizmatga kirdi. 1925-yilda Bokudagi harbiy maktabni bitirib, so'ngra o'zbek otliq diviziyasida xizmat qildi. ...Dushman vatanimiz ozodligini xavf ostida qoldirgan kunlarda So-

birjon Rahimov muhim bir uchastkada o'z diviziyasi bilan quturgan dushman oldini to'sib turar edi. Dushman bu uchastkaga tobora yangi kuchlar tashlab olg'a siljishga intilsa ham, san'atkor komandirning mohirlik bilan qilgan manyovrlari gitlerchilarning tinkasini quritdi.

Nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashda general Sobir Rahimovning xizmatlari katta. Bu xizmatlar uchun uning ko'kragiga «Qizil yulduz», «Qizil bayroq» va II darajali «Suvorov» ordenlari taqilgan («Suvorovchi» gazetasi, 1944-yil 1-yanvar, 1-son).

GVARDIYACHI GENERAL-MAYOR SOBIR RAHIMOVNING DAFN QILINISHI

Toshkent. 27-may Toshkent mehnatkashlari xalqning sodiq o'g'li, vatanimizning ozodligi va mustaqilligi uchun dushmanga qarshi kurashda qahramonlarcha halok bo'lgan gvardiyachi general-mayor Sobir Rahimov bilan so'nggi marta vido-lashdilar.

Birinchi o'zbek generali Rahimovning kuli solingan idish O'zbekiston Oliy Sovetining zaliga qo'yildi. Ikki kun ichida generalning kuli solingan idish yonida o'n minglarcha mehnatkashlar bo'ldi.

25-may dafn marosimi bo'ldi. Motamitingida O'zbekiston Xalq Komissarlari Sovetining raisi Abdurahmonov, O'rta Osiyo harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Lipatov va respublikaning xizmat ko'rsatgan o'qituvchisi Hasan ota Islamovlar so'zga chiqdi.

O'zbekiston KP(b) Markaziy Komitetining sekretari o'rtoq U.Yusupovning so'zidan keyin general Rahimovning kuli solingan idish chor qirrali yaxlit marmar tosh ichiga qo'yildi.

O'zbekiston mehnatkashlari o'zlarining sodiq o'g'lining xotirasini abadiy



saqlaydi. Birinchi o'zbek generali Sobir Rahimovga Toshkentda haykal qo'yiladi. Taxtapul ko'chasi, Toshkentning Kuybishev rayoni (*hozirgi Mirzo Ulug'bek tumani*)dagi 118-sonli maktab, Kalinin rayoni (*hozirgi Shayhontohur tumani*)dagi «O'tkun» kolxoziga general Rahimov nomi berildi («Qizil askar haqiqati» gazetasi, 1945-yil 30-may, 35-son).

R.Shamsutdinovning «Ikkinchi jahon urushi va front gazetlari» kitobidan.



O'ZBEKISTON FANI VA MADANIYATI G'ALABA UCHUN XIZMATDA

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga o'zbek adabiyoti va san'atining fashizmga qarshi kurashdagi o'rnini, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, O'zbekistonning Rossiya, Belorussiya va Ukraina intellektual elitasini saqlab qolishdagi roli haqida hamda Ikkinchi jahon urushi yillarida diniy munosabatlar haqida bilimlar berish;
- frontda olovli janglar ketayotgan bir paytda o'zbek yozuvchi va shoirlarining, dramaturglarining janggohlardagi vatandoshlarimizni ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirgan ishlarini o'rganish;
- o'quvchilarda ilm-fanga ishonch tuyg'usini kuchaytirish orqali egallayotgan bilimlarini amaliy ishlarda qo'llay olishga, ijtimoiy hayotda foydalana olishga undash.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa). 1-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (12 daqiqa).

O'tgan darsda o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Faylasuflar bahsi» uslubidan foydalanilishi mumkin. Bunda, avvalo, ixtiyoriy ravishda 4 nafar o'quvchi taklif etiladi. Ularga topshiriq sifatida hikmatli so'zlar beriladi. Ammo ushbu hikmatli so'zlarning ba'zi qismlari tushirib qoldiriladi. Tushirib qoldirilgan qismga mos keluvchi bir qancha so'zlar sinf taxtasiga yozib qo'yiladi. O'quvchilar tushirib qoldirilgan so'zni aniqlagan holda hikmatli so'zni to'ldirishlari lozimligi aytiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga

tezkor savollar beradi. Savolga birinchi bo'lib to'g'ri javob bergan o'quvchi hikmatli so'zni to'ldirish uchun sinf taxtasiga yozib qo'yilgan so'zlardan birini tanlaydi va nima uchun aynan shu so'zni tanlaganligini faylasuflarga xos ravishda izohlab berishi lozim bo'ladi. Agar tanlagan so'zi jumlani asliga ko'ra to'ldira olsa, ushbu o'quvchi g'olib hisoblanadi va qolgan o'quvchilar faqatgina tezkor savollarga javob beradi. Aks holda o'yin qo'yilishi lozim bo'lgan so'z tanlanmaguniga qadar davom etadi.

Mazkur ta'limiy o'yin uchun quyidagi hikmatli so'z berilishi mumkin:

Bilimga eltuvchi yagona yo'l bu ... dir.
(Bernard Shou)

izlanish, idrok qilish, anglash, tavakkal, faoliyat, mehnat, mas'uliyat, raqobat... (Javob: faoliyat)

Tezkor savollar:

1. 1941-yilning yozida qayerda 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasi qayta tuzilib, uning asosida 221-motorlashtirilgan diviziya tashkil qilindi? (*Samarqandda*)

2. Davlat Mudofaa Komitetining 1941-yil 13-noyabrdagi qarorida O'zbekistonda nechta kavaleriya diviziyasi tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi? (*5 ta*)

3. Mardligi va jasorati uchun Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlangan snayperchi o'zbek qizi kim edi? (*Zebo G'aniyeva*)

4. Asli andijonlik bo'lgan, Sovet Ittifoqi Qahramoni yuksak unvoni bilan taqdirlangan birinchi o'zbek qahramoni kim edi? (*Qo'chqor Turdiyev*)

5. Qaysi jang Ikkinchi jahon urushida tub burilishni boshlab berdi? (*Stalingrad jangi*)

6. Urush yillarida qancha o'zbekistonlik fashizmga qarshi olovli janglarda qatnashgan edi? (1,5 mln nafar)

7. 1945-yil 26-mart kuni Polshadagi Gdansk (Dansig) shahrini shturm qilish vaqtida halok bo'lgan gvardiyachi general-mayor kim? (Sobir Rahimov)

8. Qaysi iste'dodli shoir Belorussiyanini ozod qilish uchun bo'lgan janglarning birida Gomel shahri atrofida 33 yoshida mardlarcha halok bo'lgan? (Sulton Jo'ra)

9. Qachon sovet qo'shinlarining hujumi bilan Yaponiyaga qarshi urush boshlandi? (1945-yil avgustda)

10. O'zbekistonlik jangchilardan qanchasi turli sovet orden va medallari bilan mukofotlandi? (120 ming nafar)

11. O'zbekistonlik necha nafar jangchi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lishgan? (280 nafar)

12. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, Ikkinchi jahon urushida qancha kishi halok bo'ldi? (50 mln nafardan ziyod)

13. Vayrongarchilikdan ko'rilgan zarar va urush olib borish uchun sarflangan mablag'lar miqdori qanchani tashkil qildi? (4 trillion dollarni)

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (12 daqiqa).

O'qituvchi yangi mavzusini og'zaki bayon hamda tasviriy vositalarni qo'llash uslublaridan foydalanib oldindan tayyorlangan taqdimot yordamida tushuntiradi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (11 daqiqa).

1-usul

O'qituvchi o'rganilgan mavzuni mustahkamlashda «B. B. B» (bilaman, bilim oldim, bilishni xohlayman) uslubidan foydalanadi. Bunda sinf o'quvchilari 5 guruhga bo'lingan holda faoliyat olib boradilar. Sinf taxtasi uch qismga ajratiladi. Birinchi bandning yuqori qismiga «Bilaman», ikkin-

chi bandning yuqori qismiga «Bilib oldim», uchinchi bandning yuqori qismiga esa «Bilishni xohlayman» degan so'zlar yoziladi.

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xohlayman


So'ngra o'qituvchi o'quvchilardan mavzu yuzasidan qanday ma'lumotlarga ega bo'lganliklarini so'raydi va bildirilgan fikrlarni «Bilaman» nomli bandga yozib qo'yadi. Ushbu harakat guruhlar tomonidan fikrlar to'la bayon etilgunga qadar davom etadi. Mazkur jarayonda guruhlarning barcha a'zolari faol ishtirok etishlariga ahamiyat berish zarur. O'quvchilar tomonidan bildirilayotgan noto'g'ri fikrlar ham inkor etilmasligi lozim (zero bunday harakat o'quvchilarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi). Keyingi bosqichda o'quvchilarga mavzuga oid qo'shimcha matnlar tarqatiladi. O'quvchilar 5 daqiqa davomida matn bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng fikr yuritishlari hamda mavzuga oid yana qanday ma'lumotlarni o'zlashtirganliklarini aniqlashlari lozim. O'quvchilar o'z xulosalari asosida fikrlarini bayon etadilar, ushbu fikrlar «Bilib oldim» nomli ustunga yozib boriladi. So'nggi bosqichda o'qituvchi o'quvchilaridan yangi mavzu bo'yicha qanday ma'lumotlarni o'zlashtirish istagida ekanliklarini so'raydi. Guruhlardan navbati bilan fikr so'raladi. Bildirilgan fikrlar «Bilishni xohlayman» nomli ustunga yozib boriladi.

2-usul

O'qituvchi o'rganilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar tomonidan tuzib kelingan boshqotirmalar, «Marra tomon olg'a» degan usul bo'yicha savollardan tashkil topgan o'yinlarni amalga oshiradi. Sinf guruhlariga bo'linadi va mavzu bo'yicha o'quvchilar tomonidan uyda tuzib kelingan bir guruhning savollari boshqa guruhga beriladi.



Bilim cho'qqilarini zabt etish uchun marra sari olg'a!



Izoh: Aylana, yoki to'rtburchak, uchburchak ichiga savol yoziladi, guruhlardan chiqqan o'quvchilar birin-ketin savolga javob beradi, javob berolmagan yo'lda qoladi, javob beradigan o'quvchi marra tomon ketaveradi.

Misol uchun quyidagi savollar berish mumkin:

1. O'zbekistonga G'arbdan qanday ilmiy muassasalar ko'chirib keltirildi?
2. 1941-yil noyabrigacha O'zbekistonga Ukraina, Belorussiya va Rossiyadan qancha ilmiy tadqiqot instituti, oliy o'quv yurti va kutubxona evakuatsiya qilindi?
3. Ikkinchi jahon urushi yillarida qaysi allomaning 500 yilligi nishonlandi?
4. Qaysi yilda o'zbek romanchiligining yuksak namunalaridan biri bo'lgan akademik shoir Oybekning «Navoiy» romani chop etildi?
5. Qaysi kompozitor ijodkor fashizmga qarshi kurash o'z ifodasini topgan

«Qahramonlik simfoniyasi» uchun davlat mukofotiga sazovor bo'ldi?

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi o'quvchilarning «B. B. B» o'yinidagi ishtirokini xulosalaydi.
2. O'quvchilarni sinf jurnaliga baholaydi.
3. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. Darslikdagi uyga vazifa sifatida berilgan jadvalni to'ldirib kelish:

O'zbek yozuvchilari	Ko'chib kelgan yozuvchilar	O'zbek olimlari	Ko'chib kelgan olimlar

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

1939-yilda Farg'ona viloyatining Namangan shahrida 99 ta masjid ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 96 tasini qizil choyxona, klub, bolalar uyi, omborxonona, otxona, do'kon va boshqa sovet madaniy muassasalari egallagan, faqat 3 ta masjid yashirin faoliyat ko'rsatgan.

1943-yilda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy Boshqarmasi

(SADUM) tuzildi. Ushbu boshqarma tuzilishi orqali musulmonlar o'zlarining maxsus idoralariga ega bo'ldilar.

A.Salmonovning «O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati (1917–1960 yillar)» kitobidan.

TAMARA XONIM

...Men O'zbekistonning go'zal vodiysi Farg'onaning ko'chalarida yurgan chog'larimni eslayman. Mening otam ishchi edi. Biz qashshoqlik bilan kun ko'rar edik. Go'zal Farg'ona ko'chalarida yurgan chog'larim mening uchun baxtli daqiqalar hisoblanardi. Bayram kunlari bu ko'chalarda dorbozlar, o't o'yinchilari, qiziqchilarni ko'rib havasim kelar edi. To'y kunlarida xotinlar «ichkari»da o'tirib dutor chertar, qo'shiq aytar va o'yinga tushar edilar. Men ham bunday o'yin-kulgilarda 8 yoshimdan ishtirok eta boshladim. Men chok tikishni haddan tashqari yaxshi ko'rar edim. Mening tikib kiyintirgan qo'g'irchoqlarim hammaga manzur bo'lar edi. Men hozir ham milliy kiyimlarni

yaxshi ko'raman. Hatto hozir ham sahna uchun kerak bo'lgan kiyimlarni o'zim tikaman...

Hozir mening juda ko'p shogirdlarim bor. San'at sohasida ko'rilgan qiyinchiliklar tezda esdan chiqib ketadi. Biroq men bosib o'tgan yo'llar qanchalik og'ir bo'lgan bo'lsa, xalqimning o'tmishi shunchalik keng ravishda ko'z o'ngimda gavdalanadi. Men qahramon frontchilarimiz, o'zbeklar, Qahramon Qo'chqor Turdiyev, Valiyev, Qahramon mergan qiz Zebo G'aniyeva, shuningdek, nemis bosqinchilari bilan olib borilgan janglarda o'z jonlarini qurbon qilgan bahodirlar haqida qo'shiqlar aytaman.

*«Suvorovchi» gazetasi, 1944-yil
24-oktyabr, 68-son.*

1-CHAQIRIQ SSSR OLIY SOVETINING XII SESSİYASI HARAKATDAGI ARMIYA SHAXSIY SOSTAVINING KATTA YOSHDAGILARINI HARBIY XIZMATDAN BO'SHATISH TO'G'RISIDAGI QONUNI

Fashist Germaniyasiga qarshi olib borilgan Ulug' Vatan urushining g'olibona tugallanishi munosabati bilan SSSR armiyasi shaxsiy sostavining katta yoshdagilarini harbiy xizmatdan bo'shatishni zarur deb topadi. Shu munosabat bilan SSSR Oliy Soveti qaror qiladi:

Katta yoshdagi harbiy xizmatchilarni bo'shatish 1945-yilning ikkinchi yarmi ichida tamomlansin.

Harbiy xizmatdan bo'shayotganlarga uyiga borib yetgunicha bo'lgan xarajatlar davlat hisobiga olinsin.

Yo'lda davlat hisobidan ovqat bilan ta'minlansin. Ust-bosh, oyoq kiyimi bilan ta'minlansin.

Umumiy harbiy ta'rifga muvofiq oddiy askarlarga urush davrida har bir yil xizmati uchun yillik maosh, ortiqroq maosh oladi-

gan maxsus qism oddiy askarlariga har bir yil xizmati uchun yarim yillik maosh, serjantlar tarkibiga har bir yil qilgan xizmati uchun kamida 300 so'mdan 900 so'mgacha miqdorda yarim yillik maosh, ofitser sostaviga bir yil qilgan xizmati uchun ikki oylik maosh, ikki yil qilgan xizmati uchun uch oylik maosh, uch yil qilgan xizmati uchun to'rt oylik maosh, to'rt yil qilgan xizmati uchun besh oylik maosh to'lansin.

Oblastlar ijroiya komitetlari xizmatdan bo'shab kelganlarni urushgacha bo'lgan davrdagi ishidan past bo'lmagan ishlar bilan ta'min qilish va ularni turarjoy bilan hamda yonilg'i bilan ta'min etishga majbur.

*«Qizil askar haqiqati» gazetasi,
1945-yil 25-iyun, 41-son.*

R.Shamsutdinovning «Ikkinchi jahon urushi va front gazetlari» kitobidan.



O'ZBEKISTON XALQ XO'JALIGINING URUSHDAN KEYINGI YILLARDAGI RIVOJLANISHI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga urushdan keyingi yillarda sanoatni qayta tiklash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida bilimlar berish;
- o'quvchilarga paxta monokulturasini, uning oqibatlarini, cho'llarni o'zlashtirish va buning oqibatlarini haqida ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarga O'zbekistonda XX asrning 60–80-yillarida ekologik muvozanatning buzilish sabablari haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarga Orol dengizi muammosi kelib chiqishining sabablari, oqibatlarini haqida ma'lumot berish;
- ularda shukronalik tuyg'ularini rivojlantirish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).

2-darsga qarang.

II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH (11 daqiqa).

O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash uchun o'quvchilarga uyga vazifa sifatida berilgan kartochkalardan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, o'quvchilar tayyorlab kelgan savol kartochkalari yig'ib olinadi. So'ngra barcha kartochkalar aralashtiriladi hamda ixtiyoriy ravishda 5 nafar o'quvchi taklif etiladi. O'quvchilar kartochkalarga qaramagan holda ketma-ketlik asosida bittadan kartochkalarni tanlaydilar va ulardagi savollarga javob beradilar. Qaysi o'quvchi tomonidan tayyorlangan savollar kartochkasiga javob berilsa, ushbu o'quvchi berilgan javoblar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ay-

tadi va bu o'qituvchi tomonidan tasdiqlab boriladi. O'yin yakunida o'quvchilar o'zlarini ko'rsatgan natijalarga ko'ra baholana-di, shuningdek, o'quvchilar tomonidan yashirin ravishda tanlab olinib, unga javob berilgan kartochkalarni tuzib kelgan o'quvchilar ham rag'batlantiriladi.

Uyga berib yuborilgan quyidagi jadval o'qituvchi tomonidan tekshiriladi.

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH (11 daqiqa).

O'qituvchi yangi dars mazmunini hikoya-suhbat uslubida tushuntiradi.

«Matn ustida ishlash» usuli. O'quvchilar to'rt guruhga alohida topshiriqlar beriladi. Har bir guruh o'z topshirig'ini darslikdan foydalangan holda, o'tgan mavzu bilan bog'lab, vatmanga yozadi.

1-guruhga:

Ekologik muvozanatning buzilishi		
Tarixiy ildizi	Davri	Natija va oqibatlar

2-guruhga:

Paxta monokulturasini		
Davri	Amalga oshirilgan siyosat	Natija va oqibatlar

3-guruhga:

Orol dengizi		
Qurish davri	Qismlari	Hududi

4-guruhga:

Orol dengizi hududi bugungi kunda		
Orolqum	Kasalliklar	Oqibatlar


Guruh sardorlari doskaga vatmanlarni osib, javoblarni izohlab berishadi. Javoblar o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi va zarur hollarda aniqlik kiritiladi.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (12 daqiqa).

1-usul

O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Marra sari olg'a!» uslubidan foydalaniladi. Bunda, avvalo, AKT yordamida o'yin chizmasi ekranga chiqariladi (yoki vatman qog'ozga chizilib, sinf taxtasiga ilib qo'yiladi) hamda ixtiyoriy ravishda ikki nafar o'quvchi taklif etiladi.

Ular yordamchi minoralarga ko'tarilgan holda asosiy minoraning bayrog'ini o'zgartirish vazifasi beriladi. Buning uchun o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan 5 ta savolga to'g'ri javob berishlari lozimligi aytiladi. O'qituvchi savolni o'qib bo'lgach, ikkala o'quvchidan qaysi biri birinchi bo'lib qo'l ko'tarsa, o'sha o'quvchi javob berish huquqini qo'lga kiritadi. Savolga javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. Agar birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchi savolga noto'g'ri javob bersa, ikkinchi o'quvchi ham o'z javobini aytishi mumkin. Berilgan 5 ta savolning barchasiga to'g'ri javob berib, marraga birinchi bo'lib yetib kelgan o'quvchi g'olib hisoblanadi va o'qituvchi tomonidan ramziy bayroqcha bilan taqdirlanadi. Hech bir o'quvchi marraga



yetib kelolmasa (ya'ni berilgan barcha savollarga to'g'ri javob berolmasa), ularga ramziy bayroqcha berilmaydi, ular o'zlari ko'rsatgan natijalariga muvofiq rag'bat kartochkalari asosida baholanadilar. Birinchi juftlik o'yinni nihoyasiga yetkazgach, uni davom ettirish uchun ketma-ketlik asosida ikkinchi va uchinchi juftliklar taklif etiladi.

O'quvchilarga beriladigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Birinchi juftlik uchun:

1. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sanoatini tiklash uchun Markaz qanday tamoyil asosida harakat qildi? (*Markaz manfaatidan kelib chiqqan holda reja tuzildi*)
2. O'zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishiga Markazning qanday siyosati sabab bo'lgan edi? (*O'zbekistonga xomashyo yetkazib beruvchi chekka hudud deb qaraganligi*)
3. Qachondan boshlab O'zbekistonning mashinasozlik sanoati qishloq xo'jaligi va irrigatsiya uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarishga o'tkazildi? (*1945-yildan*)
4. O'zbekiston metallurgiya zavodida prokat sexi qachondan ishga tushirildi? (*1946-yildan*)
5. Urushdan keyingi yillarda ochilgan Polvontosh va Janubiy Olamushuk konlaridan nima qazib olingan? (*neft*)

Ikkinchi juftlik uchun:

1. «Tashavtomash» zavodi ishga tushirilganidan qancha vaqt o'tib u Toshkent traktor zavodi (TTZ)ga aylantirildi? (*20 yil*)
2. Mirzacho'lni o'zlashtirish qachondan boshlandi? (*1956-yil*)



3. Guliston shahrining dastlabki nomini toping. (*Mirzacho'l*)
4. Monokultura so'ziga ta'rif bering. (*Almashlab ekishga amal qilmasdan, bir xil ekinni muttasil ekish*)
5. XX asr 50-yillari «Glavgolodnostepstroy» tashkiloti nima maqsadda tuzilgan edi? (*Mirzacho'lni o'zlashtirishga rahbarlik qilish*)

Uchinchi juftlik uchun:

1. Nechanchi yilda oziq-ovqat va sanoat tovarlariga kartochka tizimi joriy qilingan? (*1947-yil*)
2. Bu davrga kelib hunarmandlarning faoliyati cheklanib, ular qanday tuzilmalarga birlashtirildi? (*kooperativ artellarga*)
3. 1961-yil Mirzacho'l hududida qanday shahar tashkil etildi? (*Guliston*)
4. Aylanuvchi ikki jo'va orasidan siqib o'tkazish yo'li bilan turli shakldagi metall mahsulotlar ishlab chiqarish nima deyiladi? (*Prokat*)
5. Mirzacho'l hududi qaysi respublikalar hududida bo'lgan? (*O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSR*)

2-usul

«6 x 6 x 6» metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Ushbu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har biri-

da avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. Mazkur metod yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo'yib chiqadi.

2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlariga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi (1-guruhga: Ekologiya buzilishi sabablari. 2-guruhga: Orol dengizi qurishi sabablari. 3-guruhga: Paxta yakkahokimligining maqsadi. 4-guruhga: Orol dengizi qadimda va hozirda. 5-guruhga: Orolqumning paydo bo'lishi. 6-guruhga: Orol dengizi qurishining oqibatlarini).

4. O'qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etil-

ganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladi va yakuniy xulosaga keladi.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

1. O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga berib borilgan savol-javoblar asosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.

2. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi va darsni yakunlaydi.

O'quvchilarda mavzu bo'yicha paydo bo'lgan savollarga javob beradi. Barcha guruhlardagi rag'bat kartochkalari miqdori hisoblanadi hamda g'olib guruh e'lon qilinadi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar jurnalga baholanadi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.
2. 1978-yilgi Konstitutsiyaning O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatganligi va bugungi mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi haqida esse yozib, uni nomlash.

QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

XALQ XO'JALIGINI TIKLASH

Urushdan keyingi dastlabki yillarda 150 ta sanoat korxonasi foydalanishga topshirilgan edi. Ular orasida Bekobod metallurgiya, Qo'qon va Samarqand superfosfat zavodlari va boshqa korxonalar bor edi. Yangi neftni qayta ishlash korxonalarini qurildi, Olmaliq mis eritish kombinatining qurilishi boshlab yuborildi. Respublika uchun yangi bo'lgan – gaz, oltin qazib chiqarish va boshqa tarmoqlar vujudga keldi. O'zbekistonda urushdan keyingi qurilishning muhim obyektlari – Farhod, Oqqovoq, 2-Bo'zsuv gidroelektrostansiyalari va hokazolar bo'ldi. Qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, metallga ishlov

berish va kimyo sanoati jadal sur'atlar bilan rivojlantirildi. Shu bilan birga, Sovet davlati mablag'larni O'zbekiston uchun noan'anaviy bo'lgan tarmoqlarga (avvalo o'g'ir sanoatga – uning salmog'i 1950-yilda 1940-yildagi 13,5% o'rniga 47,2%ga yetdi) yo'naltirishi, ularni rivojlantirish sur'atlarining keskin oshirilishi, respublika va uning ijtimoiy sohalari manfaatlaridan ajralib qolishiga olib keldi. Natijada xalq xo'jaligining bir qator ko'rsatkichlari (avvalo agrar sektor ko'rsatkichlari) bo'yicha mahsuldorlikning qisqarishi va jiddiy ravishda orqada qolishiga olib keldi, bu esa mustabid tuzumga xos bo'lgan qo'shib



zishlar, korrupsiya, boshqa salbiy holatlar uchun subyektiv shart-sharoitlar bilan bir qatorda obyektiv shart-sharoitlar ham yaratdiki, ular iqtisodiyotni rivojlantirishning keng miqyoslilik va sun'iy ravishda jadallashtirilishi bilan, shuningdek, kadrlarning keskin ravishda yetishmasligi bilan bog'liq edi. Biroq shunga qaramasdan, urushdan keyingi dastlabki yillarda respublika oldiga qo'yilgan tinch hayotga o'tish vazifalari bajarildi: korxonalarining asosiy qismi tinchlik davri uchun mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tdi, jamiyat hayotining tinchlik sharoitiga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan masalalari qisman hal qilindi. Urushning og'ir oqibatlar va bunga qo'shimcha Markaz yakka hukmronligining tobora kuchayib borishi xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga ham salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Bu hol, birinchi navbatda, sanoat uchun xomashyo, aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan muhim tarmoq (asosan paxta yetishtiradigan) qishloq xo'jaligiga taalluqli edi. Urushdan keyingi yillarda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tashkiliy-xo'jalik jihatidan o'ta zaiflashib qolgan edi, mehnat resurslari qisqargan, paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish kamayib ketgan edi. Biroq butun xalq xo'jaligida bo'lgani kabi, respublika agrar sektorini qayta qurish yo'nalishlari ham metropoliya tomonidan ko'rsatib berilardi, u esa O'zbekistonda paxta yakkahokimligini rivojlantirish yo'lini qat'iy qilib belgilab qo'ygan edi. Urush tamom bo'lgandan keyin ko'p o'tmay (1946-yil fevral) markaziy siyosiy rahbariyat maxsus qaror qabul qilib, unda O'zbekistonda 1946–1953-yillar davrida paxtachilikni tiklash va yanada yuksaltirish sohasidagi rejalar va tadbirlarni belgilab berdi. Markazning bu hujjati, O'zbekiston xalqlari manfaatlarini

aslo hisobga olmagan va majburiy xususiyatga ega bo'lgan qaror edi. Yuqoridan yuborilgan qarorlar odatda O'zbekistonda muhokama qilib o'tirilmasdi, balki amaldagi dasturiy hujjat sifatida uning bajarilishiga doir tadbirlar ishlanib, «harakatga yo'llanma» berilar edi. Respublika qishloq xo'jaligini qayta qurishdagi asosiy mezon paxta ekiladigan maydonlarni izchillik bilan kengaytirib borish va umumiy ekin ekiladigan maydonlarda uning salmog'ini oshirishdan iborat edi. Mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga sug'oriladigan yerlarda don ekinlari ekishni qisqartirish va bu ekinlarni boshqa yerlarga ko'chirish, chigit va beda uchun sug'oriladigan yerlardan 218 ming gektarini bo'shatish choralarini ko'rish vazifasi yuklangan edi. Paxta ekish reja-topshiriqlari yuqoridan majburiy tartibda belgilanardi va respublika viloyatlariga yuborilardi. Masalan, 1946-yil uchun Toshkent viloyatiga 86 ming gektar, Farg'ona viloyati uchun 108 ming gektar, butun respublika bo'yicha esa 779 ming gektar yerga chigit ekish haqidagi topshiriqlar Markazdan kelgan edi.

Paxta ekiladigan maydonlarning to'xtovsiz oshirib borilishi respublikada chorvachilikni rivojlantirishga va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga to'g'onoq bo'ldi, bu esa O'zbekiston aholisining, birinchi navbatda, qishloq aholisining moddiy ahvoriga salbiy ta'sir qildi. Markazning respublika qishloq xo'jaligiga ana shunday bir tomonlama va volyuntaristik yondashuvi jamoat xo'jaligini har jihatdan ko'p tarmoqli bo'lib rivojlanishiga to'sqinlik qildi, unga faqat mustamlakachilik xususiyatini bag'ishladi. Paxtachilikni sun'iy ravishda jadal yuksaltirish mustabid tuzumning O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ustuvor yo'l bo'lib, uning

bir tomonlama rivojlanishini mustahkamladi. Bu hol respublika hayotiga ko'pgina salbiy xususiyatlarni olib kirdi: respublikaning olg'a tomon rivojlanishi muntazam sekinlashib bordi, iqtisodiyotda buzilish va turg'unlik jarayonlari boshlandi, eko-

logiyaga putur yetdi, aholining turmush darajasi va salomatligi yomonlashdi.

*«O'zbekistonning yangi tarixi.
O'zbekiston sovet mustamlakachiligi
davrida (2-jild)» kitobidan.*

MIRZAKALON ISMOILY

Mening otam Mirzakalon Ismoiliy 50-yillar qatag'oniga uchrab «jazo» mud-datini Qarag'anda shaxtalarida o'tadilar. Uch yoshligimda onam – Zuhraxon aya meni ham u yerga olib bordilar. Bu, albatta, maxsus ruxsat orqali amalga oshgan. Yodimda qolgani – yer qo'rg'oshin bilan qoplangan edi. Demak dadamlar qo'rg'oshin konida qatag'on qilinganlar qatorida og'ir mehnat qilganlar...

Bir kuni dadamning qamoqdan olib kelgan krujkalari kattaligidan hayratlanib, «bu krujka nimaga mo'ljallangan?» deb so'radim. Shunda ular qamoqda ovqat oldidan bir krujka suv ichishganligini, shu yo'l bilan qorin to'q tutilishini aytib bergandilar.

«Xalq dushmani»ning oilasi og'ir sharoitda qolishi sir emas. Oilamizga o'z uyimizdan bir xonagina ajratildi. Qolgan xonalarga boshqa millatlarga mansub bir qancha oilalar joylashtirildi. Hatto dadam qaytganidan keyin ham ulardan biri ayvon bilan birga berilgan xonalarni anchagacha bo'shatib bermadi.

O'sha yillar opalarim Floraxon, Fari-daxon, Oyzuhraxon, akalarim Farruxxon, Xasanxon va meni maktabda, ko'chada «xalq dushmani bolalari» deb turtkilashgan vaqtlar edi...

Ayamlar ishdan bo'sh vaqtda, asosan, yarim kechasi jabo yoqachalarini uyda tikardilar. Opalarim ham ayamning oldiga kirib, tun-u kun shu ish bilan mashg'ul bo'lishardi. Oilamiz yoqachalarni sanatoriylarda sotib kun kechirardi. Ba'zan u yerlarga meni ham olib ketishardi. Bir kuni transportda odamlar meni gapga solish maqsadida qayerga ketayotganimizni so'rashdi. Bola emasmanmi, bor tafsilotlarni gapirib berdim. Keyin ayam va opalarim bunday qilish mumkin emasligini uqtirishdi. Keyingi safar so'rashganida: «Biz chayqovchi emasmiz. Biz yoqa sotgani ketmayapmiz», – degan ekanman.

Dadam oqlanib, qamoqdan qaytib kelganlarida farzandlar safida Oyzuhraxon opam yo'q edi. Barcha nohaqliklarga chidagan dadamga yana bu judolik...

Qamoqda yozilgan «Farg'ona tong otguncha» romani ustida ish qaytganlaridan keyin yana oq qog'ozdan boshlandi. Bir kuni dadam ijod qiladigan xonalaridan «Hayotxon¹ o'ldi» deb ko'z yoshlari bilan chiqdilar. Shunda men «Dada, o'ldirmang! Axir sizning qo'lingizda-ku», – deb aytgan edim: «Yo'q, mening qo'limda emas», – deb javob berdilar...

*Adibning qizi Marikaxon aya
xotiralaridan*

¹ Asar qahramoni.



SOBIR KAMOLOV

N.Muhitdinov o'rniga O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari lavozimiga Sobir Kamolov saylandi. ... Ammo O'zbekistonda S.Kamolovning boshqaruvi uzoqqa bormadi. U lavozimida bir yil-u uch oy o'tirdi. S.Kamolovning ishdan olinishiga bevosita sabab milliy va diniy masala bo'ldi.

Sovet hokimiyati dinning davlatdan ajralganligini e'lon qilganiga, ateizmni davlat siyosati darajasiga ko'targaniga qaramasdan, din sovet kishilarining hayotida muhim rol o'ynashda davom etdi. Ayniqsa, O'rta Osiyoda islom dinining ta'siri kuchli edi. Chunki islom boshqa dinlardan farqli ravishda, faqat e'tiqod obyekti bo'lmasdan, kishilarning hayot tarzi, dunyoqarashi, axloqiy va estetik normalar tizimi ham edi. Sovetlarning dinga qarshi siyosati islomni mafkura va siyosat sohalaridan siqib chiqardi, ammo u oilaviy hayotda va maishiy sohada o'z mavqeyini saqlab qoldi.

«Illiqlik» (*Xrushchev davriga nisbatan aytiladi*) tufayli SSSRda markaziy boshqaruv tizimining susayishi, ayrim respublikalar rahbarlarini yanada mustaqil bo'lish uchun qat'iy qadamlar tashlashga undadi. S.Kamolov davrida O'zbekis-

tonda rahbar kadrlarni mahalliyashtirish (ya'ni lavozimga qo'yishda ko'proq o'zbeklarga e'tibor berish) kampaniyasi boshlandi. Albatta, aholi ham buni ijobiy qabul qildi va musulmonchilik urf-odatlarini ommaviy tiklashga harakat qildi. Sovetlarning deyarli ellik yillik ateistik siyosatiga qaramasdan, aholi o'rtasida diniy kayfiyat hamon kuchli edi.

...Shu davrda diniy tadbirlar soni ham keskin oshib, choyxonalar diniy targ'ibot markaziga aylanadi. Natijada, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Madaniyat bo'limi mudiri yuqori partiya organlariga kirill alifbosi asosidagi o'zbek yozuvini arab alifbosiga almashtirish haqida taklif kiritadi. Buni arab mamlakatlari ishlar uchun arabshunos kadrlar tayyorlash ehtiyoji bilan asoslashga urinadi. Bu harakatlarning hammasi qo'shibil Moskvadagilarni chindan ham qo'rqitib yubordi. Millatchilik va diniy harakatlarning faollashganligini bahona qilib, Moskva 1950-yillari bir qator respublikalar rahbarlarini almashtirgan edi. O'zbekistondagi shunday almashtirish natijasida hokimiyatga Sh.Rashidov keldi.

*Sh.Ergashevning
«Erk istar ko'ngil» kitobidan*

NURIDDIN MUHITDINOV

Nuriddin Muhitdinov 1917-yil 19-noyabrda Toshkent yaqinidagi Allon mahallasida tug'ildi. Moskvadagi savdo-kooperativ institutini 1938-yilda tamomlab, Buxoroga yo'llanma oladi. U viloyat matbuot uyushmasining kadrlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari va o'quv kombinati rahbari qilib tayinlanadi.

N. Muhitdinov II jahon urushi boshlangach, ko'ngilli bo'lib armiya safiga ketadi. U Kiyevdagi maxsus harbiy maktabda ta'lim oladi (1939-y.) 1941–1945-yillarda harakatdagi armiya safida bo'lib, fashizmga qarshi kurashda faol qatnashadi. U 1946-yilda Toshkentga kelganidan so'ng uning siyosiy faoliyati boshlanadi. N. Muhitdinov Namangan viloyati

partiya qo'mitasi kotibi, birinchi kotibi (1947–1950), O'zbekiston kompartiyasi MK kotibi (1950–1951), O'zbekiston SSR Ministrlar Kengashining raisi (1951–1953, 1954–1955), O'zbekiston SSR Tashqi ishlar ministri (1953–1954), O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi kotibi (1955–1957), KPSS MK kotibi (1957–1961) va boshqa mas'ul lavozimlarda mehnat qildi. N.Muhitdinov respublikaning ijtimoiy-siyosiy muammolarini yaxshi bilishi bilan alohida ajralib turardi. U O'zbekistonda qatag'on qilingan milliy rahbar kadrlar va ziyolilarning tabaruk nomlarini oqlashda tashabbuskorlik qildi. 1961-yil oktyabrda bo'lgan KPSS XXII syezdida N.S.Xrushchevning talabi bilan N.A.Muhitdinov mamlakatning oliy siyosiy rahbariyati tarkibiga kiritilmadi. U

«Sentrosoyuz» raisi o'rinbosari (1962–1966), SSSR Ministrlar Kengashining xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-alohalar qo'mitasi raisining 1-o'rinbosari (1966–1968), SSSRning Suriyadagi elchisi (1968–1977), SSSR savdo-sanoat palatasi raisining o'rinbosari (1977–1986) kabi lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi. 1986-yilda Toshkentga qaytib kelgan N.Muhitdinov O'zbekiston SSR hukumat maslahatchisi, so'ngra uzoq yillar O'zbekiston Yodgorliklarni muhofaza qilish jamiyati raisi bo'lib ishladi. N.Muhitdinovning «Kremlda o'tgan yillarim» kitobi o'zbek va rus tillarida nashr qilindi.

«O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida (2-jild)» kitobidan

ZIYOLILAR QATAG'ONI

1949-yil 25-iyunda O'z KP(b) MK-ding byurosida O'zbekiston yozuvchilari ishi muhokama qilindi. Bu masalaning maxsus ko'rilishi respublikaning bir qator taniqli badiiy ziyolilari badnom qilinishiga sabab bo'ldi. MQ byurosi muhokama etilgan masala yuzasidan qabul qilingan qarorda o'zbek yozuvchilaridan ayrimlarining ijodida «millatchilik va milliy mahdudlik, feodal o'tmishni keng suratda ideallashtirish va eski feodal madaniyati oldida qullarcha sajda qilish elementlari mavjuddir» deb ta'kidladi. Qarorda yozuvchi Abdulla Qahhor qattiq tanqid ostiga olinadi, u o'zining «Qo'shchinor» romanida go'yo «o'zbek kampiri tili bilan uning kelini rus bo'lgani uchun g'iybat qilib kamsitadi». Yozuvchi Mirkarim Osim «siyosiy jihatdan ishonchsiz... millatchilik xato fikrlaridan xalos bo'lmagan» sifatida

ta'riflandi. MQ byurosi Oybek, Mirtemir, Sharipov, M.Boboyev, U.Rashidov, Hamid G'ulom, A.Qayumov, M.Shayxzoda asarlaridagi «jiddiy xatolar va buzilishlar»ni ko'rsatib o'tdi. Shuningdek, «Sharq yulduzi» va «Zvezda Vostoka» jurnallari mutlaqo asossiz ravishda tanqid qilindi. «Zvezda Vostoka» o'z sahifalarida «kosmopolitizm va jurnalxonlarni chalg'ituvchi ruhdagi» maqolalarni e'lon qilgani uchun tanqid qilindi. Qarorda hammadan ko'proq «Sharq yulduzi» jurnali (sobiq muharriri Oybek)ga gap tegdi, u go'yo «noto'g'ri, xato yo'lda turgan» emish. «Keyingi vaqtlarda, – deyiladi hujjatda – bu jurnalda milliy mahdudlik ko'rinishi yaqqol ifodalandi».

O'zR MDA, 58-fond, 128-ro'yxat, 43-yig'ma jild, 3-71-varaqlar.



O'ZBEKISTON AHOLISINING O'SISHI

O'zbekistonda aholining tabiiy o'sishi yuqori darajada bo'lib, keyingi o'n yilliklarda har yili o'rta hisobda 2,5 foizdan ko'payib bordi. Jumladan, 1970-yili 11,8 mln aholi yashagan bo'lsa, 1986-yilga kelib, aholi soni 18,4 mln kishiga yetdi. Shu jumladan, aholining 1970-yilda 63,4 foizi, 1986-yilda esa 59,5 foizi qishloqda yashagan.

1970-yili Toshkent viloyatida (Toshkent shahri bilan birgalikda) 4 mln 800 mingdan ortiq, aholi yashagani holda Xorazm viloyatining aholisi 557 ming kishidan biroz ortiq edi, xolos.

Aholisi 500 mingdan ortiq bo'lgan eng yirik shaharlar guruhiga respublikamizdan faqat Toshkent shahri kirardi. U aholisining soni jihatidan Sovet Ittifoqidagi Moskva, Leningrad va Kiyev shaharlaridan keyin to'rtinchi o'rinda turardi.

1970–1980-yillar ichida aholi sonining o'sishi Moskva shahrida o'rtacha 1,35 foizga, Leningradda – 1,45 foizga, Kiyevda – 2,95 foizga va Toshkent shahrida – 3,05 foizga teng bo'lgan.

Qashqadaryo viloyatida Muborak (1974), Gazli (1977); Buxoro viloyatida Zarafshon (1972), Uchquduq (1978); Surxondaryo viloyatida Sharg'un (1973); Jizzax viloyatida Marjonbuloq (1980); Qoraqalpog'iston Respublikasida Taxiatchosh (1983) kabi shaharlar hamda Sirdaryo viloyatida Shirin (1972), Andijon viloyatida Shahrixon (1970), Jizzax viloyatida Paxtakor (1977) kabi shaharlar tashkil etildi.

*D. Bobojonovanning
«O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy
munosabatlar (70–80-yillar misolida)»
kitobidan.*



1980–1990-YILLARDA O‘ZBEKISTON

DARSNING MAQSADI:

- o‘quvchilarga «Qayta qurish» siyosati va uning mazmuni, bosqichlari hamda oqibatlari haqida ma’lumot berish;
- o‘quvchilarga «paxta ishi», «o‘zbeklar ishi» singari tushunchalarning mazmun-mohiyati haqida bilimlar berish;
- o‘quvchilarni sovetlarning O‘zbekistondagi so‘nggi qatag‘on siyosati va uning oqibatlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarga Farg‘ona fojialarining kelib chiqish sabablari, uning maqsadi, oqibatlari va mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy holatiga ta’sirini tushuntirib berish;
- voqealarni tahlil qilishga o‘rgatish.

I. TASHKILIY ISHLAR (3 daqiqa).
1-darsga qarang.

II. O‘TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH

(12 daqiqa).

O‘qituvchi o‘tilgan mavzuni takrorlash uchun «T-jadval» texnologiyasidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, o‘quvchilar «T-jadval» uslubi shartlari bilan tanishtiriladi. So‘ngra 5 ta kichik guruh shakllantiriladi. Guruhlar 7 daqiqa davomida jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko‘ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradilar, ya’ni jadvalning chap va o‘ng tomonlariga «Paxta ishi» siyosati amalga oshirilishida yuz bergan voqealarni Markaz va O‘zbekiston omillariga bog‘lagan holda bayon etadilar. Guruhlar tomonidan to‘ldirilgan jadvallar o‘zaro solishtiriladi. Masalaning yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi, yoki yagona «T-jadval» shakllantiriladi.

XX asrning 80–90-yillari	Ekologik muammolarning kelub chiqishi, holati	Mustaqil O‘zbekistondagi hozirgi holat
1.		1.
2.		2.
3.		3.
4.		4.
5.		5.
6.		6.
7.		7.

III. YANGI DARS MAZMUNINI TUSHUNTIRISH

(12 daqiqa).

O‘qituvchi yangi dars mazmunini hikoya-suhbat uslubida tushuntiradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘tgan darsda olgan bilimlarini «Zinama-zina» uslubidan foydalangan holda sinab ko‘rish mumkin. Bunda o‘qituvchi proyektor yordamida ekranga quyida keltirilgan «Zinama-zina» o‘yining chizmasini chiqaradi (yoki vatman qog‘ozga chizilgan shaklini sinf taxtasiga ilib qo‘yadi) hamda ixtiyoriy ravishda 5 nafar o‘quvchi taklif etiladi. O‘quvchilarga o‘yin qoidalari tushuntiriladi: har bir o‘quvchiga ketma-ketlik asosida bittadan, jami beshta tezkor savol beriladi. O‘quvchilarning javob berish muddati 10 soniyadan oshmasligi lozim. Har bir to‘g‘ri javob o‘quvchining zinalardan bir qadam oldinga siljishiga yordam beradi. Berilgan savolga noto‘g‘ri javob bergan o‘quvchi o‘zi egallab turgan zinada qoladi.

1. Orolbo‘yi mintaqasida vujudga kelgan og‘ir ekologik vaziyatda, ayniqsa, qaysi shaharlar aholisi ko‘p aziyat chekdi? (*Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot, Chimboy*)



OFARIN



2. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika qishloq xo'jaligida qancha pestitsid qo'llanilgan? (*90 000 tonna*)
3. Paxta dalalarining kimyoviy moddalar bilan zaharlanishida ko'p tadbirlar qanday texnikada amalga oshirildi? (*Samolyot*)
4. O'zbekistonda g'o'zani defoliat-siya qilish (bargini to'kish) uchun 20 yil davomida ishlatilgan kimyoviy modda nomi nima? (*Butifos*)
5. O'zbekiston paxta dalalarida butifosdan foydalanish qachon taqiqlandi? (*1981-yil*)
6. Bugungi kunda Orol necha qismga bo'lingan? (*uchta*)
7. «Markaziy Osiyoning hududi bo'ylab sug'orish tizimlarini jadal sur'atda qurish ko'plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko'lamdagi fojia – Orol halok bo'lishining sababiga ham aylan-di». Ushbu gap kimga tegishli? (*Islom Karimov*)
8. Orol dengizi hududi qaysi davlatlar chegarasiga to'g'ri keladi? (*O'zbekiston va Qozog'iston*)

9. Qaysi davrda qabul qilingan SSSRning yangi Konstitutsiyasi milliy respublikalar huquqini rasmiy chekladi va Markazga keng vakolatlar olib berdi? (*1977-yil 7-oktyabrda*)
10. Orolbo'yida qaysi sohalar 1980–1985-yillarda har yili 30 mln rubldan ortiqroq zarar ko'rdi? (*Paxtachilik va chorvachilik*)

...


...

...

Ta'limiy o'yin nihoyasiga yetgach, o'quvchilar o'zlari ko'rsatgan natijalariga muvofiq baholanadilar.

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (11 daqiqa).

O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Boshqotirma» uslubidan foydalanishi mumkin. Bunda, avvalo, quyida keltirilgan boshqotirma kompyuter va proyektor yordamida ekranga chiqariladi (yoki vatman qog'ozga chizilgan shakli sinf taxtasiga ilib qo'yiladi). O'quvchilarga har bir boshqotirmada o'tgan darsda o'rganilgan mavzuga oid biron-bir



tushuncha yashiringanligi, agar har bir boshqotirmada berilgan soʻzning birinchi aylanasi toʻgʻri topa olishsa, undan oʻtkazilgan chiziq orqali harakatlangan holda undagi tushunchalarning nomini bilib olishlari mumkinligi aytiladi. Berilgan boshqotirmadagi barcha tushunchalarni aniqlab, savol matnida (javobda emas) ushbu tushunchalarni qatnashtirgan holda birinchilardan boʻlib yozma ravishda beshta qiziqarli savol tuza olgan besh nafar oʻquvchi ragʻbat kartochkalari asosida baholanishi taʼkidlanadi. Ushbu besh nafar oʻquvchi oʻzi bajargan topshiriqni oʻqituvchiga tekshirtirib boʻlgach, qolgan oʻquvchilar topshiriqni bajarishni toʻxtatadilar. Topshiriqni birinchi boʻlib bajargan oʻquvchi esa oʻzi tuzgan 3 ta savolni oʻqiy boshlaydi va qolgan oʻquvchilar mazkur savollarga javob beradilar.

Boshqotirmada quyidagi tushunchalar yashiringan: namoyish, Toshkent, millatlar, oʻzbeklar, inqiroz.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (5 daqiqa).

Oʻqituvchi guruhlarning oʻyindagi ishtirokini xulosalaydi va oʻquvchilarni keyingi darslarda yanada faolroq boʻlishga undaydi. Dars davomida oʻquvchilarga berib borilgan ragʻbat kartochkalarini yigʻib olish asnosida ularni sinf jurnaliga baholaydi. Oʻquvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi.

VI. UYGA VAZIFA BERISH (2 daqiqa).

Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish; Mustaqil ish uchun berilgan topshiriqni bajarish; bugungi oʻrganilgan mavzuga oid qiziqarli va oʻziga xos beshta savol yozilgan savollar kartochkasini tayyorlab kelish.



QO'SHIMCHA MANBALAR BILAN ISHLASH UCHUN MA'LUMOT

FARG'ONA FOJIALARI

1944-yil 14-noyabrda mesxeti turk millatiga mansub bo'lgan fuqarolarning o'z turar joylaridan O'rta Osiyoga ko'chirilishi haqida farmon chiqarildi. Mesxeti turk xalqining katta guruhlaridan biri Farg'ona viloyatiga joylashtirilgan edi. Ularning eng yirik mahalliy guruhlari viloyatning Quvasoy shahrida, shuningdek, Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon shaharlarida, Toshloq, Komsomol shaharchasida, Kirguli, Oxunboboyev tumanining bir qancha qishloqlarida (sobiq Marg'ilon), Quva, Rishton, Farg'ona rayonlarida yashar edilar.

1989-yilda Farg'ona viloyatida mesxeti turklarining soni 17 mingni tashkil etgan. Toshkent viloyatida 43,2 ming kishi bo'lgan.

«Farg'ona fojiasi» deb atalgan mud-hish voqealar 1989-yilning 3–12-iyun

kunlari bo'lib o'tdi. 1989-yil 23-iyunda Farg'ona viloyatida bo'lib o'tgan fojiali voqealar sabablarini o'rganuvchi Komissiya xulosasiga ko'ra:

- 103 kishi halok bo'ldi, shundan 52 kishi mesxeti turk, 36 kishi o'zbeklar;
- 1 011 kishi mayib bo'ldi va jarohatlandi;
- 757 ta uy yondirildi;
- 27 ta davlat muassasasiga shikast yetkazildi;
- 275 ta avtotransportga o't qo'yildi.

...1985-yilning 1-yanvaridagi ma'lumot bo'yicha, Andijon viloyatida 1 kv. km maydonga 370 kishi, Farg'onada – 273,7, Namanganda – 164,9 kishi to'g'ri keldi.

O.Bozorovning «1989-yildagi Farg'ona fojiasi: uning sabab va oqibatlarini» kitobidan.

«PAXTA ISHI» VA UNING OQIBATLARI

1983-yilning oxirida O'zbekistonda juda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Respublikada jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida SSSR Bosh prokurori huzurida alohida muhim ishlar bo'yicha maxsus 12 kishilik tergovchilar guruhi tuzilib, O'zSSRga yuboriladi. Ular O'zSSRda paxta tayyorlash va uni qayta ishlash bilan bog'liq jarayonlardagi «qo'shib yozish», «o'g'irlik», «ko'zbo'yamachilik», «poraxo'rlik»ni (aslida bunday moliyaviy jinoyatlar va qing'irliklar butun SSSR hududidagi iqtisodiyotda chuqur ildiz otib kelgan edi)

tergov qilish bilan shug'ullandilar. Buning natijasida «paxta ishi» paydo bo'ldi. Tergovlar jarayonida Moskvadan yuborilgan T.Gdlyan va N.Ivanov guruhining faoliyati natijasida respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va sovxoz direktorlarining 60%, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxassislarining 45%, paxtachilik brigada boshliqlarining 35%, shuningdek, ko'plab rahbarlar, viloyatlar va tumanlar partiya komiteti kotiblari, respublika miqyosidagi partiya, sovet va xo'jalik rahbarlari o'z vazifalaridan olib tashlandi va ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi.

O'zSSRning ijtimoiy-siyosiy hayotida 1984-yil 23-iyunda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi MK XVI plenumi mash'um rol o'ynagan. Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashkil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar O'zSSRda o'zbek xalqini asossiz badnom etish kampaniyasini boshlab berdi. Markazning tazyiqi ostida 1984-yildan O'zbekistondagi rahbarlik lavozimlariga sobiq Ittifoqning har xil joylaridan «kadrlar desanti» kela boshladi. 1984–1987-yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy – xo'jalik organlariga ishga yuborilgan. Xususan, 1984–1989-yillarda O'zSSR Ichki ishlar ministrligiga sobiq sovetlar mamlakatidan hammasi bo'lib 150 nafar xodim kelgan. Yillar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 1984-yilda 5 ta, 1985-yilda 33 ta, 1986-yilda 86 ta, 1987-yilda 27 ta, 1988-yilda 2 ta, 1989-yilda 3 ta.

Respublikada kadrlarni almashtirish siyosati ayanchli tus oldi. Markaziy matbuotda e'lon qilingan maqolalarda o'zbek xalqi badnom etilib, «paxta ishi»ga ataylab siyosiy tus berildi va u keyinroq atay «o'zbek ishi»ga aylantirilib, xalqimizning nafsoniyatini toptash yo'liga o'tildi. 1983–1990-yillarda O'zSSRda «paxta ishi» degan uydirma bo'yicha jami 40 ming kishi tergov qilindi, ularning aksariyati tergov izolyatorlarida prokuror sanksiyasiz o'tirdi, 5 ming kishi esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi.

«Paxta ishi» oqibatda butun mamlakatimizda parokandalik, loqaydlik, umidsizlik va ishonchsizlik kayfiyati chuqurlashdi. O'zbekiston fuqarolari o'z haq-huquqlarini himoya qilishlarini so'rab tuman, viloyat va respublika partiya va sovet organlariga murojaat qildilar.

1986–1987-yillarda faqat O'zbekiston Kompartiyasi MQga fuqarolardan 50 mingdan ortiq xat va shikoyatlar tushdi. 20 mingdan ortiq kishi Markazqo'm kotib-lari va bo'lim boshliqlari qabulida bo'lib, o'zlarining talablarini bildirdilar.

Norozilik, ayniqsa, xotin-qizlar orasida ko'paydi. 1986–1987-yillarda respublikada 270 ayol o'zini-o'zi yondirib yubordi. Bu holat ularning sha'ni, qadr-qiymatining toptalishi, haq-huquqlarining buzilishiga nisbatan ko'rsatilgan norozilik edi. Haqiqat, adolat keyinroq Islom Karimov O'zbekiston rahbari bo'lgach ro'yobga chiqdi. Islom Karimov tashabbusi bilan «Paxta ishi»ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi afv etildi.

*R.Shamsutdinovning
«Vatan tarixi» (3-jild) kitobidan.*





O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIK VA MUSTAQILLIK SARI INTILISHNING KUCHAYISHI

DARSNING MAQSADI:

- o'quvchilarga O'zbekistonning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, bu yo'lda Islom Karimovning faoliyati haqida ma'lumot berish;
- O'zbekiston SSR siyosiy rahbariyatidagi yangi o'zgarishlar, O'zbekistonda tashkil topgan dastlabki demokratik partiyalar, ularning faoliyati, kamchilik va yutuqlari hamda mustaqil davlatchilikdagi o'rnini tushuntirib berish;
- Mustaqillik Deklaratsiyasi va O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi haqida bilim berish;
- voqealarni tahlil qilishga o'rgatish.

I. TASHKILIY QISM (2 daqiqa).

2-darsga qarang.

II. UY VAZIFASINI TAKRORLASH

(11 daqiqa).

Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartochkalar yordamida amalga oshiriladi.

1-guruhga: Qayta qurish va uning bosqichlari haqida gapirib bering.

2-guruhga: XX asrning 80-yillari oxirida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?

3-guruhga: Qayta qurish siyosatining barbod bo'lish sabablarini sanab bering.

4-guruhga: Farg'ona fojialarining boshlanishi, sabablari va oqibatlari haqida gapirib bering.

5-kartochka: O'sh va O'zgan voqealari haqida nimalarni bilasiz?

6-kartochka: O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi masalasidagi fikrlaringizni yozing.

III. YANGI DARS MAVZUSINI RO'YOBGA CHIQRARISH USTIDA ISHLASH (15 daqiqa).

«Guruh ishi». O'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi va ularga topshiriqlar beriladi. Har bir guruh o'z topshirig'ini darslikdan foydalangan holda vatmanga yozadi.

1-guruhga: O'zbekiston SSR siyosiy rahbariyatidagi yangi o'zgarishlar haqida gapirib bering.

2-guruhga: O'zbekistonda tashkil topgan dastlabki demokratik partiyalar haqida nimalar bilasiz?

3-guruhga: Prezidentlik va Vitse-Prezidentlik lavozimlarining joriy etilishi bo'yicha nimalarni bilib oldingiz?

4-guruhga: Yangi Ittifoq shartnomasi nima? U nima sababdan imzolanmadi?

5-guruhga: O'zbekiston Mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun qabul qilinishi haqida ma'lumot to'plang.

6-guruhga: Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi va uning mohiyatini tushuntirib bering.

Guruh sardorlari doskaga vatmanlarni osib, javoblarni izohlab berishadi. Javoblar o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi va aniqliklar kiritiladi.

Darslik matni bilan ishlash jarayonida quyidagi topshiriq ham berilishi mumkin:

Prezidentlik boshqaruvining paydo bo'lishi va taraqqiyoti bosqichlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring:

Prezidentlik	Bosqichlari	Davri	Xususiyatlari

IV. O'RGANILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (11 daqiqa).

O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «Kichik guruhlarda ishlash» uslubidan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi. Ularning har biriga quyidagi topshiriqlar beriladi.

1-guruhga: Matndagi barcha sanalarni ajrating. Ular bilan bog'liq tarixiy voqealarni izchillikda yozib chiqing.

2-guruhga: Matndagi barcha tarixiy tushunchalar nomlarini ajrating. Ularning O'zbekiston tarixidagi ahamiyatini aniqlang.

3-guruhga: Mavzu matnidagi atama va tushunchalarni yozing hamda ularni darslik matnidan kelib chiqib, qisqacha izohlang.

4-guruhga: Mavzudagi me'yoriy hujjatlar nomlarini aniqlang. Ularning qaysi tarixiy voqealar bilan bog'liqligini yozing.

O'quvchilar darslikdan foydalangan holda quyidagilarni aniqlashlari va ularga qisqacha izoh berishlari mumkin:

Guruhlar topshiriqni bajarib bo'lishgach, ketma-ketlik asosida har bir guruh o'ziga berilgan topshiriq javobini o'qiydi hamda unga qisqacha izoh beradi. Agar o'ziga berilgan topshiriqni o'qib berish va izohlash jarayonida guruhdagi barcha o'quvchilar faol qatnashsa, ushbu guruhga qo'shimcha rag'bat bali beriladi. Bir guruh javobini ikkinchi bir guruh to'ldirishi, aniqliklar kiritishi mumkin. O'yin nihoyasiga yetgach, guruhlar o'z javoblarining sifati va guruh o'quvchilarining faolligiga qarab baholanadi.

V. DARS YAKUNLARINI CHIQA-RISH (3 daqiqa).

O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish; baholarni e'lon qilish.

VI. UYGA VAZIFA (2 daqiqa).

Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar javobini qisqacha daftarga yozish; mavzuga oid 5 tadan javobi belgilanadigan test tuzib kelish.

1-guruh Tarixiy sanalar	2-guruh Tarixiy shaxslar	3-guruh Tarixiy atama va tushunchalar	4-guruh Me'yoriy hujjatlar
1989-yil 23-iyun 1989-1990 1990-yil mart- oktyabr 1988-yil noyabr 1990-yil 30-aprel 1990-yil 24-mart 1990-yil 12-15-mart 1990-yil 1-noyabr 1990-yil 20-iyun 1991-yil 29-dekabr 1991-yil 17-mart 1991-yil 25-dekabr	Islom Karimov, Mixail Gorba- chyov, Gennadiy Yanayev, Boris Yelsin, Muhammad Solih, Abdurahim Po'latov, Shukurulla Mir- saidov, Mirahmad Mirqo- simov	Prezident Vitse-Prezident Referendum Partiya Ittifoq Deklaratsiya «To'maris» GKCHP Muxolif Suvirenitet Ittifoq	«O'zbekiston Respublikasi- ning Davlat Mustaqilligi asos- lari to'g'risida» Qonun, «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risida shartnoma», «9+1», «Mamlakatdagi ahvolni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida qo'shma bayonot», Mustaqillik Deklaratsiyasi, «O'zbekiston SSR Konsti- tutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Qonun



MUSTAQILLIK DEKLARATSIYASI

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Soveti:

- o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari,
- har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi,
- har bir kishining farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb bilgan holda,
- O'zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda,
- xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib,

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qiladi.

1. O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.

2. O'zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas.

3. O'zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir.

4. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlanganidan keyin-

gina O'zbekiston SSR hududida kuchga ega bo'ladi.

5. O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.

6. O'zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi.

7. O'zbekiston SSR ittifoqdosh respublikalar va boshqa davlatlar bilan o'zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilaydi va amalga oshiradi.

8. O'zbekiston SSR o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'xis etadi.

9. Qoraqalpog'iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi mustaqilligini Muxtor Respublika Konstitutsiyasi ta'min etadi. O'zbekiston SSR uning Asosiy Qonuni va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi asosida Qoraqalpog'iston MSSR manfaatlarini himoya qiladi.

10. O'zbekiston SSRning qonun chiqaruvchi hokimiyati O'zbekiston SSR davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlarni ishlab chiqadi. O'zbekiston SSRning siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishini belgilaydi.

11. O'zbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi, O'zbekiston SSRda yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy

huquqlariga hamda ona tillari rivojlantirishiga kafillik beradi.

12. Ushbu Deklaratsiya O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini hamda

yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilindi. Toshkent shahri, 1990-yil 20-iyun.

<i>O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining raislari</i>				
1	F. Xo'jayev (1925–1937)	A. Karimov (1937)	S. Segizboyev (1937–1938)	A. Abdurahmonov (1938–1946)
<i>O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining raislari</i>				
1	A. Abdurahmonov (1946–1950)	A. Mavlonov (1950–1951)	N. Muhitdinov (1951–1953; 1954–1955)	U. Yusupov (1953–1954)
2	S. Kamolov (1955–1957)	M. Mirzaahmedov (1957–1959)	O. Alimov (1959–1961)	R. Qurbonov (1961–1971)
3	N. Xudoyberdiyev (1971–1984)	G'. Qodirov (1984–1989)	M. Mirqosimov (1989–1990)	
<i>O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining raisi:</i>				
1	I. A. Karimov 1990-yil 1-noyabrdan			
<i>O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotiblari</i>				
1	V. Ivanov (1925–1927)	N. Gikalo (1927–1929)	A. Ikromov (1929–1937)	U. Yusupov (1937–1950)
2	A. Niyozov (1950–1955)	N. Muhitdinov (1955–1957)	S. Kamolov (1957–1959)	Sh. Rashidov (1959–1983)
3	I. Usmonxo'jayev (1983–1988)	R. Nishonov (1988–1989)	I. A. Karimov (1989–1991)	
<i>O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi</i>				
1	Y. Oxunboboyev (1925–1937)			
<i>O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raislari</i>				
1	Y. Oxunboboyev (1937–1943)	A. Mo'minov (1943–1947)	A. Niyozov (1947–1950)	Sh. Rashidov (1950–1959)
2	Y. Nasriddinova (1959–1970)	N. Matchonov (1970–1978)	I. Usmonxo'jayev (1978–1983)	O. Salimov (1983–1986)
3	R. Nishonov (1986–1988)	P. Habibullayev (1988–1989)	M. Ibrohimov (1989–1991)	
<i>O'zbekiston SSR Oliy Soveti raisi</i>				
1	Sh. Yo'ldoshev (1991-yil 12-iyundan)			

Q. Rajabov, B. Qandov, S. Rajabovalarning «O'zbekiston tarixining muhim sanalari» kitobidan.



Kirish.....	3
Tarix darslarining samaradorligini oshirishda tarixiy faktlarni tanlash va ulardan foydalanishga bo'lgan talablar	5
O'zbekiston tarixini o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi	7
Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol	15
Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi	26
Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylanishi.....	31
Turkiston o'lkasida siyosiy-ma'muriy boshqaruv tizimi (1867–1917-yillar)	57
Turkistonda Rossiya imperiyasiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari.....	72
Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta'siri.....	82
Turkistonda 1916-yilgi qo'zg'olonning boshlanishi	85
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi	90
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar turmush tarzi va madaniyati	115
Turkistonda jadidchilik harakati	119
Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati.....	122
Turkistonda ilm-fan va madaniyat.....	133
Turkiston o'lkasi 1917-yil fevral-oktyabr oralig'ida	142
Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi.....	145
Xiva xonligining tugatilishi.....	148
Turkiston Muxtoriyati	154
Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati boshqaruv tizimining o'rnatilishi	160
Turkiston ASSR, BXSr va XXSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar....	163
O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish	170
O'zbekiston SSRning tashkil topishi.....	173
Sovet hokimiyati amalga oshirgan islohotlarning mohiyati. Industrlashtirish siyosati va uning natijalari	175
O'zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat.....	180
Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi qatag'on siyosati	186
O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida	191
O'zbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari.....	195
O'zbekiston fani va madaniyati g'alaba uchun xizmatda	201
O'zbekiston xalq xo'jaligining urushdan keyingi yillardagi rivojlanishi	205
1980–1990-yillarda O'zbekiston	214
O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy faollik va mustaqillik sari intilishning kuchayishi.....	219

Akbar Turg'unovich Zamonov,
Nargiza Kamaritdinovna Ismatova,
Zokir Turg'inovich Zamonov,
Nilufar Shuhrat qizi Qudratova

O'ZBEKISTON TARIXI

(XIX ASR IKKINCHI YARMIDAN – XX ASR OXIRIGACHA)

10-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma
(xrestomatiya)

Muharrir B. Azimov
Texnik muharrir M. Olimbekova
Musahhah T. Mahmudova

Bosishga ruxsat etildi: 24.11.2022. Bichimi 60x84^{1/8}.
«Arial» garniturasida, ofset usulida chop etildi.
Bosma tabog'i 28,0. Shartli bosma tabog'i 26,04.
Adadi
Buyurtma